Tahlil va natijalar. Namangan viloyatidagi past tog'lar, adirlar hamda konussimon yoyilmalarning yuqori va o'rta qismlarini sug'orma dehqonchilikka tortilishi relyef jihatdan quyida joylashgan, tabiiy drenaj holati yaxshi bo'lmagan hududlarning tuproq-ekologik sharoitini salbiy tomonga o'zgarishiga olib kelmoqda. Viloyatda o'tkazib borilayotgan tuproqlarning bonitet balini baholash natijalari ushbu salbiy jarayon kengayib borayotganligini ko'rsatmoqda [3; 178-181-b.]. Shuning uchun yerlarni baholashda, landshaftning bir butunlik qonuniyatiga amal qilgan holda, tuproqning ishlab chiqarish quvvati (bonitet bali) bilan birga, uning boshqa, quyi pog'onada joylashgan hududlarga ko'rsatadigan ta'siri kadastr-baholash ishlarida e'tiborga olinishi lozim. Bunda hududning qaysi qismini qanday yer toifasi va yer turi uchun ajratish maqsadga muvofiq ekanligi oydinlashadi.

Yer resurslaridan oqilona foydalanishga ta'sir etuvchi omillar bevosita «barqaror rivojlanish» kontseptsiyasidagi g'oyalar bilan uyg'un. Bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni tahlil qilar ekan, Y. Axmadaliyev [2] quyidagi tamoyillarga alohida e'tibor qaratilishi zarurligini qayd etadi [3; 162 b.]:

qishloq xo'jaligini intensivlashtirishda (irrigatsiya, mexanizatsiya, kimyolashtirish) hududning tabiiy sharoitini hisobga olish, intensivlashtirishni mahalliy sharoitga moslashtirish;

xususiy qishloq xo'jaligi antropogen bosimi miqdorining ortib ketishiga sabab bo'layotgan intensivlashtirishga ko'rsatkichlarini me'yoralashtirishda faqatgina iqtisodiy, texnik, tashkiliy mezonlarni emas, balki ularning ijtimoiy-ekologik asoslarini yaratish va QXAB miqdorini me'yoralashtirish;

yer fondini yer toifalari bo'yicha taqsimlashda «ekologik tayanch» vazifasini bajaruvchi hududlar salmog'ini ko'paytirish, ularning daryo havzalarini yuqori qismlarida joylashtirish;

Yer resurslarining mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun beqiyos ahamiyatga ega ekanligini hisobga olib, bu sohada har bir qadam, hatto amalga oshirilishi mumkin bo'lgan taklif har tomonlama puxta o'ylangan, oqibatlarini tahlil qilingan bo'lishi lozim. Aks holda, butun mamlakat

iqtisodiyotida, jamiyat hayotida salbiy o'zgarishlar kelib chiqishi muqarrar. Shundan kelib chiqib, yerdan foydalanishni oqilona tashkil etish bo'yicha beriladigan takliflar boshqa ijtimoiy, iqtisodiy talablarga mos tushishi bilan birga, mazkur tadqiqotda ilgari surilgan ikkita talab - mezoniga javob berishi kerak.

Birinchidan, yer resurslaridan foydalanish jarayonida yuz beradigan o'zgarishlar ekologik jihatdan xavfsiz bo'lishi lozim. Bu o'zgarishlar natijasida yer resurslarining tabiiy landshaft tarkibi tiklab bo'lmas darajada o'zgarib ketmasligi, landshaft xilma-xilligini saqlab qolish, yerga tushadigan antropogen bosim miqdori (ayniqsa qishloq xo'jaligi antropogen bosim turlari) imkon darajasida kamaytirilishi, bu o'zgarishlar landshaft imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanishi maqsadga muvofiq. Chunki, tuproq-ekologik holat ko'rsatkichlarini ijobiy tomonga o'zgarishiga erishish ekologik xavfsizlikni ta'minlashning asosiy shartlaridan biridir.

Ikkinchidan, yer resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha berilayotgan takliflar yerlarning tabiiy landshaft tarkibiga mos tushishi, tabiiy jarayonlarning borishini salbiy tomonga o'zgarishiga shart-sharoit yaratmasligi kerak. Yer resurslarining tabiiy imkoniyatlarini belgilovchi iqlimiy, orografik, gidrogeologik va tuproq ko'rsatkichlari yerdan foydalanishning qanday turiga mos kelishiga qarab, takliflar ishlab chiqilishi zarur.

Yer resurslarining landshaft-ekologik holatini takomillashtirish bo'yicha berilayotgan takliflar yuqoridagi mezonlarni hisobga olgan 3 ta darajada: birinchi darajada yer fondi tarkibini, ikkinchi darajada asosiy yer turlari tarkibini, uchinchi darajada ekin maydonlari tarkibini takomillashtirish yo'nalishida ishlab chiqildi.

Shundan kelib chiqib, istiqboldagi yer tuzish ishlarida viloyat hududining ekologik-xo'jalik holatini takomillashtirish maqsadida landshaftlarning tabiiy himoyalanganlik ko'rsatkichlarini, hozirdagi o'zgarish darajasini («ekologik gemogen guruhlar») hisobga olib, tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu tavsiyalar yuqorida ajratilgan landshaft turlari bo'yicha yerdan foydalanish jarayonini takomillashtirish yo'nalishlarini belgilab beradi. Bu yo'nalishlar yerdan foydalanish jarayonini boshqarishda a) Yer fondi toifalarini, b) qishloq hujaligi yer turlarini, v) ekin maydonlari tarkibini hududiy jihatlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ko'rinishida ishlab chiqildi. Tavsiyalar Namangan viloyatida mavjud bo'lgan asosiy landshaft turlari bo'yicha ma'muriy tumanlar kesimida berildi.

I. Past tog'lar hududi landshaftlarida yer fondining ekologik-xo'jalik holatini takomillashtirish uchun yer fondi toifalari tarkibi bo'yicha quyidagi takliflarni berish o'rinni bo'ladi:

Landshaftning tabiiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, yer fondi birinchi navbatda zahira, o'rmon fondi, tabiatni muhofaza qilish bilan band yerlar salmog'ini saqlab qolish maqsadga muvofiq. Faqatgina kelajakda ham «ekologik tayanch» funksiyasini bajaruvchi yer toifalari va turlari salmog'ini kengaytirish lozim. Ayni vaqtda hududda tabiatni muhofaza qilish, rekreatsiya va suv fondi yerlari miqdorini kengaytirish orqali butun viloyat bo'yicha suv ta'minotini hamda tuproq-ekologik holatni yaxshilash mumkin. Ta'kidlash joizki, tarixda ham bu hududlardan shu maqsadlarda foydalanilgan. Biroq, jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, mazkur hududlarda rekreatsiya va turizm maqsadlariga ajratiladigan yerlar miqdorini ham ko'paytirish mumkin. CHodak, G'ova, Parda Tursun, Kosonsoy, CHortoq, Nanay, Baliqli ko'l, SHaxand hududlarida mavjud rekreatsiya va turizm, sanatoriya-kurort zonalarini hamda ekologik muhofaza hududlarini yanada kengaytirib borish zarur.

Qishloq xo'jalik antropogen bosim (QXAB) miqdorining nisbatan pastligi bu landshaft zonasida qishloq xo'jaligi yer turlaridan ko'p yillik daraxtzorlar maydonini kengaytirishga tavsiya berish uchun asos bo'ladi. Biroq, bu tavsiyalarni amalga oshirishda hududning tuproq-ekologik holatini o'zgarishiga alohida e'tibor berish, agrotexnik talablarga qat'iy amal qilish ta'kidlanadi. Dorivor o'simliklar yetishtirish bilan shug'ullanuvchi o'rmon xo'jaligi tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash, yer maydonlarini kengaytirib borish tavsiya etiladi.

Ekin maydonlari tarkibini kartoshka va boshqa ildiz mevali ekinlar, dorivor o'simliklar yetishtiriladigan maydonlarni kengaytirish landshaft tabiiy imkoniyatidan foydalanish unumdorligini yanada oshirishi mumkin.

II. Tog' oldi prolyuvial tekisliklari landshaftlarida tabiiy imkoniyat ko'rsatkichining pastroq bo'lishiga agroiklim ko'rsatkichining pastligi, ichki konus yoyilmalarining chekka qismlarida gidrogeologik sharoitning noqulayligi sababdir. Binobarin, istiqbolda bu holat e'tiborga olinishi tavsiya etiladi. Bu yerda tabiiy landshaft tarkibining o'zgarish darajasi Yangiqo'rg'on tumani misolida olib o'rganilsa, 3,36 ga teng bo'lib, tekislik hududlar 100 foiz o'zlashtirilgan. Yer fondidan sanoat, transport, aloqa va aholi manzilgohlari uchun yer ajratib berishda imkon qadar tabiiy imkoniyatlar past bo'lgan hududlaridan kengroq foydalanish lozim.

Qishloq xo'jalik antropogen bosim ko'rsatkichi yuqoriligi va tuproq-ekologik holatining salbiy tomonga o'zgarishi qishloq xo'jaligi yer turlari salmog'ini belgilashda hisobga olinishi kerak. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bu hududda sug'oriladigan haydov yerlar salmog'ini kamaytirish, uning o'rniga ko'p yillik daraxtzorlar maydonini 28% dan 45-50% ko'tarish tavsiya etiladi. *Ekin maydonlari* tarkibida yem-xashak ekinlari va donli ekinlar maydonini kengaytirish, mavjud imkoniyatlardan to'laroq foydalanishga zamin yaratadi. Bundan tashqari, ichki konussimon yoyilmalarning yuqori qismlarida danakli bog'lar maydonini kengaytirish butun hududda gidrogeologik sharoitni yaxshilaydi.

III. Adirlar landshafti bo'yicha tumanlar miqyosida yaxlit statistika yuritish imkoniyati yo'q bo'lsada, yuqorida takidlanganidek, ma'lumotlarni eng ko'p maydoni adirlar bo'lgan CHust tumani misolida ko'rish mumkin. Bu hududning tabiiy landshaft tarkibini o'zgaranganlik holati past darajasini hozirgi holda saqlab qolish tavsiya etiladi. Bu landshaftlarda yer fondining katta qismi yaylovlardan iborat bo'lsa-da, yer fondi tarkibida sug'oriladigan (nasos yordamida) yerlar salmog'i ortib borishi, u qadar maqsadga muvofiq emas. Tabiiy imkoniyatdan kelib chiqib, bu hududlarda tabiatni muhofaza qilish, rekreatsiya maqsadida foydalaniladigan yerlar salmog'ini kengaytirib borish lozim.

Qishloq xo'jaligi yer turlari tarkibida yaylov va butazorlar salmog'i yuqori, kelajakda mevali bog'lar salmog'ining ortib borishi istiqboldir. Tabiiy-agrar imkoniyat ko'rsatkichining pastligi bu hududlarni «ekologik tayanch» hudud sifatida saqlashga asos bo'ladi. Bundan tashqari, bu hududlarni qishloq xo'jaligi antropogen bosim turlariga chidamsizligi ularni ishlab chiqarishga jalb etishda alohida e'tibor beriladigan holdir.

IV. Konus yoyilmalarining prolyuvial-allyuvial tekisliklari tabiiy imkoniyati eng yuqori bo'lgan hudud hisoblanadi. Bu landshaftlar zonasida yer fondi Uchqo'rg'on tumani misolida o'rganildi. Bu zonada «urbanizatsiyalashgan» (9,85) va sug'oriladigan ekin yerlar salmog'i (73,6%) viloyatda eng yuqori hisoblanadi. Mazkur landshaftlarda «ekologik tayanch» (1,3%) yerlar toifasiga kiruvchi tabiatni muhofaza qilish, rekreatsiya, sport-sog'lomlashtirish sohasida foydalaniladigan yerlar miqdorini kengaytirib borish lozim. Intensiv foydalanish darajasining yuqoriligi, qishloq xo'jaligi antropogen bosim ko'rsatkichi bo'yicha viloyatda eng yuqori natijaga ega ekanligi, tuproq-ekologik holatni salbiy tomonga o'zgarishi qishloq xo'jaligi yer turlari tarkibida tabiiy qoplamli hududlarni kengaytirish haqida tavsiyalar berishga asos bo'ladi.

Hududning hozirdagi *ekin maydonlari tarkibi* tabiiy landshaft imkoniyatidan to'la foydalanilishi uchun yetarli. Bu tarkibni shu holatda saqlab turish mavjud agroimkoniyatdan to'laroq foydalanish nuqtai nazaridan maqsadga muvofiqdir.

V. Allyuvial tekisliklarni viloyatning Mingbuloq tumani misolida tahlil qilish mumkin. Hudud tabiiy landshaftlar tarkibining o'zgarish koeffitsienti 3,28 ga teng bo'lib, bu vodiydagi tabiiy qoplamlar eng ko'p saqlanib qolgan rayon ekanligini bildiradi. Bu rayon hududida vodiydagi yerdan foydalanish darajasi eng past, intensiv foydalanish holatini yaxshilash imkoniyati mavjud bo'lgan tumanlar joylashgan.

Rayon yer fondi birinchi navbatda zahira, o'rmon fondi, tabiatni muhofaza qilish, sanoat, transport va aholi qo'rg'onlari bilan band yerlarga ajratilishi lozim. Ayniqsa, oxirgi 3ta toifadagi yerlar salmog'ini kengaytirish jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlariga mos tushadi.

Tabiiy landshaft komponentlarini inson tomonidan boshqarilish imkoniyati kam bo'lgan iqlim agrar imkoniyatining kattaligi, qishloq xo'jalik antropogen bosim (QXAB) miqdorining nisbatan pastligi rayonda qishloq xo'jaligi yer turlaridan haydov yerlar, tomorqalar hamda ko'p yillik daraxtzorlar maydonini kengaytirishga tavsiya berish uchun asos bo'ladi. Biroq, bu tavsiyalarni amalga oshirishda hududning tuproq-ekologik holatini o'zgarishiga alohida e'tibor berish, agrotexnik talablarga qat'iy amal qilish ta'kidlanadi. Bunday ta'kid hududning murakkab gidrogeologik sharoiti bilan bog'liqdir.

Xulosa va takliflar. Viloyat ma'muriy tumanlari yer fondini ekologik-xo'jalik jihatdan zo'riqish darajasiga ko'ra 3 ta guruhga ajratildi. Birinchi guruhga zo'riqish darajasi juda past bo'lgan tumanlar, ikkinchi guruhga o'rtacha, uchinchi guruhga juda yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan ma'muriy tumanlar kiritildi. Har bir guruhdagi tumanlar maydonini hisoblab chiqilib, viloyat hududining ekologik-xo'jalik jihatdan zo'riqish darajasini o'zgarishiga umumiy baho berildi.

Namangan viloyati yer resurslarini ekologik-xo‘jalik holatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari landshaft birliklari doirasida a) landshaftlarning tabiiy tarkibini optimallashtirish b) antropogen yuk miqdorini me‘yorlashtirish v) nisbiy ekologik zo‘riqish koeffitsientini kamaytirish bo‘yicha ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR

1. Alimdjanov N.N. Yer resurslarining meliorativ holatini yaxshilashning ekologik geografik jixatlari // O‘zMU xabarlari. – Toshkent, 2021. - №3/1/1 Tabiiy fanlar. B-178-181
2. Ahmadaliyev Y.I., Alimdjanov N.N. Hududlarni barqaror rivojlanishida yerdan foydalanishning o‘rmi va axamiyati// O‘zbekiston geografiya jamiyati axboroti. –Toshkent, № 56. 2019.- B.51-56
3. Ahmadaliyev Y.I. Yer resurslaridan foydalanish geoekologiyasi. Monografiya -T.: «Fan va texnologiyalar» nashriyoti, 2014. -158 b
4. Alimdjanov N.N.Agrokimyoviy ifloslanishning oldini olishning landshaft-ekologik asoslari // O‘zbekiston ekologiya xabarnomasi. Toshkent. 2021 yil fevral, № 2 (233) B-21-23
5. Azimboyev S.A. Dehqonchilik, tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari // Darslik. Toshkent “Iqtisod-moliya”, 2006. – 155 b.



UDK: 911.2

Bezod AMINOV,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: aminovbezod@gmail.com
Shoira BEKMETOVA,
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

UrDU dotsenti, g.f.n I. Atajanov taqrizi asosida

IMPACT OF CLIMATE CHANGE ON AGRICULTURE OF KHOREZM REGION

Annotation

This article comprehensively assesses the current and future impacts of climate change on agriculture in the Khorezm region, as well as potential adaptation strategies to increase the sustainability of the regional food system. Historical weather data, climate model projections, and field studies were used to assess the impacts of climate change on key crop and livestock systems. The paper also examines how changes in temperature, precipitation and extreme events interact with other environmental and socio-economic factors to shape the region's agricultural landscape.

Key words: Khorezm region, climate change, agriculture, flora, livestock systems, pasture degradation, adaptation strategies.

ВЛИЯНИЕ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА НА СЕЛЬСКОЕ ХОЗЯЙСТВО ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

В данной статье всесторонне оценивается текущее и будущее влияние изменения климата на сельское хозяйство Хорезмской области, а также потенциальные стратегии адаптации для повышения устойчивости региональной продовольственной системы. Исторические данные о погоде, прогнозы климатических моделей и полевые исследования использовались для оценки воздействия изменения климата на ключевые системы растениеводства и животноводства. В документе также рассматривается, как изменения температуры, осадков и экстремальные явления взаимодействуют с другими экологическими и социально-экономическими факторами, формируя сельскохозяйственный ландшафт региона.

Ключевые слова: Хорезмская область, изменение климата, сельское хозяйство, флора, системы животноводства, деградация пастбищ, стратегии адаптации.

IQLIM O'ZGARISHINING XORAZM VILOYATI QISHLOQ XO'JALIGIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Ushbu maqolada iqlim o'zgarishining Xorazm viloyati qishloq xo'jaligiga bo'ladigan hozirgi va kelajakdagi ta'siri, shuningdek, mintaqaviy oziq-ovqat tizimining barqarorligini oshirish uchun potensial moslashish strategiyalari har tomonlama baholangan. Ob-havoning tarixiy ma'lumotlariga, iqlim modeli prognozlariga va iqlim o'zgarishining asosiy o'simlik va chorvachilik tizimlariga ta'sirini baholash uchun dala tadqiqotlariga asoslanildi. Maqolada, shuningdek, harorat, yog'ingarchilik va ekstremal hodisalarning o'zgarishi mintaqaning qishloq xo'jaligi landshaftini shakllantirish uchun boshqa ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan qanday ta'sir qilishini o'rganadi.

Kalit so'zlar: Xorazm viloyati, iqlim o'zgarishi, qishloq xo'jaligi, o'simliklar olami, chorvachilik tizimlari, yaylovlar degradatsiyasi, moslashuv strategiyalari.

Kirish. Xorazm viloyati respublikamiz qishloq xo'jaligida muhim o'rin tutadi. Viloyat mamlakatimizning paxta, g'alla va boshqa ekinlarning salmoqli qismini yetishtiradi. Biroq, bu viloyat iqlim o'zgarishi ta'siriga uchramoqda. Haroratning ko'tarilishi, yog'ingarchilik darajasining o'zgarishi va ekstremal ob-havo hodisalari tez-tezligi Xorazmda qishloq xo'jaligi hosildorligi va oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Bir necha yillik iqlim ma'lumotlari va iqlim modeli prognozlarini tahlil qilish Xorazm viloyati iqlimida sezilarli o'zgarishlarni boshidan kechirayotganini va bundan keyin ham davom etishini ko'rsatadi. So'nggi bir necha o'n yilliklarda o'rta yillik harorat $0,8^{\circ}\text{C}$ ga oshdi, eng yuqori isish yoz oylariga to'g'ri kelishini ko'rishimiz mumkin. Ushbu isish tendensiyasi iqlim o'zgarishining nafaqat viloyat balki mintaqadairasidagi ekologik vaziyatiga ham ta'sir qilishini ko'rsatmoqda.

Tahlil va natijalar. So'ngi davrlarda Xorazmda yog'ingarchilik darajasi ham o'zgardi. Yillik yog'ingarchilikning umumiy miqdori oldingi yillarga qaraganda kamroq ekanligini, yog'ingarchilikning asosiy qismi suv resurslariga talab yuqori bo'lgan bahor va yoz oylarida emas, balki qish oylarida tushmoqda. Yog'ingarchilikning mavsumiy taqsimotidagi bu o'zgarishlar qishloq xo'jaligi suv resurslarini boshqarish va o'simlik dunyosi uchun katta ta'sir ko'rsatmoqda. Iqlim prognozlarida ushbu tendensiyalar kelgusi o'n yilliklarda tezlashishini taxmin qilmoqda. Xorazm viloyatida XXI asrning o'rtalariga kelib, haroratning $2-4^{\circ}\text{C}$ ga oshishi kutilmoqda. Yog'ingarchilik shakllari ham o'zgarishda davom etishi prognoz qilinmoqda, prognozlar yillik yog'ingarchilikning umumiy qisqarishini, shuningdek, tez-tez va kuchli qurg'oqchilik hodisalarning sodir bo'lishini taxmin qilmoqda. Yuqori haroratlar, yog'ingarchilik rejimlarining o'zgarishi va ekstremal ob-havoning ko'payishi Xorazm viloyati qishloq xo'jaligi tizimlari uchun katta qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Ekinlar, chorvachilik va yaylovlar mahsuldorligining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi, bu esa mintaqaning oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq aholisining hayot darajasini uzoq muddatli ta'minlash uchun puxta rejalashtirish va moslashishni talab qiladi.

Xorazm viloyatida iqlim o'zgarishining o'simlik dunyosiga ta'siri. Harorat va yog'ingarchilik rejimlarining o'zgarishi Xorazm viloyatida yetishtiriladigan asosiy ekinlar, jumladan, paxta, g'alla, sabzavot mahsulotlarining hosildorligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Haroratning oshishi vegetatsiya davrining qisqarishiga va ekinlarning erta pishishiga olib keldi, bu esa umumiy hosilning pasayishiga sabab bo'lmoqda. Yog'ingarchilik shakllarining o'zgarishi suv tanqisligi muammolarini keltirib chiqardi, bu esa cheklangan suv resurslari uchun raqobatga olib keldi. Issiq kunlarning oshishi, qurg'oqchilik va suv toshqini kabi ekstremal ob-havo hodisalari ham tez-tez sodir bo'lishi qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun noqulayliklar keltirib chiqishiga sabab bo'ldi.

Masalan, haroratning isishi, yog'ingarchilik miqdorining o'zgarishi va ekstremal hodisalarning tez-tez ko'payishi ta'sirida so'nggi 20 yil ichida Xorazmda bug'doy hosildorligi o'rta 8 foizga kamaydi. Bug'doy yetishtirishning bunday qisqarishi oziq-ovqat xavfsizligi va aholi turmush tarziga jiddiy ta'sir ko'rsatadi, chunki bug'doy mintaqada asosiy ekinlardan biri hisoblanadi. Xuddi shunday, o'zgaruvchan iqlim sharoitida hosil zararkunandalar va kasalliklarga ko'proq moyil bo'lganligi sababli, shu davrda paxta yetishtirish hajmi oldingi davrlarga nisbatan qariyb 12 foizga kamaydi.

Haroratning oshishi va yog'ingarchilikning o'zgarishi an'anaviy o'sish holatini buzdi, natijada pomidor, piyoz va sabzi kabi ekinlarning hosildorligi va sifati pasaydi. Fermerlar bahorning kechki sovuqlari va yozning jazirama to'liqlari kabi ekstremal hodisalar tufayli hosilning tez-tez nobud bo'layotgani haqida xabar berishgan.

Ushbu ishlab chiqarish yo'qotishlari nafaqat Xorazm qishloq xo'jaligining umumiy ishlab chiqarish hajmini kamaytirdi, balki o'z tirikchiligi uchun ushbu ekinlarga tayanadigan kichik fermerlarning zaifligini ham oshirdi. Iqlim o'zgarishining hosildorlik, daromad va oziq-ovqat mavjudligiga ta'siri butun mintaqadagi qishloq jamoalarining oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiy farovonligiga tahdid soladi.

Chorvachilik va yaylov tizimlariga ta'siri. Iqlim o'zgarishi Xorazm qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lgan chorvachilik va yaylov tizimlariga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Haroratning ko'tarilishi va yog'ingarchilikning kamayishi tabiiy yaylovlarning tanazzulga uchrashiga olib keladi, o'txo'r hayvonlari uchun em-xashakning kamayishiga olib keladi. Bu, o'z navbatida, chorva mollari, jumladan, qoramol, qo'y va echkilar salomatligi va mahsuldorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yaylov resurslarining miqdori va sifatining pasayishi chorvalarni qo'shimcha oziqlantirishga, ko'pincha cheklangan ekin qoldiqlari va sotib olingan yemlardan foydalanishga ko'proq ishonishga majbur qildi. Bu chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlarini oshirib, kichik dehqonlar va chorvadorlar uchun allaqachon qattiq daromad marjasini siqib chiqardi. Ba'zi hollarda chorvadorlar yetarli yem-xashak yetishmagani uchun o'z podalari sonini qisqartirishga majbur bo'lib, ularning tirikchiligiga putur yetkazgan.

Bundan tashqari, qurg'oqchilik va issiqlik to'liqlari kabi ekstremal ob-havo hodisalarining ko'payishi chorva mollari populyatsiyalarida bevosita stress va o'limga olib keladi. Haddan tashqari issiqlik suvsizlanish, ozuqa iste'molini kamaytirish va kasalliklarning tarqalishiga olib kelishi mumkin, bularning barchasi hayvonlarning sog'lig'i va mahsuldorligiga putur etkazadi. Ayniqsa, qurg'oqchilik halokatli ta'sir ko'rsatib, chorvadorlarni chorva mollari muddatidan oldin sotishga yoki suv va yaylov resurslarining etishmasligi tufayli hayvonlarning nobud bo'lishini kuzatishga majbur qildi.

Yaylovlar va chorvachilik tizimlariga iqlim ta'siri ostidagi bu ta'sirlar Xorazm qishloq xo'jaligi sektori uchun juda katta oqibatlariga olib keladi. Go'sht, sut va jun ishlab chiqarishning qisqarishi qishloq aholisi uchun ozuqaviy moddalarga boy oziq-ovqat va muhim daromad manbalarining mavjudligini kamaytiradi. Chorvachilikning yo'qolishi, shuningdek, uy xo'jaliklari boshqa zarba va stresslarni yengish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan mulk bazasini yo'qotadi va ularning zaifligini chuqurlashtiradi.

Chorvachilik va yaylovlarni boshqarishni yangi iqlim sharoitlariga moslashtirish Xorazmning turli qishloq xo'jaligi landshaftining ushbu muhim tarkibiy qismini saqlab qolish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Xorazm viloyati qishloq xo'jaligi sektorining iqlim o'zgarishi oqibatlarini bartaraf etish uchun moslashuv strategiyalari

Iqlim o'zgarishidan kelib chiqadigan tahdidlarni bartaraf etish uchun Xorazm viloyati qishloq xo'jaligi sektori bir qator moslashuv strategiyalarini amalga oshirishi kerak bo'ladi. Bularga quyidagilar kiradi:

O'simlikchilik va chorvachilikni diversifikatsiya qilish: bir nechta zaif turlarga tayanishdan voz kechish va o'miga kengroq turdagi ekinlarni yetishtirish.

Suvni boshqarish amaliyotini takomillashtirish: tomchilatib yoki purkash tizimlari kabi samaraliroq sug'orish usullarini qo'llash suv sarfini kamaytirishi mumkin.

Chidamli ekin navlari va chorva zotlarini ko'paytirish va tanlash: Issiqlik, qurg'oqchilik, zararkunandalar va kasalliklarga bardosh beradigan ekin navlari va hayvon zotlarini aniqlash va ulardan foydalanishni rag'batlantirish o'zgaruvchan iqlim sharoitiga moslashish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Tuproq holati va unumdorligini oshirish: Tuproqning organik moddalari, ozuqa moddalari darajasi va suvni ushlab turish qobiliyatini yaxshilash qishloq xo'jaligi tizimlarining iqlim bilan bog'liq stresslarga bardosh berish qobiliyatini oshirishi mumkin.

O'fatar oqibatlarini bartaraf etishni takomillashtirish: Ob-havo monitoringi va prognozini kuchaytirish, shuningdek, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik rejalarini fermerlar va chorvadorlarga ekstremal ob-havo hodisalarini oqibatlarini yaxshiroq tayyorlash va boshqarishga yordam beradi.

Ushbu moslashuv strategiyalarini amalga oshirish uchun ko'plab manfaatdor tomonlar, jumladan, davlat idoralari, tadqiqot institutlari, kengaytma xizmatlari hamda fermerlar va chorvadorlarning o'zlarini hamkorlik va sarmoya kiritishni talab qiladi. An'anaviy bilimlarni ilg'or ilmfan va texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish kontekstga mos yechimlarni ishlab chiqishda kalit bo'ladi.

Xorazm viloyati hamjamiyatlari o'zlarining qishloq xo'jaligi amaliyotlarini moslashtirish bo'yicha faol choralar ko'rish orqali iqlim o'zgarishi sharoitida oziq-ovqat ishlab chiqarish tizimlarining uzoq muddatli barqarorligi va barqarorligini oshirishlari mumkin.

Xulosa va takliflar. Xorazm viloyati qishloq xo'jaligi tizimlariga iqlim o'zgarishining ta'siri tufayli jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Haroratning ko'tarilishi, yog'ingarchilikning o'zgarishi va ekstremal ob-havo hodisalarining tez-tez ko'payishi allaqachon ekinlar hosildorligini pasaytirmoqda, yaylovlar yomonlashmoqda, dehqonlar va chorvadorlarning turmush tarziga tahdid solmoqda.

Tarixiy ma'lumotlar va iqlim modeli prognozlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu tendensiyalar kelgusi o'n yilliklarda davom etishi va kuchayishi va mintaqadagi oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq taraqqiyotiga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. So'nggi yillarda bug'doy, paxta va sabzavot yetishtirish sezilarli darajada pasayib ketdi, chorvachilik tizimlari esa muhim yaylovlar degradatsiyasi bilan kurashmoqda.

Bir qator moslashuv strategiyalarini amalga oshirish Xorazm oziq-ovqat ishlab chiqarish tizimlarining uzoq muddatli barqarorligi va barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Ushbu strategiyalar iqlim o'zgarishining ekinlar, chorva mollari va tabiiy resurslarga murakkab, o'zaro ta'sirini ko'rib chiqishi kerak. Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish, iqlimga chidamli navlar va zotlarni rivojlantirish, erta ogohlantirish tizimlarini kuchaytirish kabi yondashuvlar fermerlar va jamoalarga yangi iqlim voqe'liklariga yaxshiroq dosh berishga yordam beradi.

Moslashuv bo'yicha faol qadamlar qo'yish orqali Xorazm qishloq xo'jaligi sektori nafaqat oziq-ovqat xavfsizligi va qishloqlar hayotini ta'minlabgina qolmay, balki o'zgaruvchan iqlim sharoiti yaratib berayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanish uchun ham o'zini namoyon qila oladi. Siyosatchilar, tadqiqotchilar, kengaytma ishchilari va fermerlar o'rtasidagi hamkorlikdagi sa'y-harakatlar orqali mintaqa yanada barqaror va iqlimga chidamli qishloq xo'jaligi kelajagini qurishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Bobojonov, I. va Av-Hassan, A. (2014). Iqlim o'zgarishining Markaziy Osiyoda fermer xo'jaliklarining daromadlari xavfsizligiga ta'siri: integratsiyalashgan modellashtirish yondashuvi. Qishloq xo'jaligi, ekotizimlar va atrof-muhit, 188, 245-255.
2. Djanibekov, N., Xamzina, A., Djanibekov, U. va Lamers, JP (2012). Qurg'oqchilik hududlarda qisqa muddatli CDM o'rmonlari qanchalik jozibali? O'zbekiston ishi. Atrof-muhit fanlari va siyosati, 21, 17-30.
3. Dosybiev, A., Esenov, P., & Karimov, A. (2016). O'zbekistonning Xorazm viloyatida qishloq xo'jaligining iqlim o'zgarishiga zaifligini baholash. Atrof-muhit va qishloq xo'jaligi tadqiqotlari xalqaro jurnali, 2(10), 1-10.
4. Jumaboev, K., Platonov, A., Xamzina, A., Gafurov, Z., Djanibekov, N., & Soliev, I. (2018). Iqlim o'zgarishining Orol dengizi havzasidagi suv resurslariga ta'siri. Iqlim o'zgarishining Markaziy Osiyo qishloq xo'jaligiga ta'sirida (45-66-betlar). Springer, Cham.
5. Sommer, R., Glazirina, M., Yuldashev, T., Otarov, A., Ibraeva, M., Martynova, L., ... & Vlek, PL (2013). Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishining bug'doy hosildorligiga ta'siri. Qishloq xo'jaligi, ekotizimlar va atrof-muhit, 178, 78-99.
6. Toderich, K., Tsukatani, T., Mardonov, B., Gintzburger, G., & Zemtsova, G. (2008). O'zbekistonda yerlarning degradatsiyasi va chorvachilik mahsulotlari. 12(2), 6-24.



UDK:550.8.015.(575.1)

Jalil AMIRQULOV,
O'zbekiston Milliy universiteti stajyor-o'qituvchisi
E-mail: amirqulovjalil@gmail.com
Shirinbonu MAJIDOVA,
O'zbekiston milliy Universiteti stajyor-o'qituvchisi

Professor A.Umarov taqrizi asosida

STUDY OF MINERAL MINES USING QGT DATA (EXAMPLE OF DJASAGA FIELD)

Annotation

As human needs for energy continue to grow, attention to nuclear energy, which currently has no real alternative, needs to be strengthened in the near future to meet it. Economists estimate that traditional reserves of natural fuel (oil, gas, coal) will reach 100-150 years. Today, Japan, Germany, Italy, France, Belgium, Switzerland and other developed countries are facing a fuel shortage. Replenishment of the main energy resources is carried out through the construction of nuclear power plants (NPP) and the operation of these stations with radioactive energy sources (uranium, thorium, etc.).

Key words: Djasaga area, sandstone type, gamma-karotaj, permeable horizont, oxidation-reduction.

QGT MA'LUMOTLARI YORDAMIDA MA'DANLI KONLARNI O'RGANISH (DJASAGA MAYDON MISOLIDA)

Annotatsiya

Insoniyatning energiyaga bo'lgan ehtiyoji mutassil ravishda ortib borayotganligi sababli uni qondirish uchun hozirda real muqobili yo'q atom energiyasiga yaqin kelajakda e'tiborni kuchaytirish kerak. Iqtisodchilar tabiiy yoqilg'ining zahiralari (neft, gaz, ko'mir) 100-150-yilgacha yetadi deb hisobladilar. Bugungi kunda Yaponiya, Germaniya, Italiya, Fransiya, Belgiya, Shvesariya va boshqa rivojlangan davlatlar yoqilg'i taqchilligiga yuz tutmokda. Asosiy energiya resurslarini to'ldirish atom elektr stansiyalari (AES) qurish hisobiga va u stansiyalar radioaktiv energiya manbalari (Uran Toriy v.h.lar) faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar. Djasaga maydoni, qumtoshli tip, o'tkazuvchi gorizont, gamma- karotaj, oksidlanish-qaytarilish.

ИЗУЧЕНИЕ МЕСТОРОЖДЕНИЙ ПОЛЕЗНЫХ МЕСТОРОЖДЕНИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ДАННЫХ ГИС (НА ПРИМЕРЕ МЕСТОРОЖДЕНИЯ)

Аннотация

Поскольку человеческий спрос на ДЖАСАГА энергию продолжает расти, необходимо в ближайшем будущем сосредоточить внимание на ядерной энергии, чтобы удовлетворить ее, у которой в настоящее время нет реальной альтернативы. По оценкам экономистов, традиционных запасов природного топлива (нефти, газа, угля) хватит на 100-150 лет. Сегодня с дефицитом топлива сталкиваются Япония, Германия, Италия, Франция, Бельгия, Швейцария и другие развитые страны. Восполнение основных энергоресурсов осуществляется за счет строительства атомных электростанций (АЭС) и эксплуатации этих станций радиоактивными источниками энергии (уран, торий и др.).

Ключевые слова: Джасага площадь песчаника, тип песчаника, проводящий горизонт, гамма-каротаж, окислительно-восстановительный.

Kirish. Jaxon iqtisodiyotida urandan atom stansiyalarining energiya tashuvchisi sifatida foydalaniladi. Xozirgi zamonaviy atom reaktori uchun uranning ananaviy yoqilg'i uchun ekvivalent energiyasi $30 \cdot 10^4$ ming tonnaga teng. Shunga ko'ra, uran neftdan 20 ming barobar, ko'mirdan 40 ming barobar ko'proq mikdorda energiya ishlab chikaradi. Bundan tashkari, uran va uning asosida ishlab chiqarilgan plutoniy yadroviy qurol ishlab chiqarish uchun qo'llaniladi. O'zbekistonda mineral xom ashyo resurslari qatorida uran xomashyosi muxim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi uran zaxiralari ko'ra dunyodagi dastlabki o'n mamlakat qatoriga kiradi, uran qazib olish bo'yicha dunyoda 5-7 o'rinlarni egallaydi. O'zbekiston o'zi istemolchi hisoblanmaydi. O'zbekiston uran xomashyosini ishlab chiqaradi va chetga eksport qiladi so'ngi yillarda jaxon bozorida mustaxkam o'rin egallamoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Davlat geologik tadqiqotlari bilan qamrab olingan, turli vaqtlarda turli bajaruvchilar tomonidan amalga oshirilgan. X.K. Bobonov va boshqalar. O'zbekiston Respublikasida uran konlarining Uchquduq turi. Toshkent <Fan>1996. Ushbu qo'llanmada uran konlarining xosil bo'lish sharoitlari yoritilgan bo'lib, tadqiqot olib borayotgan konning xosil bo'lish sharoitini o'rganishimiz mumkin. (Sklyarenko Yu.N.) 1987-1990 yillarda Ziyaeddin-Zirabuloq va Qoratov Ko'tarilmasi rayonida yalpi uranga izlash ishlari ma'lumotlari keltirilgan bo'lib ushbu ma'lumotlar asosida konning ma'dan hosil qiluvchi jinslari fatsial sharoitlarini keltirdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maydon Mezazoy-kaynazoy erasiga tegishli Bukan tog'ning shimoliy va shimoliy-sharqiy chegarasida joylashgan.

Ish olib borilayotgan maydon O'zbekiston Respublikasi Navoiy viloyati Tomditog' va Uchquduq tumanlari bilan mamuriy aloqada. Djasaga maydoni o'rganilayotgan hududning sharqiy qismida joylashgan bo'lib, u geomorfologik jihatdan eol (serg'ovak joyakli, past-baland barxanli) qumlar keng tarqalgan biroz adirlik tekisliklardan iborat bo'lib, ular o'rtasida 50-60m chuqurlikdagi aloxida suvsiz depressiyalar mavjud. Mintaqaning quyi janubiy qismida qumli cho'l shimoliy va shimoli-g'arbda Turbay va Djetimtog'ning paleozoy massiflarini Bukantog' tizimiga kiradigan odatiy prolyuvial tekislikka aylantiradi. Djasaga maydoning mutloq balandligi 240 metrdan 400 metrgacha, janubi-sharqiy yo'nalishda o'sib boradi.

Burg'ilash quduqlari bilan uran konlari va boshqa foydali qazilmalarni bashoratlash, qidirish va geologiya-kidiruv ishlarining barcha bosqichlari kuzatiladi. Bu xolda quduq bo'ylab geologik bo'limini aniqlab olish, madanlarni strukturalarni nazorat qilish madan gorizontlari, ma'dan oralig'idagi chegaralarni aniqlash, ulardagi radioaktiv elementlarning tarkibini tekzor baholash va quduqlarning texnik holatini tekshirish kerak. Bu masalalarni hal qilishda keng qamrovli QGT yordam beradi. O'zbekistonda uran uchun geologik-geofizik tadqiqotlar o'tkazishning turli bosqichlarida olib borilgan geofizik tadqiqot ko'p yillar ish olib borish davomida quyidagi ratsional kompleksini aniqlanadi.

1.Elektrokarotaj qo'llanadi tuyuluvchi qarshilik (KC) va o'z-o'zidan hosil bo'luvchi potentsiallar (PS) usullari orqali litologiyasi va litologo-filtratsiya hususiyatlarini va geologik kesimini aniqlash maqsadida qo'llaniladi.

2.Gamma karotaj (GK)-bu usul orqali tog' jinslarining tabiiy radioaktivligini, quduq kesimining litologik chegaralarini intervallarini aniqlash, uranni tarkibini va zaxirasini baholash, aniqlash.

3. Kavernometriya – quduqning haqiqiy diametrini chuqurlik bo'yicha o'zgarishi o'lchanadi. Kuzatuvlar kavernometr deb atalgan asboblardan o'tkaziladi. Burg'i yoki koronaning diametriga to'g'ri kelgan quduqning diametri nominal d_n deb ataladi. Ish natijasida kuzatilgan egri chiziq kavernogramma deb ataladi.

4. Inklinometriya - quduqni qiyalik burchagi o'lchanadi. Quduqni qiyshayish dalillari, quduqning chuqurligini va qatlamlarning haqiqiy yotish chukurligini aniqlash uchun kerak. Kuzatuvlar inkilometr deb atalgan asbob bilan o'tkaziladi.

5. Yadro-fizikaviy karotaj – jinslarning tabiiy radioaktivligini va sun'iy gamma va neytron nurlanishlari ta'sirida hosil bo'lgan ikkilamchi gamma va neytronlar nurlanishlarining keskinligini o'rganishga asoslangan. Elektrik karotajga nisbatan yadroviy karotajni temir quvurlar bilan mustahkamlangan va quvursiz quduqlarda o'tkazish mumkin.

Tahlil va natijalar. Djasaga maydonida quduqlarning geologik qirqimini o'rganish ma'dan saqlovchi gorizontlarni o'rganish uchun quduqlarda geofizik tadqiqot ishlari kompleks qo'llanilgan. Elektrokarotaj (KS+PS), Gamma karotaj (GK) inklinometriya va kavernometriya bo'yicha amalga oshirilgan. Quduqlardan ko'tarilgan kernlarni chuqurlik bilan muvofiqlash uchun radiometriya usulidan foydalanish olingan ma'lumotlarni hujjatlashtirish.

Quyidagi vazifani bajarishda QGT kompleksi qo'llaniladi. Radioaktiv anomalialarni aniqlash va ular tarkibidagi uranning parametrlarini hisoblash (qalinligi, tarkibi, metrofoiz).

- Ma'dan saqlovchi qatlamlar qirqimining litologik tarkibi va infiltratsiya xususiyatlari;
- Kernda madanli intervallarini aniqlash va ifodalash.

Qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun geofizik tadqiqotlarini tashkil etish va o'tkazish ishlari olib borilgan. O'lchovlarni metrologik qo'llab quvvatlash, tog' jinslarining litologik taqsimlanishi va ularni quduqlar qirqimida joylashishini aniqlash, qirqim ma'danli gorizontlarini ajratish va ularning o'tkazuvchanligini baholash, ulardagi uran ma'danini aniqlash va ularning tarkibini zaxirasini baholash.

Quduqlarning texnik xolatini inklinometriya va kavernometriya usullari o'rganadi. Kavernometriya quduqlarning kengayish va torayish yani diametrini aniqlaydi. Hidrogeologik quduqlarda tokovoy karotaj (TK) va termometriya (TM) usullari qo'llaniladi.

QGT natijalarini geologik tahlil qilishda, tog' jinslarining fizik xususiyatlariga ko'ra yaxshi farqlanishi qatlam suvlarining kuchsiz mineralizatsiyasi, mintaqaviy va lokal reper gorizontlarini mavjudligi qaysiki hamma qo'llaniladigan uslublar o'rganilishi qulayligi muhim hisoblanadi.

Djasaga maydonida mintaqaviy ko'rsatkichlari past solishtirma elektr qarshilikka ega (5-10 Om·m), gamma-intensivlik (10-12 mkR/s) va past tabiiy potensial amplitudali ΔU_{ps} (5-25), quyi gil qatlami, solishtirma elektr qarshiligi (7-12 Om·m), o'rta eotsenda mergel (12-13 mkR/s).

QGT natijalarini geologik izohlashni murakkablashtiradigan omillar, Bu yerda yetarli darajada bo'lgan murakkab tuzilmali ruda gorizonti, Cho'kindi jinslarning turli hil sharoitlari (turli darajadagi qum, turli sementli qumtoshlar, qum va shag'al qo'shimchalari va boshqalar).

GK bo'yicha olingan ma'lumotlar miqdoriy interpretatsiyasi

Gamma karotaj usulidan olingan natijalar interpretatsiyasi va ma'danli oraliqlarni aniqlash uran ma'dan tanasi tarkibi va zaxirasini metrofoizini aniqlash uchun ma'lumotlarini miqdoriy interpretatsiya va ruda intervallarini aniqlash tarkibiy qismlar va uran zahiralari (metro-foiz) parametrlar ushbu gamma karotaj natijasida olingan gamma faoligi egri shakli va intensivligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Gamma radiatsiyasi KOBRA-M raqamli stansiyasimonidan yozib olinadi. GKning miqdoriy talqin qilish uslubiyati quyidagicha; 50 mkR/s dan yuqori ko'rsatkichli anomalialari oldindan raqamlashtirilib, 10 sm kvantlash bosqichi bilan o'tadi. Olingan natijalar bevosita mkR/s larda shaklida ifodalangan xususiyatlardan foydalangan holda, o'rta qiymatlar yaxlitlanadi. Keyin talqin ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Gamma karotaj ma'lumotlarini miqdoriy talqin qilishda ma'dan oraliq'i va ularning tarkibidagi uranning qalinligi aniqlash uchun amalga oshiriladi. Barcha ma'lumotlar asosiy materiallardan olinadi, buning uchun quduqning ruda oraliq'i raqamli hisoblanadi. Ma'lumotlarni kiritish quduq raqamlari boshlang'ich chuqurlik anomalija oraliq'i m, quduq diametri mm, quduq zondi diametri mm, obsadka kalonkasi diametrdan mm da agar quduqlar obsadka qilingan bo'lsa. Ma'dan zichligi g/sm^3 , burg'i eritmasi zichligi g/sm^3 , jinslar namligi % da beriladi.

Gamma karotajda diametri 60 mm bo'lgan zond yordamida o'lchash ishlari yo'riqnoma bo'yicha amalga oshiriladi tog' jinslarining zichligini o'zgarishi oraliq'ida bo'ladi $1.5-2.5 g/sm^3$.

Djasaga maydonida hidrogeologik quduqlarda ma'dan saqlovchi gorizontlardan 17 monolit olingan. Olingan ma'lumotlar statistik jihatdan yetishmasligi sababli tog' jinslari va ma'dan saqlovchi qatlamlarning zichligining miqdoriy koeffitsenti o'zgarmagan $2.0 g/sm^3$ va u V_k koeffitsenti o'zgarishiga ta'sir qilmaydi.

Ma'danli oraliqda uran miqdori va zaxirasini hisoblashda tog' jinslari va ma'dan saqlovchi qatlamlar kamligini miqdoriy koeffitsenti kiradi. Tog' jinslari va saqlovchi qatlamlarning namligi miqdoriy koeffitsenti Djasaga maydoni uchun 20% deb olingan.

Djasaga maydonining ma'dan saqlovchi konyak va turon gorizontlari (K_r) radioaktiv muvozanatni belgilovchi umumiy o'rta qiymati.

№1-Jadval

Gorizont	Oraliqlar soni	Oraliqlar qalinligi yig'indisi m	Metro-foizlar yig'indisi 10 ⁻⁴ %		K_r O'rtacha qiymati	K_r O'rtacha taqribiy qiymati	S
			Uran	rad			
K_{zk}	32	23,40	5438	3124	0,55	0,57	0,16
K_{st2}	21	9,60	2613,2	1632,4	0,75	0,62	0,25

Keyingi jadvalda o'tkazuvchan konyak va turon gorizontlarida radon siqilishini belgilovchi o'rta qiymati Djasaga maydonida gamma-karotaj natijalarini taqqoslash asosida olingan radon siqilishini o'rta miqdoriy qiymati.

№2- Jadval

Interval soni	Ma'dan oraliqlari qalinligi yig'indisi m	Namunalar bo'yicha mS, Ra 10 ⁻⁴	gamma-karotaj bo'yicha mS, Ra 10 ⁻⁴	Msop/Msgk Radon siqilish tuzatmasi
18	Ma'dan saqlovchi gorizont (K_{zk})			
	Summa	16,80	1930	1625
	O'rtacha	0,93	107,22	90,28
	S			0,14
18	Ma'dan saqlovchi gorizont (K_{st2})			
	Summa	12,00	1605,4	1359
	o'rtacha	0,67	89,19	75,50
	S			0,17

Taqqoslash natijalarini statistik qayta ishlash uslubiy talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Bu koeffitsentlar analitik tadqiqot natijalari asosida olingan. Analitik tadqiqotlar laboratoriyada amalga oshiriladi.

Quduqda ma'danli oraliq anomaliasini ko'rinishi


Olingan $K_r-0.55 P_{aj}-1.2$ koeffitsientlardan bizga ma'danli oraliqlarni xisoblashda foydalanamiz va tabullagramma orqali hisoblanadi.

Djasaga maydonida litologik va filtrlash xususiyatlarini o'rganish metodikasi.

Djasaga maydonida litogik-filtrlash xususiyatlarini o'rganish uchun QGT asosiy kompleks talqin qilinadi, jinslarning litologik qismini ajratib olish va ularni quduqlarning korrelyatsiya qismlarida joylashishini aniqlash, bo'limda rudali gorizontlarning izolyatsiyasi va ularning

o'tkazuvchanligini baholash. Litologik kesimni ajratish ushbu ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Quduqlarning geologik kalonka quriladi chuqur egri chiziqlari tasvirlangan ρ_k , ΔU_{ps} va J_γ ularni ro'yxatga olish mashtabi va ko'tarilgan kern, karotajni talqin qilish uchun jurnal qo'yiladi. Chiziqlar konfiguratsiyasidan harakterli nuqtalar va ularga tasir ko'rsatadi, Parametrlar soni qiymatlari, ρ_k , ΔU_{ps} va J_γ kompleksning uchta usuli bilan bir-biridan harakterlangan hususiyatlarni aks ettiradi. Djasaga hududida bunday istiqbollar past qarshilikari Mezasoy-Kaynazoy erasining gilinalarida quyi eotsen alevrolit gilina va yuqori eotsenda (5-8 Om-m) karbonatli qum kampan maastrih va plitsenda (25-30 Om-m). Djasaga maydonida lokal anomalija γ -nurlanish intensivligi 50-80 dan 100-900 mkR/s, cho'kindi qumlar yuqori Turon va konyak yarusiga tegishli. Quduq kesimining litologik jinslarning tarkibini egri shakliga ko'ra amalga oshiriladi ρ_k , bu qatlamlarning chegaralarini aniqlashning asosiy usuli hisoblanadi, balki qiymatlar ΔU_{ps} va J_γ ularning litologik bog'liqligi aniqlanadi. Geologik-geofizik va geologik kesimlarni qurishda, quduqlardagi jinslar va rudalarning vertikal joylashuvini ko'rsatadi. Izolyatsiya qilingan gorizontlarda ΔU_{ps} egri chiziqlari, shartli "gilli chiziq" va "qumli nolli chiziq". LVD larni o'rganish uchun KSni interpretatsiya amalga oshiriladi. KS ning ushbu izohlari quyidagi hulosalarga olib keladi. Tadqiqot natijasida jinslarning fizik hususiyatlari ushbu geologik omillarga tasir ko'rsatadi. "Quruq" qum va qumtoshlarda aniq o'ziga hos elektr qarshilik va γ -intensivlik quruq qumlarining qarshiligi 15-20 Om-m va γ -intensivlik 12-13 mkR/s, suvli qismlarda esa 8-10 Om-m va 9-11 mkR/s; quruq qumtoshlarda qarshilik 30-35 Om-m va γ -intensivlik 13-15 mkR/s, suvli qismlarda 20-25 Om-m va γ -intensivlik 11-13 mkR/s. Suvli gil jinslarning qarshiligini pasaytiradi, tabiiy maydonni pasaytiradi, γ -intensivlik oshadi. Shuning uchun qumlarining elektr qarshilik silikat darajasidan 15-18 dan 8-10 Om-m gacha kamayadi. ΔU_{ps} qum qarshi 40-70 mV dan 18-20 mV gacha kamayadi, ya'ni ko'proq γ -intensivlik 9-11 mkR/s dan 12-13 mkR/s gacha ko'tariladi.

Djasaga maydonining geologik kesimi B-II profil bo'yicha



Qumlarining aralashmasiga qarab Elektr qarshiligi gilda ko'tariladi 3-4 Om-m dan 7-12Om-mgacha, alevrolit gilina qarshiligi 5-6 dan 9-12 Om-mgacha, γ -intensivlik ularning 9-11 dan 14-16 mkR/s gacha. Karbonatli jinslarda ham o'zgaradi ularning fizik hususiyatlari. Karbonat qum toshlarda qarshiligi 30-35 Om-m va undan yuqori Karbonatsiz qumtoshlarda esa 20-25 Om-m. Shu bilan birga qumdagi karbonat pelletlari qo'shilishi natijasida qarshilik oshadi va karbonatning tekis tarqalishi elektr qarshilikni sezilarli darajada oshiradi. Bularning barchasi maydonning murakkab geologik tuzulishi bilan birgalikda QGT ma'lumotlarining miqdoriy talqinini murakkablashtiradi va karotaj jurnallar orqali aniqlashni qiyinlashtiradi.

Xulosa va takliflar. Quduqda ma'danli oraliqdan olingan namunalardan ma'dan saqlovchi qatlam radiologiyasi ma'danli oraliqdagi uran va radiy miqdori aniqlanadi ular asosida uran va radiy, radon va radiy o'rtasidagi muvozanatni belgilovchi qiymatlari kiritildi. Bu qiymatlardan uran ma'danli oraliqlarni miqdoriy interpretatsiya qilishda foydalanildi. Ma'danli va uran saqlovchi qatlamlarni (kern namunalarni o'rganish, elektrokarotaj, gamma-karotaj usuli) orqali litologik filtratsion, radiologik hususiyatlari o'rganildi. QGT usulidan olingan ma'lumotlar ishonchligi bizga kelajakda uran ma'danlari resurslari va zahiralarni baholashda muhim hisoblanadi. Djasaga maydonida lokal anomalija γ -nurlanish intensivligi 50-80 dan 100-900 mkR/s, cho'kindi qumlar yuqori Turon va konyak yarusiga tegishli. Quduq kesimining litologik jinslarning tarkibini egri shakliga ko'ra amalga oshiriladi ρ_k , bu qatlamlarning chegaralarini aniqlashning asosiy usuli hisoblanadi, balki qiymatlar ΔU_{ps} va J_γ ularning litologik bog'liqligi aniqlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Рунов Б.Н. Марказий Қизилқум вилоятидаги айрим маҳаллий ҳудудлар бўйича 1: 50000 шимолӣ чўкиди қопламаларни ташкил қилувчи ихтисослашган хариталари мажмуасининг таркиби. 1996-2002 йилларга мўлжалланган 3-93 вазифаси. Тошкент, "Урангеология" 2003 й. 3710-сон.
2. Л.А.Сим "Фойдали қазилма конларини излаш ва кидиришнинг геофизик усуллари" тошкент 1996 й.
3. Каримов Х.К. Бобонаров Н.С., Бровин К.Г., "Учкудук Ўзбекистон уран конлари", Тошкент, "Фан", 1996 йил.
4. Склярено Ю.Н. Зиатдин-Зирабулок тоғ тизмаларида кидирув ишлар натижалари 1987-1990 йилларда амалга оширилган. Тошкент, "Урангеология" Давлат илмий марказининг асослари, 1991 й.



УДК: 658.382.3 (075)

Наргиза БАТИРОВА,
Доцент Ташкентского государственного технического университета,
E-mail: Nargiza311@mail.ru.,
Эллеонора ЮСУПХОДЖАЕВА,
Доцент Ташкентского государственного технического университета,
Бекзод АЛЛАЯРОВ,
Доцент, ТашГУТУ им. Ислама Каримова
Шоходат РУЗИМУХАМЕДОВА,
Докторант института исследований рынка труда

На основе отзыва профессора ТашДТУ, Закирова А.А.

TYPES OF ELECTROMAGNETIC FIELDS, THE MAIN SOURCES OF RADIATION AND METHODS OF PROTECTION FROM THEIR HARMFUL EFFECTS

Annotation

The article is considered on the basis of system-dialectical, spatial and complex approaches, the electromagnetic field and its influence on the human body are deeply and comprehensively disclosed. The main directions of protection from the electromagnetic field and protection against it are rationally determined. Preventive measures to reduce their negatives have also been considered.

Key words: electromagnetic fields, nervous system, EMF, immune system, hypothalamus-pituitary-cortex, sexual function, electrical wiring.

ELEKTROMAGNIT MAYDONLARNING TURLARI, NURLANISHNING ASOSIY MANBALARI VA ULARNING ZARARLI TA'SIRIDAN HIMOYA QILISH USULLARI

Annotatsiya

Maqolada elektromagnit maydonlarning ta'siri va uning inson tanasiga ta'siri tizimli-dialektik, fazoviy va kompleks yondashuvlar va keng qamrovli tadqiqotlar asosida ko'rib chiqilgan. Elektromagnit maydondan himoya qilish va undan himoya qilishning asosiy yo'nalishlari oqilona aniqlangan. Shuningdek, elektromagnit nurlanishning asosiy manbalari va ularning zararli ta'siridan himoya qilish usullari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: elektromagnit maydonlar, asab tizimi, EMF, immunitet tizimi, gipotalamus-gipofiz-korteks, jinsiy funktsiya, elektr simlari.

ВИДЫ ЭЛЕКТРОМАГНИТНЫХ ПОЛЕЙ, ОСНОВНЫЕ ИСТОЧНИКИ ИЗЛУЧЕНИЯ И МЕТОДЫ ЗАЩИТЫ ОТ ИХ ВРЕДНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ

Аннотация

В статье рассмотрено на основе системно-диалектического, пространственного и комплексного подходов и обширных исследований действие электромагнитных полей и его влияние на организм человека. Рационально определены основные направления защиты от электромагнитного поля и защиты от него. А также рассмотрены основные источники электромагнитного излучения и способы защиты от их вредного действия.

Ключевые слова: электромагнитная поля, нервную систему, ЭМП, иммунная система, гипоталамус-гипофиз-кора, половая функция, электропроводка.

Введения. Природа подарила человечеству чистый, прозрачный воздух, водоемы и целебный естественный электромагнитный фон, излучаемый как космосом, так и растительным миром. Он состоит из очень слабых электромагнитных колебаний, частота которых вызывает гармонизацию всех систем человеческого организма. Этот-то естественный фон и подавляется техногенными электромагнитными излучениями. Человечество все больше освобождается от прямой зависимости от внешней среды и увеличивает свое воздействие на природу. Человек при помощи радиотехнических и радиоэлектронных приборов создал невидимую электромагнитную паутину, в которой мы все находимся. Особенно сильно она разрослась в последние годы. Мощные линии электропередачи высокого и сверхвысокого напряжения, не менее мощные и многочисленные радио и теле передающие станции, космические ретрансляторы все они влияют на общую картину воздействия электромагнитных полей. Более 100 миллионов человека ежедневно вполне или невольно соприкасаются с источниками электромагнитных полей. Это происходит и дома, и на работе, на прогулке или на отдыхе на даче. Всякая хозяйка радуется, если приобретает помощников по хозяйству: холодильник, стиральную машину, электрическую плиту или чайник, утюг.

Действие электромагнитных полей

Обширные исследования электромагнитных полей проводились уже давно. Был накоплен большой клинический материал о неблагоприятном действии магнитных и электромагнитных полей, было предложено ввести новое нозологическое заболевание "Радиоволновая болезнь" или "Хроническое поражение микроволнами". В дальнейшем, работами ученых было установлено, что, во-первых, нервная система человека, особенно высшая нервная деятельность, чувствительна к электромагнитному полю, и, во-вторых, что электромагнитное поле обладает так называемым информационным действием при воздействии на человека в интенсивностях ниже пороговой величины теплового эффекта.

Биологическое действие электромагнитных полей. Экспериментальные данные как отечественных, так и зарубежных исследователей свидетельствуют о высокой биологической активности ЭМП во всех частотных диапазонах. При относительно высоких уровнях облучающего ЭМП современная теория признает тепловой механизм воздействия. При относительно низком уровне ЭМП (к примеру, для радиочастот выше 300 МГц это менее 1 мВт/см²) принято говорить о нетепловом или информационном характере воздействия на организм. Механизмы действия ЭМП в этом случае еще мало изучены.

Влияние на нервную систему. Большое число исследований, выполненных в мире, и сделанные монографические обобщения, дают основание отнести нервную систему к одной из наиболее чувствительных систем в организме человека к воздействию ЭМП. На уровне нервной клетки, структурных образований по передачи нервных импульсов (синапсе), на уровне изолированных нервных структур возникают существенные отклонения при воздействии ЭМП малой интенсивности. Изменяется высшая нервная деятельность, память у людей, имеющих контакт с ЭМП. Эти лица могут иметь склонность к развитию стрессовых реакций. Определенные структуры головного мозга имеют повышенную чувствительность к ЭМП.

Влияние на иммунную систему. В настоящее время накоплено достаточно данных, указывающих на отрицательное влияние ЭМП на иммунологическую реактивность организма. Результаты исследований ученых дают основание считать, что при воздействии ЭМП нарушаются процессы иммуногенеза, чаще в сторону их угнетения. Установлено также, что у живых организмов, облученных ЭМП, изменяется характер инфекционного процесса – течение инфекционного процесса ослабляется. Возникновение аутоиммунитета связывают не столько с изменением антигенной структуры тканей, сколько с патологией иммунной системы, в результате чего она реагирует против нормальных тканевых антигенов. В соответствии с этой концепцией, основу всех аутоиммунных состояний составляет в первую очередь иммунодефицит по тимус-зависимой клеточной популяции лимфоцитов. Влияние ЭМП высоких интенсивностей на иммунную систему организма проявляется в угнетающем эффекте на Т-систему клеточного иммунитета.

Влияние на эндокринную систему и нейрогуморальную реакцию. В работах ученых в трактовке механизма функциональных нарушений при воздействии ЭМП ведущее место отводится изменениям в гипофиз-надпочечниковой системе. Исследования показали, что при действии ЭМП, как правило, происходила стимуляция гипофизарно-адреналиновой системы, что сопровождалось увеличением содержания адреналина в крови, активацией процессов свертывания крови. Было признано, что одной из систем, рано и закономерно вовлекающей в ответную реакцию организма на воздействие различных факторов внешней среды, является система гипоталамус-гипофиз-кора надпочечников.

Влияние на половую функцию. Нарушения половой функции обычно связаны с изменением ее регуляции со стороны нервной и нейроэндокринной систем. С этим связаны результаты работы по изучению состояния гонадотропной активности гипофиза при воздействии ЭМП. Многократное облучение ЭМП вызывает понижение активности гипофиза. Любой фактор окружающей среды, воздействующий на женский организм во время беременности и оказывающий влияние на эмбриональное развитие, считается тератогенным. Многие ученые относят ЭМП к этой группе факторов. Принято считать, что ЭМП могут, например, вызывать уродства, воздействуя в различные стадии беременности. Хотя периоды максимальной чувствительности к ЭМП имеются.

Другие медико-биологические эффекты. Результаты клинических исследований показали, что длительный контакт с ЭМП в СВЧ диапазоне может привести к развитию заболеваний, клиническую картину которого определяют, прежде всего, изменения функционального состояния нервной и сердечно-сосудистой систем. Было предложено выделить самостоятельное заболевание – радиоволновая болезнь. Это заболевание, по мнению авторов, может иметь три синдрома по мере усиления тяжести заболевания:

- астенический синдром;
- астено-вегетативный синдром;
- гипоталамический синдром.

Наиболее ранними клиническими проявлениями последствий воздействия ЭМ-излучения на человека являются функциональные нарушения со стороны нервной системы, проявляющиеся, прежде всего в виде вегетативных дисфункций неврастенического и астенического синдрома. Лица, длительное время находившиеся в зоне ЭМ-излучения, предъявляют жалобы на слабость, раздражительность, быструю утомляемость, ослабление памяти, нарушение сна. Нередко к этим симптомам присоединяются расстройства вегетативных функций. Нарушения со стороны сердечно-сосудистой системы проявляются, как правило, нейроциркуляторной дистонией: лабильность пульса и артериального давления, склонность к гипотонии, боли в области сердца и др. Отмечаются также фазовые изменения состава периферической крови (лабильность показателей) с последующим развитием умеренной лейкопении, нейropении, эритроцитопении. Изменения костного мозга носят характер реактивного компенсаторного напряжения регенерации. Обычно эти изменения возникают у лиц по роду своей работы постоянно находившихся под действием ЭМ-излучения с достаточно большой интенсивностью. Работающие с МП и ЭМП, а также население, живущее в зоне действия ЭМП, жалуется на раздражительность, нетерпеливость. Через 1-3 года у некоторых появляется чувство внутренней напряженности, суетливость. Нарушаются внимание и память. Возникают жалобы на малую эффективность сна и на утомляемость.

Основные источники электромагнитного излучения и способы защиты от их вредного действия. Источниками электромагнитных полей (ЭМП) являются: атмосферное электричество, радиоизлучения, электрические и магнитные поля Земли, искусственные источники (установки ТВЧ, радиовещание и телевидение, радиолокация, радионавигация и др.). Источниками излучения электромагнитной энергии являются мощные телевизионные и радиовещательные станции, промышленные установки высокочастотного нагрева, а также многие измерительные, лабораторные приборы. Источниками излучения могут быть любые элементы, включенные в высокочастотную цепь.

Электропроводка. Эта неотъемлемая часть жизнеобеспечения населения вносит наибольший вклад в электромагнитную обстановку жилых помещений. К электропроводке относят как кабельные линии, подводящие электричество ко всем квартирам и внутри их, так и распределительные щиты и трансформаторы. В помещениях смежных с этими источниками уровень магнитного поля обычно повышен, а уровень электрического поля невысокий и не превышает допустимых значений.

Рекомендации по защите:

- исключение длительного пребывания в местах с повышенным уровнем магнитного поля промышленной частоты;
- грамотное расположение мебели для отдыха в жилом помещении, обеспечивающие расстояние два-три метра до распределительных щитов и силовых кабелей;
- при установке полов с электроподогревом останавливать свой выбор системы на той, которая обеспечивает более низкий уровень магнитного поля;

Бытовые электроприборы. Естественно, что все приборы, работающие на электрическом токе, являются источниками электромагнитных полей. Наиболее сильными источниками ЭМП являются микроволновые и электрические печи, кухонные вытяжки, пылесосы и холодильники с системой "no frost". Реально излучаемое ими поля различны в зависимости от конкретных моделей, но следует заметить, что, чем выше мощность прибора, тем и магнитное поле, создаваемое им, выше. Значение же электрического поля гораздо меньше предельно допустимых значений. Наибольшее магнитное поле излучают микроволновые печи.

Рекомендации по защите:

- при приобретении бытовой техники необходимо обращать внимание на отметку о соответствии прибора требованиям "Межгосударственных санитарных норм допустимых уровней физических факторов при применении товаров народного потребления в бытовых условиях";
- использование приборов с меньшей мощностью;
- место отдыха необходимо достаточное его удаление от бытовых приборов излучающих достаточно большой уровень магнитного поля, таких как холодильники "no frost", некоторые типы полов с электрическим подогревом, телевизоры, нагреватели, блоки питания и зарядные устройства;

Средства сотовой связи. Достаточно актуальным является вопрос биологической безопасности сотовой связи. Несмотря на его многочисленные исследования, однозначного ответа ученые так и не дали. Можно отметить лишь одно за все время существования сотовой связи ни один человек не получил явного ущерба здоровью из-за ее использования. Сотовая связь обеспечивается радиопередающими базовыми станциями и мобильными радиотелефонами пользователей-абонентов. Так что по возможности не подносите его близко к телу. Ученые, проводившие эксперименты на животных, выяснили, что поля, не вызывая перегрева тканей, способны модулировать активность нервных клеток за счёт изменения проницаемости клеточных мембран для ионов кальция, что может

негативно сказываться на работе центральной нервной системы и теоретически может воздействовать на ДНК клеток. А носить телефон лучше всего в сумке, дипломате или рюкзаке.

Рекомендации по защите:

- использовать сотовый телефон в случаях необходимости;
- не разговаривать непрерывно более трех-четырёх минут;
- не допускать использования сотового телефона детьми;
- выбирать телефон с меньшей максимальной мощностью излучения;
- использовать в автомобиле комплект hands-free, размещая его антенну в геометрическом центре крыши.

Персональные компьютеры. Персональные компьютеры стали частью жизни многих людей. Некоторые используют их только на работе или дома, а некоторые проводят большую часть своего времени за компьютером. Влияние компьютеров однозначно сказывается на здоровье человека, влияя как на общее состояние, так и на зрение и другие органы. Но, это влияние складывается множеством разнообразных факторов, таких как эргономика устройств персонального компьютера и рабочего места пользователя, освещенность и зашумленность помещения, электромагнитное поле, создаваемое компьютером. Современные технологии позволяют отказаться от использования мониторов на электроннолучевой трубке и использовать жидкокристаллические мониторы, которые как техническим параметрам, так и параметрам воздействия на здоровье человека значительно отличаются в лучшую сторону. Но, все-таки, при использовании монитора следует соблюдать некоторые меры предосторожности, такие как:

- правильное размещение монитора;
- достаточная освещенность рабочего места;
- кратковременные перерывы в процессе работы.

Геопатогенные зоны. К сожалению, люди, не живущие в городах и далекие от прелестей цивилизации, тоже не могут быть спокойны. Земная поверхность таит в себе немало источников электромагнитных излучений влияющих на здоровье живых организмов. Их называют геопатогенными зонами. Долгое пребывание человека в этих зонах оказывает такое же воздействие, как и нахождение около электромагнитных излучений. Структура этих зон сложная и полиморфная, установлено несколько причин их возникновения: пересечения подземных водных потоков, проходящих на разных уровнях, геологические разломы, залежи полезных и неполезных ископаемых.

Заключение. Влияние электромагнитных полей на здоровье человека – это исследуемая задача науки. В связи со стремительным ростом числа технологий и приборов избежать влияния ЭМП в современном мире практически невозможно. Различные организации как государственные, так и международные разработали множество стандартов и требований для предотвращения, какого бы то не было влияния электромагнитного поля на человека и, почти вся продаваемая техника, соответствует этим требованиям.

Сегодня, по мнению специалистов, всю территорию можно назвать зоной экологического бедствия. Химическое и физико-техническое загрязнение природы угрожает самому существованию человека. Тем не менее, люди уже не могут отказаться от электростанций, железных дорог, самолетов и автомобилей, никто не согласится отказаться от завоеваний цивилизации, даже если речь идет о собственном здоровье. Некоторые полезные советы и меры предосторожности, представленные в виде памятки, можно рекомендовать для населения. Человек сам может обеспечить свою безопасность, если будет обладать необходимой информацией.

ЛИТЕРАТУРА

1. Рыженков А. П. Физика. Человек. Окружающая среда. – М.: Просвещение, 2000 г. – 152 с.
2. Экология и безопасность жизнедеятельности: учеб. пособие для вузов/ Д.А.Кривошеин, Экология и безопасность жизнедеятельности: учеб. пособие для вузов/ Д.А.Кривошеин, Л.А.Муравей, Н.Н. Роева и др.; Под ред. Л.А.Муравья. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2002. – 447с.
3. Yusupkhadjayeva E.N., Rozimukhamedova SH.B. The effect of electromagnetic waves on the human body. // In volume 18 of eurasian research bulletin. March. - 2023.
4. Yusupkhodjaeva E., Ruzimukhamedova Sh.B., Botirova N., Xolmatova N., Narziev SH., Negative influence of electromagnetic fields on human health and methods of protection. // Neft va gaz sohasidagi zamonaviy innovatsion texnologiyalar. Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjumani. - 2023.
5. Н. Ботирова, Б. Алляров, С. Рuzimухамедова. Современные электроразведочные аппаратурно-программные комплексы (АПК) при прогнозировании локальных нефтегазоперспективных объектов в нго Узбекистана.- Science and innovation, 2022.



UDK:551.1/4

Asliddin BOBOYOROV,
Mineral resurslar DM raqamli xaritalash bo'limi kichik ilmiy xodimi
E-mail: asliddinboboyorov097@gmail.com

Baxtinur ABDUJABBOROV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: baxtinurabdujabborov096@gmail.com

Xusniddin BOBOYOROV,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: hboboyorov@inbox.ru

Shohruxjon TOSHTEMIROV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

O'zMU dotsent v.b, PhD X.Xusainov taqrizi asosida

PROSPECTIVE SIGNS OF GOLD MINERALIZATION IN THE CENTRAL BOKANTOV MOUNTAINS AND LOCATION PATTERNS

Annotation

The identified main factors of the localization of Madan deposits in the Central Bokantov Mountains are common to the folded system. The emergence of gold mineralization in Central Bokantov was carried out at different stages of mineral formation, based on different sequences. They are characterized by their mineral associations, typomorphic minerals and their properties, micromineral complexes, and geochemical structure.

Key words. Typomorph, association, gold, forecast, ore, Bokantov, block, vein, localization, mineralization, silver, fissure, rocks, quartz-feldspar.

ПРОГНОЗРАЗВЕДОЧНЫЕ ПРИЗНАКИ И ЗАКОНЫ РАЗМЕЩЕНИЯ ЗОЛОТОДОБЫЧ В ЦЕНТРАЛЬНЫХ БОКАНОВЫХ ГОРАХ

Аннотация

Выявленные основные факторы локализации маданских отложений в Центральных Бокантовых горах являются общими для складчатой системы. Возникновение золотого оруденения в Центральном Бокантове осуществлялось на разных стадиях минералообразования, исходя из разных последовательностей. Они характеризуются минеральными ассоциациями, типоморфными минералами и их свойствами, микроминеральными комплексами и геохимическим строением.

Ключевые слова: Типоморфа, ассоциация, золото, перспектива, руда, Бокантов, блок, жила, локализация, минерализация, серебро, трещина, породы, кварц-полевошпат.

MARKAZIY BO'KANTOV TOG'LARIDAGI OLTIN MA'DANLASHUVINING QIDIRUV BASHORAT BELGILARI VA JOYLASHUV QONUNIYATLARI

Аннотация

Markaziy Bo'kantov tog'larida Ma'dan konlarini lokalizatsiya qilishning belgilangan asosiy omillari buklangan tizim uchun umumiydir. Markaziy Bo'kantovda oltin ma'danlashuvining vujudga kelishi mineral hosil bo'lishining turli bosqichlarida, turlicha ketma-ketlik asosida amalga oshirilgan. Ular o'zining mineral assotsiatsiyalari, tipomorf minerallari va ularning xususiyatlari, mikromineral komplekslari hamda geokimyoviy tuzilishi bilan xarakterlanadi.

Kalit so'zlar. Tipomorf, assotsiatsiya, oltin, prognoz, ma'dan, Bo'kantov, blok, tomir, lokalizatsiya, minerallashuv, kumush, darzlik, tog' jinslari, kvarts-dala shpatli.

Tadqiqotlar davomida endogen (birlamchi) va ekzogen (oksidlanish zonasi) ma'danlashuv zonalaridagi asosiy va hamroh elementlarning tarqalish xususiyatlari alohida o'rganilgan. Ushbu o'rganishdan asosiy ko'zlangan maqsad, ularni o'zaro hosil bo'lish sharoitlari, foydali komponentlarning uchrash shakllari va ma'danlarning texnologik xususiyatlari bo'yicha bir-biridan farq qilishi bo'lgan. Oltin va boshqa minerallashuvlarni joylashuvining qonuniyatlarini aniqlashdan oldin mahalliy istiqbolli pozitsiyalar chegaralarini tashkil etuvchi omillarni tahlil qilish va tasniflash va ular ichida va unga yondosh hududda minerallashuvning joylashishini aniqlash talab etiladi. Belgilangan omillar va xaritalar to'plami birgalikda batafsil tahlil qilingan holda prognoz xaritasiga aylantiriladi, unda turli yoshdagi mineralizatsiya uchun yashirin va chuqurlikdagi qazib olish qiyin bo'lgan istiqbolli hududlar ko'rsatiladi. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilishni o'z ichiga olgan maxsus ishlarni bajarish kerak:

1. Yakuniy deshifrlash;
2. Ma'dan joylashuvini nazorat qiluvchi omillar va minerallashuvning muhim belgilarini o'rganish;
3. Prognoz hududlari va pozitsiyalarini saralash va tartiblash.

Strukturaviy omillarni o'rganish, talqin qilish.

Bo'kantovning barcha oltin konlari va konlari keng blok ichidagi kesishish va maydalanish zonalarida joylashgan bo'lib, odatda asosiy qatlamlarga mos kelmaydi. Shunday qilib, bu zonalar ma'danni nazorat qiluvchi tuzilmalar rolini o'ynaydi va ma'dan bilan ta'minlovchi yoriqlar bilan solishtirish mumkin. Burdalangan va burdalanishdan tashqari, zonalar ko'pincha kamar va to'plamlarni tashkil etuvchi turli xil tarkibdagi kichik xaritalar va to'siqlar bilan tasviflanadi;

Ma'danlarni nazorat qiluvchi tuzilmalarning rolini turli tartibdagi ko'ndalang va diagonal uzilishlar va uzilish zonalarini o'ynaydi: konlardagi ma'dan tanalari va ustunlarining joylashishiga ta'sir qiluvchi kichiklardan tortib, bo'yлама bilan yaqin va kesishgan mintaqaviy bloklargacha zonalarini ma'dan konlari mahalliy lashtirilgan.

Ma'danlarni, ayniqsa, oltin-sulfid tomirlarida tarqalganlarni lokalizatsiya qilishda, odatda dolomit-kremniyli, karbonatli qatlamlarning asoslari va tomlari, shuningdek surish tekisliklari bo'lgan ma'danni himoya qiluvchi sirtlar muhim rol o'ynaydi.

Ayrim hollarda buayniqsa Bo'kantov uchun xos bo'lib ma'dan konlari bilan bog'liq holda ma'dan konsentratsiyasi tuzilmalarining rolini braxiform burmalar o'ynaydi. Ma'dan minerallashuvining fizik maydonlarning xarakterli xususiyatlari bilan yuqorida sanab o'tilgan tabiiy bog'lanishlari (ehtimol empirik) ma'dan ob'ektlarini (oltin, kumush, volfram) aniqlashning yuqori imkoniyati mavjud bo'lgan istiqbolli hududlarni bashorat qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ma'dan konlarini lokalizatsiya qilishning belgilangan asosiy omillari butun buklangan tizim uchun umumiydir. Shu bilan birga, har bir tektonik segmentda ularning ba'zilarining roli har xil bo'lishi mumkin. Oltin ma'danli konlarining har bir shakllanish turi uchun bo'lgani kabi aniqlangan omillar ham bir oz boshqacha ma'noga ega.

O'rganilayotgan hududda dizyunktiv buzilishlar judayam keng tarqalgan ularni o'rganishda bir qator olimlar ish olib borishgan Y.B.Aysanov va boshqalar, (1984) va A.A. Rubanov va boshqalar, (1993). Hududda tarqalgan yoriqlar turlicha bo'linadi - mintaqaviy yoriqlar, surish yoriqlari, ko'ndalang yoriqlar va boshqa yoriqlar [4].

Alp yoriqlarining yoshi barcha paleozoy tuzilmalarining siljishi va xususan, granitoid intruziyalari hamda mezozoy yotqiziqlari bilan aloqasi bilan belgilanadi.

Mintaqaviy yoriqlar va ular bilan bog'liq bo'lgan o'tkazuvchanlik zonalari to'g'ridan-to'g'ri to'plamlar, granitoid zahiralari va intruziv massivlar bilan ta'kidlangan kech paleozoy davriga tegishli. Bu tuzilmalarga Bo'kantov va Ko'kpatas chuqur yoriqlari kiradi.

Shimoliy va Janubiy Bo'kantov strukturaviy va shakllanish zonalari ajratib turadigan Bo'kantov yorig'i. Bo'kantov yorig'i tog'larning shimoliy yon bag'irlari bo'ylab cho'zilgan va chuqur yoriqlar tizimining g'arbiy davomi bo'lib, ular bo'ylab Janubiy Tyan-Shan O'rta Tyan-Shan ostida suriladi.

Ko'kpatas yorig'ini Bo'kantov tog'larining markaziy qismida kuzatish mumkin. Tuzilmaning yo'nalishi shimoliy-shimoli-g'arbiy. Hududning janubiy qismidagi yoriqlar asosan darzlikka ega bo'lib, bu chuqur yoriqlar uchun juda xosdir. Yoriq ko'ndalang teskari yoriqlar deb tasniflanadi, sharq tomonga tik cho'kadi.

Uzunlama yoriqlar mintaqaviy kelib chiqishiga ega, bir-biriga deyarli parallel bo'lib 290-310° azimutda cho'zilgan, butun maydonni kesib o'tadi va uning chegaralaridan tashqariga o'nlab kilometrarga cho'ziladi, qatlamlarni qalinligi bir necha metr dan bir necha o'nlab metrgacha. Bu guruhga turli yoshdagi yoriqlar kiradi. Qoramurun-Kulquduq, Serkesh, Ko'ksay, Bozdontau, Boztay, Oqjetpes, Janubiy Sautbay, Boztay-Sautbay, Turbay, Bulutkan, Saritay, O'g'uztau, Jetimtau va Shimoliy Jetimtau kiradi. Ushbu yoriqlar ko'p darzlik tuzilishga ega bo'lib, o'tkazuvchanlikning kuchayishi, silisifikatsiya va ko'pincha metasomatik rivojlanishi zonalari bilan birga keladi. Ushbu tuzilmalar QPMda aniq dekodlanadi va ularni yerda kuzatish mumkin. Barcha uzunlamasina yoriqlar janubiy yo'nalishda aralash tarkibdagi cho'kindilar bilan surish yoriqlari sifatida tasniflanadi. Yoshga ko'ra, o'rta karbon (C_{2m}) davrida paydo bo'lgan zarbalmi aniq tashxislash mumkin. Ko'ndalang yoriqlar odatda shimoli-sharqiy yoki submeridional yo'nalishga ega. Ushbu yo'nalishdagi tuzilmalar blokrovkalash xususiyatiga ega va teskari yoriqlar sifatida tasniflanadi. Bu yoriqlarga Sharqiy Bokali, Ayakash, Qasqirtay, Sautbay-Djajxan, Sharqiy Turbay, Sharqiy Qatirtas, Akoy va Oqjetpes-Saritay kiradi [1].

Markaziy Bo'kantov tog'laridagi oltin ma'danlashuvining qidiruv belgilari.

Markaziy Bo'kantovda oltin ma'danlashuvining vujudga kelishi mineral hosil bo'lishining turli bosqichlarida, ma'lum ketma-ketlik asosida amalga oshirilgan. Ular o'zining mineral assotsiatsiyalari, tipomorf minerallari va ularning xususiyatlari, mikromineral komplekslari hamda geokimyoviy tuzilishi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga oltin ma'danlashuvi joylashuvida ham o'ziga xos geologik-strukturaviy omillarga bo'ysunganligini kuzatish mumkin. Ushbu to'plangan ma'lumotlar Markaziy Bo'kantov maydonidagi oltin ma'danlashuvining qidiruv-bashoratlash belgilarini ajratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi [2].

Ma'lumki foydali qazilma konlarini qidirishning bevosita va bilvosita belgilari ajratiladi. Bevosita qidiruv belgilari o'rganilayotgan hududda ma'lum bir foydali qazilma mavjudligini to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib turadigan belgilardir. Tadqiqot maydonlari to'rtlamchi davrning qalin (3-5 m) yotqiziqlari bilan qoplanganligini va tub tog' jinslarining ochilish darajasi juda pastligini hisobga olsak bu maydonlarda asosan bilvosita qidirish belgilarini ajratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot hududi va yondosh maydonlar uchun oltin ma'danlashuvini qidirishning quyidagi belgilari hosdir.

Geologik-strukturaviy belgilar

1. O'rganilayotgan maydonlardagi markaziy minerallashgan zonalarda, asosiy oltin ma'danli tanalarni lamprofir daykalari qamrab yotadi, ular shimoliy-sharqiy yo'nalishda rivojlangan va uzunligi 250-750 m, qalinligi 1-5 m ni tashkil qiladi.

2. Oltin ma'danlashuvining joylashishini nazorat qiluvchi asosiy uzilmali strukturalar bir-biriga yaqinlashib kelgan shimoliy-g'arbiy yo'nalishda tarqalgan, keyinchalik yo'nalishini subkenglikka o'zgartirgan, ularga teskari - janubga tomon o'zgarigan tektonik to'qlanishni yuzaga keltirgan yoriqlar guruhi hisoblanadi va ular ma'dan olib keluvchi Ko'kpatas chuqur yer yorig'iga mos tarzda rivojlangan. Ular tektonik jixatdan zaiflashgan ikkita markaziy (140-155° < 80-90°) hamda janubiy (330 < 75-90°) zonalarni hosil qiladi.

Bu yer yoriqlari sirpanish yuzasi, siljish xususiyatlari bo'yicha uzilmali strukturalarning uzilma-siljima turini ifodalaydi. Darzlik bo'ylab gorizontal siljishlar natijasida uning yuzalari biroz ochilgan va shu tariqa daykalarining, hamda ma'dan hosil qiluvchi eritmalarning keyingi harakatlari uchun qulay sharoit yaratilgan.

3. Albatta uzilmali strukturalar orqali harakatlanib kelgan gidrotermal eritmalar tarkibidagi elementlarning bir-biri bilan bog'lanib, qulay joylarda foydali komponentlar sifatida o'rnatilishi uchun tog' jinslarining tarkibi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maydondagi asosiy ma'dan tanalarini qamrovchi yotqiziqlar regional metamorfizmga uchragan, tufogen xususiyatidagi kvarts-dalashpatli metaqumtoshlar va huddi shu tarkibli metaalevrolit qatlamlaridan tashkil topgan. Bu pacha shimoliy - g'arbiy yo'nalishda cho'zilgan bo'lib, 55-70° burchak ostida shimoliy-sharqqa qarab yotadi. Mo'rt metaqumtoshlar va metaalevrolitlar tektonik harakatlar ta'sirida kuchli darzlashgan va shu tufayli o'tkazuvchanlik qobiliyati yuqori bo'lgan burdalangan zonalarni hosil qiladi, bu esa maydondagi muhim ma'dan hosil bo'lishi va joylashuv omili hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asosan oltin ma'danlashuvini qidirishda geologik-strukturaviy belgilar ko'proq geologik hosilalar, tog' jinslaridagi o'zgarishlar turli xil burmalari va uzilmali strukturalar elementlari orqali namoyon bo'ladigan belgilardir. Shu asnodda quyida ajratilgan belgilar mavjudligi hududdagi oltin ma'danlashuvini qidirish va baholash ishlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi:

➤ Shimoliy-g'arbiy va subkenglik yo'nalishidagi yirik darzlik tektonik qurilmalar mavjudligi;

➤ Turli tarkibli dayka hosilalar seriyasi;

➤ Darzlanishga moyilligi yuqori bo'lgan metaqumtoshlar va metaalevrolitlarning yirik qatlamlari;

➤ Darzlashgan zonalarda kvartslashuv jarayonining keng tarqalganligi;

Yuqori darajada darzlashgan bo'ylama va ko'ndalang yer yoriqlari bilan chegaralangan, to'liqsimon buklangan zonalarning mavjudligi;

Bo'kantov tog'larida asosiy ma'dan-boshqaruvchi elementlari shimoliy-sharqiy yo'nalishdagi yoriqli kenglik yoriqlarining kesishgan joylari, Qorashaxo qatlamining vulkanogen-cho'kindi hosilalarining Ko'kpatas qatlamining kremniyli-karbonat konlari bilan aloqa qismlari hisoblanadi. Ko'kpatas konining o'zi (Yujniy-I va II uchastkalari) Ko'kpatas antiklinalining janubi-sharqiy qanoti bilan chegaralangan bo'lib, u Ko'kpatas qatlamlarini shakllanishining kremniyli-karbonatli jinslarining vulkanogen-sediga surilishi natijasida paydo bo'lgan egiluvchan egilishlar bilan murakkablashgan. Qorashaxo formatsiyasining o'rta karbonli tuzilmalari, shimoliy-g'arbiy va kenglik yo'nalishi bo'yicha yoriqlar bo'lib, ular ma'dan boshqaruvchi va ma'danli tuzilmalar rolini o'ynagan. Ma'dan jinslarining strukturaviy holati Qorashaxo to'plamlari (O'zbekiston ma'dan konlari) cho'kindi-vulkanogen tuzilmalaridagi maydalash zonalari qatlamlarining egiluvchan egilishlari, yorilish kuchayishi va boshqalar bilan chegaralanganligi bilan belgilanadi. Geodinamik tuzilmani o'rnatishga masofadan zondlash talqini natijalari katta hissa qo'shadi, unda strukturaning morfostruktura elementlari, morfologik tugunlari va turli yo'nalishdagi tektonik buzilishlar aniq aniqlanadi [3].

1-rasmda Ko'kpatas ma'dan konining 1:100000 masshtabdagi geodinamik holatining laboratoriya, eksperimental tektonofizik tadqiqotlar asosida tuzilgan diagrammasi keltirilgan. Shuningdek, 1-jadvalda Ko'kpatas va Bo'ztov ma'dan konlari uchun asosiy ma'danni nazorat qiluvchi omillar va endogen minerallashuv belgilari ko'rsatilgan.



1-rasm. Ko'kpatas ma'dan konining geodinamik holati sxemasi. Mashtab 1:100000.
O'rganilayotgan hududda ma'dan nazorat qiluvchi omillar va endogen minerallashuv belgilari

№ T / r	Tadqiqot maydonlari	Faktorlar va belgilar									
		Litologik	Strukturaviy	Mineralogik	Geokimyoviy	Geofizik	Aerokosmik	Tektonofizik	Geodinamik	Deformatsiyalar	
1	Bo'ztau ma'dan koni Au, W 1. Au konlari, paydo bo'lishi 2. W paydo bo'lishi	Uglerodli-qumslanetsli va metamorf ogen shakllanish	Shimoli-g'arbiy yoriqlar tizimi	Oltin shelit va sulfidli kvarts hosilalari	Oltinning geokimyoviy areollari, volfram	Mintaqaviy salbiy EP anomaliyalari, ijobiy magnet va salbiy tortishish anomaliyalari	Bo'kantov halqasining tuzilishi, shimoli-g'arbiy kenglik zonalarining mavjudligi	Zaif tangensial kuchlanish qiymatlar zonasi	Ko'kpatas chuqur yorig'ining faoliyati	Mahalliy siqilish deformatsiyasi	
2	Ko'kpatas ma'dan koni (Au-Ag ning 3 ta hodisasi). Au hosil bo'lishi	Metoterigen shakllanish	Shimoli-g'arbiy va shimoli-sharqiy (?) yoriqlar joylashuvi	Oltin shelit va sulfidli kvarts hosilalari	Oltin, mis va kumushning geokimyoviy areollari	Mintaqaviy salbiy tortishish anomaliyalari	Bo'kantov halqali strukturasining leniamentlari	Zaif tangensial kuchlanish qiymatlar zonasi	Ko'kpatas chuqur yorig'ining faoliyati	Mahalliy siqilish deformatsiyasi	

Jadval 1

Xulosa. Markaziy Bo'kantov maydonida endogen ma'danlashuv xususiyatlariga bog'liq bo'lgan ma'dan geologiyasining yechilmagan ayrim masalalari mavjuddir. Hududda kompleks ravishda geologik tadqiqotlarni an'anaviy usullaridan tashqari zamonaviy tadqiqot usullarini ham majmuaviy qo'llashni taqozo etadi bu esa ushbu hududda kelajakda ehtimoliy uchastkalar balki, yangi istiqbolli ma'danlashuv pozitsiyalarini ajratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Moyliyev M.Sh, Karabayev M.S, Boboyorov X.A. Markaziy Bo'kantov oksidlangan ma'danlarining mineral tarkibi va shakllanish xususiyatlari // Konchilik xabarnomasi, 2021 № 2, -S. 39-42.
2. Юсупов Г.Р., Маринова С.Т., Юлдашев О.А. Критерии поисков и оценки золотого оруденения различных промышленных типов в Южном Букантау. Отчет по теме №493 за 1999-2003г.г. ИМР, Ташкент, 2003г. В 2-х
3. Карабаев М.С. Изучение органического вещества осадочно-метаморфогенных пород Восточного Букантау (Центральные Кызылкумы) // Вестник НУУз, №2. - Тошкент, 2012. - Б.46-48.
4. Зонов В.И. "Геологическая карта масштаба 1:500000 и полезные ископаемые гор Кокпатас (лист К-41-68-Б)". Пос. Кокпатас, 1967.



Xusniddin BOBOYOROV,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: hboboyorov@inbox.ru

O'zMU professori, g.m.f.n A.Kushakov taqrizi asosida

PECULIARITIES OF GOLD MINING IN CENTRAL BOKANTOV MOUNTAINS

Annotation

The types of mineralization in the north-western part of Central Bokantov differ from each other in terms of mineral composition, morphological features, and arrangement. The obtained data make it possible to distinguish the types of oxidized ore formed due to exogenous processes in the upper part of ore bodies and the following endogenous primary ores.

Key words: Mineralization, morphology, exogenous, oxidized, endogenous, Kyzylkum, Kokpatas, mineralization, sulfide.

ОСОБЕННОСТИ ДОБЫЧИ ЗОЛОТА В ЦЕНТРАЛЬНЫХ БОКАНТОВЫХ ГОРАХ

Аннотация

Типы оруденения северо-западной части Центрального Бокантова отличаются друг от друга по минеральному составу, морфологическим особенностям и расположению. Полученные данные позволяют выделить типы окисленных руд, образовавшихся за счет экзогенных процессов в верхней части рудных тел, и следующих за ними эндогенных коренных руд.

Ключевые слова: Минерализация, морфология, экзогенная, окисленная, эндогенная, Кызылкум, Кокпатас, минерализация, сульфидная.

MARKAZIY BO'KANTOV TOG'LARIDA OLTIN MA'DANLASHUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Markaziy Bo'kantovning shimoliy-g'arbiy qismida ma'danlashuv turlari o'zaro mineral tarkibi, morfologik xususiyatlari va joylashish tartibi bilan bir-biridan farq qiladi. Olingan ma'lumotlar ma'dan tanalarining yuqori qismidagi, ekzogen jarayonlar tufayli hosil bo'lgan oksidlangan ma'dan turlarini va quyidagi endogen birlamchi ma'danlarni ajratish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Ma'danlashuv, morfologiya, ekzogen, oksidlangan, endogen, Qizilqum, Ko'kpatas, minerallashuv, sulfid.

Kirish. Hozirgi vaqtlarda nafaqat respublikamizda balki, jahon miqyosida ham turli ma'danlar, ularning endogen ma'danlashuvda ahamiyati, joylashuv xususiyatlarini o'rganish borasida, va albatta ma'danlar geologiyasining muhim muammolaridan biri yopiq maydonlarda ma'danlashuv tizimlarini ilmiy asoslash borasida ko'pgina tadqiqotlar olib borilayotgani hech kimga sir emas.

Mazkur Markaziy Qizilqum hududida ham qamrovchi tog' jinslarining metasomatik o'zgarish darajasi va endogen ma'danlashuvda jarayonlarning jadalligi bilan deyarli barcha ma'danoldi o'zgargan tog' jinslarining namoyon bo'lishi borasida o'zaro bog'liqlik mavjudligi e'tirof etilgan (Moyliyev, 2022). Ushbu hududda ham ko'p yillik tadqiqot va izlanishlar natijasida aynan Ko'kpatas ma'dan maydoni ma'dan va ma'dan oldi tog' jinslarining moddiy tarkibi, teksturaviy xususiyatlari bir-biriga yaqinligi bilan alohida ahamiyat kasb etgan [1].

Gidrotermal o'zgargan tog' jinslarining mavjudligi ma'danli zonal shakllanishining muxim omillaridan xisoblanadi, chunki vaqt nuqtai nazaridan, erta metasomatik o'zgarishlar ma'dan hosil bo'lishdan oldin yuzaga keladi va ma'danlarni nazorat qilish uchun qulay fizik-kimyoviy muhit yaratadi. Markaziy Qizilqum oltin-kumush konlarida ma'dan oldi o'zgargan tog' jinslarida ko'rish mumkinki asosan berezit-listvenitli metasomatitlar, kam darajada tog' jinslarining leysitlashuvi va argillitlashuvi bilan ifodalanadi. Xol-xol sulfid minerallashuvlari bilan bog'liqdir. Ma'danli minerallashuvlarning asosiy massasi tog' jinslarining metasomatik o'zgarishi bilan birga gidrotermal jarayonlar natijasida hosil bo'lgan kvarts-pirit-arsenopirit va kvarts-karbonat-polisulfid bilan bog'lik. Turli xil ma'danli foydali qazilmalarning ko'plab konlarida uchraydigan ma'danoldi o'zgargan jinslarini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi [2]. Ammo ularni o'rganishning ahamiyati shundaki, asosan ushbu jinslar bilan bog'liq ma'danlarning hosil bo'lish qonuniyatlari haqida juda muxim ma'lumotlar olish, ma'danoldi o'zgargan jinslar gidrotermal ma'dan konlarini qidirishda ishonchli qidiruv mezonlaridan biri ekanligidan dalolat beradi.

Bo'kantov tog'larida oltin-nodir metalli konlari metasomatik jinslar majmuasi ma'lum maxsuldor mineral-geokimyoviy paragenezislari bo'lgan alohida ma'danoldi o'zgarishlarga ega ma'dan-metasomatik tizim hosil bo'lish ketma-ketligining yagona qatoriga to'g'ri keladi [7]. Oltin va oltin-kumush ma'danli ob'yektlarning ma'dan metasomatik shakllanishlari ushbu tizimning alohida yuqori qismlari bilan ifodalanadi. Markaziy Qizilqumning oltin ma'danli maydonlaridagi metasomatik hosilalarini o'rganishda o'z xisalarini qo'shgan olimlarning natijalari keltirilib o'tilgan jumladan: R.V.Soy, N.V.Kotov, D.A.Dorofeyev, Ch.X.Arifulov, M.I.Ismailov, V.F.Prosenko, A.M.Musayev, M.S.Karabayev, SH.M.Moyliyev va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida keltirilgan [1-8].

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Ko'kpatas ma'danli maydoni ma'dan oldi tog' jinslarining moddiy tarkibi, teksturaviy xususiyatlarini o'xshashligi va ular kvarts-karbonat serisitli, listvenit-berezitli xamda kaliy dala shpatli metasomatitlardan tashkil topganligini etirof etishimiz mumkin.

Tadqiqot maydonida olib borilgan tadqiqot usullari. Tadqiqot maydonida olib borilgan ma'lumotlarni taxlil qilishda ma'dan oldi o'zgargan jinslardan tayyorlangan anshliflarni zamonaviy yuqori aniqlikqga ega bo'lgan "Nikon ECLIPSE LV100N POL" mikroskop yordamida va o'zgargan xamda o'zgarmagan jinslar kimyoviy tarkibini solishtirish uchun kimyoviy taxlil usullaridan foydalanildi.


Markaziy Bo'kantovning shimoliy-g'arbiy qismidagi Bo'ztov braxio antiklinalining g'arbida joylashgan. Bu uchastkada oltin-sulfidli ma'danlashuvga ega bo'lgan asosiy ma'dan oldi o'zgarishlar berezit-listvenitli va kvarts-albitli metasomatitlar xisoblanib, kamroq argillitlar tarqalgan.

Ushbu o'zgargan tog' jinslari tektonik zaiflashgan zonalar bilan chegaradosh bo'lib, chiziqli xoshiyalar hosil qilgan. Tektonik buzilishlar va kichik qalinlikdagi tomirlar xamda tomirchalar yaqinida rivojlangan oreollarning qalinligi uncha katta emas va odatda bir necha 10 sm gacha o'zgarib turadi.

Makroskopik jixatdan gidrotermal o'zgargan jinslar, o'zgarmagan tog' jinslariga nisbatan rangi ochroq va kuchsiz yashilsimon tuslilik xamda biroz zichligi pastroqligi bilan farqlanadi. Ushbu tog' jinslarining och rangda bo'lishi tub jinslar tarkibida xloritning kvarts va slyudalar bilan o'rin almashinishi xamda metasomatik qayta shakllanayotgan jinslar tarkibidan uglerod moddalarining chiqib ketishi natijasida yuzaga kelganligini ko'rish mumkin bo'ladi.

Tadqiqot maydonidan olingan natijalar ularning samaradorligi.

Bo'kantov tog'larida judayam keng tarqalgan Berezit-listvenitli metasomatitlar. Ular asosan tektonik zonalarning qalinligi bir necha santimetrdan o'n santimetrgacha bo'lgan joylarida namoyon bo'lgan. Ba'zi joylarda noaniq ifodalangan zonal tuzilishga ega bo'lib, zonal orasidagi o'tish ketma-ket amalga oshganligini ko'rishimiz mumkin.



Qayta shakllanayotgan zonalarda asosan birlamchi tog' jinsining mineralari mayda donali gidrotermal kvarts va serisit agregatlari bilan o'rin almashinadi. Kvarslashuv tomirlar, tomirchalar va metasomatik xususiyatga ega bo'lgan zonal ko'rinishida namoyon bo'lgan. Ushbu zonalarda pirit, izometrik shakldagi yirik kristall zarralari bilan ifodalanaadi (g-rasm). Serisitlashuv jarayoni birinchi navbatda alevrolit va qumtoshning metapilitli sementlarida nomoyon bo'ladi, metasomatik qayta o'zgarish oshgan sari dala shpatlari va kvarts o'rin almashinishi kuzatiladi (c-rasm). Karbonatlar dolomit-ankeritlar shaklida namoyon bo'lgan va metasomatik jinslar tarkibida tuplangan.

Bo'kantov tog'larida berezitlashuv zonalarning uziga xos xususiyati, ularda qamrovchi jinslar tarkibi (o'rta va asos jinslar) va fizik-kimyoviy jarayonlar parametrlari bilan aloqador yangi hosil bo'lgan xlorit va albitning keng tarqalganligi xisoblanadi. Xloritning ikki xil turi kuzatiladi: birinchisi mayda zarrali, birlamchi jinslar qoldiqlari nisbatan teng tarqalgan qismidagi qamrovchi jinslar uchun xos; ikkinchi tur aniq metasomatik xususiyatga ega bo'lgan, ilgaksimon strukturali, yirik noto'g'ri agregatlar shaklida rivojlangan qismi uchun xos. Xlorit nafaqat tashqi, balki oraliq zonalarda kamroq ichki zonalarda xam keng tarqalgan.

Albit mayda prizmasimon donali agregatlar bilan ifodalanaadi, ko'pincha shaffof kristallar xolida kuzatiladi. Qayta o'zgarish jarayonining jadal rivojlangan markaziy zonalarda mayda donali serisit-kvarts shakllangan. Karbonatlar asosan vulkanogen-cho'kindi jinslaridagi berizitlashuv jarayonida ko'proq rivojlangan.

Mineralogik tarkibi va tekstura-strukturaviy xususiyatlari jixatidan xlorit-serisit-kvartsli metasomatitlar berezitlashuv jarayonining metasomatik ustunining tashqi qismida joylashuvchi listvenitlarga yaqin.

Bo'kantov tog'larida ma'dan oldi o'zgarishlarining o'ziga xos xususiyati, yangi hosil bo'lgan (kvarts va piritdan tashqari) serisit va karbonat mineralarini o'z ichiga olgan berezit-listvenit formatsiyasining o'rta va tashqi qismlarida kam miqdorda rivojlangan albit va keng tarqalgan xloritning ishtirok etishidir. Xloritlarning ma'danlashuvigacha hosil bo'lgan assosiativlari tarkibida temir miqdori magniyga nisbatan kamroq, ma'danlashuv bilan birga hosil bo'lganlarida esa yuqori ekanligi aniqlandi [5]. Mineralarning ushbu tipomorf xususiyatlari oltin ma'danlashuvini qidirish belgisi sifatida xizmat qiladi.

Metasomatik o'zgarishlar eng ko'p ro'y bergan zonalari berezit fatsiyasiga tegishli bo'lib, kvarts, serisit, karbonatdan tashkil topgan. Yangi hosil bo'lgan xlorit va albit xam mavjud bulgan metasomatik ustunlarning kamroq o'zgargan tashqi zonalari listvenit fatsiyalarida shakllangan. Ushbu assosiativlarda mineral tarkibi, tarqalish xususiyatlariga ko'ra, past temperaturali metasomatitlarga tegishlidir.

Yo'l-yo'l va tomirsimon shakldagi pirit-arsenopirit mineralashuvi berezit-listvenit metasomatitlarining areollari bilan rivojlanadi. Ba'zilar ko'pincha o'zgarishlarning ichki zonalarda hosil bo'lgan.

Berezitlashgan jinslar zonalardagi ikkala xolat farqlari bo'yicha alyuminiy miqdorining sezilarli darajada pasayganligi va gidrotermal eritmalar bilan kirgan kremniy, temir, kaliy, kalsiy, karbonat anhidrid va oltingugurt miqdorlarining turli darajada ko'payganligini ko'rish mumkin. Boshqa komponentlarning miqdori axamiyatsiz o'zgarib turadi. Bu o'zgarishlar metasomatitlarning ichki zonalarda ko'proq kuzatiladi. Ushbu xolat ma'dan oldi o'zgarishlarining turlari ko'pincha ichki zonalarning moddiy tarkibi bilan ifodalanishidan darak beradi. Berezit-listvenitli formatsiyalarining fatsiyal turlari nomoyon bo'lishi birlamchi jinslar tarkibi bilan bog'liqligi turli-xil xududlardagi konlarda aniqlangan.

Oltin maxsuldor kvarts-pirit-arsenopirit assosiativiyasi, berezitlashgan jinslar zonasida rivojlangan kvarslashgan tomirchashimon shakldagi jinslarda, qisman berezitlarning ichki qismlarida ketma-ket joylashgan. Assosiativiyaning oltindorligi pirit va arsenopirit miqdoriga bog'liq. Ko'zga ko'rinmas oltin sulfidlar tarkibida yupqa dispers xolatda tarqalgan. Bu bosqich uchun noma'dan mineralardan serisit, nisbatan temirlashgan karbonatlar va ma'danlashuvning chekka qismlarida xlorit xosdir.

Tadqiqot maydonidagi ma'dan oldi o'zgarishlarining joylashuv tartiblari taxlil qilindi va bunga ko'ra kvarts-albitli metasomatitlar, berezitlar bilan aloqador ekanligi xamda ko'proq ularning chekka qismlarida joylashganligi, burg'u quduqlari ma'lumotlari asosida aniqlangan. Ushbu xolat jinslarning tashqi qismlaridagi uzgarishlari, metasomatik ustunining ichki qismlaridagi o'zgarishlar darajalari bilan bog'lik ekanligini ko'rsatadi. Bo'kantov tog'laridagi oltin-sulfidli konlarda kvarts-dala shpatli metasomatitlar mavjudligini ko'plab tadqiqotchilar e'tirof etishgan. Masalan Ko'kpatas konida berezit-listvenitlar bilan bir qatorda dala shpatli metasomatitlar aniqlangan.

Kvarts-albitli metasomatitlar. Bo'kantov tog'larida keng tarqalgan kvarts-dala shpatli metasomatitlarning aloxida xususiyatlari ularning barcha zonalarda albit miqdorining ko'pligidadir. Metasomatitlarning ichki zonalarda albit 65-70% gacha, kvarts miqdori 10-15%, xlorit 2-3%, temirli karbonatlar (siderit) 10-15% va pirit 0,5-1% ga yetadi (i-rasm). Albit yirik zarrali, qo'shloqli tuzilishga ega. Metasomatitlar to'laligicha kataklazlashgan. Kvarts minerali xam yirik zarrali bo'lib, asosan zonalarning markaziy qismida rivojlangan. Bu zonalarda kvarts idiomorf shakllarini egallagan. Ma'danli mineralari 0,07 mm dan katta bo'lmagan bir xil tarqalishga ega mayda xol-xol pirit donachalaridan iborat. Kvarts-albitli metasomatitlarning hosil bo'lishi konlarning (nisbatan past xaroratli) chet qismlari uchun mansubdir.

Yangi shakllangan mayda zarrali agregatlardan iborat oraliq zonalarda deyarli yaqin mineral tarkibiga ega, lekin xlorit miqdori ko'proq (10-15% gacha). Qamrovchi jinslar albitlashgan zona kontakti chegarasini shlifda aniq ko'rish mumkin (l,i-rasm). Kvarts-albitli tomirchalar karbonat tomirchalar bilan kesishadi. Albitlashgan zonalarda tashqi qismi (qalinligi 0,5-1 sm) mayda zarrali albit va uyasimon xlorit to'plamlaridan tashkil topgan. Albit kristallari tomirchalar yo'nalishiga ko'ndalang cho'zilgan xolda joylashgan.

Ko'rsatilgan ma'dan oldi o'zgarishlarining fatsial turlarining farqlari tog' jinsi namunalarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ma'dan tanalarining ichki qismlari ko'prok xollarda yoriqlar bo'ylab va ularning atrofida rivojlangan kvarts-karbonat-serisitli berezitlashuvdan iborat. Bunda sulfidli mineralashuv kvarts-serisitli zonalarda joylashgan, ba'zi xollarda ularni yorib mayda tomirchalar ko'rinishida atrofda qamrovchi jinslar fomon xam chiqqanligini kuzatish mumkin. Sulfidli mineralar ma'dan tanalari va ularning yon taraflarida, kvartsda va faol xloritlashgan qamrovchi uglerod-kremniyli slanelarda uyumlar va xol-xol ko'rinishda joylashgan (l-rasm). Madan oldi o'zgarishining chekka qismlari esa yagona berezit-listvenitli metasomatik formatsiyasining listvenitli fatsiyasiga tegishli. Kvarts-albitli metasomatitlar esa aloxida leysitli ma'danoldi o'zgarishlariga talluqli. Turli madanli konlarda metasomatik hosilalarning ushbu ko'rinishda tizimlash asoslari oldindan ko'rsatilgan [4].

Xulosa. Bo'kantov tog'larida keng tarqalgan jinslarning asosiy ma'dan oldi o'zgarishlarining qonuniyatlari berezit-listvenitli metasomatitlar va oltin-sulfid ma'danlashuvi o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bir xil jarayon ta'sirida ketma-ket hosil bo'lganligini ko'rsatdi: avval berezit-listvenitli ma'dan oldi o'zgarishlari rivojlangan va ular shakllanishining oxirgi bosqichlarida gidrotermal tizimning nordonlik darajasi yuqori bo'lgan sharoitda sulfid minerallarining kristallanishi kuzatilgan.

ADABIYOTLAR

1. Мойлиев М.Ш, Карабаев М.С, Бобоёров Х.А. Марказий Букантов оксидланган маъданларининг минерал таркиби ва шаклланиш хусусиятлари// Кончилик хабарномаси, 2021 № 2, -С. 39-42.
2. Карабаев М.С. Сравнительная характеристика минеральных парагенезисов золото-редкометалльного и золото-серебряного оруденения гор Букантау и Ауминзатау // Горный вестник Узбекистана. - 2016.-№ 2.-С. 45-48.
3. Арифулов Ч.Х. О минералогии и генезисе зон прожилково-вкрапленного золото-сульфидного оруденения Кызылкумов // Узб. геол. журн. - 1976. - № 5. С. 54-61.
4. Дорофеев Д.А., Лайпанов ХХ. О гидротермально-метасоматических преобразованиях пород на Кокпатасском рудном поле // Тр. ЦНИГРИ. - М., 1971,-Вып. 99. -№ 1, -С. 42-45.
5. Зарайский Г.П. Зональность и условия образования метасоматических пород. - М.: Наука, 1989. - 342 с.
6. Карабаев М.С. Метасоматиты золото-редкометалльных и золото-серебряных месторождений гор Букантау и Ауминзатау и их взаимоотношение с оруденением // Горный вестник Узбекистана. - 2017. - № 3. - С. 70-79.
7. Карабаев М.С. Сравнительная характеристика минеральных парагенезисов золото-редкометалльного и золото-серебряного оруденения гор Букантау и Ауминзатау // Горный вестник Узбекистана. - 2016.-№ 2.-С. 45-48.
8. Мусаев А.М. Формации гидротермально-измененных пород месторождений золота и меди Западного Тянь-Шаня // Металлогения золота и меди Узбекистана. - Т.: Фан, 2012. - С. 234-269.



Jonibek BOZOROV,

G'.O. Mavlonov nomidagi Seysmologiya instituti katta ilmiy xodimi

E-mail: j.bozorov1968@gmail.com

Axrur XUSOMIDDINOV,

G'.O. Mavlonov nomidagi Seysmologiya instituti katta ilmiy xodimi, PhD

Eldor YADIGAROV,

G'.O. Mavlonov nomidagi Seysmologiya instituti katta ilmiy xodimi, PhD

Nurali MUHAMMADQULOV,

G'.O. Mavlonov nomidagi Seysmologiya instituti kichik ilmiy xodimi

TAQU katta o'qituvchisi, PhD M.Babjanov taqrizi asosida

FEATURES OF THE MANIFESTATION OF RESIDUAL DEFORMATIONS IN DISPERSED GROUNDS DURING STRONG EARTHQUAKES AND THEIR EFFECT ON SEISMIC STRENGTH

Annotation

This paper observed the interaction of grounds with seismic effects and the manifestation of deformational properties in grounds. In the research work, the issues of observing residual deformations during strong earthquakes in dispersed grounds and ensuring their seismic resistance are covered. In this case, deformation processes under seismic influences were observed to assess the intensity and scale of residual deformation, and aspects of the manifestation of deformation during earthquakes of different intensity were considered.

Key words: dispers ground, residual deformation, clot, crack, earthquake, seismic impact, intensity.

ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ОСТАТОЧНЫХ ДЕФОРМАЦИЙ В РАССЕЯННЫХ ГРУНТАХ ПРИ СИЛЬНЫХ ЗЕМЛЕТРЯСЕНИЯХ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СЕЙСМИЧЕСКУЮ ПРОЧНОСТЬ

Аннотация

В статье исследовалось взаимодействие грунтов с сейсмическими воздействиями и проявление деформационных свойств грунтов. В исследовательской работе рассматриваются вопросы наблюдения остаточных деформаций во время сильных землетрясений в рассеянных грунтах и обеспечения их сейсмостойкости. При этом наблюдались деформационные процессы при сейсмических воздействиях для оценки интенсивности остаточной деформации, а также рассматривались аспекты проявления деформации при землетрясениях различной интенсивности.

Ключевые слова: дисперсный грунт, остаточная деформация, сгусток, трещина, землетрясение, сейсмическое воздействие, интенсивность.

KUCHLI ZILZILALAR PAYTIDA DISPERS GRUNTLARDA QOLDIQ DEFORMATSIYALARNING NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI VA ULARNING SEYSMIK MUSTAHKAMLIKGA TA'SIRI

Аннотация

Ushbu maqolada gruntlarning seysmik ta'sirga o'zaro munosabati va deformatsion xususiyatlarning gruntlarda namoyon bo'lishi kuzatilgan. Tadqiqot ishida dispers gruntlarda kuchli zilzilalar paytida qoldiq deformatsiyalarning kuzatilishi va ularning seysmik chidamliligini ta'minlash masalalari yoritib berilgan. Bunda qoldiq deformatsiyaning intensivligi va miqyosini baholash uchun seysmik ta'sirlar ostida deformatsiya jarayonlari kuzatilgan va har xil intensivlikdagi zilzilalar paytida deformatsiyaning namoyon bo'lish jihatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: dispers grunt, qoldiq deformatsiya, quyqalanish, yorilish, zilzila, seysmik ta'sir, intensivlik.

Kirish. Kuchli seysmik ta'sirlar ostida dispers gruntlarda ham elastik, ham qoldiq deformatsiyalar yuzaga keladi va qoldiq deformatsiyalar ko'pincha elastiklardan o'nlab marta ko'p bo'ladi. Toshli gruntlarda qoldiq deformatsiyalarning kattaligi ahamiyatsiz bo'lib, ular ko'pincha e'tibordan chetda qolishi mumkin, ya'ni bunday jismlarni elastik deb hisoblash mumkin. Gruntlar va elastik jismlar o'rtasidagi sezilarli farq shundaki, tashqi yuklar ta'sirida qoldiq deformatsiyalar doimo elastik bo'lganlarga hamroh bo'ladi. Qoldiq va elastik deformatsiyalar yig'indisi umumiy deformatsiyani tashkil qiladi. Ba'zi hollarda gruntlarning umumiy deformatsiyasi alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Kuchli tashqi ta'sirlar ostida gruntlarning barqarorligini baholash uchun qoldiq deformatsiyalarni o'rganish kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, gruntlarning sof qoldiq deformatsiyasi qisman yopishish kuchlari orasidagi bo'shliq tufayli qadimiy shakllangan strukturaning buzilishi tufayli yuzaga keladi. Shundan kelib chiqqan holda dispers gruntlar qoldiq deformatsiyalarga moyil bo'lib, ular gruntlar tasnifiga ko'ra lyoss jinslar, soz gruntlar, qumloqlar va gillar, shuningdek, mayda donador qumlar ko'rinishida uchraydi.

Qoldiq deformatsiyaning namoyon bo'lishi kuchli zilzilalar paytida, silkinish intensivligi MSK-64 shkalasi bo'yicha 7 ball dan oshganda juda sezilarli bo'ladi. Shu munosabat bilan deyarli barcha kuchli zilzilalarda dispers gruntlarda qoldiq deformatsiyalar kuzatilgan. Bu xususiyatni yaqindan o'rganish gruntning seysmik chidamliligini ta'minlash masalalariga oydinlik kiritadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy adabiyotlarda kuchli va halokatli zilzilalar paytida tarqalgan gruntlarda qoldiq deformatsiyalarning to'plangan ko'rinishlari tasvirlangan. S.V.Medvedov, N.V.Shibalin, V.V.Popov, N.S.Medvedov va boshqalarning darzlanish, seysmik ta'sir natijasida cho'kish yoki er yuzining cho'kishi, ko'chkilar, gruntlarning suyuqlanishi (quyqalanishi) amaliy tadqiqotlarida keng miqyosda o'rganilgan. O'zbek tadqiqotchilarining ishlarida dispers gruntlarda qoldiq deformatsiyalari Toshkent (1966), Nazarbek (1980), Gazli (1976 va 1984), Qoraqum (1985), Hisor (1989), Kan (2011), Marjonbuloq (2013) va boshqa kuchli zilzilalar vaqtida ham batafsil o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlar natijalari G'.A.Mavlonov, R.N.Qosimov, M.SH.Shermatova, A.Jo'rayeva va boshqa tadqiqotchilar ishlarida tasniflab o'tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Qoldiq deformatsiyaning intensivligi va miqyosini baholash uchun seysmik ta'sirlar ostida deformatsiya jarayonining o'zi mohiyatini tavsiflash kerak. Keyinchalik, har xil intensivlikdagi zilzilalar paytida deformatsiyaning namoyon bo'lishining ba'zi jihatlari ko'rib chiqamiz.

Suvli qumloq gruntlar suyuqlanishining rivojlanish jarayoni. Suyuqlanish jarayonining namoyon bo'lishiga 1964 yil 16 iyunda Yaponiyada M=7,5 magnitudali Niigata yaqinida sodir bo'lgan zilzila paytida binolar poydevorining deformatsiyasini misol keltirish mumkin. Juda kuchli seysmik to'liq ta'siridan so'ng binoning poydevor gruntlaridagi suvli va mayda donali qumlar qattiq va plastik holatdan suyuq holatga o'tgan. Natijada seysmik chidamliligi jihatidan yuqori darajada mustahkamlangan konstruksiyalar buzilmagan holda saqlangan (1-rasm).



1-rasm. Grunt asosini quyqalanishi natijasida binolarning deformatsiyasi

Quruq qumli gruntlarda yorilish. 2-rasmda A.Jo'rayev surati ko'rsatilgan bo'lib, unda 7,2 magnitudali Gazli zilzilasi qumli yotqiziqqlar yuzasida yoriqlar paydo bo'lgan.



2-rasm. Quruq qumloq gruntlarda yorilishlar

Yuqorida ko'rsatilganidek, quruq gruntlar kuchli tebranishlar tufayli zaif joylarda strukturaviy aloqalarni yo'qotib, yoriqlar hosil qilgan. Yer yuzasida maxsus yo'nalishli yoriqlar kuzatilmadi. Ular xaotik yo'nalishda darzlanish chizig'iga ega.

Siqilish deformatsiyasi. Bu zarrachalarning o'zaro siljishi natijasida yuzaga keladi va ma'lum bir yuk ostida qaysi jarayon ustunlik qilishiga qarab - qotib qolish yoki kesish - doimiy deformatsiya tezligi bilan susaytirishi yoki barqaror bo'lishi mumkin. Shunga o'xshash jarayonlar Qayroqqum zilzilasi ham kuzatilgan. U erda grunt massalari yon bag'irlari siljigan, bu esa avtomobil yo'llarini bosib qolgan. Bunday holda, to'liqinsimon shaklida chiziqli yoriqlar kuzatildi. Rasmda massivni ko'chirish oqibatlarini ko'rsatilgan.



3-rasm. Qayroqqum zilzilasi qiyalik jarayonlari (A.Jurayev surati)

Ko'chkilar. Tojikistondagi Hisor zilzilasi fojiali oqibatlar kuzatildi. 1989-yil 23-yanvardagi Hisor zilzilasi epitsentral zonasi ($M=5,5$, $I=7-8$ ball) uzunligi 8 km, kengligi 4 km bo'lgan ellips shakliga ega. Epitsentrdan 0,1-0,25 s tebranish davri bilan seysmik tezlanishi 0,125-0,147g ga etgan. Zarba paytida ikkita seysmik dislokatsiya zonasi shakllangan. Ushbu dislokatsiyalar bo'ylab yon bag'irlarda ko'chki oqimlari hosil bo'lgan. Balandligi 45 m gacha, qiyaligi 22-25° gacha bo'lgan platoning nishabliklarida hajmi 5,2 mln m^3 gacha bo'lgan "Sharora" ko'chkisi hosil bo'lgan. Ko'chkining kengligi 1,1 km va qalinligi esa 22-28 m gacha etadi. Ko'chki sharqiy, markaziy va g'arbiy qismlarga bo'lingan. 4-rasmda Hisor zilzilasi davridagi ko'chkilarning joylashuvi sxemasi keltirilgan.

Ko'chki oqimi natijasida Sharora, Okuli-Bolo va Okuli-Payon sellari loy oqimi massivi ostida qolgan. Shu bilan birga, 264 kishi halok bo'ldi va 3000 xonadon zarar ko'rdi.



4-rasm. Hisor zilzilasi davridagi ko'chkilarning joylashuv sxemasi

Tablil va natijalar. Kuchli va vayronkor zilzilalar oqibatlarini makroseysmik tadqiq qilishning yuqoridagi materiallari shuni ko'rsatadiki, dispers gruntlar tarqalgan hududning shaharsozlik vaqtida, grunting qoldiq deformatsiyasini kamaytirish uchun turli xil chora-tadbirlarni qo'llashga alohida e'tibor qaratish lozim.

Gruntlarning seysmik deformatsiya xususiyatlarini bartaraf etish uchun turli xil texnik melioratsiya usullari va konstruktiv tadbirlar qo'llaniladi. Seysmik xavfli hududlarda qurilish maqsadlarida loyiha-qidiruv ishlarini olib borishda dispers gruntlarning seysmik xarakteristikalari o'zgaruvchan bo'lishini va ma'lum bir vaqtda atrof-muhit holatiga bog'liqligini hisobga olish kerak.

Texnik meliorativ usullardan foydalanish lyoss gruntlarning fizik-mexanik xossalari sezilarli darajada oshirish va ularning seysmik ta'sirlar ostida deformatsiyalarini bartaraf etish imkonini beradi. Binobarin, deformatsiyaga qarshi chora-tadbirlar bilan poydevorlarning seysmik xususiyatlarini yaxshilash orqali binolar yoki inshootlarga kutilayotgan seysmik ta'sirning ko'lami kamaytirish mumkin.

Zaminlarni muhandislik tayyorlashning samarali usullaridan biri kimyoviy mustahkamlash, xususan, grunting silikatlashdir. Silikatlanish usuli turli modifikatsiyalarini lyoss gruntlarning fizik-mexanik va seysmik xususiyatlarining o'zgarishiga ta'sirini baholash bo'yicha tadqiqotlar Toshkent shahridagi ikkita qurilish obyektida olib borildi. Tadqiqotlar natijasida silikatlanish jarayonida dispers gruntlarning seysmik mustahkamlik xossalari dastlabki holatiga nisbatan 2 barobarga ortishi aniqlandi.

Xulosa va takliflar. Hududning seysmik xavfsizligi nafaqat bino va inshootlarning seysmik chidamliligini oshirish uchun mablag'larning ko'payishi bilan, balki seysmik ta'sir ostidagi grunt poydevorlarining barqarorligi bilan ham belgilanadi. Dispers gruntlarning seysmik chidamliligini oshirishning samarali usuli gruntingni siqishni va mustahkamlashning turli usullarini qo'llagan holda texnik melioratsiya ishlarini qo'llash lozim. Kuchli zilzilalar paytida dispers gruntlarda qoldiq deformatsiyalarning namoyon bo'lish xususiyatlari gruntlarning quyqalanish jarayonida. Ushbu tadqiqot ishi "Kuchli zilzilalarda dispers gruntlarning quyqalanish xususiyatini laboratoriya va dala sharoitida tadqiq qilish hamda uning tasnifini ishlab chiqish" mavzusidagi fundamental va "Grunt-inshoot" tizimining seysmik tebranishlari xususiyatlarini tadqiq qilish va zilzila ta'sirini kamaytirish usullarini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyiha bo'yicha hamda ALM-202311142839 "Kuchli zilzilalar ta'sirida Toshkent shahrining talafotlanish darajasini iqtisodiy baholash imkonini beruvchi raqamli simulyatsion modelini yaratish" loyihasi doirasida ishlab chiqildi. Bunga ko'ra aholiga qurilayotgan bino-inshootlarni mustahkamlik jihatdan sifatini oshirish va zilzila vaqtidagi talofatlarni kamaytirish ko'zda tutilgan.

ADABIYOTLAR

1. Медведов С.В. Инженерная сейсмология/ Москва., 1962. С.192.
2. Жураев А. Эффект Газлийских землетрясений 1976 г. в зависимости от грунтовых условий. - Ташкент : Фан, 1985. - 84 с
3. Алешин А.С., Пиоро Е.В. О влиянии обводненности грунтов на результаты сейсмического микрораёнирования // Инженерная изыскания. 2015.№4. С. 34-41.
4. Мавлянов Г.А., Пулатов К.П., Касымов С.М. и др. Инженерно-геологические условия Каршинской степи - Ташкент: Фан, 1974. - 278 с.
5. Ибрагимов Р.Н., Нурматов У.О., Ибрагимов О.Р., Сеймотектонический метод отсенки сейсмической опасности и вопросы сейсмического раёнирования. В кн. под. ред. К.Н. Абдуллабекова, Сейсмическое раёнирование и прогноз землетрясений в Узбекистане. ГП «Институт ГИДРОИНГЕО», Ташкент, 2002 г. С. 59-74.



UDK:809:417

Xusniyabonu BOYMURODOVA,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: boumurodovaxusniua654@gmail.com
Tel: +99897 382-26-28

Q.Yarashev Samarqand davlat universiteti Urgut filiali dotsenti, g.f.d taqrizi asosida

CITY-BOOK BOT RECTIFICATION-GEOGRAPHICAL BASIS OF TOURIST RESOURCES AND THEIR USE PROBLEMS AND SOLUTIONS

Annotation

This article is devoted to the problems and solutions of the problems of rectification-tourist resources and the geographical basis of their use and the geographical environment in the districts of shahrisabz-book, recreation-tourist resources of the Shahrisabz-book Basin, the geographical basis and prospects in the future.

Key words: Kashkadarya region, Shahrisabz-regions of book districts, tourist resources, history, nature, River, farming, livestock.

ИСПРАВЛЕНИЕ БОТА CITY-BOOK-ГЕОГРАФИЧЕСКАЯ ОСНОВА ТУРИСТИЧЕСКИХ РЕСУРСОВ И ПРОБЛЕМЫ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

Аннотация

Данная статья посвящена проблемам и путям решения проблем рекреации-туристическим ресурсам и географической основе их использования и географической среде в районах Шахрисабз-бука, рекреационно-туристическим ресурсам Шахрисабз-бука, географической основе и перспективам в будущем.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, духовно – образовательные реформы, идеология, идеологический иммунитет, молодежь, читательство, школа, высшее учебное заведение, образование, образование, трансформация.

SHAHRISABZ-KITOB BOTIG'I REKTEATSIYA-TURISTIK RESURLARI VA ULARDAN FOYDALANISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI MUAMMO VA UYECHIMLAR

Аннотация

Ushbu maqolada Shahrisabz-Kitob botig'i rekreatsiya -turistik resurslari va ulardan foydalanishning geografik asoslari muammo va uyechimlari va shahrisabz-kitob tumanlaridagi geografik muhit hamda, Shahrisabz-Kitob havzasini rekreatsiya-turistik resurslari, kelgusida geografik asoslari va istiqbollari bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz-Kitob tumanlari hududlari, turistik resurslari, tarix, tabiat, daryo, dehqonchilik, chorvachilik.

Kirish. Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz-Kitob tuman hududlari qadim tarixga ega bo'lgan joylardan iborat. U tarix zarvaralarida aloxida bir siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning qaynoq yeri ma'nosida yozma manbalarda tilga olingan. Qashqadaryo, Oqsuv, Tanqas, G'ilon daryo, Qorasuv daryolari kabi mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan daryolarning mavjudligi dehqonchilik va chorvachilikning gurillab rivojlanishiga asos bo'lgan Yurtimiz mustaqillikka erishgach, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurishni o'zining asosiy maqsadi qilib belgilab oldi. Bu ishda turizm sohasi ham yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Turizm nafaqat tarixni o'rganish, o'zga xalqlar va elatlar bilan tanishish, ularning madaniy-moddiy yodgorliklaridan bahramand bo'lish, shuningdek, u katta biznes hamdir.

O'zbekistonning janubida joylashgan Qashqadaryo viloyati madaniy merosga boy hudud hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra Qashqadaryoda bugungi kunda yo'qolib ketish arafasida turgan 1195 ta madaniy meros obekti mavjud bo'lib, shundan 175 tasi me'morchilik, 948 tasi arxeologiya obektlari, qolgan obektlar esa boshqa turdagi madaniy meros obekti sanaladi. Qashqadaryo viloyati 22 ta turistik mahallalardagi madaniy meroslar haqida ma'lumotlar quyida keltirilgan: Respublikamizning qadimiy va boy madaniy merosini o'rganish, milliy qadriyatlarini tiklash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ularga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash, zamonaviy dam olish maskanlarini barpo etish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotganini Qashqadaryo viloyati misolida ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Shahrisabz, Qarshi va Kitob shahar va tumanlariga yo'lingiz tushsa, ko'nglingizda ajib yuksalish, g'ururni his etasiz. Yangi sayyohlik yo'nalishlarini ishlab chiqish, sayyohlarning maroqli dam olishlari uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, xorijli sayyohlarga esdalik sifatida ramzi-timsoli bo'lgan sovg'alar ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish kabi muhim vazifalar viloyatda rekreatsiya va turizmning ya'nada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda jahon amaliyotida rekreatsiya va turizmni birgalikda rivojlantirishda tabiiy yodgorliklari, alohida muhofaza etiladigan hududlar, ekotizimlarni muhofaza qilish, aholi va inson salomatligini tiklashda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, alohida hududlarning turistik va rekreatsiya imkoniyatlarini baholash, ulardan maqsadga muvofiq foydalanish mexanizmini takomillashtirishning komplekslik imkoniyatlarini aniqlash hamda samaradorligini oshirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bugungi ijtimoiy hayotda aholining dam olishi, istirohat, sog'lomlashtirish va turistik obektlaridan foydalanish imkoniyatlari kun sayin oshib, landshaft komplekslarining rekreatsiya va turistik xususiyatlari, imkoniyatlari hamda salohiyatini aniqlash, ulardan samarali foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Jumladan, Qashqadaryo viloyatini ham geografik o'rnini qulayligi, uning boshqa hududlarga nisbatan iqtisodiy, ijtimoiy tomondan tez rivojlanishi, madaniy landshaftlar, mevazor va archazorlaridan iborat tog'larida rekreatsiya-turistik resurslardan foydalanishi uchun aholini dam olishi, sport bilan shug'ullanish, tabiat qo'ynida sayir qilishlari, tog'larida esa ov qilishlari uchun imkoniyatlari yuqoridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-son "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni taminlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 7-fevraldagi PQ-3514-son "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari, 2019-yil 18-iyuldagi O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy- huquqiy hujjatlar Qashqadaryo viloyatida turizm va rekreatsiya tohasini yanada rivojlanishida muayyan darajada xizmat qiladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan Qaror va Farmonlarni qabul qilinganligi qisqa vaqt ichida Qashqadaryo viloyatining ko'pgina hududlaridagi tarixiy, diniy, buyuk siymolar qabrlari, masjid- madrasalarining qaytadan tiklash va ta'mirlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bevosita turistik obektlarning ko'payishi va yaxshilanishiga, sayyohlarning dam olishi, ya'ni mehnat qobiliyatlarini qayta tiklash davomida iste'mol predmetlaridan foydalanishga e'tiborni yanada kuchaytiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil qilingan. Qashqadaryo viloyati tarixi va turizm maskanlari. Xo'ja Ilg'or Amir Temur tavallud topgan qishloq. Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan, me'morchilik, obodonchilik. Ispaniya elchisi Lui Gonzales de Klavixoning Temur saroyiga tashrifi. Xo'ja Ilg'or qishlog'i me'moriy obidalar. Qishloq tarixi, undagi masjid qoldiqlari va qabriston. Amir Temurning «Polvon toshi». Tatar guzar masjidi. Toshqo'rg'on qishlog'i tarixi va undagi ikkita masjid. Amir Temur «g'ori», Tarag'ay qishlog'i, «Dunyo tepa». Shahrisabz (Kesh) me'morchiligi: Oqsaroy. Amir Temur ushbu obidani Xorazmni egallash sharafiga bunyod etgan. Unda Xorazm ustalari katta me'morchilik ishlarini olib borishgan. U 1370—1404 yillarda qurilgan. Oqsaroy peshtoqi Markaziy Osiyo yodgorliklari ichidagi eng yirik peshtoq hisoblanadi. Uning ravoq oraligi 22,5 metr, m'inorasining hozirgi vayrona holatidagi balandligi 38 metr, peshtoq kengligi 40 metrdir. U Hindistondagi Tojmahaldan ham husnkor bo'lgan. Xorij elchilari shu yerda qabul qilingan.

Klavixoning Oqsaroyda bo'lishi. Oqsaroy deyilishiga sabablar: onasining sharafiga qurilganligi. Oqlik va poklik ramzi. Uzoqdan oppoq bo'lib ko'rinishi. Dor us-Siyodat majmui. Buning ma'nosi baxt-saodat uyidir. Mazkur obidani davlatmandlar saroyi ham deyiladi. Chunki, unda temuriylar xilxonasi joylashgan. Amirzoda Jahongir, Umarshayx va Amir Temurning o'zi uchun bunyod etgan sag'analari, maqbaralari, Xazrati Imom masjidi va maqbarasi shular qatoriga kiradi. Dor ut-Tilovayt majmui. Buning ma'nosi Qur'oni Karim tilovat qilinadigan joydir. Unda shayx Shamsuddin Kulol, Gumbazi Sayyidon va Tarag'ay Bahodir (Amir Temurning otasi) maqbaralari ham da Ko'k gumbaz masjidi mujassam. Shuningdek, Shahrisabz tumanidagi, "Arslon bob ota ziyoratgohi" shular jumlasidandir.

Tahlil va natijalar. Qashqadaryo viloyatida turizm va rekreatsiya sohasini jadal rivojlantirish, uning xalqaro turistik imidjini yuksaltirish, mintaqalarning turistik-rekreatsiya salohiyatini kuchaytirish va turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish, yangi turistik yo'nalishlari va majmualarini yaratish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada, o'zining tabiati, demografik va ishlab chiqarish salohiyati, milliy qadriyatlar hamda hunarmandchiligi bilan yaxshi tanilgan Qashqadaryo viloyatining turizm rekreatsiya salohiyatini tadqiq qilish va baholash, hududlarning turistik infratuzilma tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Shu sababli respublikamizda ichki va tashqi turizmni rivojlantirishning juda katta imkoniyatlari mavjud. Mana shunday hududlardan biri Qashqadaryo havzasining yuqori tog'li qismi hisoblanadi. Qashqadaryo havzasi geomorfologik jihatdan tog' va tekisliklardan iborat bo'lib, landschaftlarning zonal va vertikal tabaqalanishini, o'ziga xos issiqlik rejimi va namlanish sharoitlariga, relefiga va boshqa omillarga bog'liq. Bugungi kunda Jahon mamlakatlarining ko'pchiligida turizm mamlakat iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib ulgurani bejiz emas. Bunday mamlakatlarda iqtisodiy faol aholining 10-15% turizm sohasida ish bilan banddir. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida ham turizm salohiyatini yanada oshirishda o'zini noyob tarixiy-madaniy merosidan samarali foydalanishga, tarixiy arxitektura ansambllari va yodgorliklari holatini yaxshilashga, sayyohlar uchun mehmonxonalar va xizmat ko'rsatish obektlari qurishga, diqqatga sazovor madaniy-tarixiy yodgorliklar bo'yicha zamonaviy sayyohlik yo'nalishlarini shakllantirish va joriy etishga, mintaqaning tabiiy, rekreatsiya salohiyatidan samarali foydalanish, transport infratuzilmasini rivojlantirish, ko'rsatilayotgan xaridlar xizmati sifatini oshirish, shu asosida yangi ish o'rinlari tashkil etish va viloyat aholisining daromadlarini o'stirishga alohida e'tiborni qaratadi.

Natijada turistik loyihalarni birgalikda moliyalashtirish uchun xorijiy investitsiyalarni, donor mamlakatlar, xalqaro tashkilotlarning kreditlari va grantlari jalb etish ishlari amalga oshirila boshlandi. Masalan, 2023-yildan boshlab Kitob tumanidagi "Hazrati Bashir" qishlog'i turizm qishlog'iga aylantirilib, sayyohlar sonini 700 mingga yetkazish rejalashtirilgan. Qayd etilishicha, "Hazrati Bashir" qishlog'i Qashqadaryo daryosi bo'yida joylashgan. Qishloqda ziyorat turizmi, ekoturizm va agroturizm rivojlangan. "Hazrati Bashir" ziyoratgohi ham joylashgan. Ziyoratgoh nomi shu joyda yashab o'tgan avliyo Hazrati Sulton Said Ahmad Bashir nomi bilan bog'liqdir. Shu bilan birga ayrim turistik hududlarda, ya'ni, Kitob tumanidagi «Qaynar» va «Varganza» qishloqlari, Yakkabog' tumanida «Tatar» va Mirishkor tumani «Jeynov» turizm qishlog'lari zamonaviy talablarga javob beradigan turistik loyihalar asosida ta'mirlash ishlari amalga oshirilib kelimoqda.

Shahrisabz tumanining tog'li hududlarida qad ko'tarib turgan tarixiy yodgorliklar, me'moriy obidalar, qadamjolar, masjid va maqbaralar sayyohlar e'tiborini tortishi, tumanning turizm salohiyati rivojlantirish istiqbollini belgilaydi. Shu sababli tuman turizm salohiyatini oshirish borasida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan loyihalarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, viloyatda turistik infratuzilma, ya'ni zamonaviy mehmonxonalar, dam olish maskanlari ko'payib borishi natijasida xizmat ko'rsatish sifati tobora yaxshilanib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu yerga keluvchi sayyohlar sonining ortishiga zamin yaratmoqda. Bugungi kunda sayyohlik sohasini rivojlantirish, Qashqadaryo viloyatiga kelayotgan xorijlik sayyohlar oqimini yanada ko'paytirish yuzasidan turizm infratuzilmasi, xizmat ko'rsatish sifatini yanada yuksaltirish, malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi.

Kitob tumanidagi davlat geologik hamda Hisor qo'riqxonalariga tashriflar bo'yicha dasturlar tayyorlash, Mingchinor qishlog'i hududida tog' chang'i bazasi va osma yo'l bunyod etish rejalashtirilgan. Bu ishlar o'z navbatida viloyatda turizm sohasini rivojlantirish istiqbollarini belgilab berishda muhim omillardan biri sanaladi. Bu ishlar doirasida sayyohlik mahsulotlarini xorij bozorlariga chiqarish, yangi sayyohlik yo'nalishlari ochish, turistik xizmatlar sifatini yanada oshirish ko'zda tutilgan.

Shahrisabz, Kitob, Yakkabog' tumanlarida so'lim dam olish maskanlari mavjud. Bunday dam olish maskanlarida olti yarim ming nafarga yaqin o'g'il-qizlar ta'limi tabiiy yo'l bilan o'tkaziladi. Shahrisabzning Miroqi qo'rg'onida joylashgan "Lochin" oromgohi yoz oylarida bolalarning shodon kulgisi va kuy-qo'shiqlari bilan yanada fayzli maskanga aylangan. Bu yerda Sho'rtan gaz-kimyo majmui jamoasining tashabbusi bilan o'ziga xos yangi va zamonaviy loyihadagi binolar, joylashishi va dizayni jihatidan rang-barang pavilyonlar, yuvinish xonalari, cho'milish havzalari bunyod etilib, maroqli dam olish uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. Viloyat hududida juda ko'plab shifobaxsh mineral suv manbalari aniqlangan bo'lib, bugungi kunda ulardan 20 ga yaqini tadqiq etilgan. Davolash jihatidan karbonat anhidrid, sulfidli, radonli va azot termal gazli suvlarga katta ahamiyat beriladi. Ya'ni, tekislik qismida joylashgan Maydajoy, Xo'jaquduq, Qorabayir, Janubiy Muborak ularning minerallashuv darajasi ancha yuqori (80 g/l gacha), tog'li hududlarda Ko'kbuloq, O'g'in, Qorabuloq, Haydarbuloq, Qaynarbuloq, Xo'ja Inkan, Kamol buloq va boshqa mineral buloqlarni mavjudligi ko'plab kurort-sanatoriya muassasalarini tashkil etish imkoniyatlarini yaratadi. Bugungi kunda viloyat hududida 19 ta yozgi dam olish oromgohi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bundan tashqari, Kitob tumanining eng so'lim, bahavo va tog'oldi Qaynar qishlog'i ham turizmni rivojlantirish uchun qulay maskanlardan biri sanaladi. Samarqand viloyati bilan chegaradosh bu qishloq tabiatini yuqoridan turib tomosha qilish har qanday sayyohga o'zgacha zavq-shavq va mazmunli hordiq hadya qiladi. Prezidentimiz yaratib bergan imkoniyatdan oqilona foydalanib, hudud tabiiy go'zalligini asrab qolgan holda bu yerni turizm manzilgohiga aylantirsak, mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun juda katta qulaylik yaratgan bo'lamiz. Belgilangan loyiha asosida sayyohlik obektlari qad rostlasa, imkoniyatlar yanada kengayib, Qaynar qishlog'i hududida kamida 1500 ta qo'shimcha ish o'rni yaratiladi.

Xulosa va takliflar. Shahrisabz-kitob tumanlari bo'ylab sayr qilar ekansiz, eski madrasalarda yoki shunchaki yo'l bo'ylab joylashgan ko'plab esdalik sovg'alar bilan savdo qiluvchi ustaxonalarni ko'rishingiz mumkin. Tarvuz qo'tiqqlagan ko'ngli ochiq chollar, o'yib ishlangan sandiqchalar va rang-barang matolar kabi hunarmandchilik mahsulotlarini taklif etishga ustalar tayyor turishadi. Ular orasida shahar tasviri tushirilgan turli xil shakldagi magnitlar alohida ajralib turadi. Odatdagidek loy va keramikadan yasalganlardan tashqari, yog'och, qog'oz, teri va hatto marmardan yasalganlari ham bor. Bundan tashqari Shahrisabz iqlimi ham turistlar uchun mos keladi negaki, havo unchalik issiq emas va tabiiy qo'nyida sayohat qilayotganda iqlim ularga xalaqit bermaydi. Tog' yonbag'irlari turistik bilan tashrif buyurganda esa yovvoyi hayvonlarni daryolarda esa bir necha turdagi baliqlarni ko'rishimiz mumkin. Eng qiziqarlisi shundaki, Shahrisabzdan o'tadigan asosiy magistral buyuk italyan sayyohi Makro Poloning marshrutini takrorlaydi. Xulosa so'ngida shuni aytish joizki, Shahrisabz har tomonlama turistlar uchun qulay makon hisoblanadi, undagi mehmonxonalar ham turistlar uchun har tomonlama moslashtirilgan.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Yoshlar ovozi. 2018 yil, 29 dekabr. № 148 (16305).
2. Qadimiy Shahrisabz tarixidan lavhalar O.Holmatov
3. uzbekistan.travel/uz/i/shahrisabz/
4. Abdullayev S.I., Usmanova R. Qashqadaryo landshaftlarini tasnif qilishning ayrim masalalari // Janubiy O'zbekiston tabiat manbalaridan oqilona foydalanish masalalari. -T., 1997. -B. 22-27.
5. Badalov O'.B. O'rta Zarafshon havzasini rekreasiua-turistik resurslari, ulardan foydalanishning geografik asoslari va istiqbollari // Geografiua fanlari bo'yicha falsafa doktori ilm. dara. olish. uchun tayyor. Diss. avtoreferati. -Samarqand, 2020. -46 b.



UDK: 911.3:314

Dilbar DAULETBAYEVA,
Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: dauletbayevadilbar90@gmail.com

NDPI dotsenti, g.f.n G.Utepova taqrizi asosida

GENETIC TYPOLOGY OF TOWNS OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAGISTAN

Annotation

The periods of the towns of the Republic of Karakalpakstan receiving the status of towns, the main factors in the emergence of the town, and the areas of specialization were studied. The formation and development of small towns in the studied area is divided into periods and is clearly systematized based on the table. You can see the genetic functional classification of the towns that appeared in this table.

Key words: city, town, urbanization, typology of cities, functional typology, genetic typology, typology, geourbanism, resource cities.

ГЕНЕТИЧЕСКАЯ ТИПОЛОГИЯ ГОРОДОВ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН

Аннотация

Изучены периоды получения статуса города Республики Каракалпакстан и основные факторы возникновения города, области специализации. Становление и развитие городов на исследуемой территории разделено на периоды и четко систематизировано на основе таблицы. Вы можете увидеть генетическую функциональную классификацию городов, представленную в этой таблице.

Ключевые слова: город, городок, урбанизация, типология городов, функциональная типология, генетическая типология, типологизация, геурбанизм, ресурсные города.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAHARCHALARINING GENETIK TIPOLOGIYASI

Annotatsiya

Qoraqalpoq'iston Respublikasining shaharchalarining shaharcha maqomini olish davrlari, kelip chiqishidagi asosiy omillar, ixtisoslik yo'nalishlari o'rganilgan. Shaharchalarning o'rganilayotgan hududda shakllanishi va rivojlanishi davrlarga bo'linib, jadval asosida aniq tizimga solingan. Bu jadvalda paydo bo'lgan shaharchalarning genetik funksional tasnifini ko'rishingizga bo'ladi.

Kalit so'zlar: shahar, shaharcha, urbanizatsiya, shaharlar tipologiyasi, funktsional tipologiya, genetik tipologiya, tipologizatsiya, geourbanizm, resurs shaharlar.

Kirish. Har qanday yangi ilimiy tadqiqodni olib borishda avvalo ilimiy tadqiqod mavzusining obyektini tanlanar ekan, uning kelip chiqish asoslari va qonuniyatlarini o'rganish esa asosiy masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. O'rganilayotgan obyektning asosiy xususiyatlarini aniqlashga asoslangan murakkab o'rganish usuli – *tipologiya* deb ataladi [1]. Ilimiy izlanishlarning har qaysisida *tipologizatsiya* jarayoni muhim hisoblanib, bundan mavzuning natijalari yaqqol ko'rinadi va aniq tasavvur uyg'otadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shaharlarni tipologiya usuli yordamida tadqiq etish dastlab 1891-yil –F.Ratsel, 1910-yil Semyonov – Tyanshanskiy, keyinchalik C.Garris, V.Konstantinov, B.Xorev va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Ilk tipologiyalar sodda va shaharlar mexanik tarzda aholi soni bo'yicha ajratib tasniflangan [2]. 1960-yillarda matematik modellashtirish, ayniqsa, kompyuterlarning paydo bo'lishi bilan ko'plab belgilarni (60 ga yaqin) qamrab oluvchi guruhlashtirish keng rivojlandi.

Buyuk urbanolog olim G.Lappo tasniflashni tipologiyaning boshlanishi deb hisoblaydi [3]. Agar tasniflash biror miqdoriy ko'rsatkichga asoslangan (E.Alayev bo'yicha), tipologiya bir qancha sifat ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. Tipologiya shaharlar haqidagi bilimlarni ham umumlashtiradi ham chuqurlashtiradi [4].

Taniqli rus olimi N. N. Baranskiy (1956-yilda) "Shaharlar tipologiyasi shaharlarni o'rganishda yuzaga keladigan ikkita asosiy umumiy masalalardan biridir", - deb hisoblagan. N. N. Baranskiy genetik tipologiyaning ahamiyatini yuqori baholaydi va "... ammo u shaharlarning kelib chiqish davrini bildiradi, kelgusi rivojlanish yo'nalishlarini ko'rsatmaydi" – deb baholgan [5].

Aholi yashash punktlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun shahar aholi punktlarining tipologiyasi zarur. Bu ularning har birida rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini tomonidan yaratilgan eng muhimini topishga imkon beradi.

Genetik yondashuv bilan shaharlar paydo bo'lish vaqtini va sabablari, shuningdek, turli tarixiy xususiyatlarning zamonaviy joylashuvi va tashqi ko'rinishida saqlanib qolish darajasi bo'yicha bo'linadi. E. N. Pertsik yozganidek, shaharning genetik turi sintetik tushunchadir. U rivojlanish jarayonida sifat jihatidan ma'lum bir shahar turini shakllantirishni belgilaydigan xususiyatlar to'plamini o'z ichiga oladi. Genetik xususiyatlarni tanlash tasniflash amalga oshiriladigan vazifaga bo'ysunadi [6]. Ushbu yondashuv tarixiy usulga eng yaqin bo'lib, uni tadqiqot yo'nalishiga muvofiq rivojlantirish uchun asos sifatida olish mumkin.

Shunday qilib, genetik tipologiya, hatto nisbatan qisqa vaqt ichida ham, mintaqadagi urbogenezning dinamikasi va o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Biroq, uni shaharning asosiy xususiyatlari va shakllantirish funktsiyalari bilan birgalikda ko'rib chiqilishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada mavzumizga mos keladigan bir qator ilimiy ishlar tahlil etildi. Shulardan o'z o'lkasi shaharchalarining genetik tipologiyasini ishlash uchun qo'llangan olim (Krosnaysk davlat universiteti, Rossiya) metodikasi va tadqiqodlaridan foydalanib, Qoraqalpoq'iston Respublikasi shaharchalarining tarixiy kelib chiqish asoslari ya'ni genetik funksional tipologiyasi bo'yicha tasniflashni tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi sifatida belgiladik [7].

Qoraqalpoq'iston Respublikasi shaharchalarining genetik funksional kelip chiqishini tadqiq etish, o'rganilish darajasini aniqlash, shaharchalarning shahar maqomini olgan davrlari, ta'sir etish omillarini, shakllanishidagi ixtisoslashish tarmoqlarini aniqlash ilimiy ishimizning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Har qanday mintaqada shaharlarning tashkil topishi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va tarixiy jarayonlar natijasi bo'lsa, ularning rivojlanishi ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etishida o'z ifodasini topadi. Mintaqa shaharlar to'ri va tizimini shakllanish nuqfai nazaridan qaralganda, u 1989-yilga nisbatan deyarli o'zgaragan. Mustaqillik yillarida faqatgina shaharchalar sonida o'zgarishlar kuzatildi (11tadan 26 taga ko'paygan).

2024-yil oxiri ma'lumotiga ko'ra Qoraqalpoq'iston Respublikasida 12 ta shahar va 26 ta shaharchalar mavjud bo'lib, umumiy urbanizatsiya darajasi 49,0 foizni tashkil etadi (1-jadval). Ulardan faqatgina Nukus shahrigina O'zbekistonning 18 katta shaharlari qatoriga kiradi (aholisi 339,2 ming kishi. 2024). Aholi soni nisbatan boshqa shaharlardan ko'proq bo'lgan Beruniy, To'rtko'l, Xo'jayli, Taxiatosh, Chimboy shaharlari Qoraqalpoq'iston Respublikasi shahar aholisi ulushining 32,8 foizini tashkil etadi.

Tahlillar shahar aholisining son jihatdan ortib borishini, birinchidan, Respublikaning ma'muriy-hududiy tizimidagi o'zgarishlar, ya'ni yangi tashkil etilgan tuman markazlariga shahar maqomining berilishi, ikkinchidan, Respublikaga chetdan kelayotgan migrantlarning asosan shaharlarda to'planishini ko'rsatmoqda. Umuman olganda, Qoraqalpog'iston Respublikasining urbanizatsiya darajasi O'zbekiston Respublikasining o'rtacha ko'rsatkichidan pastligi yaqqol ko'rinadi va ko'rsatkichlar saqlanib kelmoqda.

2009-yilda urbanistik o'zgarishlar tufayli viloyatning 11ta qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomi berilgan. Natijada, umumiy urbanizatsiya darajasi 2005-yildagi 48,7 foizga teng bo'lgani holda, u birdaniga 50,2 foizga ortgan. Yangi shaharchalar, ayniqsa To'rtko'l, Amudaryo, tumanlarida ko'p. To'rtko'l'da bunday maqomga 5 ta, Amudaryoda 3, Beruniyda, Taxiatosh, Chimboy tumanlarida 1 tadan bunyod etilgan [8].

Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar manzilgohlar soni va urbanizatsiya darajasi 2010-jilgacha bo'lgan davrda muntazam ortib borib, so'ng hozirgi kunga kelib sekin pasayib borishi kuzatilmogda. 1970-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasining atigi 16 ta shahar manzilgohlariga 35,5% shahar aholisi to'g'ri kelgan bo'lsa, 1989-yilga kelib jami 26 ta shahar manzilgohlariga 48,1% ga yoki 583,7 ming kishiga ortgan [9]. 2009-yilda 36 ta shahar manzilgohlariga 50,2% shahar aholisi joylashgan bo'lsa, 2024-yilga kelib jami shu shahar manzilgohlarida 49,0% ga yoki **967,3** ming kishiga yetganligini ko'ramiz. (1-diagramma).

1-diagramma

Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar manzilgohlari va urbanizatsiya darajasining gistammali diagrammasi




Diagramma: Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan [11]

Shaharlarning shakllanishi qadimgi davrlarda savdo-sotiq va hunarmandchilik asosida vujudga kelgan bo'lsa shaharchalarning vujudga kelishi 2-jahon urushlaridan keyingi davrlarga to'g'ri keladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi shaharchalarining asosiy vujudga kelish omillari savdo, sanoat, transport, tuman markazlari sifatida tashkil etilgan. Quyida Qoraqalpog'iston Respublikasi shaharchalarining genetik tipologiyasini jadvalda aks ettirdik. (1-jadval).

Shaharchalarning kelib chiqishi, ularning genetik xususiyatlarini o'rganish tarixiy yondoshuvni talab qiladi. Mana shunday tarixiy tahlil asosida ularning o'tmishi va hozirgi ahvoli baholanadi. Bu o'z navbatida, shaharlarning kelajagini bashorat qilish (prognozlash) uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

1-jadval


Qoraqalpog'iston Respublikasida shaharchalarning genetik tipologiyasi.

No	Qoraqalpog'iston Respublikasi shaharchalari rivojlanishining bosqichlari tarixiy	Shaharchalarning shakllanishidagi asosiy ixtisloslik tarmoqlari	Shaharcha maqomini olgan aholi manzilgohlarining tashkil etilgan yili va nomi	Shaharchalar soni	Shaharchalar ulushi(%da)
1.	1-davr. 1939- 1959- yillar	Suv, transport	Vodnik (1958)	1	3,8%
2.	2-davr. 1959-1990-yillar	Tog'-kon sanoati	Qoratov (1964), Jumurtov (1968)	10	38,5%
		Tuman markazlari	Kegeyli (1978), Qonliko'l (1982), Qorao'zak (1984) Oqmang'it (1980), Taxtako'pir (1984)		
		Transport	Qoraqalpog'iston (1971), Jasliq (1975), Oltinko'l (1969)		
3.	3-davr. 1991-2023-yillar	Tuman markazlari	Qazanketken (1992)	15	57,7%
		Tog'-kon sanoati	Elabad (2005) Aqsholaq (Qirg'iz) (1992)		
		Transport	Miskin, Qipshaq, Naymankol, AYTEKE (2009)		
		Sanoat tarmog'iga ixtisoslashgan, ma'muriy hududiy birlik shaharchalari	Qilishbay, Qitay, Bulish, Turkmenquli, Tozabog', Nurh yo'l, Amirobod (2009),		
		Tarixiy, ma'daniy o'rin	Saxtiyon (2013)		
Jami:				26	100%

Jadval: Muallif tomonidan tuzilgan.

2-diagramma

Shaharchalarning davrlar bo'yicha rivojlanishi (%) da



1-davr ya'ni 1939-yildan 1959-yillar oralig'ini o'z ichiga oladi. Bu davrda industrializatsiya jarayonining rivojlanishi bilan bog'liq shahar va qishloq aholisining salmog'i orasida sezilarli darajada o'zgarishlar yuz berdi. 1939-1959 yillar oralig'ida qishloq aholisi 46,5 ming kishiga kamayib, yillik o'rtacha manfiy ko'rsatkichni (-0,6%) ko'rsatdi. Bu ayniqsa hozirgi kungacha sezilarli ta'sir ko'rsatadi [10].

Asosan bu davrning boshlanishi 1939-1945-yillar II-jahon urishi davriga va urushdan keyingi yillarga tog'ri kelib, Qoraqalpog'istonning ishlab chiqarish kuchlarining ko'payishi ham o'sgan industriyalangan davrga to'g'ri keladi. Bunday o'ziga xos bir davrda hududimizda shaharcha maqomini olgan aholi punkti hozirgi Xo'jayli tumanidagi Vodnik (1958-yili) shaharchasi bo'lib, bu shaharchaning yuzaga kelishida suv va transport omilining o'rni katta rol o'ynagan.

2-davr. 1959-1990-yillar oralig'ini o'z ichiga olib, Respublikamizda urushdan keyingi yillarda demografik vaziyatning yaxshilanib borishi bilan aholi sonining ko'payishiga imkon yaraldi. 1959-1970-yillarda Qoraqalpog'istonning qishloq aholisining o'rtacha yillik o'sishi 1,8% ni tashkil etdi. Keyinchalik qishloq aholisining o'sishi yil sayin oshdi, ammo bu ko'rsatkich so'nggi yillarda va hozirgi davrda biroz pasayib yiliga 0,7-0,8% ga teng bo'ldi.

1959-yilda Qoraqalpog'istonda 5 ta shahar va 4 ta shaharcha ro'yhatga olinib, ularda 138,7 ming kishi istiqomat qilgan.

Keyingi yigirma yil ichida (1959 - 1979) Qoraqalpog'iston shaharlari soni ikki baravar ko'paydi va 9 ta shahar, 10 ta shaharchadan iborat 19 ta shahar manzilgohlarini tashkil etdi. Bu davrda respublikadagi shaharlar soni eng faol o'sgan davr bo'ldi.

Yangi shaharchalardan yirik **Tog'-kon sanoati** asosida - **Qorator** (1964), **Jumirtov** (1968) shaharchalari tashkil topgan bo'lsa, Qorator shaharchasi asosan qurilish materiallari sanoati rivojlangan bo'lib, Jumirtov shaharchasida tosh qazib olinmoqda.

Kegeyli, Qonliko'l, Qorao'zek **tumanlarining markazlari** sifatida - 1978-yili Kegeyli, 1982-yili Qonliko'l, 1984-yili Qorao'zek, 1980-yili Oqmang'it, 1984-yili Taxtakopir shaharchalari o'z maqomlarini oldi.

Transport asosan temir yo'l liniyalari asosida tashkil topgan shaharchalarga 1971-yili Qoraqalpog'iston, 1975-yili Jasliq, 1969-yili Oltinko'l shaharchalari kiradi. Qoraqalpog'iston shaharchasida shu nomdagi temir yo'l stantsiyasi, Jasliq shaharchasida ham shu nomdagi temir yo'l stantsiyasi Naymanko'l-Beyneu liniyasida joylashgan. Jasliq shaharchasida mahalliy havo yo'llarining sobiq aeroporti ham joylashgan.

Oltinko'l shaharchasi - Qo'ng'iro't temir yo'l stantsiyasidan 5 km uzoqlikda (Naymanko'l-Beyneu liniyasida) joylashgan. Shaharcha Qo'ng'iro't tumanidagi o'ziga xos tarixga ega bo'lgan shaharchadir. Dastlab shaharcha Qo'ng'iro't nomi bilan atalib, 1950-yillarda paydo bo'lgan. 1962-yilga kelib Qo'ng'iro't shaharchasi shahar maqomiga ega bo'lgan. 1969-yilda esa **Temir yo'l shaharchasi** -Qo'ng'iro't shahriga, sobiq Qo'ng'iro't shahri esa Oltinko'l shaharchasiga aylantirildi.

Qishloq aholisi shaharlarga ko'chib o'tishi natijasida, yirik qishloqlar shahar va shaharchalarga aylantirildi. Ularda sanoat, qurilish, transport va ular bilan bog'liq xizmat ko'rsatuvchi korxonalar ochilib, ishchi kuchi sifatida jalb qilindi.

Sobiq ittifoq davrida Qoraqalpog'istonning shaharlar tarmog'i tez rivojlandi, bu davrda uning yangi shaharlari soni 10 taga, shaharchalar soni 16 taga yetdi. Shaharlar soni 6 barobar ko'paydi.

3-davr 1991-yil ya'ni davlatimizning mustaqillikka erishgan yilidan boshlanib hozirgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr ichida mamlakatimizda bir nechta qaror va topshiriqlar qabul qilinib albatta urbanizatsiyaning rivojlanishi uchun alohida e'tibor qaratildi.

Yangi shaharchalardan **tuman markazi** sifatida - 1992-yili Qazanketken, **tog'-kon sanoati asosida** - 1992-yili Aqsholaq (Qiriqqiz), 2005-yilda Elabad, **transport**, temir yo'l asosida - 2009-yili Qipshaq, Miskin, Naymankol, va Ayteke, **sanoat** tarmog'iga ixtisoslashgan, ma'muriy hududiy birlik shaharchalari sifatida -Qilishbay, Qitay, Bulish, Turkmenquli, Tozabog', Nurli jol, Amirobod, **tarixiy, ma'daniy** o'rni sifatida -2013-yili Saxtiyon shaharchalari paydo bo'ldi.

Xulosa va takliflar. O'rganilayotgan hududda aholi yashash manzilgohlari qadim-qadimdan paydo bo'lib rivojlanib kelgan bo'lsa shahar tipidagi manzilgohlar ham har bir davrda o'ziga xos rivojlanib kelgan. Mamlakatimizda shaharchalarning paydo bo'lishining daslabki davrlari butun jahon urushlaridan keyingi davrga to'g'ri keladi ya'ni daslabki shaharchalar 1958-yili shaharcha statusini olgan bo'lsa, oxirgi shaharchalar 2009-yili 11 ta shaharcha shaharcha maqomini olgan.

Birinchi davrda jami shaharchalarning 3,4 % i (Ita shaharcha) paydo bo'lgan bo'lsa, 2-davr ya'ni, 1939- yildan 1959- yilgacha bo'lgan vaqtda 38,4 % (10ta shaharcha), 3- davr ya'ni 1959-1990-yillar oralig'idagi davrda 57,7% (15 ta shaharcha) paydo bo'lgan va rivojlangan. Shaharchalarning genetik kelip chiqishi va genetik funksional tasnifi bo'yicha unchalik ko'p turlarga bo'linmaydi. Shaharlar asosan tuman markazlari, tog'-kon sanoati, temir yo'l- transport asosida tashkil etilgan va rivojlanmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Uspenskiy B.A., Strukturnaya tipologiya yazikov, M., 1965;
2. Ковалев, С.А. География населения СССР/ С.А. Ковалев [и др.]. - М.: Издательство МГУ, 1980.- 287 с.
3. Лаппо Г.М.География городов. -М., ВЛАДОС, 1997. Б-39.
4. A.S.Soliyev, S.Tashtayeva, M.Egamberdiyev Shaharlar geografiyasi.-T.: VNESHINVESTROM, 2019, 39-bet
5. Баранский Н.Н. Экономическая география. Экономическая картография - М.: Географгиз, 1960. - 452 с.
6. *Перчик Е.Н.* Города мира. География мировой урбанизации. М., 1999. 384 с.
7. М.В.Прохорчук. Генетическая типология поселков городского типа Красноярского края. Вестник. КГПУ им.В.П.Астафьева. 2007. 28с.
8. Ходжаева Г.А., Нуранов М.З., Алланазаров К.Ж., Особенности современной урбанизации Каракалпакстана Ўзбекистон География Жамияти 22 жилд Тошкент, 2002
9. Ходжаева Г.А., Даулетбаева Д., Байрамова М. Проблемы формирования городских поселений Республики Каракалпакстан. Вестник Каракалпакского государственного университета, №1., 2020. стр.35-37
10. Khodjaeva G.A., Dauletbaeva D.D., Oteuliev M.O. Formation and development of towns and modern urban processes of Karakalpakstan./ Сборник научных статей «Общественно географические исследования на евразийском пространстве: традиции и инновации», Ташкент, «Zebo print», стр. 2023, 158-169
11. Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi maxsus sayti: <https://www.qrstat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>



Bobur ZIYOMOV,
O'zbekiston Milliy universiteti Geodinamika va tektonika dotsenti v.b., PhD
E-mail: bobur.ziyomov82@mail.ru

Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti. PhD B.Janbekov taqrizi asosida

СЕЙСМИЧЕСКИ АКТИВНЫЕ РАЗЛОМЫ ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В статье обсуждаются возможности изучения на основе сейсмогенных зон Южного Узбекистана. Анализом материалов и выделением основных сейсмогенных зон на региональном уровне установлено, что они возникают в результате деформаций, связанных, например, с движением региональных разломов, структур, тектонических блоков. Известно, что сейсмический процесс состоит из процесса непрерывного накопления напряжений в земной коре и их внезапного исчезновения.

Ключевые слова: Сейсмогенные, региональные Разломы, структуры, морфоструктура, сейсмические, макросейсмические, инструментальные, напряжение, землетрясение, оценка, вибрация, балл, интенсивный, зона, изосейст, обсерватория, геофизический, разрывный, геодинамический, геосинклинальный, Южный Узбекистан.

JANUBIY O'ZBEKISTONNI SEYSMIK FAOL YER YORIQLARI

Аннотация

Maqolada Janubiy O'zbekiston seysmogen zonalari asosida o'rganish imkoniyatlari muhokama qilingan. Materiallarni tahlil qilish va regional miqyosda asosiy seysmogen zonalarni ajratib ko'rsatish orqali, masalan, mintaqaviy Yer yoriqlar, tuzilmalar, tektonik bloklar harakati bilan bog'liq deformatsiyalar natijasida paydo bo'lishi aniqlandi. Ma'lumki, seysmik jarayon yer qobig'ida kuchlanishlarning to'xtovsiz to'planishi va ularning to'satdan yo'qolishi jarayonidan iborat.

Kalit so'zlar: Seysmogen, mintaqaviy Yer yoriqlar, tuzilmalar, morfotuzilma, seysmik, makroseysmik, instrumental, kuchlanish, Zilzila, baholash, tebranish, ball, intensiv, zona, izoseyst, observatoriya, geofizik, uzilma, geodinamik, geosinklinal, Janubiy O'zbekiston.

SEISMICALLY ACTIVE FAULTS OF SOUTHERN UZBEKISTAN

Annotation

The article discusses the possibilities of studying the seismogenic zones of Southern Uzbekistan. Analysis of materials and identification of the main seismogenic zones at the regional level has established that they arise as a result of deformations associated, for example, with the movement of regional faults, structures, and tectonic blocks. It is known that the seismic process consists of the process of continuous accumulation of stresses in the earth's crust and their sudden disappearance.

Key words: Seismogenic, regional Faults, Structures, morphostructure, seismic, macroseismic, instrumental, stress, earthquake, assessment, vibration, ball, intensive, zone, isoseist, observatory, geophysical, rupture, geodynamic, geosynclinal, Southern Uzbekistan.

Kirish. Tabiiyki Yer qobig'ining alohida maydonlaridagi kuchlanganlik holatini o'zgarishi bu hududlardagi muhitning geofizik sharoitlarini o'zgarishiga olib keladi. Kuchlanishni yig'ilishi sababli geofizik sharoitlari o'zgargan hududlar potentsial seysmik xavfli hisoblanadilar. Shu bilan bir vaqtda kuchlanishlardan bo'shalish uchun, ya'ni zilzilalarni hosil bo'lishi uchun tog'jinslarning zichligi past bo'lganligi sababli, faol yoriqlar zonalari hisoblanadilar. Kuchli zilzilalarning o'choqlari bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan uzilmalarning seysmik faollashuvi darajasini baholash seysmotektonika tahlil. Hududning bunday Yer yoriqlari bir vaqtning o'zida seysmogen zona Yer yoriqlar deb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ko'riyotgan hudud hududlarida Qoratog', Cho'yanchin, Boysun va boshqalar kabi kuchli zilzilalar sodir bo'lgan. Kuchli Qoratog' zilzilasi ($M=7,4$; $N=35$ km, $J=9+1$ ball.) 1907 yil 21 oktabrda sodir bo'ldi. [1, 2] ma'lumotlari bo'yicha bu zilzilaning kuchi 9 (9-10) ballga yetgan.

B. Gutenberg va Ch. Rixter bo'yicha uning intensivligi $M=8$ teng. Yer osti silkinishlari ko'p bo'lib, ularning har biri gumburlagan tovush bilan birgalikda kuzatilgan. Qoratog' zilzilasi oqibatlarini o'rgangan [1] Toshkent seysmik observatoriyasi ma'lumotlari asosida uchta kuchli silkinish bo'lgan deb hisoblaydi va ularning vaqtini keltiradi: 1-zilzila ertalab mahalliy vaqt bilan soat 9 dan 02 daqiqa o'tganda, ikkinchisi - soat 9:22 daqiqada va uchinchisi - 9:51 daqiqada sodir bo'lgan.

Mechitli tog'larida ko'tarilish yonbag'irlarida o'pirlilishlar (tuproqli va toshli) kuzatildi, Surxontog' tizmasining yonbag'irlarida esa yirik Yer ko'chkilari qayd qilindi [3].

O'tkazilgan makroseysmik tadqiqotlar [1] Qoratog' zilzilasi pleystoseyst hududining xaritasini tuzish imkonini berdi va uning kuchi Rossi-Frel shkalasi bo'yicha 9 ball deb aniqlandi. U tomondan Shimoli-Sharqdan Janubi-G'arbga cho'zilgan maksimal tebranishlar zonasi chegaralandi. Bu zonaning uzunligi 100 kmdan ortiq (taxminan 100 chaqirim), kengligi 10 km. Izoseystlar xaritasini tuzishda shuningdek B.Ya. Korolkov yig'gan ma'lumotlar ham hisobga olindi.

Ko'pchilik tadqiqotchilar (M.M. Bronnikov, B.Ya. Korolkov, I.Ye. Gubin, A.M. Babaev, R.N. Ibragimov va boshqalar) kuchli Qoratog' zilzilalarini uzilishlar bilan bog'liqligini ta'kidladilar.

Cho'yanchin zilzilasi ($M=6,2$; $N=24$ km; $J=7-8$ ball) 1907 yil 27 oktabrda sodir bo'ldi. Zilzilaning pleystoseyst hududi Mechitli tog'ining sharqiy qismini egallaydi va Qoratog' zilzilasi nisbatan kichikroq maydonga ega. Tog'larda yirik tuproqli ko'chkilar va toshli o'pirlilishlar sodir bo'ldi. Cho'yanchin aholi punktida 3 ta qishloq tog' o'pirlilishlari ostida ko'milib ketdi va ularda ovozalar bo'yicha barcha aholi halok bo'lgan [3].

Boysun zilzilasi ($M=6,2$; $N=18$ km; $J=8$ ball) 1935 yil 5 iyulda sodir bo'ldi. Maksimal tebranishlar hududi Sharqqa bo'rtgan va Janubi-G'arbdan Shimoli-Sharqqa cho'zilgan egilgan ellips shakliga ega. Uning kengligi 65 km ga yetadi, uzunligi 250 km gacha (Seysmicshnost, 1972).


1968 yil 8 iyulda Boysun hududda yana kuchli zilzila ($M=4,8$; $N=25$ km; $J=7$ ball) sodir bo'ldi. Bu zilzilaning maksimal intensivligi 7 ± 1 ballga yetdi. Pleystoseyst oblasti shartli ravishda ajratildi va u janubi-g'arbdan shimoli-sharqqa cho'zilgan ellips shakliga ega. Uning uzunligi 15 km, kengligi esa 7 km. Bu hudud qaysidir jihatdan 1935 yil 5 iyuldagi zilzilaning izoseystalari shaklini takrorlaydi.

Buning uchun G'arbiy Hissor burmalangan zonasini va uning janubi-g'arbiy tarmoqlarini markaziy qismidagi strukturalarni yo'nalishga ko'ndalang kesib o'tuvchi geologik profillar tuzildi (1,2,3,4 rasmlar). Profillar Boysuntog', Surxontog' antiklinal ko'tarilishlarni, Mechitli va


Qoratog' tizmalarini, shuningdek Darvozkom tog'ini kesib o'tadi. Rasmlardan ko'rinib turibdiki bu burmalangan zonaning janubiy borti ko'psonli uzilmalar bilan bo'lib tashlangan.

Mechitli antiklinal strukturasi o'q qismida qator deyarli vertikal uzilmalar bilan buzilgan. Eng janubi-sharqiy Yer yoriqlar bo'yicha u Surxondaryo botiqligidan ajralib turadi.


Darvozkom ko'tarilishi shimolda tik uzilma bilan chegaralangan, janubdan esa struktura tushilma turidagi uzilma bilan chegaralangan. Bu barcha yer yoriqlar bo'yicha eng yangi vaqtda katta amplitudali intensiv, bir-biriga qarama-qarshi tektonik harakatlar yuz bergan [3]. So'ngra, janubi-g'arbda, Surxondaryo botiqligida paleozoy tog' jinslari mezozoy va kaynozoyning qalin qatlamlari tagiga kirib ketadi.




1-rasm. Surxon tog' antiklinal ko'tarilmasini kesib o'tgan geologik qirqim.




2-rasm. Mechitli antiklinal ko'tarilmasini kesib o'tgan geologik qirqim.



3-rasm. Qoratog' antiklinal ko'tarilmasini kesib o'tgan geologik qirqim.



4-rasm. Darvozkom antiklinal ko'tarilmasini kesib o'tgan geologik qirqim.




Shartli belgilar: 1. Intruziv tog' jinslar (granodioritlar γδ). 2. Effuziv tog' jinslar (granit porfir γr). 3. Paleozoy yotqizilari. 4. Mezozoy va kaynozoyning yumshoq tog' jinslari. 5. Yer qobig'idagi yoriqlar. 6. Fleksura-uzilish zonasi.

Tahlil va natijalar. Bu yerda, ehtimol, fleksura hosil qiluvchi cho'kish bo'lishi mumkin. M.X. Xadjibekov, A.A. Abduazizov, E.P. Gordeev va boshqalar R.N. Ibragimov muharrirligida tuzgan O'zbekiston seysmotektonikasining xaritasidan lavha keltirilgan. U 1907 yilda sodir bo'lgan kuchli seysmik silkinishlar rayonini qamrab oladi. Rasmda ko'rsatilishicha ko'rilayotgan hudud yirik mitaqaviy bloklararo Yer yoriqlar bilan chegaralangan bloklarga bo'lingan. Ularning neogen-to'rtlamchi davrdagi amplitudasi 2-4 kmgacha yetadi.

Bu Yer yoriqlarda magnitudasi M=4,5-6,5 bo'lgan kuchli zilzilalarning o'choqlarining joylashganligi ularni seysmogenligi to'g'risida guvohlik beradi (5-rasm). Bu zilzilalar o'choqlarini katta chuqurlikda (30 kmgacha) yotishi bilan tavsiflanadi va izoseystalari asosiy tektonik tuzilmalar bo'ylab cho'zilgan seysmik energiyaning tarqalish katta maydonini qamrab oladi. Hududning bu seysmogen uzilmalarining boshqa tavsifli xususiyati bo'lib ularni Hisor-Ko'kshol siljishidan tarmoqlanishi va ularga xos barcha tavsifli xususiyatlarini qabul qilganligi hisoblanadi.

U asosan qarama-qarshi surilma siljishlarni boshidan o'tkazgan Hissor-Ko'kshol chuqur Yer yorig'i va Surxon-Ilyak fleksura-uzilish zonasi o'rtasida joylashgan tog'oldi hududlarini qamrab oladi.

Bu hududda Mechitli, Qoratog', Darvozkom va Surxontog' kabi antiklinal ko'tarilishlar va Zevar, Cho'yanchin, Rekka va Sangimil kabi sinklinallar, shuningdek yuqorida ko'rsatilgan tuzilmalarning janubi-g'arbiy davomida chiziqsimon cho'zilgan yosh burmalar joylashgan. Ular vzbros-uzilma, sbros-siljishli va tikka surilmalar kabi uzilmalar bilan kesib o'tilgan bo'lib, ular Shimoli-Sharqda Hissor-Ko'kshol o'ng tomonli siljishga va janubi-g'arbda Surxon-Ilyak fleksura-uzilish zonasiga tayanuvchi uzilmalarning eng ko'p uchraydigan shakllari hisoblanadi. Ularni seysmotektonik bloklarni cheklovchi hudud siljishlarning elementlari sifatida ko'rish mumkin. (5-rasmda) Qoratog' zilzilalar seriyasini maksimal silkinishlarining umumlashtirilgan izoseystasi keltirilgan.



5-rasm. Hissor-Ko'kshol yer yorig'i va Surxon-Ilyak fleksura-uzilish zonasining geodinamik ta'siridagi destruktura zonalar va Qoratog' zilzilalar seriyasini maksimal silkinishlarining umumlashtirilgan izoseystasi (Tuzuvchi: B.Z. Ziyomov 2024 yil).

Umuman Hissor tizmasining janubi-g'arbiy tarmoqlarida kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan zilzilalarning joyi va kuchini bashorat qilish uchun sifatli va miqdoriy ma'lumotlardan foydalanildi [6]. Miqdoriy baholash uchun hozirgi kuchli zilzilalar seysmostatistikasi va eng yangi vertikal tektonik harakatlar amplitudasi qo'llanildi (6-rasm).


Xulosa va takliflar. Shunday qilib Hissor-Ko'kshol seysmogen zonasi (I) Hissor tizmasining janubiy yonbag'ri bo'yab cho'zilgan (6-rasm). U uzilish sathi shimol va shimoli-sharqqa og'gan tikka tushilma, surilmalar ko'rinishida kenglik va shimoli-g'arbiy uzilmalar tizimida ajratilgan bir nomli chuqur yoriq bilan bog'langan. Hissor tizmasining morfotuzilmasi G'arbiy Hissor burmalangan zonasining strukturalariga nisbatan ko'tarilgan. Bu qismda yoriq gravitatsion va magnit anomalialarining bosqichlari ko'rinishida yanada yaqqol trassalanadi [4, 7, 8].

Mezozoy va paleogenda yoriqni janubiy chegaralardagi uzoq cho'kish hudud nazorat qilgan. Neogenda, ayniqsa to'rtlamchi vaqtida yoriq zonasida bir necha marta yangilangan intensiv, qarama-qarshi harakatlar bo'lib o'tadi. Ularning amplitudasi bu yerda 3-4 kmgacha yetadi. Yoriq zonasidagi hozirgi tektonik strukturalarning eng keng rivojlanishni to'rtlamchi vaqtida yo'nalishi kenglik bo'yichadan to janubi-g'arbgacha o'zgartirgan differensiyalangan harakatlar hisobiga ro'y berdi [4].

S.A. Zaxarov ma'lumotlari bo'yicha Hissor-Ko'kshol Yer yorig'i o'ng bort surilgan tipdagi eng yangi postsedimentatsion uzilish holati [8]. Hozirgi tuzilmalarning harakatchanligi Hissor-Ko'kshol seysmogen zonasini magnitudasi $M=7,5$ bo'lgan zilzilalarni hosil qilishi mumkin bo'lgan potensial seysmik xavfli hudud sifatida ko'rish imkonini beradi. Bu yerda maksimal kuchi intensivligi 9 ballik (Qoratog' 1907 y., $M=7,4$; Fayzobod 1943 y. $M=6,0$) va 9-10 ballik (Xait 1949 y. $M=7,4$) halokatli zilzilalar sodir bo'lgan. Yer qobig'ining 25-30 kmida va undan chuqurroqda joylashadi.

Qizildaryo-Langar-Qorail seysmogen zonasi (II) Qizildaryo yorig'i va Langar-Qorail fleksura-uzilish zonasi bilan ifodalangan Hissor-Ko'kshol yorig'ining janubi-g'arbiy tarmog'i bilan bog'langan. (6-rasm).

Seysmogen zona Shimoli-Sharqda Langar vzbros (uzilma) bilan ifodalangan [9,10] ma'lumotlari bo'yicha uning amplitudasi Pasra qishlog'i rayonida 7000 metrgacha yetadi. Langar Yer yorig'ining janubi-g'arbida Qorail, Belisaynak yoriqlari bilan almashadigan tikka yotuvchi fleksura-uzilish tuzilmalari keng rivojlangan.



6-rasm. Janubiy O'zbekistonning asosiy Yer yoriqlarining sxematik xaritasi (2024 yilda ArcMap 10.8 texnologiya dastur versiyasi asosida B.Z. Ziyomov tomonidan yaratilgan).

Janubiy-G'arbiy yo'nalishda keskin pasayadi. Seysmotektonik sharoitlar bo'yicha zonada magnitudasi $M=6,5$ gacha va intensivligi 8 ballik zilzilalarni hosil bo'lishiga yo'l qo'yiladi.

Zilzilalarni joyi va kuchi bo'yicha bashorat 1999-2001 yillarda Qarshi va Qamashi rayonida magnitudasi $M=5,1$ va intensivligi 7 ballik zilzilalarni sodir bo'lishi bilan tasdiqlandi. Qizildaryo-Langar-Qorail seysmogen zonasi ajratilgunga qadar bu yerda bunday magnitudali zilzilalar sodir bo'lmagan edi (Mavlyanov, Ibragimov va boshqalar, 1983).

Boysun-Kuxitong seysmogen zonasi (III) shu nomdagi alp ko'tarilishlarini murakkablashtiruvchi Boysun va Kuxitong yoriqlar tizimi bilan ifodalangan (6 rasm). Boysun qismi asosan janubi-sharqqa qulovchi (80°) vzbroslar (uzulma) bilan xarakterlanib, ularning amplitudasi 2500 metrgacha yetadi. Yer yoriqning Kuxitong qismi amplitudasi taxminan 2000 metrl tushilma-surilish bilan ifodalangan. Bu yoriqlarning shakllanishini asosiy bosqichi to'rtlamchi vaqtga to'g'ri keladi. Bu zona bilan o'rtacha magnitudali zilzilalarni sodir bo'lishi bog'langan. Ulardan eng kuchlilari - 1935 va 1968 yillardagi magnitudasi $M=6,2$ va intensivligi 7-8 ballik Boysun zilzilalari. Keyinchalik bu zona chegaralarida magnitudasi $M \leq 6,5$ va intensivligi 8 ballik zilzilalar sodir bo'lishi mumkin.

Surxontog'-Sherobod-Kelif seysmogen zonasi (IV) Surxontog', Kelif-Sherobod va Sherobod-Sariqamish antiklinal ko'tarilishlarini murakkablashtiruvchi kulisasimon joylashgan uzilmalar tizimi bilan bog'langan. (6-rasm). Bular asosan shimoli-g'arbgacha yotuvchi tushilmalar va surilmalar. Bunda alohida maydonlarda tog' jinslarining siljish amplitudasi - 3000 metrgacha yetadi. Yer yoriqlar chegaralarida yosh fleksurasimon burmalar keng rivojlangan bo'lib, ular yanada kichikroq uzilishlar bilan murakkablashgan. Eng kuchli zilzilaning magnitudasi $M = 5$, chuqurligi $N=11-20$ km va kuchi 7 ballni tashkil etgan.

Biroq to'rtlamchi davrdagi harakatlarning katta amplitudasi ba'zi mahalliy burmalar golotsenda paydo bo'lganligi va hozirgi davrda intensiv rivojlanayotganligini tasdiqlashda xizmat qilishi mumkin. Amaliyotni ko'rsatishicha Yer qobig'ining bunday maydonlari har doim seysmik xavfli bo'ladi va bu zonani potensial seysmik faollar qatoriga qo'shishga imkon beradi. Bu yerda magnitudasi $M \leq 6,5$ va intensivligi 8 ballik zilzilalar sodir bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Бронников М.М. Каратагское землетрясение// Изв.Геол.ком.-1908.-т.27.-№ 147.-с.212-287.
2. Корольков Б.Я. Каратагское землетрясение 8 ноября 1907 года. Известия Турк. Отд. Русск. Геогр. Об-ва, Т.9, 1913.
3. Губин И.Е. Закономерности сейсмических проявлений на территории Таджикистана. М.,Изд.АН.,1960, 464 с.
4. Бабоев А.М., Кочлаков Г.В., Мирзоев К.М. Сейсмическое районирование Таджикистана. - Душанбе: Дониш, 1978.-70 с.
5. Юрьев А.А. и др. «К новейшей тектонике Узбекистана. В кн.: Тектонические предпосылки нефтегазоносности мезокайнозойских отложений Узбекистана». Выпуск 8, САИГИМС, Ташкент, 1973, с. 72-122.

6. Белеловский М.Л. Некоторые черты глубинной тектоники Таджикской депрессии по геофизическим данным. В сб.: Тектоника Памира и Тянь-Шаня. М. Наука, 1964.
7. Беккер Я.А., Кошлаков Г.В., Кузнецов Е.С. и др. К тектонике района г.Душанбе (Гиссарской долины) по результатам геолого-геофизических исследований// Поиски предвестников землетрясений на прогностических полигонах .-М.: Наука, 1974 а.- С. 24-29.
8. Захаров С.А. Тектонические критерии сейсмического районирования долин р. Вахш, восточной части Гиссарской долины и примыкающих районов// Активизированные зоны земной коры. – М.: Наука, 1964.- С.248-254.
9. Зиёмов Б.З., Хусомиддинов А.С., Садиров Ф.Х., Ахмедов Ш.Б. К проблеме тектоники юго-западной территории Гиссарских гор Южного Узбекистана // Разведка и охрана недр. - 2021. - № 3. - С. 32-36.
10. Екшибаров С.В. Тектоника и нефтегазоносность Юго-Западного Гиссара.- Ташкент, //Изд-во АН Уз ССР, 1962.



Rahmat ZIYAYEV,

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, g.f.f.d. (PhD)

E-mail: rahmatjon181988@gmail.com

Zilola XAKIMOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, g.f.f.d. (PhD)

Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti direktori, g.f.f.d D.Turg'unov taqrizi asosida

TOG' DARYOLARI TO'LINSUV DAVRI OQIMINI ULARNING IQLIMY OMILLAR BILAN EMPIRIK BOG'LANISHLARI ASOSIDA BAHOLASH

Аннотация

Maqola tog' daryolari to'linsuv davri oqimini ularning iqlimiy omillar bilan empirik bog'lanishlari asosida baholash masalalariga bag'ishlangan. Shu maqsadda Chirchiq havzasi daryolari to'linsuv davri oqimi miqdorlari bilan meteorologik omillar orasidagi ko'phadli bog'lanishlar statistik baholangan va ularning normallashtirilgan regressiya tenglamalari olingan. Daryolarning to'linsuv davri oqimi miqdorlari mazkur tenglamalar asosida tuzilgan nomogrammlar yordamida baholangan.

Kalit so'zlar: daryo, daryo oqimi, to'linsuv, iqlimiy omillar, ko'phadli bog'lanishlar, regressiya tenglamalari, hisoblash nomogrammasi, baholash.

ОЦЕНКА СТОКА ПЕРИОДА ПОЛОВОДЬЯ ГОРНЫХ РЕК НА ОСНОВЕ ИХ ЭМПИРИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ С КЛИМАТИЧЕСКИМИ ФАКТОРАМИ

Аннотация

Статья посвящена вопросам оценки стока горных рек за период половодья на основе их эмпирических связей с климатическими факторами. С этой целью произведена статистическая оценка многофакторной связи между стоком рек бассейна Чирчика за период половодья и метеорологическими факторами, получены уравнения нормализованной регрессии. На их основе построены расчетные номограммы и оценены величины стока рек периода половодья.

Ключевые слова: река, речной сток, половодье, климатические факторы, многофакторные связи, уравнения регрессии, расчетная номограмма, оценка.

ASSESSMENT OF RUNOFF DURING THE FLOOD PERIOD OF MOUNTAIN RIVERS BASED ON THEIR EMPIRICAL RELATIONS WITH CLIMATIC FACTORS

Annotation

The article is devoted to the issues of assessing the flow of mountain rivers during the flood period based on their empirical relationships with climatic factors. For this purpose, a statistical assessment of the multifactorial relationship between the flow of the rivers of the Chirchik basin during the flood period and meteorological factors was made, normalized regression equations were obtained. On their basis, calculated nomograms were constructed and the values of the river flow during the flood period were estimated.

Key words: river, river flow, flood period, climatic factors, multifactorial relationship, regression equations, calculated nomogram, assessment.

Kirish. Hozirgi kunda sayyoramizda, ayniqsa, uning arid mintaqalarida iqlim ilishi tufayli suv resurslari taqchilligi yildan-yilga kuchliroq sezilmoqda. Ana shunday sharoitda, daryolar suv resurslarini iqlimiy omillarga bog'liq holda miqdoriy baholash usullarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu o'rinda O'rta Osiyo, shu jumladan, O'zbekiston daryolari yillik oqimi 70-80 foizining to'linsuv davrida oqib o'tishini alohida ta'kidlash lozim [3, 6]. Bu holat mamlakatimiz sharoitida, daryolar to'linsuv davri oqimi miqdorini iqlimiy omillarga bog'liq holda baholash usullarini takomillashtirishning dolzarab masalalardan biri ekanligidan dalolat beradi.

Ushbu tadqiqot ishining asosiy maqsadi tog' daryolari to'linsuv davri oqimi miqdorini ularning iqlimiy omillar bilan empirik bog'lanishlari asosida baholash masalalarini Chirchiq havzasi daryolari misolida ko'rib chiqishga qaratilgan. Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar belgilab olindi va tadqiqot jarayonida o'z yechimini topdi: 1) havzada tabiiy suv rejimini saqlab qolgan daryolarda o'lchangan suv sarflari hamda ularning havzalaridagi meteorologik stansiyalarda qayd etilgan atmosfera yog'inlari va havo haroratlari haqidagi ma'lumotlarni to'plash; 2) daryolarning suv sarflari ma'lumotlari asosida har bir yil uchun daryo gidrograflari chizish; 3) gidrograflardan foydalanib, to'linsuv davridagi o'rtacha suv sarflarini aniqlash; 4) daryolar to'linsuv davri suv sarflari bilan iqlimiy omillar orasidagi ko'phadli bog'lanishlarni turli hisob oraliqlari – birinchi bazaviy (BBID, 1961-1990 yillar) va joriy (JID, 1991-2020 yillar) iqlimiy davrlar uchun statistik baholash; 5) ko'phadli bog'lanishlarning regressiya tenglamalarini tuzish va to'linsuv davri oqimini ular asosida qurilgan nomogrammlar yordamida baholash.

Tadqiqot obyekti sifatida, gidrometeorologik nuqtai-nazardan yaxshi o'rganilgan, Chirchiq havzasi daryolari tanlab olindi (1-jadval). Tadqiqotning predmetini esa mazkur daryolar to'linsuv davri oqimi bilan turli mavsumlardagi (qishki, yozgi) atmosfera yog'inlari va (yozgi) havo harorati orasidagi bog'lanishlarni statistik baholash masalalari tashkil etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Daryolar oqimining hosil bo'lishi, ularni iqlimiy omillarga bog'liq holda miqdoriy baholash masalalarini o'rganishga R.M.Perkins, J.Gibson, T.Edwards, S.Birks, W.Buhay, P.Eachern, B.Wolfe, L.Alfieri, B.Bisselink, F.Dottori, G.Naumann, K.Wyser, Ya.Kong, Z.Pang, kabi xorijlik olimlarning tadqiqotlari bag'ishlangan [7]. MDH mamlakatlari olimlaridan T.S.Abalyan, S.K.Alamanov, M.N.Bolshakov, M.I.Budiko, A.I.Voeykov, V.G.Glushkov, I.S.Sosedov va boshqalar daryolar suv rejimi turli fazalari oqimining hosil bo'lishi jarayonlarini iqlimiy omillarga bog'liq holda o'rganishgan. O'zbekistonda ushbu yo'nalishdagi ilk tadqiqotlar E.M.Oldekop, L.K.Davidovlar tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik mazkur masala bilan V.L.Shults, O.P.Sheglova, Z.P.Djordjo, A.M.Ovchinnikov, V.E.Chub va boshqalar shug'ullanganlar. Hozirgi kunda mazkur muammoga bag'ishlangan izlanishlarni B.K.Sarev, F.Xikmatov, L.M.Karandaeva, B.D.Salimova, S.A.Xaydarov, D.M.Turg'unov, R.R.Ziyayev, N.B.Erlapasov, Z.F.Xakimova kabi tadqiqotchilar davom ettirmoqdalar [2, 3, 4, 6, 7]. Mazkur tadqiqot muammoni Chirchiq havzasi daryolari misolida ko'rib chiqishga bag'ishlanganligi bilan yuqoridagi ishlardan farq qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada geografik umumlashtirish, gidrologik o'xshashlik, zamonaviy gidrologik hisoblashlar usullari qo'llanilgan. Shuningdek, daryolar to'linsuv davri oqimi bilan iqlimiy omillar (qishki va yozgi yog'inlar, yozgi havo harorati) orasidagi ko'phadli bog'lanishlarni statistik baholashda G.A.Alekseev taklif etgan obyektiv tenglashtirish va normallashtirish usuli qo'llanilgan [1, 5].

Tadqiqotda O'zgidrometning Chirchiq havzasi daryolaridagi gidropostlarida o'lchangan suv sarflaridan birlamchi ma'lumotlar sifatida foydalandik. Iqlimiy omillar, ya'ni atmosfera yog'inlari va havo haroratlari esa mazkur agentlik tasarrufidagi Piskom meteostansiyasida qayd etilgan.

Tahlil va natijalar. Daryolarning to'linsuv davri oqimi miqdorlari bilan iqlimiy omillar orasidagi bog'lanishlarni hisoblash ishlari BBID

va JIDlar uchun alohid-alohida amalga oshirildi. Hisoblashlar G.A.Alekseev usulida, quyidagi ketma-ketlikda bajarildi. Dastlab, gidrometeorologik o'zgaruvchilar, ya'ni $\sum X_{X-III}$ (gidrologik yilning X-III oylaridagi yog'inlar yig'indisi), $\sum X_{IV-IX}$ (IV-IX oylaridagi yog'inlar yig'indisi), \bar{t}_{IV-X} (IV-X oylaridagi o'rtacha havo harorati) o'sib borish tartibida qayta shakllantirildi. Ularning rang (tartib) raqamlari asosida har bir o'zgaruvchining normallashtirilgan qiymatlari maxsus jadvaldan aniqlandi. O'zgaruvchilar normallashtirilgan qiymatlarining juft ko'paytmalari hisoblab, har bir juftlikning algebraik yig'indilari aniqlandi. Ushbu yig'indilar kovariatsiya koeffitsientlari ($\mu_{01}, \mu_{02}, \mu_{03}, \mu_{12}, \mu_{13}, \mu_{23}$)ni hisoblash imkonini berdi [1]. Juft korrelyatsiya koeffitsientlari ($r_{01}, r_{02}, r_{03}, r_{12}, r_{13}, r_{23}$) kovariatsiya koeffitsientlarining empirik dispersiya (σ_u^2)ga nisbati sifatida aniqlandi (1-jadval).

Hisoblashlarning natijasida aniqlangan juft korrelyatsiya va noma'lum bo'lgan regressiya koeffitsientlaridan tashkil topgan chiziqli tenglamalar sistemasi Piskom

1-jadval

O'zgaruvchilar orasidagi bog'lanishlarning juft korrelyatsiya koeffitsientlari

T.r.	Daryo – gidropost	Hisob davrlari	Juft korrelyatsiya koeffitsientlari					
			r_{01}	r_{02}	r_{03}	r_{12}	r_{13}	r_{23}
1	Chotqol-Xudoydot q.	BBID	0,842	0,532	-0,280	0,309	-0,223	-0,607
		JID	0,704	0,474	-0,329	0,127	-0,196	-0,581
2	Piskom-Mullala q.	BBID	0,841	0,513	-0,343	0,309	-0,223	-0,607
		JID	0,726	0,413	-0,367	0,127	-0,196	-0,581
3	Ugom-Xo'jakent q.	BBID	0,775	0,659	-0,342	0,309	-0,223	-0,607
		JID	0,684	0,589	-0,391	0,127	-0,196	-0,581

(Mullala) daryosi misolida tuzildi. Shu maqsadda daryoda JID uchun yuqorida aniqlangan (1-jadval) juft korrelyatsiya koeffitsientlari qiymatlaridan foydalandik. Natijada yuqoridagi sistema (1) quyidagi ko'rinishga keldi:

$$\begin{cases} \alpha_{01} + 0,127 \cdot \alpha_{02} - 0,196 \cdot \alpha_{03} = 0,704 \\ 0,127 + \alpha_{01} \cdot \alpha_{02} - 0,581 \cdot \alpha_{03} = 0,413 \\ -0,196 + \alpha_{01} \cdot 0,581 + \alpha_{02} \cdot \alpha_{03} = -0,367 \end{cases} \quad (1)$$

Ushbu uch noma'lumli chiziqli tenglamalar sistemasining bosh va yordamchi determinantlari Kramer usulida aniqlandi (2-jadval).

2-jadval

Bosh (Δ) va yordamchi determinantlar ($\Delta_{01}, \Delta_{02}, \Delta_{03}$)ning

BBID va JIDlar uchun hisoblangan qiymatlari

T.r.	Daryo	BBID			JID				
		Δ	Δ_{01}	Δ_{02}	Δ_{03}	Δ	Δ_{01}	Δ_{02}	Δ_{03}
1	Chotqol	0,570	0,429	0,208	0,063	0,637	0,420	0,263	0,025
2	Piskom	0,570	0,430	0,157	-0,004	0,637	0,430	0,184	-0,043
3	Ugom	0,570	0,363	0,307	0,073	0,637	0,398	0,340	0,027

Bosh va yordamchi determinantlarni hisoblash ishlari natijalari asosida no'malum bo'lgan regressiya koeffitsientlarining qiymatlari, BBID va JID uchun, quyidagi ifodalarda yordamida aniqlandi:

$$\alpha_{01} = \frac{\Delta_{01}}{\Delta}; \quad \alpha_{02} = \frac{\Delta_{02}}{\Delta}; \quad \alpha_{03} = \frac{\Delta_{03}}{\Delta}. \quad (2)$$

3-jadval

Regressiya koeffitsientlarining BBID va JIDlar uchun hisoblangan qiymatlari

T.r.	Daryo	BBID			JID		
		α_{01}	α_{02}	α_{03}	α_{01}	α_{02}	α_{03}
1	Chotqol	0,753	0,366	0,110	0,659	0,413	0,040
2	Piskom	0,755	0,275	-0,007	0,676	0,288	-0,067
3	Ugom	0,636	0,539	0,128	0,625	0,534	0,042

Regressiya koeffitsientlarining 3-jadvalda keltirilgan qiymatlari asosida normallashtirilgan regressiya tenglamasi umumiy ko'rinishda quyidagicha tuzildi:

$$U_0(Q_i) = \alpha_{01} \cdot U_1(X_q) + \alpha_{02} \cdot U_2(X_{y_0}) + \alpha_{03} \cdot U_3(t_{y_0}). \quad (3)$$

Normallashtirilgan regressiya tenglamalari yuqoridagi 3-jadval ma'lumotlari asosida xususiy holatlar, ya'ni har bir o'rganilgan daryo va hisob davrlari (BBID, JID) uchun ham tuzildi. Ushbu tenglamalarning aniqligini ifodalovchi to'liq korrelyatsiya koeffitsientlari va ularning xatoliklari o'rganilayotgan barcha daryolar aniqlandi (4-jadval).

4-jadval

Daryolar to'linsuv davri oqimi [$U_0(Q_i)$] bilan iqlimiy omillar [$U_1(X_q), U_2(X_{y_0}), U_3(t_{y_0})$] orasidagi bog'lanishlarning normallashtirilgan regressiya tenglamalari

T.r.	Daryo	Hisob davrlari	Normallashtirilgan regressiya tenglamalari	$r_0 \pm \sigma_{r_0}$
1	Chotqol	BBID	$U_0(Q_i) = 0,753 \cdot U_1(X_q) + 0,366 \cdot U_2(X_{y_0}) + 0,110 \cdot U_3(t_{y_0})$	0,927±0,029
		JID	$U_0(Q_i) = 0,659 \cdot U_1(X_q) + 0,413 \cdot U_2(X_{y_0}) + 0,040 \cdot U_3(t_{y_0})$	0,820±0,061
2	Piskom	BBID	$U_0(Q_i) = 0,755 \cdot U_1(X_q) + 0,275 \cdot U_2(X_{y_0}) - 0,007 \cdot U_3(t_{y_0})$	0,882±0,046
		JID	$U_0(Q_i) = 0,676 \cdot U_1(X_q) + 0,288 \cdot U_2(X_{y_0}) - 0,067 \cdot U_3(t_{y_0})$	0,796±0,068
3	Ugom	BBID	$U_0(Q_i) = 0,636 \cdot U_1(X_q) + 0,539 \cdot U_2(X_{y_0}) + 0,128 \cdot U_3(t_{y_0})$	0,945±0,022
		JID	$U_0(Q_i) = 0,625 \cdot U_1(X_q) + 0,534 \cdot U_2(X_{y_0}) + 0,042 \cdot U_3(t_{y_0})$	0,871±0,045

Yuqorida keltirilgan 4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Chirchiq havzasidagi daryolarda BBID uchun hisoblangan to'liq korrelyatsiya koeffitsientlarining qiymatlari JIDga nisbatan katta bo'lgan. Masalan, Piskom daryosida BBIDda to'liq korrelyatsiya koeffitsientning qiymati $r_0=0,882$ ga teng bo'lgan bo'lsa, JIDga kelib, bu qiymat biroz kamayib, $r_0=0,796$ ni tashkil qilgan.

Normallashtirilgan regressiya tenglamasi, ya'ni (4) ifodaga meteorologik omillarning qo'shgan hissalarini [$\delta(X_q), \delta(X_{y_0}), \delta(t_{y_0})$] G.A.Alekseev taklif etgan ifodalarda yordamida aniqlandi (5-jadval).

Olingan natijalarni Piskom daryosi misolida tahlil qilamiz. Mazkur daryoda BBID to'linsuv davri oqimining hosil bo'lishiga qishki atmosfera yog'inlarining hissasi 81,6% ni tashkil qilgan. JIDda esa bu qiymat biroz kamayib, 77,4% ga teng bo'lgan. Yozgi atmosfera yog'inlarining hissasi BBIDda 18,1 foiz, JIDda esa 18,8% bo'lgan. BBIDda Piskom daryosida to'linsuv davrining shakllanishida havo haroratining ta'siri umuman sezilmagan (0,3%) bo'lsa, JIDda esa uning ulushi 3,8% ni tashkil qilgan (5-jadval).

5-jadval

Daryolar to'linsuv davri oqimining hosil bo'lishiga iqlimiy omillarning qo'shgan hissalarini [$\delta(X_q), \delta(X_{y_0}), \delta(t_{y_0})$], foizda

T.r.	Daryo	BBID			JID		
		$\delta(X_q)$	$\delta(X_{y_0})$	$\delta(t_{y_0})$	$\delta(X_q)$	$\delta(X_{y_0})$	$\delta(t_{y_0})$
1	Chotqol	73,8	22,6	3,60	69,0	29,0	2,00
2	Piskom	81,6	18,1	0,30	77,4	18,8	3,80
3	Ugom	55,3	39,8	4,90	56,4	41,5	2,10

O'rganilayotgan deyarli barcha daryolarda JIDda BBIDga nisbatan qishki atmosfera yog'inlarining hissalarini kamaygan bo'lsa, yozgi yog'inlar va havo harorati ulushlarining ortishi qayd etilgan. Ushbu natijalarni taqqoslashda o'rganilgan Chirchiq havzasida, iqlim ilishi tufayli,


daryolarning to'yinishida tog' muzliklari va doimiy qorliklar suvlari ishtirokining ortganligi bilan izohlash mumkin.

Bajarilgan hisoblashlar natijalarining tahlillariga ko'ra, barcha daryolar to'linsuv davri oqimining hosil bo'lishida yozgi havo haroratining ulushi samaradorlik mezonidan kichik bo'ldi. Shu sababli, normallashtirilgan regressiya tenglamasi, Piskom daryosi misolida, yozgi havo haroratini hisobga olinmay, qayta tuzildi:

$$U_0(Q) = 0,680 \cdot U_1(X_q) + 0,320 \cdot U_2(X_{yo}). \quad (4)$$

Ushbu ifodalar yordamida bajarilgan hisoblashlar natijalarining ko'rsatishicha, JIDda Piskom daryosi to'linsuv davri oqimining hosil bo'lishida qishki atmosfera yog'inlarining ulushi 78,9% ni tashkil qilgan bo'lsa, yozgi yog'inlarining hisssasi 21,1% ga teng bo'ldi. Demak, daryo havzasiga qish mavsumida yoqqan yog'inlar, to'linsuv davri oqimining shakllanishida ustuvor ahamiyat kasb etadi.


Yuqorida keltirilgan (4) ifoda, ya'ni qayta tuzilgan normallashtirilgan regressiya tenglamasi, Piskom daryosi to'linsuv davri oqimining normallashtirilgan qiymatini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu qiymatni aniqlash uchun ham qishki va yozgi yog'inlarning normallashtirilgan qiymatlarini aniqlash talab etiladi. Mazkur noqulayliklardan qutulish maqsadida, (4) ifoda yordamida, to'linsuv davri oqimini hisoblash nomogrammasi tuzildi (1-rasm).



1-rasm. Piskom daryosi to'linsuv davri oqimini hisoblash nomogrammasi

Piskom daryosi to'linsuv davri oqimini, qishki va yozgi yog'inlar miqdorlariga bog'liq holda, kuzatilgan (Q_k) va hisoblash nomogrammasidan aniqlangan (Q_a) va qiymatlari o'zaro solishtirildi, ularning absolyut (E_a) va nisbiy (E_n) xatoliklari aniqlandi. Hisoblashlar natijalariga ko'ra, absolyut xatoliklar o'rtacha $7,75 \text{ m}^3/\text{s}$ ga, nisbiy xatoliklar esa $4,64\%$ ga teng bo'ldi.

Hisoblash nomogrammasining aniqligini baholashda grafik usul ham qo'llanildi. Mazkur usulda JIDda Piskom daryosida to'linsuv davrida kuzatilgan suv sarflari (Q_k) bilan ularning nomogramma yordamida aniqlangan qiymatlari (Q_a) orasidagi bog'lanish grafigi chizildi va tahlil qilindi (2-rasm).



2-rasm. To'linsuv davri oqimining hisoblangan (Q_a) va kuzatilgan (Q_k) qiymatlari orasidagi bog'lanish grafigi

Grafikdan ko'rinib turibdiki, Piskom daryosi to'linsuv davri oqimining nomogrammadan aniqlangan va amalda kuzatilgan qiymatlarining o'zaro bog'liqligini ifodalovchi korrelyatsiya koeffitsienti va uning xatoligi $0,764 \pm 0,077$ ga teng bo'ldi. Ushbu statistik ko'rsatkichlarning qiymati gidrologik hisoblashlarda foydalaniladigan empirik ifodalar aniqligiga qo'yiladigan talablarni to'la qanoatlantiradi. Shu tufayli, tadqiqotda ishlab chiqilgan nomogramma Piskom daryosi to'linsuv davri oqimini baholashda foydalanish uchun tavsiya etiladi. Kelajakda ushbu yo'nalishdagi baholishlarni o'rganilgan havzaning boshqa daryolari uchun ham amalga oshirish yanada aniq natijalarga erishish imkonini beradi.

Tadqiqot ishida olingan natijalarning tahlillari asosida quyidagi **xulosalarni** qayd etish mumkin:

1. Chirchiq havzasi daryolari to'linsuv davri oqimi bilan meteorologik omillar orasidagi ko'phadli bog'lanishlar BBID va JIDlar uchun o'rganildi. Ushbu bog'lanishlar zichligini ifodalaydigan to'liq korrelyatsiya koeffitsientlarining qiymatlari BBIDda $0,882 \pm 0,945$, JIDda esa $0,796 \pm 0,871$ oraliqlarda o'zgardi;

2. BBIDda Chotqol daryosi to'linsuv davri oqimining hosil bo'lishiga qishki yog'inlarning qo'shgan hisssasi $73,8\%$ ga, yozgi yog'inlarniki $22,6\%$ ga, yozgi havo haroratniki esa $3,6\%$ ga teng bo'lgan. Ushbu daryoda JIDda to'linsuv davri oqimining shakllanishida qishki yog'inlarning hisssasi (69%) BBIDga nisbatan kamaygan bo'lsa, aksincha, yozgi yog'inlarning ulushi (29%) ortgan. Shu kabi natijalar havzadagi Piskom va Ugom daryolari uchun ham xosdir;

3. Ko'phadli bog'lanishlarning normallashtirilgan regressiya tenglamalari tuzildi. Ularning aniqligi Piskom daryosi misolida baholandi. Mazkur daryo to'linsuv davri oqimining nomogrammadan aniqlangan va kuzatilgan qiymatlari o'zaro solishtirildi. Ular absolyut xatoliklarining o'rtacha qiymati $7,75 \text{ m}^3/\text{s}$ ga, nisbiy xatoliklariki esa $4,64\%$ ga teng bo'ldi. Tadqiqotda olingan bog'lanishlardan gidrologik hisoblashlar amaliyotida foydalanish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Алексеев Г.А. Объективные методы выравнивания и нормализации корреляционных связей. - Л.: Гидрометеоздат, 1971.
2. Зияев Р.Р. Зарафшон хавзаси дарёлари сув режими фазаларининг иклим ўзгариши шароитидаги силжишлари. Геогр. ф. ф. д. ... дисс. автореферати. - Тошкент, 2021. - 46 б.
3. Тургунов Д.М. Тоғ дарёлари кам сувли йиллар оқими гидрологик кўрсаткичларини ҳисоблаш ва прогнозлаш. Геогр. фан. док. (DSc) ... дисс. автореферати. - Тошкент, 2022. - 61 б.
4. Хақимова З.Ф. Тоғ дарёлари оқимини иклим ўзгаришининг турли сценариялари асосида баҳолаш (Чирчиқ-Оҳангарон хавзаси мисолида). Геогр. ф. ф. д. ... дисс. автореферати. - Тошкент, 2024. - 46 б.
5. Хикматов Ф.Х. и др. Закономерности формирования водных ресурсов горных рек в условиях изменения климата. Монография. - Ташкент: "ИРНМУ", 2020. - 232 с.
6. Чуб В.Е. Изменение климата и его влияние на гидрометеорологические процессы, агроклиматические и водные ресурсы Республики Узбекистан. - Ташкент: «ВОРИС НАШРИЁТ» МЧЖ, 2007. - 133 с.
7. Kong Y., Pang Z. Evaluating the sensitivity of Glacier Rivers to climate change based on hydrograph separation of discharge //Journal of Hydrology. - 2012. - Т. 434. - P. 121-129.



Aziza IBRAIMOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, g.f.n
E-mail: azizaibraimova983@gmail.com

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti dotsenti, PhD Sh.Prenov taqrizi asosida

MAPPING OF SETTLEMENTS

Annotation

Populated areas are considered as a complex socio-economic category in geographical and cartographic studies. The development of settlements, especially urban networks, the emergence of complex urban structures is closely related to population growth and the development of productive forces. Populated areas are considered as growth poles and centers of the economy of the country and regions. At the same time, they ensure the accumulation of economic, social, demographic and political potential in a certain territory. Their management, at the same time, the aggravation of environmental and other problems generates the need for mapping populated areas and solving existing problems. In this regard, this article reveals some features of mapping populated areas.

Key words: settlement, city, village, map, cartography, map content, scale, cartographic methods of representation.

КАРТОГРАФИРОВАНИЕ НАСЕЛЕННЫХ ПУНКТОВ

Аннотация

Населенные пункты рассматриваются как сложная социально-экономическая категория в географических и картографических исследованиях. Развитие поселений, особенно городских сетей, возникновение сложных городских структур тесно связано с ростом населения и развитием производительных сил. Населенные пункты рассматриваются как полюса роста и центры экономики страны и регионов. В то же время они обеспечивают накопление экономического, социального, демографического и политического потенциала на определенной территории. Управление ими, в то же время обострение экологических и других проблем порождает необходимость картографирования населенных пунктов и решения тем самым существующих проблем. В связи с этим в данной статье раскрываются некоторые особенности картографирования населенных пунктов.

Ключевые слова: населенный пункт, город, село, карта, картографирование, содержание карты, масштаб, картографические способы изображения.

AHOLI MANZILGOHLARINI XARITAGA OLISH

Аннотация

Aholi manzilgohlari geografik va kartografik tadqiqotlarda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida qaraladi. Aholi manzilgohlari, ayniqsa shaharlar to'ring rivojlanishi, murakkab shahar tuzilmalarining paydo bo'lishi aholi sonining o'sib borishi va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Aholi manzilgohlari mamlakat va hududlar iqtisodiyotining o'sish qutb va markazlari ham hisoblanadi. Shu bilan birga ular iqtisodiy, ijtimoiy, demografik va siyosiy salohiyatni ma'lum bir hududda to'planishini ta'minlaydi. Ularni boshqarish, shu bilan bir paytda ekologik va boshqa muammolarning keskinlashuvi aholi manzilgohlarini xaritaga olish va shu orqali mavjud muammolarni hal etish zaruriyatini tug'diradi. Shu jihatdan, ushbu maqolada aholi manzilgohlarini xaritaga olishning ayrim xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: aholi manzilgohi (punkti), shahar, qishloq, xarita, xaritaga olish, xarita mazmuni, masshtab, kartografik tasvirlash usuli.

Kirish. Aholi manzilgohlari har qanday xarita mazmunining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Xarita mavzusi aholi bilan bog'liq bo'lmasa-da, ushbu obyektlar xaritalarda tasvirlanadi. Ular katta iqtisodiy, siyosiy, ma'muriy ahamiyatga ega bo'lib, ayrimlari sanoat, temir yo'l va avtomobil yo'llari tugunlari ham hisoblanadi. Aholi punktlari turli konfiguratsiya, planirovka, tip, aholi soni, ma'muriy ahamiyati va h.k.larga ega. Mazkur farqli jihatlari turli masshtabdagi xaritalarda tasvirlab berilishi kerak.

Xaritaga tushiriladigan aholi punktlarining miqdori, ular sifat va miqdor tavsiflarining batafsilligi xaritaning mavzusi va maqsadiga, masshtabi hamda xaritaga olinayotgan hudud xususiyatlariga bog'liq. Xaritalar mavzusiga ko'ra umumgeografik yoki mavzuli (tabiat hodisalari yoki ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar) xaritalarga bo'linadi. Umumgeografik, ayniqsa topografik xaritalarda aholi punktlari batafsil tasvirlanadi, mavzuli xaritalar guruhida esa mavzu yo'nalishi va qamrovidan kelib chiqib, aholi punktlari kam (tabiat hodisalari, xususan tuproq, geologik xaritalarda) yoki ko'p (ijtimoiy-iqtisodiy, xususan, aholi, sanoat xaritalarida) tafsilotlilik bilan tasvirlanishi mumkin. Maqsadiga ko'ra xaritalar o'quv, turistik, ilmiy-ma'lumotnoma kabi turlarga ajratiladi. Bular ham xarita mazmunini tuzishda hisobga olinadigan omillardan hisoblanadi. Masshtabiga ko'ra yirik (1:200 000 va undan yirik), o'rta (1:200 000 dan 1:1 000 000) va mayda (1:1 000 000 va undan mayda) masshtabli xaritalar tuziladi. Xarita masshtabi maydalashgani sari unda tasvirlanadigan obyektlar, shu jumladan aholi punktlarining tafsilotliliigi ham kamayib boradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bir qator manbalarda aholi punktiga "odamlar doimiy yashaydigan joy" degan ta'rif beriladi. Dunyoda aholi yashaydigan manzilgohlar – shahar va qishloq aholi manzilgohlariga bo'linadi [7]. Aholi punktlarida bir necha yuz kishidan to bir necha milliongacha aholi istiqomat qiladi. Birov davlat hududidagi eng katta aholi punktlaridan biri o'sha davlat poytaxti mavqeiga ega bo'lishi mumkin. Aholi punktlarini xaritaga olish boy tajribalarga ega. Ikki aholi manzilgohlari (punktlari) paydo bo'lgan qadimgi davrlardan ularni u yoki bu darajada xarita va planlarda tasvirlashga urinishgan. Shaharlarni xaritaga olish Sigismund Gerbershteynning "Moskva plani" nidan boshlangan [2]. Keyinchalik ko'plab yirik shaharlar (Sankt-Peterburg, Belin, Parij, London, Nyu-York va boshq.) planlari va atlaslari yaratilgan. 1983-yilda Toshkent shaharining 2000-yilligiga bag'ishlab, shaharning tabiiy sharoiti, aholisi, iqtisodiyoti, arxitekturasi, madaniyati va boshqalarni ifodalovchi "Toshkent" kompleks geografik atlas tayyorlandi va nashr qilindi. Aholi punktlari ham umumgeografik, ham mavzuli xaritaga olishda muhim obyektlardan biri hisoblanadi. Umumgeografik, jumladan topografik xarita va planlarni tuzishda davlat organlari va tashkilotlari tomonidan tayyorlanadigan normativ-me'yoriy hujjatlar, yo'riqnoma va ko'rsatmalar muhim o'rin tutadi. Ularda turli xarita va planlarda aholi punktlarini tasvirlashga qo'yiladigan qat'iy talablar aks ettiriladi. Mavzuli xaritaga olishda esa birmuncha "ijod erkinligi" mavjud. Turli mavzu, maqsad va masshtabdan kelib chiqqan holda tasvirlash usulini va h.k.larni tanlash mumkin. Shaharlarni kompleks va mavzuli xaritaga olishning rivojlanishi va iqtisodiy-geografik tadqiqotlarni o'rganishga bag'ishlangan ishlar Baranskiy N.N., Saushkin Y.G., Xorev B.S., Lappo G.M., Kovalyov S.A., Yevteev O.A., Pospelov Y.M., Akramov Z.M. kabilar tomonidan amalga oshirilgan. Aholi punktlari yerlarini xaritaga olish Danilin I.V., Tashlikov M.A., Ivanov S.S. [3], dam olish zonasi shaharlari xaritalarini tayyorlash masalalari Artyomyeva O.V. [1] ishlarida bayon etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi vaqtda aholi manzilgohlarini xaritaga olishda an'anaviy usullar bilan bir qatorda, zamonaviy usullar keng tarqalmoqda. Aholi manzilgohlari xarita va planlarini yaratishda geografik axborot tizimlari va masofadan zondlash metodlaridan samarali

foydalanilmoqda. Aholi manzilgohlarini xaritada olishning quyidagi turlari mavjud: 1) *Topografik*. Bular mazmuniga ko'ra umumgeografik xarita va planlar bo'lib, yuqori aniqlik va keng qo'llanilish sohasiga ega. 2) *Muhandislik-texnik, maxsus*. Ushbu xaritalarning asosiy vazifasi muhandislik kommunikatsiyalari va ularning batafsil tavsifini tasvirlash hisoblanadi. 3) *Mavzuli*. Aholi punktlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha sohalari qamrab oladi. Alohida mavzuli xaritalar sifatida ham, ekologik-geografik yoki ijtimoiy-iqtisodiy mavzuli xaritalar seriyalari sifatida ham yaratiladi. Hozirda aholi manzilgohlarini xaritada olishda zamonaviy geografik axborot texnologiyalari, geoinformatsion kartografiya va masofadan zondlash usullaridan keng foydalanilmoqda.

Tablil va natijalar. Turli masshtabli xaritalarda aholi punktlari turli mezonlar bo'yicha tasniflanishi asosida ko'rsatiladi. Bular, eng avvalo, tipi, aholi soni, siyosiy-ma'muriy ahamiyati kabilar hisoblanadi. Tipiga ko'ra aholi punktlari *shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarga* bo'linadi.

Aholi soniga ko'ra esa shaharlar *eng yirik* (aholi soni 1 mln.dan ortiq), *yirik* (250 mingdan 1 mln. kishigacha; 250 mingdan 500 minggacha va 500 mingdan 1 mln. gacha aholi bo'lgan kichik toifalar bilan), *katta* (100 mingdan 250 minggacha aholi), *o'rta* (50 mingdan 100 minggacha aholi) va *kichik* (50 minggacha aholi) shaharlarga ajratiladi. Qishloq aholi punktlari ham aholi soniga ko'ra *yirik* (3 mingdan ortiq aholi), *katta* (1 mingdan 3 minggacha aholi), *o'rta* (200 dan 1 minggacha aholi) va *kichik* (200 kishidan kam; jumladan 50 kishidan kam va 50 dan 200 kishigacha kichik toifalari bilan) manzilgohlarga ajratiladi. *Siyosiy-ma'muriy ahamiyati* bo'yicha mamlakatimizda aholi punktlarining davlatlar poytaxtlari, respublikalar poytaxtlari, viloyat markazlari, tuman markazlari turlari mavjud.

01.01.2023 yil holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida jami 177 ta tuman, 120 ta shahar (shundan respublika va viloyat bo'yisunuvdagi 32 ta), 1058 ta shaharcha, 10990 ta qishloqlar va ovullar mavjud bo'lib, ular mamlakat bo'ylab notekis taqsimlangan (1-jadval).

Hudud va ma'muriy-hududiy bo'linish (2023- yil 1 yanvar holatiga)

Hududlar	Maydoni, ming kv. km	Aholi soni, ming kishi	Ma'muriy-hududiy bo'linish			
			tumanlar	shaharlar	shahar-chalar	qishloq-lar va ovullar
O'zbekiston Respublikasi	448,97	36024,9	177	120	1 058	10990
Qoraqalpog'iston Respublikasi	166,59	1976,2	17	12	26	1126
<i>Viloyatlar:</i>						
Andijon	4,30	3322,7	14	11	79	455
Buxoro	40,22	2009,7	11	11	68	1473
Jizzax	21,21	1475,5	12	6	42	529
Qashqadaryo	28,57	3482,3	14	12	117	1042
Navoiy	111,10	1055,5	8	7	46	582
Namangan	7,44	2997,5	13	8	115	388
Samarqand	16,77	4118,2	14	11	88	1901
Surxondaryo	20,10	2806,5	14	8	112	859
Sirdaryo	4,28	896,6	8	5	25	257
Toshkent	15,14	2993,4	15	16	89	830
Farg'ona	6,76	3976,3	15	9	194	998
Xorazm	6,05	1958,1	11	3	56	550
Toshkent sh.	0,44	2956,4	12	1	1	0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Yillik statistik to'plami, 2013-2022. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, 2023. - 23-bet

Shaharlar to'ri tahlilidan shuni ko'rish mumkinki, shaharlar soni bo'yicha Toshkent viloyati (16 ta) alohida ajralib turadi, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi (12 ta), Qashqadaryo (12 ta), Andijon (11 ta), Buxoro (11 ta), Samarqand (11 ta) viloyatlarining har birida 10 tadan ortiq shahar aholi punktlari mavjud. Eng kam shaharlar soni Xorazm (3 ta), Sirdaryo (5 ta), Jizzax (6 ta) viloyatlarida qayd etilgan. Farg'ona (194 ta), Qashqadaryo (117 ta), Namangan (115 ta) va Surxondaryo viloyatlarida shaharchalar eng ko'p hududlar hisoblanadi [10].

Yuqorida aytilganidek, aholi punktlari turli mavzu va mazmundagi, masshtab va maqsaddagi xaritalarda tasvirlanadigan elementlardan hisoblanadi, ya'ni ular deyarli barcha xaritalarda ko'rsatiladi. Aholi punktlari umumgeografik (jumladan, topografik) xaritalar mazmunining majburiy elementi bo'lsa, mavzuli xaritalarda maxsus (mavzuli) mazmun va yoki geografik asos elementi bo'lib xizmat qiladi.

2-jadval

Aholi punktlarining turli masshtabli xaritalarda tasvirlanishi

Masshtabiga ko'ra xaritalar	Fazoviy o'lchami	Miqdor tavsiflari	Sifat tavsiflari	Kartografik tasvirlash usuli	Tasvirlash vositalari
Yirik	Maydonlarda joylashgan	Aholi soni (1 mln. dan ko'p aholi, 500 ming dan 1 mln. gacha aholi, 100 mingdan 500 minggacha aholi, 50 mingdan 100 minggacha, 10 mingdan 50 minggacha, 10 mingdan kam aholi)	Aholining joylashish tipi (shaharlar, shaharchalar, qishloq aholi punktlari); siyosiy-ma'muriy ahamiyati (davlatlar va respublikalar poytaxtlari, ma'muriy-hududiy birliklar markazlari)	Sifatli fon (rang) usuli	Rang yoki shtrixovka
O'rta	Maydonlarda va punktlarda (nuqtalarda) joylashgan			Sifatli fon (rang) va belgilar usuli	Doirachalar (punsonlar), o'lchami miqdor tavsiflarini, rang va ichki tuzilishi sifat tavsiflarini ifodalaydi.
Mayda	Punktlarda (nuqtalarda) joylashgan, eng yirik aholi punktlari maydonlarda joylashgan			Belgilar usuli	

Izoh: jadval muallif tomonidan tuzilgan.








Turli masshtabli xaritalarda aholi punktlari ko'p yoki kam tafsilotlilik bilan tasvirlanadi. Masalan, yirik masshtabli xaritalarda aholi punktlari maydonli obyektlar sifatida beriladi va ularning konturlari xarita masshtabida tasvirlanadi (2-jadval). Topografik xaritalarda aholi punktlari sifatli rang usulida ko'rsatiladi. Xarita masshtabi maydalashishi bilan uning tafsilotlilik darajasi kamayadi va boshqa mazmun elementlari kabi aholi punktlari umumlashtiriladi (generalizatsiyaga uchraydi). Natijada ularni tasvirlash usuli ham o'zgaradi va sifatli rang usuli o'rniga belgilar usuli qo'llaniladi. Belgilar usulida aholi punktlarini tasvirlash vositasi sifatida doirachalar (punsonlar deyiladi), ya'ni mavhum belgilar ishlatiladi [8].



Aholi punktlarining aholisi soni xaritalarda ular nomlari yozuvlari shrifti balandligi bilan ko'rsatiladi. Mayda masshtabli xaritalarda esa buning uchun punsonlarning turli o'lcham (1-rasm) va rasmlari qabul qilingan.







1-rasm. Aholi punktlarining joylashish tipi va soniga ko'ra tasvirlanishi: *aholi punktlarining tipi belgi (punson)ning rangiga, aholisi soni esa o'lchamiga to'g'ri keladi* (O'zbekiston milliy atlas. II jild. Toshkent, 2020. Aholi soni xaritasi legendasi, 65-bet)

Aholi punktlarining tipi xaritalarda ular nomlari yozuvlari shrifti bilan ko'rsatiladi [6]. Aholi punktlarining siyosiy-ma'muriy ahamiyati turli usullar bilan tasvirlanishi mumkin: *turli rasmlil punsonlar, nomlar yozuvlari uchun turli rasm va o'lchamdagi shriftlar (2a-rasm), shuningdek, ular nomlari yozuvlarining tagiga chizish (2b-rasm) yoki rang berish (2v-rasm) (yoki alohida ranglar bilan berish) va h.k.*

AHOLI PUNKTLARI	
 TOSHKENT	Davlatlar poytaxtlari
 NURUS	Qoraqalpog'iston Respublikasining poytaxti
 QARSHI	O'zbekiston Respublikasi viloyatlarining markazlari
 BESHARQ Dang'ara Langar	O'zbekiston Respublikasi tumanlarining markazlari
 ANGEN	Shaharlar
 Pomir	Shaharchalar
 Uzunqaduiq	Qishloq aholi punktlari

Siyosiy-ma'muriy ahamiyatiga ko'ra	
 TOSHKENT	O'zbekiston Respublikasining poytaxti
 YANGIYO'L Yangibozor	Toshkent viloyati tumanlarining markazlari

Siyosiy-ma'muriy ahamiyatiga ko'ra	
 TOSHKENT	O'zbekiston Respublikasining poytaxti
 NUKUS	Qoraqalpog'iston Respublikasining poytaxti
 TERMIZ	O'zbekiston Respublikasi viloyatlarining markazlari
 Toshbuloq	O'zbekiston Respublikasi tumanlarining markazlari

2-rasm. Aholi punktlarining siyosiy-ma'muriy ahamiyatiga ko'ra tasvirlanishi (O'zbekiston milliy atlas. II jild. Toshkent, 2020)

Xulosa va takliflar. Hozirgi zamon aholi manzilgohlari, ayniqsa shaharlar juda tez o'smoqda. Ma'lumki, shaharlar ham eniga, ham bo'yiga "o'sadi". Bunday rivojlanish ular xaritalarini muntazam yangilash va xaritalar mazmuni uchun yangidan-yangi syujetlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Dunyoning turli davlatlarida alohida shaharlar uchun geoportallar va kartografik servislar ishlab chiqilgan bo'lib, "aqli shahar" konsepsiyasi tatbiq etilmoqda. Ular orqali shahar faoliyatini boshqarish, yo'l to'ri, qurilishlar va boshqalarda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni kuzatish, shuningdek aholi punktlari xarita va planlarini tuzish va yangilash mumkin.

Umuman, mazkur ishda aholi punktlarining turli xaritalarda tasvirlanish xususiyatlari, ularning sifat va miqdor tavsiflari, tasvirlash usullari va vositalari tadqiq etilgan.

ADABIYOTLAR

1. Артемьева О.В. Опыт подготовки к изданию карт городов курортной зоны российской федерации // "Тематическое картографирование для создания инфраструктур пространственных данных" Мат-лы IX научной конференции по тематической картографии. - Иркутск, 9-12 ноября 2010 г. - 139-140 стр.
2. Герберштейн С. Записки о Московии. - СПб., 1866.
3. Данилин И.М., Ташлыков М.А., Иванов С.С. Картографирование земель населенных пунктов с использованием данных трехмерного кадастра объектов недвижимости // "Тематическое картографирование для создания инфраструктур пространственных данных" Мат-лы IX научной конференции по тематической картографии. - Иркутск, 9-12 ноября 2010 г. - 95-98 стр.
4. Ибраимова А.А. Ўзбекистонда моддий маданий мерос объектларининг таксимланиши ва уларни харитага олишининг айрим масалалари // ЎзМУ хабарлари, 2022, 3/2 Табиий фанлар. - Тошкент - 2022. - 246-249 бетлар.
5. Ibraimova A.A., Mallayev B.Q. ArcGIS dasturida anamorfoza xaritalarini tuzish tartibi // O'zMU xabarlari, 2023, 3/1 Tabiiy fanlar turkumi. - Toshkent - 2023. - 265-268 betlar
6. Ибраимова А.А. Хариталарда географик номлар жойлаштирилишининг айрим хусусиятлари // Ўзбекистон География жамияти ахбороти. Махсус сон. - Тошкент, 2018. - 241-245 бетлар
7. Ибраимова Р.А., Ибраимова А.А., Авезова А.М., Самадов А.С. Абдурасул Сагатовнинг Ўзбекистон табиий шароитини шахарсозлик мақсадларида баҳолаш тажрибаси // Ўзбекистон география жамияти ахбороти. - 63 жилд. - Тошкент, 2023. - 33-38 бетлар.
8. Ibraimova A.A. O'zbekiston Milliy atlasida kartografik tasvirlash usullarining qo'llanilishi // "Geografik tadqiqotlarda zamonaviy kartografiya, masofadan zondlash metodlari va texnologiyalarining roli" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Toshkent, 24-26 Aprel 2024. - 49-54 betlar
9. O'zbekiston milliy atlas. II jild. Toshkent, 2020.
10. O'zbekiston Respublikasi Yillik statistik to'plami, 2013-2022. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, 2023.



UDK: 551.435.126:910.1.(262.83)

Sherzod IBROIMOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsent v.b.
E-mail: sh.ibroimov@cspi.uz

CHDPU Geografiya kafedrasida professori A.Urazbayev taqrizi ostida

TUPROQ QOPLAMI STRUKTURASI VA UNING MELIORATIV HOLATINI TADQIQ QILISHNING ILMIY ASOSLARI

Аннотация

Maqolada tuproq qoplami strukturasi hamda tuproqlar geografiyasi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tahlil qilindi hamda yer usti suv oqimining rolini yaqqol ajratib berildi. Hozirgi vaqtidagi tuproqlarda bo'layotgan o'zgarishlar va ularning meliorativ holatini yaxshilash istiqboldagi o'zgarishlar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: tuproq, delta, suv, yer usti suv oqimi, landshaft, balandliklar va pastliklar.

SCIENTIFIC BASIS FOR STUDYING THE STRUCTURE OF SOIL COVER AND ITS RECLAMATION STATE

Annotation

The article analyzes works on the structure of the soil cover and soil geography, clearly highlights the role of surface water runoff. Current changes in soils and future changes in improving their melioration are discussed.

Key words: soil, delta, water, surface water runoff, landscape, elevations and depressions.

НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ СТРУКТУРЫ ПОЧВЕННОГО ПОКРОВА И ЕГО МЕЛИОРАТИВНОГО СОСТОЯНИЯ

Аннотация

В статье проанализированы работы по строению почвенного покрова и географии почв, четко выделена роль поверхностного стока вод. Обсуждаются текущие изменения почв и будущие изменения в совершенствовании их мелiorации.

Ключевые слова: почва, дельта, вода, поверхностный сток воды, ландшафт, повышения и понижения.

Har bir ilmiy tadqiqotlarda asosiy tushunchalar katta rol o'ynaydi va shu kategoriyalar orqali muvaffaqiyatlarga erishiladi. Ana shunga amal qilgan holda biz ham tuproq va tuproq qoplami strukturasi tushunchalariga katta ahamiyat berdik. O'zbek tilidagi birinchi "Tuproqshunoslik" darsligining mualliflari, mashhur olimlar M.Bahodirov, A.Rasulovlar (1975) tuproqqa shunday ta'rif beradilar: "Tuproq deb yer yuzining unumdorlik xususiyatiga ega bo'lgan ustki g'ovak holdagi qatlamga aytiladi". Garchi bu monografiyadagi asosiy tushunchalardan biri bo'lgan "Tuproq qoplami strukturasi" kategoriyasi tuproq tushunchasiga yaqin bo'lsa ham, ular bir-biridan ma'nosi bo'yicha tubdan farq qiladi. XX asrning mashhur geograf tuproqshunos olimasi M.A.Glazovskaya (1969) tuproq qoplami strukturasi quyidagicha ta'rif beradi: "Yer tuproq qoplami strukturasi – bu tuproqlarning relyef elementlari bilan birikuvidir". Boshqacha aytganda, tuproq qoplami strukturasi deyilganda tuproqlarning relyef elementlari (balandliklar va pastliklar) bilan aloqadorlikda bo'lishidir.

Tuproq qoplami strukturasi va uning meliorativ holatini tadqiq qilishda V.V.Dokuchayev (1953) asos solgan tuproq qoplami strukturasi ta'limoti asos vazifasini o'tadi. Agar biz tuproqlar geografiyasi fanining vujudga kelishiga 140 yilga yaqin davrni hisobga olsak, bu yillar ichida fan har tomonlama rivojlandi va taraqqiy etdi. Biz V.V.Dokuchayevning ta'limotini asos qilib olgan holda, tuproq qoplami strukturasi va uning meliorativ holatini tadqiq qilishni bir necha bosqichlarga ajratdik va bu bosqichlar bir-biri bilan mantiqiy bog'langandir.

Agar biz Amudaryo hozirgi deltasi tuproq qoplami strukturasi va uning meliorativ holatini tadqiq qilishni V.V.Dokuchayev ishlab chiqqan "Tuproq hosil qiluvchi tabiiy-geografik omillari nazariyasi" dan boshlasak har tomonlama to'g'ri bo'ladi. Sabab, V.V.Dokuchayev tuproqni tabiatning bir bo'lagi deb qaradi va tashqi muhitning boshqa komponentlari bilan doimo aloqadorlikda bo'ladi, ya'ni olim tabiatni bir butun deb qarab, tuproqning hosil bo'lishi, dinamikasi va rivojlanishi ana shu tashqi muhitga bog'liqdir degan xulosaga keladi. V.V.Dokuchayevning o'z vaqtida aytib o'tgan tabiiy-geografik omillari (iqlim, relyef, tirik organizmlar, ona jinslar, geologik davr yoki vaqt) hozirgi vaqtda ham asosiy omillar bo'lib hisoblanadi. Bu omillarga hozirgi davrda insonning tabiatga ta'siri kuchli bo'lganligi sababli faqat antropogen omili qo'shildi.

V.V.Dokuchayev mutaxassisligi bo'yicha gemorfoloq bo'lib, u relyefning dinamikasini o'rganishda tuproqqa katta e'tibor berdi. Tuproqlarning kichik hududlarda geografik tarqalishida relyefning roli katta ekanligiga e'tibor berib, u relyefga bog'liq holda tuproqlarni uch guruhda ajratadi: 1. Normal yoki avtomorof tuproqlar; 2. O'tuvchi yonbag'ir tuproqlari; 3. Anormal yoki pastliklarning tuproqlari. Demak, V.V.Dokuchayevning relyefga katta e'tibor bergan holda tuproqlarni o'rganish natijasida aytib o'tgan uch guruh tuproqlari o'zlarining meliorativ holatini belgilaydi. Boshqacha aytganda, anormal tuproqlar o'z navbatida qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun ko'p mehnat talab qilishini olim o'z vaqtida aytib o'tgan.

Har bir obyektning strukturasi tadqiq qilishda biz struktura kategoriyasining uch aspekti haqida fikr yuritishimiz lozim: 1. Elementlar aspekti; 2. Elementlarning aloqadorlik aspekti; 3. Yaxlitlik aspekti. Agar biz elementlar aspektiga to'xtaladigan bo'lsak, buni ikki tomonlama tahlil qilishimiz mumkin: 1. Relyefning ikki elementini (balandliklar va pastliklar); 2. Ana shu relyef elementlarida joylashgan aniq tuproq turlarining relyef bilan bog'liqligini. Elementlarning yoki tuproq turlarining aloqadorligiga to'xtaladigan bo'lsak, yer usti va osti suvlari yordamida doimo elementlar (balandliklar, pastliklar) yoki tuproq turlari o'rtasida aloqadorlik bo'ladi. Yaxlitlik aspekti haqida fikr yuritadigan bo'lsak, balandlikdagi va pastlikdagi tuproqlar tizim hosil qiluvchi oqimlar yordamida birlashib, obyektning pedotizimini hosil qiladi. Boshqacha aytganda, tadqiqotning ikkinchi bosqichida elementlar, ularning aloqadorligi va birlashib pedotizimini hosil qilishi alohida rol o'ynaydi.

XIX asrning mashhur tabiatshunos olimlaridan biri bo'lgan F.A.Sludskiy shunday deb yozadi: "Murakkab jarayonlarni oddiy elementlarga parchalamoq va buning natijasida uning oddiy elementlardan tashkil topganligini ko'rsatmoq, o'z navbatida tabiatshunosning hodisani tushuntirishga asos bo'la oladi". Boshqacha aytganda, tabiatshunosga ko'ringan har qanday oddiy obyekt ham o'z navbatida murakkab tuzilishga ega bo'ladi. Ana shuning uchun ham har bir obyektning tashkil etgan elementlarga (balandliklar va pastliklar) katta e'tibor berish talab etiladi. Balandliklar va pastliklar obyektga nisbatan relyefning elementlari bo'lsa ham, ular o'z navbatida murakkab tuzilgan tuproq qoplami strukturasi va uning meliorativ holatiga ega bo'ladi.

Tuproq qoplami strukturasi va uning meliorativ holatini tadqiq qilishda har bir tadqiqotchi o'zining oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqqan holda falsafa fanidagi struktura kategoriyasi va ta'limoti bilan o'zining tadqiqotlari o'rtasidagi bog'liqlikni bilishi lozim. Boshqacha aytganda, tuproq qoplami strukturasi tushunchasida to'g'ridan-to'g'ri struktura kategoriyasi bilan bog'langan bo'lsa, uning meliorativ holatini tadqiq qilish esa elementlarning aloqadorligi va ularning o'zaro birlashib pedotizim hosil qilishi bilan bog'liqdir. Ana shuning uchun ham tuproq qoplami strukturasi va uning meliorativ holati tushunchalari falsafa fanidagi shakl va uning mazmuni tushunchalari bilan bog'langandir.

V.N.Solnsevning (1981) ma'lumotiga ko'ra, tabiiy geografiya fanida mavjud bo'lgan paradigmalari (geokomponentli, geokompleksli, ekologik, geostrukturali) ichida geostrukturali paradigmadagi obyektning strukturasi tadqiq qilishga katta ahamiyat beriladi. Olim o'z fikrini davom ettirib, tabiatda strukturali tabaqlanish mavjud degan g'oyani ilgari suradi, ya'ni har bir obyekt boshqa obyektlardan shunisi bilan farq qiladiki, har qanday obyekt o'zining strukturali tabaqlanishiga ega bo'lganligi uchun ham o'ziga xos hududni hosil qiladi. Misol uchun, deltadagi relyefning "daraxtsimon" strukturasi o'ziga xos bo'lgan tuproq qoplarning strukturasi va uning meliorativ holatini hosil qiladi, ya'ni boshqa strukturaga ega bo'lgan obyekt hech qachon "daraxtsimon" strukturaga ega bo'lgan obyektga o'xshab tuproq qoplarning strukturasi va uning meliorativ holatini hosil qilmaydi. Bu yerda faqat XX asrning mashhur geomorfolog olimlaridan biri bo'lgan T.V.Zvonkovaning (1970) quyidagi fikrini eslatib o'tish maqsadga muvofiqdir: "Obyektning ichki tuzilishini o'rganish relyef strukturasi tadqiq qilish bilan boshlanishi hamda tugatilishi barcha geografiyaga tegishli fanlarni katta yutuqlarga yetaklaydi".

V.M.Fridlandning (1972) "Tuproq qoplarning strukturasi" asariga akademik I.P.Gerasimovning so'z boshida shunday jumlar bor: "Tuproq qoplarning strukturasi tadqiq qilish o'z navbatida ma'lum bir obyektning relyef strukturasi o'rganish bilan bog'liqdir, ya'ni relyef strukturasi bilan faqat tuproq qoplarning strukturasi aloqador bo'lmasdan, balki shu bilan birgalikda o'simlik qoplarning strukturasi va tizilishi hamda landshaft strukturasi ham bog'langandir. Bu ta'limot o'z navbatida Yer haqidagi barcha fanlarning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi". Boshqacha aytganda, tuproq jonsiz organizmga nisbatan jonli organizmga yaqin bo'lganligi sababli u faqat tuproq zonalarida o'zgarib qolmasdan, balki kichik hududlarda ham o'z holicha o'zgaradi.

B.B.Polinov (1956) "Landshaftlar geokimyosi" faniga "Elementar landshaft" tushunchasini kiritadi. Tabiatda elementar landshaft guruhlarini (elyuvial, trans-elyuvial, superakval, akval) ajratishda olim tuproqlarning bir xilligini asos qilib oladi. Shu bilan bir qatorda B.B.Polinov elementlar landshaft guruhlarining bir-biri bilan bo'lgan aloqadorligini tadqiq qilish uchun fanga "O'zaro bog'liqlik" usulini kiritdi. Boshqacha aytganda, tuproq qoplarning strukturasi va uning meliorativ holatini tadqiq qilish uchun avvalombor tuproq meliorativ holatining tuproq qoplarning strukturasi bilan aloqadorligini tadqiq qilish lozim, ya'ni bu tadqiqotda B.B.Polinov asos solgan "O'zaro bog'liqlik" usuli katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Tuproq qoplarning strukturasi ta'limotida struktura kategoriyasi katta rol o'ynaydi, ya'ni elementlarning o'zaro munosabati obyektning ichki tuzilishini tashkil qilganidek, bizning tadqiqotlarimizda ham tuproq turlarining relyef elementlari (balandlik va pastliklar) bilan aloqadorligi tuproq qoplarning strukturasi tashkil etadi. Boshqacha aytganda, relyef elementlari bilan tuproqlar doimo o'zaro munosabatda bo'lganligi uchun "Tuproq qoplarning strukturasi" ta'limoti vujudga kelgan.

A.K.Urazbayev (2021) o'zining tadqiqotlarida ustoz I.N.Stepanov g'oyasini davom ettirib, relyef plastikasi usuli haqida quyidagi fikrni bildiradi: "Delta sharoitida yer usti suv oqimining faoliyati natijasida vujudga kelgan "daraxtsimon" strukturadagi elementlarning (balandliklar va pastliklar) bir-biriga bo'lgan munosabatini va aloqadorligini tadqiq qilishda relyef plastikasi usulining cheksiz rol o'ynashi hech kimda shubha tug'dirmasligi kerak".

Chet mamlakatlarda ham tuproqlarning relyef strukturasi bilan bog'liqligini tadqiq qilishga katta ahamiyat berilmoqda. Misol uchun: A.Dj.Djerrard o'zining "Tuproqlar va relyef shakllari" (1984) asarida tuproqlarning relyef bilan aloqadorligini tadqiq qilish uchun "katen" tushunchasini qo'llaydi. Olimning fikri bo'yicha, relyefdagi nishabga bog'liq holda tuproqlarda o'ziga xos suv rejimlari vujudga keladi, ya'ni suv rejimiga bog'liq holda xilma-xil tuproq jarayonlari ro'y beradi. Boshqacha aytganda, turli relyef shakllari o'ziga xos tuproqlar bilan birikadi.

Sug'oriladigan hududlarning tuproq qoplarning strukturasi va uning meliorativ holatini tadqiq qilishda kollektor havzalarining funksional yaxlitligi katta ahamiyatga ega bo'lib, uning ichki strukturasi bilan tuproq qoplari strukturasi meliorativ holati chambarchas bog'langandir. Ana shuning uchun ham kollektor xavzalarida tuproq qoplari strukturasi meliorativ holati bir tomonidan suv ayirg'ichdan kollektor o'zani o'tgan markaz tomon o'zgarsa, ikkinchi tomondan esa kollektor havzasining yuqori qismidan quyi qismi tomon qonuniyat bilan o'zgaradi.

Kichik deltalarning va kollektor havzalarining tuproq qoplari strukturasi meliorativ holatini tadqiq qilishda geokimyoviy landshaftning elementlarini ajratish ham alohida rol o'ynaydi. Sabab, geokimyoviy landshaftning elementlari (elyuvial, trans-elyuvial, superakval, akval) bir-biridan tuproq qoplarning strukturasi va uning meliorativ holati bo'yicha tubdan farq qiladi. Boshqacha aytganda, relyef elementlari asosidagi geokimyoviy landshaft elementlarini ajratish o'z navbatida landshaftlar geokimyosi fanida qo'llaniladigan "O'zaro bog'liqlik" tahlilini qo'llashga asosi bo'ladi. Demak, B.B.Polinov aytganidek, kimyoviy elementlarning migratsiyasini tahlil qilish tuproq qoplari strukturasi meliorativ holatini tadqiq qilishda birinchi amaliy ahamiyatga ega.

Amudaryo hozirgi deltasi tuproq qoplari strukturasi sho'rlanish darajasi ayniqsa sug'orma dehqonchilik va melioratsiya uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, yirik masshtabli relyef plastikasi kartasi asosida tuzilgan tuproq qoplari strukturasi sho'rlanish darajasi kartalari ana shu kichik deltalarda va kollektor havzalarida joylashgan fermer xo'jaliklari uchun katta ahamiyatga ega. Boshqacha aytganda, tuproq qoplari strukturasi sho'rlanish darajasi kartasida ham tuproq meliorativ holatining relyef elementlari bilan aloqadorligi aniq tasvirlanadi.

Agar biz Amudaryo deltasi tuproq qoplari strukturasi sho'rlanish darajasining kimyoviy tarkibini tahlil qiladigan bo'lsak, relyef elementlari bilan tuproq turlari, uning sho'rlanish darajasi va tuzlarning kimyoviy tarkibi ham aloqadorlikda bo'ladi. Kichik deltalarning o'zanbo'yi balandliklarida o'tloq-taqirli to'qay tuproqlari tarqalgan bo'lib, bu tuproqlar ko'pincha sho'rlanmagan yoki kuchsiz sho'rlangan bo'ladi. Tuzlarning kimyoviy tarkibi esa gidrokarbonat-xlorid-sulfatli-natriy-kalsiyli bo'ladi. Kichik deltalarning quyi va tutashgan qismlarida esa sho'rxoklarning har xil turlari tarqalgan bo'lib, bu tuproqlar juda kuchli sho'rlangan bo'ladi. Tuzlarning kimyoviy tarkibi esa asosan sulfat-xlorli – magniy-natriyli bo'ladi. Boshqacha aytganda, tuzlarning kimyoviy tarkibi ham relyef strukturasi bilan bog'langan bo'lib, kichik deltalarning yoki kollektor havzalarining yuqori qismidan quyi qismi tomon tartibli o'zgarib beradi.

Amudaryo hozirgi deltasi tuproq qoplarning strukturasi va uning meliorativ holatini tadqiq qilishda relyef plastikasi usulini asos qilib olgan holda, biz tadqiq qilish tizimini o'n bir bosqichga ajratdik. Ajratilgan har bir bosqichlar bir tomondan o'zidan avvalgi bosqich bilan bog'langan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa o'zidan keyingi bosqich bilan ham bog'langandir. Boshqacha aytganda, bosqichlar o'rtasidagi ikki tomonlama bog'liqlar tabiatning yaxlit tizimini tadqiq qilishdagi bosqichlarning tizimini hosil qiladi. Shu bilan bir qatorda har bir bosqichlar ilmiy ahamiyatga ega bo'lganligi uchun ham, ularga alohida-alohida xulosalar ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan xulosalar shuni ko'rsatadiki, tadqiq qilishdagi har bir natijalarning negizida "Tuproq qoplarning strukturasi" ta'limoti asos bo'lib hisoblanadi. Tuproq qoplari strukturasi va uning meliorativ holatining relyef strukturasi bilan aloqadorligini tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosaga kelish mumkin:

1. V.V.Dokuchayev tuproq hosil qiluvchi tabiiy-geografik omillar ichida iqlim va relyefga katta e'tibor bergan. Uning fikriga ko'ra, iqlimga bog'liq holda tabiat zonalarini paydo bo'lsa, relyefga bog'liq holda tuproq qoplarning strukturasi hosil bo'ladi. Boshqacha aytganda, V.V.Dokuchayev "Tuproq qoplarning strukturasi" ta'limotiga asos soldi.

2. Falsafadagi struktura kategoriyasi va ta'limoti har bir fanlarning nazariyasida alohida o'rin egallab, tizimni tashkil etgan elementlar o'rtasidagi aloqadorlikni hamda munosabatlarni yanada mukammal tadqiq qilish uchun har tomonlama asos bo'la oladi.

3. M.A.Glazovskaya ta'kidlaganidek "Yer tuproq qoplarning strukturasi – bu tuproqlarning relyef elementlari bilan birikuvidir". Olimaning bu g'oyalari V.M.Fridland, I.N.Stepanov va boshqalar tomonidan rivojlantirildi. Tuproq qoplarning strukturasi ta'limotida asosiy e'tibor tuproq turlarining relyef elementlari bilan bog'liqligiga qaratilganligi holda uning dinamikasi va transformatsiyasini ham relyef strukturasi bilan bog'langan holda tadqiq qilinishi lozim.

4. Relyef plastikasi usuli deyilganda topografik kartalardagi gorizontal yordamida relyefning elementlarini (balandlik va pastliklar) ifodalash tushuniladi. Topografik kartalar barcha ilmiy tadqiqotlarning asosini tashkil etganligi sababli, ifodalangan relyef elementlari negizida barcha dala tadqiqotlarini olib borish maqsadga muvofiqdir.

5. A.K.Urabayev (1988) tomonidan tuzilgan yirik masshtabli 1:25000 relyef plastikasi kartalari tuproq qoplarning strukturasi va uning meliorativ holatini tadqiq qilish uchun asos vazifasini o'tashi kerak. Sabab bu masshtabdagi relyef plastikasi kartalarida relyefning barcha elementlari ko'rsatilgan bo'ladi. Relyefning har bir elementlari bilan tuproq qoplarning strukturasi va uning meliorativ holati bog'langan bo'ladi.

6. Amudaryo hozirgi deltasining tizim va kollektor havzalarining kartalarida kichik deltalarning hamda sug'oriladigan hududlarning ichki strukturasi ko'rsatilgan bo'lib, tuproq qoplarning strukturasi va uning meliorativ holati bu obyektlarning ichki tuzilishi bilan chambarchas bog'langan bo'ladi.

7. Amudaryo hozirgi deltasining yirik masshtabli relyef plastikasi kartalari asosida tuproq qoplarning strukturasi tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, sug'orilmaydigan hududlarda tuproq qoplarning strukturasi kichik deltalarning "daraxtsimon" strukturasi bilan bog'langan bo'lsa, sug'oriladigan hududlarda esa kollektor havzalarining funksional yaxlitligi bilan bog'langan bo'ladi.

8. Tuproqlarning meliorativ holatini belgilashda tuproqlarning sho'rlanish darajasini katta rol o'ynaydi. Tuproqlarning sho'rlanish darajasini tadqiq qilish uchun biz relyef plastikasi kartalari asosida geokimyoviy landshaftning elementlarini ajratamiz. So'ng esa geokimyoviy landshaft elementlari bilan tuproqlarning sho'rlanish darajalari orasidagi aloqadorlikni tadqiq qilish natijasida har bir hududning "Tuproq qoplami strukturasi sho'rlanish darajalari kartalari" tuziladi. Bu kartalar o'z navbatida sug'orma dehqonchilik uchun amaliy ahamiyatga egadir.

9. Tuproqlarning meliorativ holatini belgilashga tuproq tuzlarining kimyoviy tarkibi ham alohida rol o'ynaydi. Shu davrgacha tuproqlarning sho'rlanish darajasida uchraydigan tuzlarning kimyoviy tarkibi yaxshi tadqiq qilingan. Ammo ularning relyef elementlari bilan aloqadorligi Amudaryo hozirgi deltasi misolida deyarli tadqiq qilinmagan. Bizlarning dastlabki olib borgan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, tuzlarning kimyoviy tarkibi o'z navbatida tuproqlarning sho'rlanish darajasi bilan bog'langan bo'lsa, tuproqlarning sho'rlanish darajasi esa relyef elementlari bilan bog'langandir. Boshqacha aytganda, tuzlarning kimyoviy tarkibi tuproqlarning sho'rlanish darajasi orqali relyef elementlari bilan bog'langandir.

10. Amudaryo hozirgi deltasida melioratsiyani olib borishda tuproq qoplarning strukturasi katta rol o'ynaydi. Bizga ma'lumki, har qanday melioratsiyada relyef strukturasi hisobga olinadi. Tuproq qoplarning strukturasi relyef elementlari bilan bog'langanligi uchun ham melioratsiyada tuproqlarning turlari relyef strukturasi orqali hisobga olinadi.

11. Yer resurslaridan oqilona foydalanishda "Tuproq qoplarning strukturasi" ta'limoti alohida o'rinni egallaydi. Bizning ma'lumotimiz bo'yicha, tuproq qoplarning strukturasi o'z navbatida relyef elementlari bilan aloqadorlikda bo'ladi. Aloqadorlikda bo'lganligi uchun faqat tuproq turlari o'zgarib qolmasdan, balki shu bilan birgalikda tuproqlarning sho'rlanish darajasi hamda tuzlarning kimyoviy tarkibi ham o'zgaradi. Shu sababli tuproqlar yaxlit pedotizimni hosil qilganligi uchun "Tuproq qoplarning strukturasi" ta'limotida tuproqlarning sho'rlanish darajasi va tuzlarning kimyoviy tarkibi alohida o'rinni egallaydi.

ADABIYOTLAR

1. Sherzod Ibroimov. (2024). Paragenetic landscape complexes of reservoir basins of the modern Amu darya delta and their natural and ameliorative conditions. *News of the NUUZ*, 3(3.1), 229-233. <https://doi.org/10.69617/uzmu.v3i3.1.1780>
2. Уразбаев, А. К., Ражабов, Ф. Т., & Иброимов, Ш. И. (2023). Значение бассейновой концепции в рациональном использовании водно-земельных ресурсов орошаемых земель современной дельты Амударьи. *Центральноазиатский журнал географических исследований*, 1-2 (1-2), 38-47.
3. Иброимов Ш.И. (2022). Структура рельефа и мелиоративные мероприятия современной дельты Амударьи. *Экономика и социум*, (10-2 (101)), 699-703.



UDK: 581.4.58.02

Umida IKROMOVA,

O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti tayanch doktoranti

E-mail: ikromova.umida@inbox.ru

Rustam USMANOV,

O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti yetakchi ilmiy xodimi, professor

B.f.d. I.Bahramov taqrizi ostida

TOSHKENT VA NAVOIY VILOYATLARIDA O'STIRILGAN NO'XAT O'SIMLIKLARINING MORFOXO'JALIK BELGILARINING QIYOSIY TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqolada Toshkent viloyatning sho'rlanmagan va Navoiy viloyatining o'rtacha sho'rlangan tuproqlarida o'stirilgan no'xat navlarining bo'yi, biomassasi, bir o'simlikdagi dukkak soni, bir o'simlikdagi don soni, dukkak og'irligi va don og'irligi o'rganilgan. Natijada, o'simlik bo'yi, biomassasi, bir o'simlikdagi dukkak va don soni, dukkak va don og'irligi, 1000 ta don og'irligiga sho'rlanish stressi salbiy ta'sir ko'rsatganligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: no'xat, biomassa, sho'rlanish, hosildorlik, dukkak, don soni, iqlim o'zgarishi, oqsil.

ВЫРАЩЕНЫ В ТАШКЕНТСКОЙ И НАВОЙСКОЙ ОБЛАСТИ. МОРФОЛОГИЯ РАСТЕНИЙ ГОРОХА СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПРИЗНАКОВ

Аннотация

В данной статье определены высота, биомасса, количество стручков на растении, количество зерен на растении, масса стручка сортов гороха, выращиваемых на незасоленных почвах Ташкентской области и умеренно засоленных почвах Навоийской области, масса зерна и показатели урожайности. были изучены. В результате установлено, что засоленный стресс отрицательно влияет на высоту растений, биомассу, количество стручков и зерен на растении, массу стручков и зерен, массу 1000 зерен.

Ключевые слова. горох, биомасса, засоление, продуктивность, бобовые, зернистость, изменение климата, белок.

GROWN IN TASHKENT AND NAVOIY REGIONS MORPHOLOGY OF PEA PLANTS COMPARATIVE ANALYSIS OF SIGNS

Annotation

In this article, the height, biomass, number of pods per plant, number of grains per plant, pod weight of pea varieties grown in non-saline soils of Tashkent region and moderately saline soils of Navoi region, grain weight and yield indicators were studied. As a result, it was found that salinity stress had a negative effect on plant height, biomass, number of pods and grains per plant, weight of pods and grains, weight of 1000 grains.

Key words: peas, biomass, salinity, productivity, legumes, number of grains, climate change, protein.

Kirish. Aholi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash global iqlim o'zgarishi va suv tanqisligi holatlarida yuqori kaloriyaga ega bo'lgan, sho'rlanishga chidamli bo'lgan ekin turlarini kengaytirishni talab etadi. Oqsil taqchilligi hukm surayotgan bugungi kunda, dukkaklilar donining oqsilga boyligi, oqsil tarkibida inson uchun foydali aminokislotalarning mavjudligi, dukkaklilarning oziq ovqat sanoatida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Dukkakli o'simliklarning sho'rlanishga moslashuvchan oqsil miqdori yuqori, hosildor navlarni yaratish katta ilmiy ahamiyat kasb etadi

Hozirgi kunda tuproq sho'rlanishining ortishi butun dunyo bo'ylab qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga jiddiy tahdid solmoqda. Global miqyosda 100 dan ortiq mamlakatlarda bir milliard gektardan ortiq yer maydonlariga sho'rlanish ta'sir qilmoqda va bu raqamlar doimiy ravishda o'sib bormoqda ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda qariyb 1125 million gektar yer sho'rlanishdan aziyat chekmoqda, shundan 76 million gektar odam ta'siri ostida yuzaga kelgan sho'rlanishdir [1,2]. Sho'rlanish o'simliklarning o'sishi va hosildorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan asosiy abiotik stresslardan biridir [3]. Noto'g'ri ishlov berish amaliyoti va iqlim o'zgarishi tufayli ekin maydonlarida sho'rlanishning doimiy ravishda o'sishi halokatli global oqibatlariga olib keladi va 21-asrning o'rtalariga kelib ekin maydonlarining taxminan 50% yo'qolishi taxmin qilinmoqda [4]. Sho'rlanish o'simliklarning hayotiy fiziologik funksiyalarga, ozuqaviy nomutanosisbligiga va gormonal tartibga solishga [5,6], uglerod fikatsiyasining pasayishiga [7], gullarning tushishiga, gullar va dukkaklar sonining kamayishiga ta'sir qiladi hamda hosil yetilishiga ta'sir qiladi [8]. Sho'rlangan sharoitda o'simliklarning erta reaksiyasi ildiz zonasidan tashqaridagi tuz bilan bog'liq bo'lsa, kechki fazadagi tuz stressi ta'siri o'simlik ichida tuz to'planishining toksik ta'sirining natijasidir [9]. Dukkakli ekinlarda tuz stressiga nisbatan yuqori sezuvchan bo'lib, unib chiqish bosqichiga qaraganda ko'chat va rivojlanish bosqichlarida sho'rlanishning ta'siri kuchli bo'ladi [10]. Tuzlilik bir nechta dukkakli ekinlarning o'sishini cheklaydi, ushbu o'sish cheklovleri ko'pincha to'qimalarining suv potensialining pasayishi bilan bog'liq bo'lib, hujayralar uchun suvning kamroq mavjudligini ko'rsatadi [11], bu stomatalarning yopilishiga, fotosintezning pasayishiga va o'sishni cheklashga olib keladi [12]. Mosh o'simligida sho'rlanish stressi ostida don sonining kam bo'lishi va don vaznining kamayganligini o'rganilgan [13]. Sho'rlanish soyada dukkaklar sonini va urug' vaznini kamaytiradi [8]. Bundan tashqari tuz stressi ta'sirida dukkakli o'simliklarning oqsil va yog' tarkibining kamayishiga ham sabab bo'ladi [14]. No'xat o'simligida urug'larning bujmayishi tufayli yakuniy hosilning pasayishiga va don vaznining 20% ga kamayishi kuzatilgan [15,16].


Bugungi kunda dunyo aholisini sifatli o'simlik oqsili bilan ta'minlash keskin muammolardan biri bo'lib kelmoqda. O'simlik oqsili yetishmovchiligini bartaraf etishning samarali yo'li dukkakli ekinlarni yetishtirishni kengaytirish va ularning hosildorligini oshirishdir [17]. Dukkakli ekinlar orasida ekin maydonlari va don yetishtirish bo'yicha no'xat dunyoda soya va loviyadan keyin uchinchi o'rinda turadi. Har yili yer maydonlariga 1,2 mln tonna no'xat ekiladi va yillik don ishlab chiqarish 9-10 mln tonnaga yetadi [18]. No'xat doni tarkibida 26-30% oqsil, 4-7% moy, 47-60% azotsiz ekstraktiv moddalar, 2,4-12,8% kletchatka, 0,2-4% kul va shuningdek A, B₁, B₂, C vitaminlar va mineral moddalar bor [19].

Material va uslublar. Tajribamiz Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti dalasida va Navoiy viloyati Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti dalasida olib borildi. Tadqiqot ob'ekti sifatida No'xatning mahalliy Guliston, Darmon, Polvon navlaridan foydalanildi.

Tajribada no'xat o'simliklarining bo'yi, biomassasi, bir o'simlikdagi dukkak soni, bir o'simlikdagi don soni, dukkak og'irligi va 1000 ta don og'irligi o'rganildi. Olingan ma'lumotlarning statistik tahlili EXCEL 2016 da, ANOVA bo'yicha Stat View dasturida amalga oshirildi.


Olingan natijalar va ularning tahlili. O'tkazilgan tajribalarda, Toshkent viloyatida yetishtirilgan no'xat navlarida o'simlik bo'yi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Guliston navida ($79,33 \pm 0,68$ sm) eng past ko'rsatkich esa, Darmon navida ($65,67 \pm 1,06$ sm) kuzatildi (1-rasm).

1-rasm. Toshkent viloyatida yetishtirilgan no'xat o'simliklarining bo'y uzunligi (sm) ko'rsatkichi.



Bir o'simlik quruq biomassasi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich no'xatning Guliston navida ($70,48 \pm 1,3$ gr) eng past ko'rsatkich esa, Darmon navida ($39,82 \pm 0,52$ gr) aniqlandi (2-rasm).

2-rasm. Toshkent viloyatida yetishtirilgan no'xat o'simliklarining quruq biomassasi (gr) ko'rsatkichi.



Bitta o'simlikdagi dukkaklar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Guliston navida ($55 \pm 1,12$) qayt etildi, bitta o'simlik dukkaklar og'irligi bo'yicha eng past ko'rsatkich Darmon navida ($28,83 \pm 0,56$ gr) kuzatildi. Bitta o'simlik don soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Guliston ($74,6 \pm 1,3$) navida, bitta o'simlik don og'irligi bo'yicha eng past ko'rsatkich Darmon navida ($20,6 \pm 1,7$ gr) aniqlandi. 1000 dona don og'irligi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Darmon navida ($369,73 \pm 0,49$ gr), eng past kursatkich esa Polvon navida ($352,48 \pm 4,66$ gr) qayt etildi (1-jadval).


1-jadval

Toshkent viloyatida yetishtirilgan no'xat o'simliklarining qimmatli xo'jalik belgilari

No'xat navlari	Bitta o'simlik dukkaklar soni, dona	Bitta o'simlik dukkaklar og'irligi, gr	Bitta o'simlik don soni, dona	Bitta o'simlik don og'irligi, gr	1000 ta don vazni, gr
Guliston	$55 \pm 1,12$	$39,03 \pm 0,68$	$74,6 \pm 1,3$	$28,6 \pm 0,6$	$361,09 \pm 1,7$
Polvon	$53 \pm 1,02$	$30,16 \pm 0,50$	$63 \pm 1,18$	$22,2 \pm 0,15$	$352,48 \pm 4,66$
Darmon	$50 \pm 1,06$	$28,83 \pm 0,56$	$56 \pm 1,02$	$20,6 \pm 1,7$	$369,73 \pm 0,49$


Tajribamizda, Navoiy viloyatida yetishtirilgan no'xat navlarida o'simlik bo'yi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Polvon navida ($55,67 \pm 0,72$ sm) eng past ko'rsatkich esa, Guliston navida ($46 \pm 0,67$ sm) qayt etildi (3-rasm). Bir o'simlik quruq biomassasi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich no'xatning Polvon navida ($40,76 \pm 0,4$ gr) eng past ko'rsatkich esa, Guliston navida ($36,12 \pm 0,53$ gr) kuzatildi (4-rasm).

3-rasm. Navoiy viloyatida yetishtirilgan no'xat o'simliklarining bo'y uzunligi (sm) ko'rsatkichi



Bitta o'simlikdagi dukkaklar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Darmon navida ($49,5 \pm 0,79$) qayt etildi, bitta o'simlik dukkaklar og'irligi bo'yicha eng past ko'rsatkich Guliston navida ($19,43 \pm 0,4$ gr) kuzatildi. Bitta o'simlik don soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Darmon ($54,50 \pm 0,47$) navida, bitta o'simlik don og'irligi bo'yicha eng past ko'rsatkich esa Guliston navida ($14,32 \pm 0,35$ gr) qayt etildi. 1000 dona don og'irligi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Polvon navida ($327,93 \pm 2,4$ gr), eng past kursatkich esa Guliston navida ($281,79 \pm 2,56$ gr) aniqlandi (2-jadval).

4-rasm. Navoiy viloyatida yetishtirilgan no'xat o'simliklarining quruq biomassasi (gr) ko'rsatkichi



2-jadval

Navoiy viloyatida yetishtirilgan no'xat o'simliklarining qimmatli xo'jalik belgilari

No'xat navlari	Bitta o'simlik dukkaklar soni, dona	Bitta o'simlik dukkaklar og'irligi, gr	Bitta o'simlik don soni, dona	Bitta o'simlik don og'irligi, gr	1000 ta don vazni, gr
Guliston	$43 \pm 0,32$	$19,43 \pm 0,4$	$49 \pm 1,9$	$14,32 \pm 0,35$	$281,79 \pm 2,56$
Polvon	$48,5 \pm 0,79$	$23,62 \pm 0,54$	$51,50 \pm 1,42$	$17,20 \pm 0,46$	$327,93 \pm 2,4$

Darmon	49,5±0,79	23,59±0,24	54,50±0,47	16,69±0,46	319,16±9,08
--------	-----------	------------	------------	------------	-------------

Xulosa. Olingan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sho'rlanish no'xat o'simligining morfologik belgilariga salbiy ta'sir ko'rsatdi va o'z navbatida qimmatli xo'jalik belgilarining kamayishiga ham sabab bo'ldi xususan, Navoiy viloyatida yetishtirilgan no'xat o'simligining don soni Toshkent viloyatida yetishtirilgan no'xat o'simligi don soniga nisbatan 12,26 % ga, dukkak og'irligi esa 24,94 % kamayganligi kuzatildi.

ADABIYOTLAR

1. Szabolcs, I. *Salt-affected soils* (Boca Raton, Fla: CRC Press). 1989;3.
2. Hossain, M. S. Present scenario of global salt affected soils, its management and importance of salinity research. *Int. Res. J. Biol. Sci.* 2019;12-19.
3. Gharsallah, C., Fakhfakh, H., Grubb, D., and Gorsane, F. (2016).
4. Effect of salt stress on ion concentration, proline content, antioxidant enzyme activities and gene expression in tomato cultivars. Zhang, J., Zhao, X. X., Wang, X., and Lu, W. X. (2015). Effects of cadmium stress on the growth and physiological property of *Oenanthе javanica*. *Plant Physiol. J.* 51, 2015.
5. Yadav H.D., Yadav O.P., Dhankar O.P., Oswal M.C. Effect of chloride salinity and germination, growth and mineral composition of chickpea. *Ann. Arid Zone.* 1989
6. El Sayed H.E.S. Influence of NaCl and Na₂SO₄ treatments on growth development of broad bean (*Vicia faba L.*) plant. *J. Life Sci.* 2011; 5:513–523.
7. Flexas J., Bota J., Loreto F., Cornic G., Sharkey T.D. Diffusive and metabolic limitations to photosynthesis under drought and salinity in C3 plants. *Plant Biol.* 2004;6:269–279. doi: 10.1055/s-2004
8. Khan H.A., Siddique K.H.M., Colmer T.D. Vegetative and reproductive growth of salt-stressed chickpea are carbon-limited: Sucrose infusion at the reproductive stage improves salt tolerance. *J. Exp. Bot.* 2017; 68, 2001–2011.
9. Munns R. Genes and salt tolerance: Bringing them together. *New Phytol.* 167, 645–663, 2005.
10. Al-Mutawa M.M. Effect of salinity on germination and seedling growth of chickpea (*Cicer arietinum*) genotypes. *Int. J. Agric. Biol.* 2003; 226–229.
11. Garg N., Bhandari P. Silicon nutrition and mycorrhizal inoculations improve growth, nutrient status, K⁺/Na⁺ ratio and yield of *Cicer arietinum L.* genotypes under salinity stress. *Plant Growth Regul.* 2016;78:371–387.
12. Garg N., Manchanda G. Role of arbuscular mycorrhizae in the alleviation of ionic, osmotic and oxidative stresses induced by salinity in *Cajanus cajan (L.) Millsp.* (*pigeonpea*) *J. Agron. Crop Sci.* 2009;195:110–123.
13. Ahmed S. Effect of soil salinity on the yield and yield components of mungbean. *Pak. J. Bot.* 2009;41:263–268
14. Flowers T.J., Gaur P.M., Gowda C.L.L., Krishnamurthy L., Samineni S., Siddique K.H.M., Turner N.C., Vadez V., Varshney R.K., Colmer T.D. Salt sensitivity in chickpea. *Plant Cell Environ.* 2010; 33,490–509.
15. Kumar S., Promila K. Effects of chloride and sulfate types of salinization and desalinization on nodulation and nitrogen fixation in chickpea. *Indian J. Plant Physiol.* 1983;26:396–401.
16. Vadez V., Krishnamurthy L., Serraj R., Gaur P.M., Upadhyaya H.D., Hoisington D.A., Varshney R.K., Turner N.C., Siddique K.H.M. Large variation in salinity tolerance in chickpea is explained by differences in sensitivity at the reproductive stage. *Field Crop. Res.* 2007;104:123–129.
17. Громов А.А., Ледовский Н.В., Малышева А.В. Влияние регуляторов роста, микроэлементов и ризоторфина на выживаемость растений и урожайность гороха Флагман. 9. 2010.
18. Маткаримов Ф.И., Бабоев С.К., Давронов К.Д., Кулмаматова Д.Е., Тохирбоева Д.У. Нўхат етиштириш технологияси// “Наврўз”. Тошкент -2020. 3 бет.
19. Tursunov S. O'simlikshunoslik. 202-bet. Toshkent. 2019.



УДК: 551.773.3/734

Фирдаус КАРИМОВА,

Ведущий геолог государственное предприятие «Регионалгеология», Ташкентская область

E-mail: Karimovafirdaus052@gmail.com

отзыв от PhD Н.Мусаевой

STROMATOPORATES OF THE TAMDYTAU MOUNTAINS (CENTRAL KYZYLKUM)

Annotation

The results of a biostratigraphic study and a monographic description of stromatoporates of the Tamdytau Mountains are presented. The deposits are characterized by dolomitized limestones, in which stromatoporates characteristic of the Silurian and Lower Devonian are found. Stromatoporates are a good reference for identifying Silurian and Lower Devonian deposits.

Key words: stromatoporates, amphipores, Silurian, Lower Devonian, Tamdytau.

TOMDITOV TOG'I STROMATOPORATLARI (MARKAZIY QIZILQUM)

Annotatsiya

Biostratigrafik tadqiqot natijalari va Tamditau tog'lari stromatoporatlarning monografik tavsifi keltirilgan. Yotqiziqilar dolomitli ohaktoshlar bilan xarakterlanadi, ularda silur va quyi devonga xos stromatoporatlar uchraydi. Stromatoporatlar silur va quyi devon yotqiziqilarini aniqlash uchun yaxshi ma'lumotnoma hisoblanadi.

Kalit so'zlar: stromatoporatlar, amfiporlar, silur, quyi devon, Tamditau.

СТРОМАТОПОРАТЫ ГОР ТАМДЫТАУ (ЦЕНТРАЛЬНЫЕ КЫЗЫЛКУМЫ)

Аннотация

Приведены результаты биостратиграфического изучения и монографическое описание строматопорат гор Тамдытау. Отложения характеризуются доломитизированными известняками, в которых встречены строматопораты характерные для силура и нижнего девона. Строматопораты являются хорошим репером для опознания силурийских и нижнедевонских отложений.

Ключевые слова: строматопораты, амфипоры, силур, нижний девон, Тамдытау.

Введение. Отложения силура и девона на территории Узбекистана по площади охватывают почти треть часть обнаженного палеозоя складчатой системы Южного Тянь-Шаня и сравнительно небольшие площади в Среднем Тянь-Шане. Это, преимущественно, морские осадочные образования и, значительно в меньшей степени, вулканогенные и континентальные.

Разрезы силура и нижнего девона гор Тамдытау характеризуются карбонатными и карбонатно-терригенными отложениями, где можно встретить редкие формы строматопорат или амфипоровые луга.

В районе колодцев Джаксан, Коскудук и Косбулак отложения представлены терригенно-карбонатными породами, что свидетельствуют о менее благоприятных условиях существования кишечнополостных. Об этом говорит угнетенный облик строматопорат: колонии мелкие, полусферические и скопления не образуют. Здесь в карбонатных породах, в основном, встречаются такие виды как *Ecclimadictyon microfastigiatum* (Riabinin), *Ecclimadictyon fastigiatum* (Nicholson), *Ecclimadictyon cf. laminaeungulatum* (Riabinin), *Gerronostroma patulumpillars* Karimova, *Gerronostroma uralicumforme* Lessovaya, *Simplexodictyon relaxatum* Grinenko, *Mixtusdictyon asiaticum* (Lessovaya), *Plexodictyon ex gr. savaliense* Riabinin, *Parallelostroma infitialim* Lessovaya et Karimova, – характерные для нижнего силура, венлока

В районе колодца Джаксан в массивных известняках «Верблюды горы» встречаются строматопораты не только венлока и лудлова, но и нижнего девона. Это обнажение напоминает двугорбовую вершину между колодцами Джаксан и Коскудук, они представлены разрозненными блоками, залегающими по тектоническому нарушению на песчано-сланцевой толще. Бухарин А.К. и др. называли их клеппенами.

При таксономическом описании была использована система строматопороидей Stearn C.W., Webby B.D., Nestor H., and Stock C.W., представленная в работе «Revised Classification and terminology of Palaeozoic stromatoporoids», Warszawa (1999).

Фотографии выполнены в программе «Photoshop». Коллекция строматопорат хранится в Музее Государственного комитета по геологии и минеральным ресурсам (Госкомгеология) Республики Узбекистан под № 1069.

Класс Stromatoporoidea Nicholson & Murie, 1878

Отряд Clathrodictyida Bogoyavlenskaya, 1969

Семейство Actinodictyidae Khalfina & Yavorsky, 1973

Род *Ecclimadictyon* Nestor, 1964

Ecclimadictyon microfastigiatum (Riabinin, 1952)

Табл. 1, фиг. 1-2

Clathrodictyon microfastigiatum (Riabinin): Рябинин, 1951, с. 22, табл. 15, фиг. 2-4; табл. 16, фиг. 3-4.

Ecclimadictyon microfastigiatum (Riabinin): Лессовая, 1978, с. 56, табл. 2, фиг. 4.

Описание. Ценостеум массивный. В поперечном срезе видно, мелкое, сетчатое строение ценостеума. Ламинны и радиальные столбики плотного строения и одинаковы по толщине. Ламинны параллельны между собой и микроволнисты, образуя резкие перегибы, характерные для строения ценостеума. Радиальные столбики соединяют только две соседние ламинны, располагаясь на перегибах ламин. На 1 мм приходится 7-8 ламин. Толщина ламин и столбиков равна 0,02 мм.

Сравнение. Очень похож на голотип.

Распространение. Эстония, карьер Лимберга; Средняя Азия, Тянь-Шань, урочище Шахромон; лландовери, минкучарские слои.

Местонахождение. Центральные Кызылкумы, кол. Коскудук, нижний силур, венлок.

Ecclimadictyon fastigiatum (Nicholson, 1886)

Табл. 2, фиг. 5-6

Clathrodictyon fastigiatum: Nicholson, 1886, с.43, фиг.3; с.78, фиг. 12 (без описания); Mori Kei, 1968, с. 62, табл. 7, фиг. 1-2, там же см. синониму; Лессовая, 1978, с. 55, табл. 2, фиг. 3.

Голотип - хранится в Британском музее, нижний силур, венлок Великобритании.

Описание. Ценостеумы имеют дискообразную и полусферическую форму. Ценостеум образован инфлекссионными ламинами. Количество ламин на 1 мм не превышает 6-7, толщина ламин – 0,05 мм. Инфлексоны редкие в количестве 3-4 на 1 мм.

Сравнение. От *Ecclimadictyon kirgismicum* (Riabinin) (Рябинин, 1931, с. 510, табл. 1, фиг. 14-15) описываемый вид отличается более сближенными ламинами и инфлексонами.

Распространение. Лландовери-венлок Тянь-Шаня; венлок Урала, Алтай, Эстонии, силур Печорского бассейна; лландовери-венлок Англии, Готланда, Северной Америки, Китая.

Местонахождение. Центральные Кызылкумы, кол. Коскудук, нижний силур, венлок.

Отряд Stromatoporellida Stearn, 1980

Семейство Stromatoporellidae Lecompte, 1951

Род *Simplexodictyon* Bogoyavlenskaya, 1965

Simplexodictyon relaxutum Grinenko, 1974

Табл. 2, фиг. 3-4

Лекстотип. №123-495, Центральные Кызылкумы, Тамдытау, венлок.

Описание. Ценостеум желваковидный, составлен прямыми или крупно-волнистыми тонкими ламинами и сепаратными столбиками. Ламини параллельны, на 1 мм приходится 3-4 ламини и 3 межламнарных промежутка. Столбики прямые редко наклонные, местами располагаются друг над другом. Диаметр столбиков равен 0,1-0,12 мм, на расстоянии 1 мм помещаются 5-6 столбиков. Ячейки образованные прямыми ламинами и столбиками имеют прямоугольные очертания, также встречаются квадратные ячейки. Астроризы не встречены.

Сравнение. Описываемый вид отличается от *Simplexodictyon podolicum* (Яворский, 1929, с. 83, табл. 6, фиг. 5-6) более тонкими ламинами, так как у того ламини широкие и двураздельные. Кроме того у *S. podolicum* ламини и столбики более удалены друг от друга.

Распространение. Центральные Кызылкумы, нижний силур; Зеравшанский хребет нижний силур, средний лландовер.

Местонахождение. Центральные Кызылкумы, кол. Джаксан, нижний силур, венлок.

Simplexodictyon grandiosus Lessovaya, 1970

Табл. 1, фиг. 5-6

Simplexodictyon grandiosus Lessovaya: Лессовая, 1970, с. 87, табл.6, фиг.1.

Голотип. №9994-2/115, музей Госкомгеологии Республики Узбекистан; Эйфельский ярус, сай Хамидул, Зеравшанский хребет.

Описание. Ценостеум округлой формы. Скелет состоит из ламин и столбиков, образующих крупную сетку. Ламини двураздельные, широкие, со светлым просветом в середине, чаще параллельные между собой, редко неравноудаленные. Столбики ограничиваются одним межламнарным промежутком, прямые, или катушкообразные. Диаметр столбиков от 0,2 до 0,5 мм. На 5 мм приходится 4-5 столбиков.

Сравнение. От голотипа не отличается.

Распространение. Зеравшанский хребет, Эйфельский ярус.

Местонахождение. Кызылкумы, г. Мурунтау, девон, Эйфель.

Simplexodictyon convictum (Yavorsky, 1966)

Табл. 2, фиг. 1-2

Simplexodictyon convictum: Яворский, 1966, с. 9, табл. 3, фиг. 5.

Clathrodiction convictum: Яворский, 1929, с. 91, табл. 9, фиг. 5-7; Рябинин, 1951, с. 12, табл. 4, фиг. 1-3; 1953, с. 32, табл. 4, фиг. 1-3; Нестор, 1966, с. 26, табл. 9, фиг. 1; табл. 10, фиг. 1-2; Mori, 1970, с. 87, табл. 2, фиг. 3.

Clathrodiction convictum var. *riabinini*: Лессовая, 1962, с.111, табл.3, фиг. 2.

Simplexodictyon convictum: Богоявленская, 1973, с. 50, табл. 22, фиг. 3.

Описание. Ценостеум желвакообразный, состоит из тонких параллельных между собой ламин и сепаратных столбиков. Ламини слегка волнистые, не изогнутые в местах отхождения от них столбиков. Столбики округлого очертания, толще ламин, диаметр которых составляет 0,02-0,1 мм. Расстояния между ламинами 0,2 мм. На 1 мм приходится 5-6 ламин и 4-5 столбиков. Астроризы наложены в вертикальные ряды с короткими горизонтальными каналами. Ткань скелетных элементов плотная. В ценостеуме наблюдаются многочисленные симбионты *Syringopora*. Кораллиты растут преимущественно перпендикулярно к ламинам, в виде веток.

Сравнение. Описываемый вид отличается от *Simplexodictyon podolicum* (Богоявленская, 1965, с. 111, табл. 13, фиг. 1-2) строением тонких не двураздельных ламин, а также более мелкими размерами скелетных элементов.

Распространение. Швеция, о-в Готланд; лудлов, слон Klintenberg. Немсе. Восточный склон Северного Урала; лудлов.

Местонахождение. Центральные Кызылкумы, кол. Джаксан, нижний силур, лудлов.

Diplostroma yavorskyi Nestor, 1966

Табл. 1, фиг. 3-4

Clathrodiction regulare (Ros.), var. *Yav.*: Рябинин, 1951, с.11, табл.3, фиг.7

Diplostroma yavorskyi Nestor: Нестор, 1966, с. 29, табл. 9, фиг. 4; табл. 10, фиг. 4,5. Mori, 1969,

Описание. Ценостеум желвакообразный. Ламини и столбики регулярные. Срединная щель ламини узкая, с небольшими линзовидными или неправильными расширениями. Длинные межламнарные диссепименты хорошо развиты. Ламини слегка волнистые, но параллельные и выклиниваются редко. На 2 мм приходится 4 ламини толщиной 0,25 мм. Столбики тоньше ламин и диаметром 0,1 мм, округлого сечения, регулярные, реже косые или разветвляющиеся. На 2 мм приходится 5 столбиков.

Сравнение. Описываемый вид отличается от голотипа незначительно.

Распространение. Остров Саарема, лудлов; Швеция, о-в Готланд, венлок; Швеция, о-в Готланд, лудлов; Австралия, лудлов(?), известняки Нуме.


Местонахождение. Центральные Кызылкумы, кол. Джаксан, гора Мурунтау, нижний силур, венлок.

Заклучение. Разрезы силура и нижнего девона гор Тамдытау характеризуются карбонатными и карбонатно-терригенными отложениями с редкими видами строматопорат как *Ecclimadictyon microfastigiatum* (Riabinin), *Ecclimadictyon fastigiatum* (Nicholson), *Simplexodictyon relaxutum* Grinenko, *Simplexodictyon convictum* (Yavorsky), *Diplostroma yavorskyi* Nestor, характерные для нижнего силура и *Simplexodictyon grandiosus* Lessovaya, характерный для нижнего девона.

ЛИТЕРАТУРА


1. Богоявленская О.В. Силурийские строматопороидеи Урала. Москва: Наука, 1973. С. 22-56.
2. Каримова Ф.С. Строматопораты. //Атлас ископаемой фауны и флоры фанерозоя Узбекистана. Т.1. Ташкент, 2007, с. 174-175.
3. Лессовая А.И. Строматопороидеи девона Зеравшанского хребта. //Биостратиграфия осадочных образований Узбекистана. Сборник № 9. Ленинград: Недра, 1970, с. 74-109.
4. Нестор Х.Строматопороидеи венлока и лудлова Эстонии. Таллин: Валгус, 1966. С. 7-87.
5. Рябинин В.Н. Силурийские строматопороидеи Подолии. Труды ВНИГРИ, новая серия, вып. 67, 1953. с.
6. Stearn C.W., Webby B.D., Nestor H., and Stock C.W.. Revised classification and terminology of Palaeozoic stromatoporoids. Warszawa, 1999. Vol 14. No.1 pp. 1-70.

ТАБЛИЦА 1



Фиг. 1-2. *Ecclimadictyon microfastigiatum* (Riabinin)
 1 – продольное сечение; 2- поперечное сечение. муз. №1,2/1069, x10; кол. Коскудук, нижний силур, венлок.
Фиг. 3-4. *Diplostroma yavorskyi* Nestor
 3 – продольное сечение; 4- поперечное сечение. муз. №3,4/1069, x10; кол. Джаксан, западное «Верблюд горы», нижний силур, венлок.
Фиг. 5-6. *Simplexodictyon grandiosus* Lessovaya
 5– продольное сечение; 6- поперечное сечение. муз. №5,6/1069, x10; г. Мурунтау, девон, эйфель.

ТАБЛИЦА 2



Фиг. 1-2. *Simplexodictyon convictum* Yavorsky
 1 – продольное сечение; 2- поперечное сечение. муз. №7/1069, x10; кол. Джаксан, нижний силур, лудлов.
Фиг. 3-4. *Simplexodictyon relaxutum* Grinenko
 3 – продольное сечение; 4- поперечное сечение. муз. № 8,9/1069; кол. Джаксан, нижний силур, венлок.
Фиг. 5-6. *Ecclimadictyon fastigiatum* Nicholson
 5– продольное сечение; 6- поперечное сечение. муз. №10,11/1069, x10; кол. Коскудук, нижний силур, венлок.

Rustam KUVONDIKOV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: kuvondikovrustam764@gmail.com

PhD A.Mo'minov taqrizi asosida

THE ROLE OF AGRICULTURAL MAPS AND ATLASES IN THE DEVELOPMENT OF INTENSIVE LIVESTOCK FARMING

Аннотация

The article examines the role of agricultural maps and atlases in the development of intensive livestock farming in the Republic of Uzbekistan, which requires careful resource management and adaptation to changing climatic and environmental conditions. It is shown that the use of geoinformation technologies and cartographic data allows optimizing the use of land resources, improving the forage base, creating favorable conditions for keeping animals and minimizing the environmental impact of livestock enterprises. Particular attention is paid to tasks related to microclimate monitoring, waste management and adaptation to climate change. The conclusion is made about the necessity of integrating data from agricultural maps and atlases to improve the sustainability and efficiency of intensive livestock farming.

Key words: agricultural maps and atlases, intensive livestock farming, geoinformation technologies, resource management, forage base, microclimate, environmental safety, waste management, adaptation to climate change.

РОЛЬ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ КАРТ И АТЛАСОВ В РАЗВИТИИ ИНТЕНСИВНОЙ ЖИВОТНОВОДСТВА

Аннотация

В статье рассматривается роль сельскохозяйственных карт и атласов в развитии интенсивного животноводства в Республики Узбекистан, которое требует тщательного управления ресурсами и адаптации к изменяющимся климатическим и экологическим условиям. Показано, что использование геоинформационных технологий и картографических данных позволяет оптимизировать использование земельных ресурсов, улучшить кормовую базу, создать благоприятные условия для содержания животных и минимизировать экологическое воздействие животноводческих предприятий. Особое внимание уделяется задачам, связанным с мониторингом микроклимата, управлением отходами и адаптацией к климатическим изменениям. Сделан вывод о необходимости интеграции данных сельскохозяйственных карт и атласов для повышения устойчивости и эффективности интенсивного животноводства.

Ключевые слова: сельскохозяйственные карты и атласы, интенсивное животноводство, геоинформационные технологии, управление ресурсами, кормовая база, микроклимат, экологическая безопасность, управление отходами, адаптация к климатическим изменениям.

Введение. Сельскохозяйственные карты и атласы играют важную роль в развитии интенсивного животноводства, обеспечивая доступ к пространственным данным, которые поддерживают более точное и эффективное управление фермами и животноводческими комплексами. Внедрение геоинформационных технологий в животноводство позволяет оптимизировать использование ресурсов, улучшить условия содержания животных и минимизировать воздействие на окружающую среду[4].

Интенсивное животноводство требует значительных ресурсов и точного планирования для обеспечения высоких показателей продуктивности и минимизации воздействия на окружающую среду. В этих условиях сельскохозяйственные карты и атласы становятся неотъемлемыми инструментами для управления землепользованием, оптимизации кормовой базы и улучшения условий содержания животных[6]. Географическая привязка данных позволяет более точно учитывать местные особенности почв, климата и рельефа, что особенно важно для создания сбалансированной системы интенсивного животноводства в Республики Узбекистан.

Анализ литературы по теме. Согласно исследованиям российского ученого-картографа А.М. Берлянта, карты делятся на три основных типа: общегеографические, тематические и специальные карты [2]. Определив тематические карты, карты, охватывающие природные и социальные события, разделили их на категории. Карты социальных событий он разделил на две основные группы: карты населения и экономические карты. Экономические карты включают в себя: промышленность, сельское хозяйство (земледелие и животноводство), агропромышленность, комплекс, состоящий из карт лесного, рыбного хозяйства и других карт.

Проанализированы исследования Е.А. Прохоровой, А.П. Золовского, И.Ю. Крохмалю, А.А. Реминского по классификации сельскохозяйственных карт [12].

На основе накопленного опыта развития сельского хозяйства и создания тематических карт И.Ю. Ливским была разработана система карт, охватывающая практически все отрасли сельского хозяйства [5]. Есть 2 основных и 5 дополнительных.

Выделены сетевые карты и предложено 28 тематических систем карт.

Методология исследования. Использование сельскохозяйственных карт и атласов в интенсивном животноводстве является повышение эффективности управления животноводческими предприятиями за счет точного планирования земельных ресурсов, улучшения качества кормовой базы, оптимизации условий содержания животных и минимизации негативного воздействия на окружающую среду.

Основная часть. В интенсивном животноводстве важно эффективно использовать земельные ресурсы для выпаса скота и заготовки кормов. Сельскохозяйственные карты помогают оценить качество пастбищных угодий, распределение почвенных типов и растительности[7]. Это позволяет оптимально планировать выпас, учитывая пастбищную нагрузку, сезонные изменения и необходимость восстановления растительности. С помощью карт можно выделить участки с лучшей продуктивностью для заготовки кормов, избегая перегрузки одних и тех же площадей.

Карты сельскохозяйственных культур и почв помогают спланировать севооборот и подобрать наиболее подходящие участки для выращивания кормовых культур, таких как кукуруза, люцерна и другие травы. Атласы с данными о климате и уровнях осадков позволяют выбрать оптимальные сроки посева и уборки, что обеспечивает высокое качество и питательность кормов для животных. Кроме того, карты с данными о рельефе и гидрологии помогают идентифицировать участки, требующие дренажа или орошения, для повышения продуктивности кормовых культур.

По особенностям структурно-тектонического строения, характеру магматизма, регионального метаморфизма и металлогении в пределах Султанувайского горнорудного района выделено две металлогенические зоны: **Северная** – фемического (уральского) типа и **Южная** – фемическо-сиалического (тянь-шаньского) типа. Первая занимает значительную часть горного массива, вторая – его южное предгорье.

Металлогения Северной зоны, представляющей собой палеоостроводужную область, определена базитовым и гранитоидным магматизмом субдукционного и предколлизийного этапов. Распространенные генетические типы оруденения – магматический, плутогенно- и вулканогенно-гидротермальный, колчеданный, метаморфогенный и осадочный. По формационным особенностям вмещающего субстрата и структурно-тектоническому строению Северная зона подразделена на четыре тектонически обособленных подзоны: Шейхджейлинскую, Джамансайскую, Каракудукскую и Казансайскую [6].

Самая Западная - Шейхджейлинская подзона является фрагментом вулканического острова на карбонатном девонском субстрате.

По кулисовидным ослабленным зонам ССЗ направления в вулканы Шейхджейлинского массива внедрены гипабиссальные интрузии Зенгебобинского габбро-диорит-плаггиогранитового комплекса. С диоритами комплекса ассоциировано золото-молибден медное оруденение меднопорфирового (бошекульского) типа.

Восточный край Шейхджейлинской подзоны проходит по меридиональной линейной зоне смятия, именуемой Урусайским глубинным разломом.

Марганцевые проявления площади образовали колонну последовательно формировавшихся марганценовых формаций, от ранних к поздним: 1 – эффузивно-кремнистая; 2 – филлит-метапесчаниковая; 3 – силикатно-марганцевая контактово-метаморфическая; 4 – силикатно-марганцевая гидротермально-метасоматическая; 5 – марганценовая кора выветривания; 6 – песчано-глинистая. Крупные скопления руд не установлены.

В пределах Джамансайской подзоны выявлено Верхнеказантауское проявление золота, перспективная площадь (10 км²).

Два участка в Джамансайской площади: -Новоджамансайский (S = 52 км²). Этот участок может вмещать 5-7 (в среднем 6) объектов, подобных Центрально-Джамансайскому.

По платиноидам, Западно-Тебинбулакская площадь (S = 2,5 км²), как участок Тебинбулакского месторождения титаномагнетитовых руд;

По марганцу -участок Северный (S = 2 км²);

На бирюзу -Султануиздагская площадь (S = 15 км²).

По редким металлам -Султануиздагская пегматитовая зона (S = 30 км²) в составе двух первоочередных участков: Казантауского (17 кв.км) и Менажатского (13 кв.км). Прогнозные ресурсы: участок Казантау- бериллий – 1200 т, ниобий – 1500 т, тантал – 900 т; участок Менажат – бериллий – 550 т, ниобий – 700 т, тантал – 350 т.

Каракудукская подзона. Расположена северо-восточнее Джамансайской. Образована линейным выходом пород офиолитовой ассоциации, ориентированным в северо-западном направлении и диагонально секущим границы свит внутри Джамансайского межгорного прогиба. Ширина 1,5-4,5 км, протяженность 40-60 км с учетом сегментов, перекрытых чехлом мезо-кайнозойских отложений.

Серпентинизированные перидотиты, серпентиниты и тальк-карбонатные метасоматиты (тальк-карбонатные сланцы) содержат мелкие хромитовые тела и вкрапленность никель-кобальт содержащих сульфидов. В породах установлено присутствие золота, платины, платиноидов. Рудная формация – платина-хромитовая и хромит-магнетитовая. Несмотря на малые размеры выхода перидотитов и отсутствие значительных магмоподводящих каналов, вокруг которых группируются концентрации хромитов, оруденение может быть выявлено в апофизах гипербазитов (по примеру Сарановского массива на западном склоне Урала).

Проявления титана в тальковых и тальк-карбонатных породах на границе Джамансайской и Каракудукской подзон связаны с рутиловой минерализацией. Над серпентинитами султануиздагского комплекса сохранилась предмеловая аккумулятивная кора выветривания сиалитного типа. Кора характеризуется полным профилем и в разной степени эродирована. Верхняя зона профиля, представленная охристо-кремнистыми образованиями, обнажена на юго-востоке Каракудукской подзоны. На северо-западе она эродирована до верхов средней – нонtronитовой зоны. Обе зоны профиля содержат различное количество кобальтсодержащих силикатов никеля.

В пределах Казансайской подзоны выделены:

На вольфрам-Колгантюбинская площадь (S=90 км²), проявления вольфрама, на базе которого выделена одноименная перспективная площадь, является месторождение вольфрама Сарыту в Центральные Кызылкумах.

На медь -Беркуттауская площадь (S=24 км²). Выявление рудоносной ассоциации метасоматитов и гидротермалитов позволило рассматривать проявление на площади двух рудных формаций: медноколчеданной (с золотом) и меднопорфировой (с серебром и золотом)

и палладий, платиной).

-Учтауская площадь ($S=10 \text{ км}^2$).

Основной рудный потенциал Северной металлогенической зоны Султануиздагского горнорудного района обусловлен деятельностью полихронного магматического очага в пределах единого палеовулканического острова, возникшего силуро-девонской терригенно-карбонатной платформе. Он характеризуется сидерофильностью: главные полезные ископаемые – железо и золото, сопутствующие – титан, ванадий, марганец, хром, платиноиды, никель, кобальт, медь, молибден.

Южная (Истемеская) металлогеническая зона является краевой частью тектонического блока, ограниченного с севера субширотным Истемесским взбросо-надвигом, а с запада – субмеридиональным Урусайским разломом. Скрыта под правобережной аллювиальной равниной и чехлом мезо-кайнозойских отложений. Ширина в пределах изученной площади – 16 км, протяженность – 45 км.

Направление взбросо-надвига – с юга на север. Передовая часть, обнаженная южнее гряды Дарбазатау на площади 0,75 кв.км, является выступом кристаллических пород мигматит-гранитовой формации, образующих гранито-гнейсовый купол.

Нижнюю часть Истемеской металлогенической зоны слагают плагиогнейсы, амфиболиты и двуполовошпатовые гранито-гнейсы, вскрытые скважинами в узкой приразломной полосе шириной 3-5 км на глубинах 60-340 м. Над ними залегают гранит-карбонатные валуно-галечные конгломераты голубовато-серого цвета.

Зону диагонально пересекают линейные магнитовозмущающие тела СЗ направления, отражающие скопления интрузивных пород: габбро, гранодиоритов и диоритов. Скважинами на глубинах 70-230 м вскрыты кварцевые диориты и трондьемиты, пересекающие гнейсы.

Лейкограниты имеют сфен-циркон-апатитовый (иногда с гранатом и турмалином) тип аксессуарной минерализации, характеризуются слабоповышенными содержаниями молибдена, олова, галлия, иттрия и лантана. Соотношение $\text{Na/K} \sim 1$ и значения $\text{Ca} \geq \text{Na}$ свидетельствуют о проявлении процесса автотасоматоза (грейзенизации). Соотношение $\text{Ni/Co} \geq 1$ указывает на положение вскрытых апофиз лейкогранитов в самой верхней части краевой зоны интрузивного проявления.

Таким образом:

1. В пределах гор Султанувайс по условиям залегания, составу и геохимической специализации Шавашкумские лейкограниты близки гранитоидам гатчинского субкомплекса шуракского комплекса Южного Нуратау;

2. Геохимический облик пород субстрата – плагиогнейсов и амфиболитов – характеризуется устойчиво повышенными содержаниями титана, циркония, марганца, фосфора, хрома, ванадия. Наряду с ними в слабоповышенных содержаниях присутствуют олово, галлий, литий и др. редкие и редкоземельные элементы;

3. По своему строению Истемеская металлогеническая зона является тектоническим выступом палеоостровного фундамента. Она находится в зоне влияния трансконтинентального линеамента, ограничивающего с северо-востока Каракумо-Таджикский микроконтинент и, по всей вероятности, имеет металлогеническую специализацию, присущую краевой магматогенной зоне;

4. В пределах гор Султанувайс необходим проведение геологоразведочных работ в свете новых решений для выявления золото-редкометалльных, редкоземельных элементов выше названных участков.

ЛИТЕРАТУРА

1. Борисов О.М., Глух А.К. Кольцевые структуры и линеаменты Средней Азии (по материалам дешифрирования мелкомасштабных космоснимков). – Ташкент: Фан, 1982. 124 с.
2. Мухин П.А., Савчук Ю.С., Миркамалов Р.Х. Кнематика альпийских надвигов Кызылкумов // Узб.геол.журн. – 1991. - №1. – с 7-11.
3. Абдуллаев Х.М. Гранитоидли интрузиялар билан маъданлашувнинг генетик боғлиқлиги. Таржимон Х.Ж.Ишбоев. – Тошкент. «Lesson Press» МЧЖ нашриёти. 2022. 313 б.
4. Баймухамедов Х.Н. и др. Металлогения Южного Тянь-Шаня. В кн.: Закономерности размещения полезных ископаемых. - М., Наука, ХШ, 1981, с.153-161.
5. Гарьковец В.Г. Структурно-металлогеническое районирование и перспективы некоторых видов эндогенного оруденения Узбекистана. –Ташкент, Доклад предоставлен на соискание ученой степени кандидата геолого-минералогических наук по совокупности опубликованных работ. 1971, 75 с.
6. Ахмеджанов М.А., Борисов О.М., Арипов А.А. Тектонические и литолого-фациальные факторы локализации рудных месторождений (на примере Срединного и Южного Тянь-Шаня). // В кн.: Основные черты металлогении эндогенных полезных ископаемых Средней Азии. Ташкент, 1975, с. 9-24.
7. Голованов И.М. и др. Геолого-промышленные типы месторождений черных, цветных и редких металлов Узбекистана и их связь с магматизмом. – Магматические, метасоматические формации и связанное с ними оруденение, материалы научной концепции. - Т., ИГиГ АН РУз, 2005.
8. Разиков О.Т. Статистическая металлогения золота-редкометалльного и редкометалльного оруденения Зарафшано-Алайского пояса Узбекистана. Монография. - Т: «Ma'rifat», 2024, 200 с.
9. Хамрабаев И.Х. Избранные труды в 6-ти томах. Т.1. Магматизм и постмагматические процессы в Западном Узбекистане / Под ред. Х.М.Абдуллаева. – Т.: ГУ «ИМР», 2021. - 424 с.
10. Кустарникова А.А. и др. Металлогения золота и меди Узбекистана. - Институт геологии и геофизики им. Х.М.Абдуллаева. – Т., 2012, 410 с.



UDK: 911.5(2)

Vaxob RAFIKOV,
Samarqand davlat universiteti dotsenti
E-mail: uz-hydrolog@mail.ru
Nodira RAFIKOVA,
Samarqand davlat universiteti dotsenti
Ziyodulla GANIYEV,
Samarqand davlat universiteti dotsenti

Samarqand davlat universiteti professori, g.f.d S.Abbasov taqrizi asosida

DRY PART OF THE ARAL SEA

Annotation

The article considers the formation of natural complexes, their dynamics, the most active effect of relief-forming factors - deflation, erosion, and accumulative processes in the dry part of the bottom of the Aral Sea.

Key words. lithological composition, natural complex, dynamics, seabed, hydrogeological regime, Pliocene, deflation.

ОБОХШАЯ ЧАСТЬ АРАЛЬСКОГО МОРЯ

Аннотация

В статье рассмотрено формирование природных комплексов, их динамика, наиболее активное действие рельефообразующих факторов - дефляции, эрозии, аккумулятивных процессов обохшей части дна Аральского моря.

Ключевые слова. литологический состав, природный комплекс, динамика, морское дно, гидрогеологический режим, плиоцен, дефляция.

OROL DENGIZINING QURIGAN QISMI

Аннотация

Maqolada Orol dengizining qurigan qismida tabiiy komplekslarni vujudga kelishi, dinamikasi hamda relef hosil qiluvchi omillar – deflyatsiya, eroziya, akkumulyativ jarayonlarning faol harakati ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar. litologik tarkib, tabiiy kompleks, dinamika, dengiz tubi, gidrogeologik rejim, pliotsen, deflyatsiya.

Kirish. Orol dengizi – noyob ulkan ko'l, O'rta Osiyodagi yirik Qoraqum, Qizilqum, Ustyurt, Katta va Kichik Bo'rsiq, Orolbo'yi Qoraqumlari oralig'ida joylashgan. U Amudaryo va Sirdaryo suvi hisobiga eramizdan avvalgi I mingchi yilning birinchi yarmidan beri mavjud. 1961 yildan e'tiboran O'rta Osiyoda sug'orishning tez sur'atlarda rivojlanishi munosabati bilan unga quyilayotgan suv hajmi yildan yil kamayib bordi, ba'zan (2000 va 2001 yillar) suv mutlaqo quyilmadi. 2005 yildan esa Amudaryo Orol dengiziga quyilishdan to'xtadi. Tabiiy bug'lanishning muntazam davom etishi tufayli uning sathini falokatli tarzda tushib borishi kuzatildi. 2020 yil oxirida uning sathi 23,6 m (1961 yilda 53 m) mutlaq balandlikda bo'lganligi qayd etildi. Buning oqibatida uning 50 ming km² qismi qurib, quruqlikka aylandi.

Asosiy qisim. Yangitdan vujudga kelgan kontinental quruqlik tabiiy muhitning tipik cho'l xususiyatlarga egaligi va uning atrofdagi qumsho'rxok landshaftlaridan deyarli farq qilmasligi bilan ajralib turadi. Dengiz suvining har yili tub qirg'oqdan ma'lum masofaga chekinishi va tubidagi yotqizilarning litologik tarkibiga ko'ra shamolning relef qiluvchi faoliyati natijasida o'tgan 60 yil mobaynida uning yer usti tuzilishi murakkablashib bordi. Vujudga kelayotgan yangi tabiiy komplekslar strukturasi, dinamikasi va ularning rivojlanish yo'nalishlari hamda istiqboldagi o'zgarishlari dengiz tubidagi yotqizilarning tarkibi, gidrogeologik rejim, tuproqlarning vujudga kelish taraqiyoti va tuz rejimi, o'simliklarning faoliyati va suksessiyasi, ular negizida landshaftlarning tadjriy o'zgarishlari va taraqqiyoti Orolning qurigan qismini sinchiklab o'rganishni taqozo etadi.

Oligotsen bilan miotsen chegarasida O'rta Osiyoning paleogeografik taraqqiyoti bosqichida katta voqealardan biri bo'lgan. Oligotsenning oxirida Turon plitasining sharqiy hududlari sekin-asta ko'tarilib, quruqlikka aylangan va denudatsiya jarayonlari kuchayadi. Miotsenda Orolbo'yi va Qizilqum o'rnida pasttekislik tarkib topadi.

Aniqlanishicha, Orol cho'kmasining vujudga kelishi pliotsenda sodir bo'la boshlagan. U tektonik, deflyatsiya, suffoziya-karst jarayonlarning ta'siri natijasida vujudga kelgan bo'lishi ehtimol qilinadi. Oqchag'ildan oldinroq hududning umumiy ko'tarilishi tufayli avval to'plangan yotqizilarning kuchli eroziyaga berilishi natijasida ular butunlay yuviladi. Bunda sarmatning yumshoq (bo'sh) terrigen allyuvial-deltali yotqizilari deyarli to'lig'i bilan yo'qolgan. Bu murakkab jarayonda shimoli-sharqda hozirgi Aralshahridan boshlab to'janubi-g'arbda Sariqamishning janubiy sohiligacha bo'lgan hududda ulkan erozion botiq tarkib topgan [4].

Orol cho'kmasining ilk bor suv bilan to'lishi yuqori pliotsenda ro'y bergan [1], o'shanda Kaspiyning oqchag'il transgressiyasi Turon pasttekisligining katta qismini bosgan. Bu voqelik Orolbo'yidagi Qushxonatov va Beltov balandliklaridagi oqchag'ilning qushxonatov (qalinligi 60 m), dengizko'l (70-80 m) va zoir ko'l-dengiz yotqizilari bilan iborat bo'lgan svitalar asosida tasdiqlanishi mumkin. Apsheon epoxasi (pliotsen)da Sariqamish-Orol cho'kmalari yana Kaspiy transgressiyasi suv bilan qoplanadi. Orol cho'kmasida qum-gil yotqizilari vujudga keladi, ularda dengiz chig'anoqlari mavjud. Dengizning shimoliy tub qirg'og'ida bu yotqizilar 54-62 m mutlaq balandlikda tarqalgan.

Amudaryo yotqizilari bilan Sariqamish, Xorazm va Oqchadaryo botiqlarini to'lishi natijasida yuqori to'rtlamchi davr (golotsen)da Sariqamishbo'yi va Oqchadaryo deltalari, eramizdan avvalgi I mingchi yilning birinchi yarmida Orolbo'yi (hozirgi Amudaryo) va Sirdaryo deltalari vujudga kelgan va Amudaryo bilan Sirdaryo Orolga quyila boshlagan. Eramizdan avvalgi I mingchi yilning o'rtalarida Orol dengizida eng baland transgressiya yuz bergan, uning ko'l-dengiz yotqizilari 58-59 m mutlaq balandlikda uchraydi va u qadimgi orol terrasasi bilan mashhur. Eramizdan oldingi VII-IV asrlarda yangi orol transgressiyasi sodir bo'lgan. O'shanda dengiz sathi 54,5 m mutlaq balandlikkacha ko'tarilgan va Orol tarixida yangi orol terrasasi bilan taniqli. Orol dengizining janubiy qismi Amudaryo yotqizilari bilan band va ko'pincha avandelta deb ham atiladi.

I.V.Rubanovning [4] ta'kidlashicha, Orol dengizi tubining yotqizilari turli mexanik tarkibdagi qumdan tortib gilgacha mavjud. Qumlar delta va qirg'oq yotqizilari, alevritlar daryo faoliyati, gil va mergel dengiz (markaziy qismda) ishi bilan bog'liq. Katta hamda Kichik dengizning markaziy va g'arbiy chuqur (Ustyurt chinki yaqinida) qismlarida karbonatli gillar tarqalgan, qirg'oqqa yaqin hududlarda ular turli mexanik tarkibdagi alevritlar bilan o'ralgan. Tub qirg'oqqa yaqin hududlar turli mexanik tarkibdagi qum yotqizilari bilan band. Ayniqsa, sharqiy qirg'oqqa

yaqin joylar va avvalgi Lazarev-Vozrojdeniya orollari (Arxangelskiy marzasi) atrofi qalin qumlardan iborat. Delta va dengiz yotqizilari ostida paleogenning dengiz transgressiyasida vujudga kelgan gil, qum, mergel qatlamlari yotadi, ular bo'r davrining terrigen jinslari ustida tarqalgan.

Dengizning qurigan qismida tabiiy komplekslarni vujudga kelishi, dinamikasi va taraqqiyoti quyosh radiatsiyasi, grunt suvlari rejimi va tuproqning suv-tuz maromi, o'simliklarni suksessiyasi, tabiiy jarayonlarning rivojlanishi va boshqa omillarga bog'liq. Avvalo qurigan tubning tabiiy nishablik bo'yicha grunt suvlarini yer osti oqimi va uning Orol sathini tushib borishi natijasida borgan sari chuqurlashishi oqibatida tuproqning suv-tuz rejimini o'zgarishi tabiiy komplekslarni vujudga kelishi va shakllanishiga jiddiy ta'sir etishi aniqlangan. Endilikda dengiz sathining 30 m dan ziyod pasayishi tufayli o'tgan asrning 60-70 yillarda suvdan xalos bo'lgan qismlarida (49-53 m mutlaq balandlik) grunt suvlari yuzasi 7-10 m dan ko'proq chuqurlashdi. Binobarin, avtomorf sharoitning barqaror mavjudligi tuproqlarning tabiiy sho'rsizlanish vaziyatida shakllanishiga ta'sir etishi tufayli sho'rlangan tuproqlar va sho'rxoklar 90-yillardayoq qoldiq sho'rxoklarga aylandi. Bu mintaqada asosan eol qum relef shakllari rivojlangan. O'tgan asrning 80-yillarining birinchi yarmida suvdan ozod bo'lgan qismlarda (42-49 m) avvalgi tipik sho'rxoklar ham qoldik sho'rxoklarga aylangan va mexanik tarkibi og'ir bo'lgan tuproqlarda taqirli tuproq belgilari namoyon bo'la boshladi, shuni hisobga olib bu tuproqlarni taqirsimon qoldiq sho'rxoklar deb hisoblash mumkin, lekin evolyusion jarayon davom etmoqda [3].

O'tgan asrning 80-yillarining ikkinchi yarmida dengiz suvi chekangan mintaqalar (39-42 m) da grunt suvlari sathining 7 m dan quyiga pasayishi tufayli tipik sho'rxoklar qoldiq sho'rxoklarga aylanish bosqichiga kirgan. 90-yillar arafasida dengizning qurigan qismi (37-39 m) grunt suvlari sathining 5-7 m da mavjud bo'lishi sho'rxoklarning faollik xususiyatini yo'qota boshlashidan darak beradi, binobarin ular tuz to'planish xususiyati susaya boshlagan. 90-yillarda suvdan holi bo'la boshlagan qurigan qismida (32-37 m) grunt suvlari sathi 0-5 m da joylashganligi sababli tuproqlarda tuz to'planishi faol davom etmoqda. Dengiz qirg'og'idan 0,5-0,8 km masofada quruqlik ichkarisi tomon marshli sho'rxoklar rivojlangan [3].

Hozirda (2021-2022 yy.) grunt suvlari sathining joylashuvi, mineralashuv darajasi, tuproq turi va uning tuz rejimiga bog'liq holda o'simlik qoplami rivojlangan. Eol qum relefi mavjud bo'lgan mintaqada qora saksovlul, cherkez, yulg'un va bir yillik sho'ralar tarqalgan. Taqirsimon qoldiq sho'rxoklar mintaqasida yulg'un, sarisazan, bir yillik sho'ralar; qoldiq sho'rxoklar mintaqasida qorabaroq, yulg'un, bir yillik sho'ralar; tipik sho'rxoklar mintaqasida yulg'un, qorabaroq, kermek, bir yillik sho'ralar; o'tloq sho'rxoklarda bir yillik sho'ralar, marshli mintaqada o'simlik mutlaqo yo'q.

Tuproq sho'rlanishi darajasi bilan o'simlik turi orasida yaqindan bog'lik mavjud. O'ta sho'r tuproqda qorabaroq, sho'rxokda yulg'un, sarisazan, bir yillik sho'ralar, sho'r tuproqda kermek, qora saksovlul, turli o'tlar vegetatsiyasi kuzatiladi. Shuning uchun ham tub qirg'oqdan dengiz qirg'og'igacha tuproq va o'simliklarning, shuningdek grunt suvlari rejimini malum mintaqalar bo'yicha joylashuvi aniqlangan. Tub qirg'oqdan boshlab dengiz markazi tomon uning tubida yotqizilarning mexanik tarkibi og'irlashib boradi (yirik-o'rta-mayda donali qumlar, alevrit, qumli gil-gil, mergel). Shunga muvofiq grunt suvlarining yer osti oqimi sekinlashib boradi, markaziy qismida oqim deyarli kuzatilmaydi, shuning uchun ularning mineralashuv darajasi tub qirg'oq yaqinida har litr suvda o'rta 20-25 gramm bo'lsa, o'tloq mintaqada 80-100 gramm va undan ziyod. Shunga muvofiq tuproq sho'rlanishi ham o'zgarib boradi: eol qum mintaqada cho'l qum tuproqlari turli darajada sho'rlangan, sho'rxoklar mintaqasida qoldiq sho'rxoklar yuqori qatlamda tuz quyi tomon biroz yuvilgan, tipik sho'rxoklarda yuqori qatlamda tuz miqdori 3-15, ba'zan 25-40% tashkil qiladi, o'tloq mintaqada tuz miqdori 10-20, marshli sho'rxoklarda 4-8% boradi. Ayrim chuqurroq botiqlarda, xususan Oqpetki (avvalgi arxipelag)dagi qo'ltiqlarda grunt suvlari mineralashuvi 400-500 g, sho'rxokdagi tuz miqdori 100% atrofida. Tuzning ko'pligidan qumli yotqizilarda ham sho'rxok vujudga kelgan.

Relef hosil qiluvchi omillar – deflyatsiya, eroziya, akkumulyativ jarayonlar dengizning qurigan qismida eng faol harakat qiladi. Sho'rxokning yuqori qatlamini qurishi bilan shamol faoliyatiga berila boshlaydi, tub qirg'oqqa tutashgan qumli mintaq va Arxangelskiy marzasida Qizilqumdagidek tipik eol relef shakllari tarkib topgan, bu hududlarda barxan va do'ng qumlar hukumron, ularga tutashgan qoldiq sho'rxoklarda buta oldi fitogen qumlar keng tarqalgan. Joylarda deflyatsiya botiqlari barxanlar yaqinida umumiy majmua hosil qilgan. Qoldiq sho'rxoklarda deflyatsiya va akkumulyatsiya shakllanish, sho'rsizlanayotgan va quriyotgan qum yotqizilarida deflyatsiya kuchayish bosqichida faollashmoqda. Tipik sho'rxoklarda deflyatsiya endigina jonlana boshlaydi, bunda qavariq relefdagi bo'rsildoq sulfatli tuzlar shamol ta'sirida to'zish bosqichiga kirgan. O'tloq sho'rxoklar deflyatsiyaga namligi tufayli berilmaydi. Marshli mintaqada dengiz suvning toshishi va qaytishi jarayonida, ayniqsa keyingisining katta tezlikda bo'lishi natijasida tuproq o'yila boshlaydi va ba'zan rosmana ariqsimon botiqlar tarkib topadi. Demak, relef shakllari va ularni vujudga keltiruvchi omillar ham ma'lum mintaqalar bo'yicha joylashgan [2].

Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra (2021-2022 yy.) yuqoridagi tabiiy komplekslarni vujudga keltiruvchi o'zgaruvchan tabiiy muhit dengizning qurib borayotgan qismida turli darajada shakllanayotgan va vujudga kelayotgan landshaftlar tizimlarini ajratish mumkin bo'ladi. Bunda shunday tabiiy qonuniyat mavjud, ya'ni tub qirg'oqdan boshlab ichkari tomon landshaftlarning shakllanish darajasi kamayib boradi yoki ularning gidromorfli (gidrogalomorfl) xususiyati ortib boradi. Binobarin, tub qirg'oqdan boshlab elyuvial, yarimgidromorf va gidromorf landshaft uruhlari ma'lum mintaqalar bo'yicha joylashadi. Bu hodisa landshaftlarning shakllanishi, rivojlanishi va joylashuvida ma'lum tartib yoki tabiiy qonuniyat mavjudligi sezilib turadi [2].

Tub qirg'oq yaqinidagi avvalgi plyaj va qirg'oq bo'yi suvlar egallagan mintaq (53-49 m) dengiz tubining yonbag'ri bo'lgan. Orol chekinishi natijasida uning ostidagi suvdan holi bo'lgan qumlar deflyatsiya faoliyati tufayli eol akkumulyativ relef shakllarini vujudga keltirishga berildi. Bu mintaqadagi tipik do'ng-barxan relef turlari endilikda to'la rivojlanish bosqichiga yetgan va shamol ta'sirida ular asosida marzali qum relef shakllari tarkib topishi yo'nalishida evolyusion taraqqiyot belgilari mavjud. Mintaqadagi eol landshaftlar turini rivojlanish bosqichiga ko'ra yetarli darajada vujudga kelgan tabiiy komplekslar deb baholash mumkin, chunki keyingi bosqichni amalga oshishi uchun nisbatan juda uzoq muddat zarur bo'ladi [2].

Avtomorf landshaft sharoiti yo'nalishida rivojlanish bosqichiga o'tgan qoldiq sho'rxoklar landshaftlar turi egallagan mintaq (49-37 m) grunt suvlari sathining muttasil tushib borishi tufayli tezkor taraqqiyot bosqichi o'tamoqda. Bu mintaqada barcha komponentlar tezkor rivojlanish bosqichida bo'lganliklari tufayli ularning tabiiy xususiyatlari yildan-yilga takomillashib bormoqda, ayniqsa, grunt suvlari rejimi, tuproqning fizik va kimyoviy xususiyatlari, o'simlik assotsiatsiyalari suksessiyasi, relef sharoitlari, tabiiy jarayonlar dinamikasi va ular asosida landshaftning morfologik qismlarini vujudga kelishi, dinamikasi va shakllanishi sodir bo'lmoqda. Bu bosqich mintaqada tipik taqirli tuproq (agarda tuproqning mexanik tarkibi og'ir bo'lgan taqdirda) yoki xaqiqiy eol qum relef shakllari (agarda qum yotqizilari hukumron bo'lsa) dan iborat tabiat komplekslari bunyod bo'lganga qadar davom etishi mumkin. Shularni e'tiborga olgan holda bu mintaq landshaftlar turini shakllanayotgan yoki rivojlanish bosqichini o'tayotgan guruhga kiritish mumkin [2].

Tipik sho'rxoklar rivojlanayotgan mintaq landshaftlar turi eng yosh bo'lib, 90-yillarda tarkib topa boshlagan. Bu mintaq landshaftlarining tabiiy xususiyatlari endigina takomillashib bormoqda, grunt suvlari rejimi, tuproqning fizik va kimyoviy xususiyatlari shakllanmoqda, qatqaloq, bo'rsildoq, o'tloq, nam, botqoq sho'rxoklar va sho'rlarning tuz rejimi, gidromorfli xossalari, gumus to'planishi va boshqa biokimyoviy jarayonlar rivojlanishi tufayli arid komplekslar belgilari tarkib topmoqda. Relef hosil qiluvchi omillar ta'sirida dengiz tubining birlamchi yuzasi kuchli o'zgarishlarga uchrarmoqda, chunonchi deflyatsiya, suffoziya va eroziya natijasida relefning o'ydin-chuqurligi tarkib topmoqda. O'z navbatida bu jarayonda landshaftning morfologik qismlari murakkablashmoqda [3].

Tipik sho'rxoklar mintaqasida ular tarkibida tuzning haddan tashqari mo'l (15-25, ba'zan 35%) bo'lishligi oqibatida va grunt suvlari mineralashuv darajasining yuqoriligi (har litr suvda 40-60, ba'zan 80 g va undan ziyod) tufayli bir yillik sho'ralarning ham vegetatsiyasi murakkablashmoqda, shuning uchun ham o'simlik juda siyrak, yoki umuman yo'q. 90-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab dengiz suvidan holi bo'layotgan Orol tubida o'simlik deyarli o'smayotganligi qayd etilmoqda. Bundan keyingi yillarda uning chekinishi natijasida yangi ochiladigan tubida o'simlik mutlaqo o'smasligi mumkin, chunki sho'rxoklar usti oppoq tuz bilan qoplanish bosqichi boshlanmoqda. Tipik sho'rxoklar mintaqasi landshaftlarini rivojlanish darajasi jihatdan dastlabki vujudga kelayotgan tabiiy komplekslar guruhiga kiritish mumkin.

Orol dengizining taqdiri Amudaryo va Sirdaryodan keladigan suv miqdoriga bog'liq. 2000 yildan boshlab daryolardan kelayotgan suv hajmining keskin kamayib ketishi uning sathini falokatli tushib ketishiga olib keldi. Orol sathining 29 m mutlaq balandlikka tushishi natijasida Katta dengiz Arxangelskiy marzasi bo'yicha ikki qismga ajraldi: Ustyurt platosining sharqiy chinkiga tutashgan kambar akvatoriyada nisbatan chuqur (dengiz sathidan minus 16 m pastda) g'arbiy qism va butkul qurib bo'lgan sayoz sharqiy qism tarkib topdi. Bu vaziyatda g'arbiy qism uzoq vaqt kichik sho'r ko'l vazifasini o'taydi, sharqiy qism tobora sho'rlanib borishi va bug'lanishga sarf bo'lishi natijasida qurib, ulkan sho'rxok maydonga aylandi. Bunda markaziy qismda va uning atrofida ulkan sho'r tarkib topgan. Sho'r atrofida ma'lum mintaqalar bo'yicha kuchli sho'rlangan sho'rxoklar (avalliga botqoqli, bilqillama, undan keyingi mintaqada nam, so'ngra qatqaloq sho'rxoklar mintaqasi vujudga kelgan. Demak, istiqbolda (2030 y.) Katta dengizning sharqiy qismida gidrogeomorfli kontinental va g'arbiy qismda akvatorial landshaftlar tarkib topishi prognoz qilinmoqda [3].

I.V.Rubanovning [4] hisob-kitobiga ko'ra, Katta dengiz suvining minerallashuv darajasi har litrda 120 g dan oshganda qishda mirabilit tuzlari tarkib topa boshlaydi, sho'rlik 320-425 grammga yetganda osh tuzi bilan astraxanit tuzi majmua holda vujudga keladi. Dengiz suvida erigan holda 9 mlrd t osh tuzi mavjudligini e'tiborga olinsa, kelajakda ulkan tuz koni vujudga kelishi muqarrar.

Xulosa. Yuqoridagilarni tahlil qilib, quyidagi umumiy xulosaga kelish mumkin, ya'ni dengizning qurishi natijasida uning o'rnida ulkan qum-sho'r-sho'rxokli landshaftlar majmuasidan iborat tipik cho'l tarkib topadi. Bu cho'lni Orolqum deb atash (joiz bo'lsa atalib kelinmoqda!) maqsadga muvofiq.

Dengizning qurigan qismi katta tuz makoni hisoblanishi tufayli atrof-muhitga jiddiy xavf tug'diradi, shamol ayniqsa, sulfat tuzlarni to'zitishi natijasida Orolbo'yiga tuz yog'ini yog'ilmogda, hisob-kitoblarga ko'ra Mo'ynoq kengligida har gektar maydonga 1000 kg, Nukus kengligida esa 150 kg gacha tuzli chang tushadi. Tuzli chang va tuzlarni ko'tarilishi, qumlarni ko'chib yurishini to'xtatish, xususan qumlarni Amudaryo va Sirdaryo deltalariga bostirib kirishini oldini olish maqsadida ularni mustahkamlash, tuz to'zishi mumkin bo'lgan joylarni shamolga berilishini olish uchun ma'lum tadbirlarni qo'llash amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu borada fitomelioratsiya tadbiri yaxshi samara berishi aniqlangan. Eol reliefi mavjud bo'lgan mintaqalarda psammofitlarni ekish bilan qumlarni mustahkamlash borasida hozirda yaxshi natijalarga erishilmogda. Dengizning qurigan qismini O'zbekiston hududida har yili kamida 25 ming gektar maydonga qora saksovol, qandim, cherkez, yulg'un va boshqa butalar ko'chatlari ekilmogda. Huddi shunday usulni qoldiq sho'rxoklarda ham mahalliy relief xususiyatlarini e'tiborga olib ekishni tashkil qilish samara berishi mumkin, bunda asosan galofitlar (qora saksovol, yulg'un, qorabaroq) o'stirish mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Кесь А.С. Прогноз солеобразующих процессов на осущающемся дне Аральского моря. – Ташкент: Фан, 1994. – 190 с.
2. Рафиков В.А. Научно-методические основы географической оценки и прогнозирования аридных геосистем Узбекистана. – Ташкент. UMID DESIGN. 2022. – 224 с.
3. Рафиков В.А. Оценка, прогноз и воссоздание геосистем дельты Амударьи и обсохшего дна Аральского моря. – Ташкент. "UMID DESIGN" РУз. 2022. – 198 с.
4. Рубанов И.В. Геология Аральского моря. – Ташкент: Фан, 1987. – 187 с.



UDK:553.3/4:553.411.666.765(575.1)

Jasurbek RAXMATULLAYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: jasurraxmatullayev9497@gmail.com
Kamila XOSHAJANOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti

Geologiya va mineral resurslar instituti yetakchi ilmiy xodimi S.Maripova taqrizi asosida

МИНЕРАЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РУД ТАШКАНСКОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ (ЗИРАБУЛАК-ЗИЯЭТДИНСКИЕ ГОРЫ)

Аннотация

В данной статье рассмотрены минералогические особенности руд месторождения Ташкан Зирабулак-Зияэтинских гор. Основными рудными минералами месторождения являются самородное золото, пирит, арсенопирит. Отмечено, что отложение золота в вмещающих породах сопровождалось метасоматическим и мелкопрожилковым окварцеванием, связанным с внедрением гидротермальных растворов.
Ключевые слова: Зирабулак-Зияэтинские горы, месторождения Ташкан, свита, самородное золото, пирит, арсенопирит, кварц, метасоматиты, морфология.

TASHKAN KONI MA'DANLARINING MINERALOGIK XUSUSIYATLARI (ZIRABULOQ-ZIYOYUDDIN TOG'LARI)

Аннотация

Mazkur maqolada Zirabuloq-Ziyovuddin tog'laridagi Tashkan koni ma'danlarining mineralogik xususiyatlari yoritib berilgan. Kondagi asosiy ma'danli minerallari sof oltin, pirit, arsenopirit xisoblanadi. Qamrovchi jinslarda oltinning yotqizilishi gidrotermal eritmalarning joriy qilinishi bilan bog'liq bo'lgan metasomatik va mayda tomirchali kvarslashish bilan birga kechganligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Zirabuloq-Ziyovuddin tog'lari, Tashkan koni, svita, sof oltin, pirit, arsenopirit, kvarts, metasomatit, morfologiya.

MINERALOGICAL FEATURES OF THE ORE OF THE TASHKAN DEPOSIT (ZYRABULAK-ZIYAETDIN MOUNTAINS)

Annotation

This article describes the mineralogical features of Tashkan mine minerals in the Zirabuloq-Ziyovuddin mountains. The main ore minerals of the mine are pure gold, pyrite, and arsenopyrite. It is noted that gold deposition in the surrounding rocks was accompanied by metasomatic and fine-grained quartz deposition associated with the introduction of hydrothermal solutions

Key words: Zirabuloq-Ziyovuddin mountains, Tashkan deposits, suite, native gold, pyrite, arsenopyrite, quartz, metasomatites, morphology.

Kirish. Hozirgi kunga qadar Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larida 217 ta oltin va 7 ta turli ko'lamdagi kumush obyektlari aniqlangan. Oltin konlari Qoraqo'tan, Tilla-Tog', Qopqoqli, Yangi Davon, Tashkan va boshqalar.

Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larining geologik tuzilishi, tektonikasi, magmatizmi, metallogeniyasi, mineralogiyasi va boshqa xususiyatlarini o'rganishda ko'plab olimlar H.M.Abdullayev, I.H.Hamrabayev, X.N.Baymuxamedov, T.N.Dalimov, R.Axundjanov, O.T.Roziqov, M.M.Pimazarov, V.D.Soy, I.N.Koroleva, X.D.Ishbayev, Sh.P.Alimov va boshqalar tomonidan o'rganilgan [1-6].

Tashkan oltin koni Chambar maydonining g'arbiy qismida, Qizbibi oltinli zonasi chegarasida, Yangi Davon konidan 0,5 km sharqda, konning ma'dandor strukturalarining sharqiy davomida joylashgan.

Kon maydoni quyi devonning katarmay svitasining uchinchi va to'rtinchi kichik svitalarining metamorfiklashgan effuziv-terrigen yotqizilari, yuqori karbon-quyi perm davrining yorib o'tgan daykalari va bir tekisda qoplanmagan mirzacho'l va sirdaryo komplekslarining to'rtlamchi davr yotqizilaridan tashkil topgan (rasm 1).

Uchinchi kichik svita yotqizilari (D_3kt_3) kon maydonining janubiy qismida rivojlangan va vulkanogen-terrigen hosilalar: notekis metamorfiklashgan qayta qatlamlangan slyuda-dala shpat-kvarts, alevrolit-gilli, glaukofanli slaneslar, fillitlar, dolomit, ohaktosh, qumtosh, gravelit, konglomerat, tuflarning ko'p sonli qatlamllari va linzalari, bazalt va olivin-bazalt tarkibli aglomeratli tuflar.


To'rtinchi (terrigen) quyi svita yotqizilari (D_3kt_4) kon maydonining shimoliy qismida rivojlangan va qalinligi 0,5-20 m gacha bo'lgan fillitlar, kremniyli slaneslar va kamdan-kam hollarda gravelitlar, metabazitlar qatlamlari bo'lgan slyuda-dala shpat-kvartsli slaneslarning monolit qatlamlari bilan ifodalangani.

Olib borilgan ishlar natijasida Tashkan konida 11 ta ma'dan tanalari va 10 dan ortiq minerallashgan zonalar ajratilgan. Ma'dan tanalari va zonalari subkenglik yo'nalishdagi tik tushuvchi chiziq bo'yicha cho'zilgan maydalanish zonalari, tomir va tomirchali kvarslashish va brekchiyalanish zonalari, bir-biriga yaqinlashgan, tarmoqlangan uchastkalar bilan ifodalangani.

Ma'danli zonalardan har 10-40-200 m dan o'tkazilgan kanavalar va 280 m chuqurlikgacha bo'lgan kolonkali quduqlar bilan o'rganilgan. Ma'dan tanalarining kuzatilgan uzunligi 200 dan 900m gacha, ma'dan zonalari 200-480 m, ma'dan tanalari va zonalari orasidagi masofa 10-20 dan 60-100m gacha.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotlarda an'anaviy usullar, jumladan dala kuzatuv ishlari majmuasi (geologik marshrutlar, batafsil kuzatish nuqtalarini tavsiflash, namunalash ma'lumotlarini statistik tahlil qilish, analitik tahlillar (ICP MS, Jeol mass-spektrometr, kimyoviy, tahlillar va b.), shuningdek kompyuter texnologiyalari usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Tashkan konida ma'danli minerallardan sof tug'ma oltin, kumush sulfoantimonit, pirit, xalkopirit, arsenopirit, pirotin, temir gidrooksidlari, magnetit, ilmenit, rutil, kovellin topilgan.




Rasm.1. Tashkan konining 1:2000 masshtabli geologik xaritasi (J.Raxmatullayev E.M. Muhammadiyev va boshqalar materiallari asosida tuzilgan, 2023)

1. Asos tarkibli slaneslashgan o'zgargan effuzivlar. 2. Yuqori to'rtlamchi davr yotqiziqlari. Mirzacho'l kompleksi. Elyuvial-delyuvial yotqiziqlar. Dresva, shag'al, xarsanglar aralashmasi bo'lgan suglinkalar. 3. Dolomitlar, marmarlashgan dolomiti ohaktoshlar. 4. Katarmay svitasi. To'rtinchi kichik svita. Slyuda-dala shpat-kvarsli slaneslar, kremniyli slaneslar, gravelitlar, metabazitlar fillitlar qatlamlari. 5. Lamprofirilar. 6. Tomirli-tomirchali kvarslanish va ma'danli minerallashgan uzilmali buzilishlar zonalari.

7. Ma'dan tanalari. 8. Yotish elementlari: Tog' jinsini. 9. Razvedka chiziqlari va ularning raqamlari. 10. Yer yoriqlarining joylashuv elementlari.

Sof tug'ma oltin metasomatitlarda, kvarsda, tog' jinslarining kvarslashgan qoldiqlarida, brekchiyalashgan uchastkalarida uchraydi (2-9-rasmlar).



Rasm. 2. Ansh-1263; 1-sof oltin, kat.1000^x


Oltinning o'lchami <0,001 dan 0,075 mm gacha, ochdan quyuq-sariq ranggacha, nuqtali, oval, ksenomorf shaklda, nuqtali oltinning uyali to'plamlari (<0,001mm) qayd etilgan. Og'ir fraksiyada yuzasi chuqurchali va noto'g'ri shaklli oltin (0,03mm) topilgan. Oltin bilan arsenopiritning qo'shilishi kuzatiladi. Oltin doimo ma'danli minerallar, pirit, xalkopirit, bleklaya ruda va birmuncha kechki Fe gidrooksidlari, misning ikkilamchi sulfidlari, arsenopirit, sof oltin, xalkopirit qo'shimchalari bo'lgan kvars, ba'zan bleklaya ruda, galenit bilan bir assotsiatsiyada uchraydi. Piritning zanjirsimon to'plamlari kuzatiladi.

Oltin nisbatan past probali toifasiga kiradi, tarkibida Au 70,51- 71,57% Ag 27,58-28,05% bo'ladi. Qo'shimcha sifatida temir - 0,5-0,7%; analitik tahlilning sezgirligi va undan past darajasida Ni, Cu, Se, Te.lar aniqlangan.


Jadval 1

Tashkan va Yangi-Davon konlari jinslari va ma'danlarining mineral tarkibi


ishi bo'yicha	n	li	en
rqalgan	plagioklaz ko'mirli ar	irit xalkopirit pirit	gidrooksidlari (geotit,limonit) skorodit xalkozin
a	n olivin	t pirrotin sfalerit galenit bleklaya ruda	natit rokit gilli mineralar
		n	
		t	



4. Ansh-1263 1-Kvars, 2-seritsit, 3- xlorit. kat. 40^x



5. Ansh- D2 1-gyotit kat.40^x



6. Ansh-35 1-pirit, 2-xalkopirit, arsenopirit, 4-sulfoantimonit. Kat. 1000^x

7. Ansh-35; 1-xalkopirit, kovelin, 3-pirit. Kat. 1000^x

8. Ansh-1239 1-pirit, 2-rutil. kat.

9. 1-pirit, 2-xalkopirit, 3-galenit, arsenopirit, kat. 52^x.

Ma'danlar tektonik minerallashgan zonalarda katarmay svitasining uchinchi va to'rtinchi kichik svitalarining metamorfik effuziv-terrigen qatlamlari orasida kvars tomircha-tomirli hosilalarning notekis taqsimlanishi bilan tavsiflanadi. Turli jinslarning ma'dan tanalarida va minerallashgan zonalarda joylashishi noqonuniy bo'lib, kvartsning tomirlari va tomirchalari, kvars, kvarts-slanesli brekchiyalar va ular bilan kontaktida bo'lgan kvartslashgan slaneslar, asosiy tarkibning metasomatik o'zgartirilgan effuzivlari bilan kvartslashgan, karbonatlashgan ohakli dolomitlar, granodiorit-porfirlar, diorit-porfirlar, lamprofirlarning daykali tanalari bilan ifodalanadi. Kvars, kvarts-slanesli, kvartsli brekchiyalarning tomir tanalari ko'pincha linzalanadi va ular orasidagi oraliqlarda qamrovchi jinslarning turli yo'nalishdagi tomirchali kvartslanishi kuzatiladi. Ma'dan tanalarining qamrovchi jinslar bilan kontaktlari namunalash ma'lumotlari bo'yicha o'tkazildi.

Ma'danlarning o'rtacha tarkibi uchun kvartsning yuqori miqdori (gidrotermal va jins hosil qiluvchi) 29,0-87,5%, o'rtacha 54,8%, dala shpatlari 16,6-35,6%, o'rtacha 20,8%, slyuda 2,5-28,4%, o'rtacha 12,9% xosdir. Qolgan minerallar (amfibol, xloritlar, karbonatlar, piroksen, epidot va boshqalar) miqdori 19,8% dan oshmaydi.

Kimyoviy tarkibi kremniy oksidi 39,6-89,5%, alyuminiy oksidi 1,95-16,9%, kalsiy oksidi 0,66-16,24% bilan tavsiflanadi. margimushning maksimal miqdori 0,85% ga, o'rtacha 0,28% ga, organik uglerod o'rtacha 0,35% ga yetadi.

Ma'danli tanalarning asosiy va yagona foydali komponenti oltin hisoblanadi. Ma'danlarda oltin miqdori notekis bo'lib, 0, n – n g/t dan n g/t gacha (alohida namunalarda), ma'dan tanalari bloklarida oltinning o'rtacha miqdori -n n g/t oralig'ida bo'ladi.

Sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan komponent sof oltin hisoblanadi. Ko'pincha kvartslarda uchraydi. Oltinning o'lchami 0,001 mm dan 0,6-1,5 mm gacha. Shakli oltinsimon amyobasimon, kesaksimon, qurtsimon, notekis egri-bugri chegaralanishli, tomirsimon, plastinkasimon, ilmoqsimon, dendritsimon, tomchisimon, g'ovaksimon, yuzasi toza va qisman temir gidrooksidlari bilan qoplangan (oksidlanish zonasida).

Sulfidlar (pirit, pirrotin, arsenopirit, xalkopirit, galenit, sfalerit, magnetit, bleklaya ruda, burnonit, bulanjerit, jemsonit) miqdori 1,0% dan 2,5-5,0% gacha o'zgarib turadi.

Kumush va sanoat konsratsiyalarining boshqa komponentlari ma'danlarda hosil bo'lmaydi. Kumush ko'p namunalarda mavjud emas yoki kam miqdorda (1,0-3,6 g/t) mavjud, ammo ayrim namunalarda uning miqdori 269,6-437,4 g/t gacha yetishi mumkin. Zararli aralashma - margimush, ma'danlarda 0,21-0,85% miqdorda mavjud.

Xulosa va takliflar. Kondagi asosiy sulfidli minerallar pirit, arsenopiritdan iborat. Kam miqdorda sof tug'ma kumush, xalkopirit, pirrotin, sfalerit, galenit, bleklaya rudalar uchraydi. Oksidlanish zonasida temir gidrooksidlari, gematit, skorodit, kovellin rivojlangan. Morfologiyasi va moddiy tarkibiga ko'ra ma'dan tanalari bir-biriga yaqin linzalar seriyasidan, jadal maydalangan kvartslashgan, slyudali jinslar bilan to'ldirilgan minerallashgan zonalaridan iborat.

Ma'danlar mineral tarkibi bo'yicha oltin-sulfid-kvartsli formatsiyaga, tarkibidagi sulfidlar miqdoriga ko'ra (2,5 - 5,0% gacha) kam sulfidli formatsiyaga oid.

ADABIYOTLAR

1. Евфименко И.М., Петров В.М. Основные черты магматизма и металлогении Зирабулак-Зиаэтинских гор в Западном Узбекистане // Закономерности размещения полезных ископаемых. - М.: Изд-во АН СССР, 1962. - Т. 5.
2. Королева И.В., Цой В.Д., Алимов Ш.П. Минералого-геохимические особенности руд участка Тилля-Таг Зиаэтинского рудного поля. // Современные проблемы геологии и развития минерально-сырьевой базы
3. Республики Узбекистан. Сборник тезисов международной конференции – Ташкент, 2007.
4. Пирназаров М.М. Золото Узбекистана: Рудно-формационные типы, прогнозно-поисковые модели и комплексы. - Тошкент: "МРИ"ДК, 2017. – 244б.
5. Рудные месторождения Узбекистана. - Ташкент: ГИДРОИНГЕО, 2001.
6. - 661с.
7. Пирназаров М.М., Марипова С.Т., Хошжанова К.К., Аширов М.Б. Геологические формации и рудоносность Зирабулак-Зиаэтинского горнорудного района. Горный вестник Узбекистана. №1 (80) 2020. 28-34 с.
8. Цой В.Д., Королева И.В., Ш.П. Алимов Природные типы руд золоторудных месторождений Узбекистана. Т:ГП НИИМР, 2015. 156 с.



UDK:553.3/4:553.411.666.765(575.1)

Farrux RAXMATULLAYEV,
Geologiya fanlari universiteti qoshidagi "MRI" geologi,
E-mail: farruxraxmatullayev1996@gmail.com

Jasurbek RAXMATULLAYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

Zilola FATXULLAYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti Geodinamika va tektonika kaf.mudiri, PhD

Vazira O'TAMURODOVA,
O'zbekiston Milliy niversiteti o'qituvchisi

Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti, g.-m.f.n N.Tulaganova taqrizi asosida

ПЕРСПЕКТИВЫ ОБЪЕКТОВ ОЛОВА ГОР ЗИАВУДДИН ЗИРАБУЛОК

Аннотация

Потребность в редких металлах, в том числе в олове, существенно возрастает в инновационно-технологических отраслях развитых стран. Исследования, направленные на поиск промышленных концентраций оловянных руд и создание их минерально-бытовой базы, повышают актуальность научных исследований. Рекомендуется провести геологоразведочные и оценочные работы для достоверного геолого-экономического обоснования возможности вовлечения отдельных оловянных объектов в горах Зирабулак-Зиаэтин для промышленного освоения.

Ключевые слова: Олово, Зирабулак-Зиаэтинские горы, минерально-сырьевая база (МСБ), геолого-промышленный тип, Карнаб, Лапас, критерии.

ZIYOVUDDIN-ZIRABULOQ TOG'LARI QALAY MA'DAN OBYEKTLARINING ISTIQBOLLARI

Аннотация

Rivojlangan mamlakatlarning innovatsion texnologiya tarmoqlarida nodir metallar, jumladan, qalayga bo'lgan ehtiyojning sezilarli darajada ortib bormoqda. Qalay ma'danining sano'at konsentratsiyalarini izlashga va ularning mineral xomashyo bazasini yaratishga qaratilgan tadqiqotlar, ilmiy izlanishlarni dolzarbligini oshiradi. Zirabuloq-Ziyovuddin tog'laridagi ma'lum qalay ma'dani obyektlarini sanoatda o'zlashtirishga jalb etish imkoniyatini ishonchli geologik-iqtisodiy asoslash uchun, geologik qidiruv-baholash ishlarini o'tkazish tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: Qalay, Zirabuloq-Ziyovuddin tog'lari, mineral xomashyo bazasini (MXB), geologik-sanoat turi, Qarnab, Lapas, mezonlar.

PROSPECTS OF TIN MINING OBJECTS OF ZIYOVUDDIN-ZIRABULOQ MOUNTAINS

Annotation

The demand for rare metals, including tin, is significantly increasing in the innovative technology sectors of developed countries. Research aimed at finding industrial concentrations of tin ore and creating their mineral resource base increases the relevance of scientific research. For a reliable geological and economic justification of the possibility of involving certain tin ore objects in the Zirabulak-Ziyovuddin Mountains in industrial development, it is recommended to conduct geological exploration and evaluation work.

Key words: Tin, Zirabulak-Ziyovuddin Mountains, mineral resource base (MRO), geological and industrial type, Karnab, Lapas, criteria.


Kirish. Xozirgi kunda rivojlanib borayotgan texnika - texnologiya asrida sun'iy intellekt, nanomaterialshunoslik va boshqa zamonaviy texnologiyalar elementlari muhim minerallarning xomashyo salohiyatiga bo'lgan talab ortib bormoqda. Ko'plab mamlakatlar uchun kritik metallar ro'yxatiga kiritilgan qalayning mineral xomashyo bazasini (MXB) rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Yevropa ittifoqi va AQSHning muhim foydali qazilmalari ro'yxatiga kiritilganligi bunga yaqqol misol bo'la oladi [2].

Yaqin vaqtlargacha qalayning eng ko'p qo'llaniladigan sohasi avtomobilsozlik bo'lib kelgan, so'ngi yillarda qalayga bo'lgan qiziqish uning o'ziga xosligi bilan bog'liq. Qalay minerali og'ir rangli va nodir metallar orasida eng ekologik toza, uglerodsiz iqtisodiyotning asosiy metallaridan biri hisoblanadi. Dunyo "yashil" iqtisodiyotining zamonaviy texnologiyalarida qalay toza yoki boshqa metallar bilan qotishma holda xavfsiz, korroziyaga chidamli qoplama sifatida keng qo'llaniladi.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida hamda qurilish materiallarida tunikadan, qalay va ruxning qadoqlash qog'ozi ko'rinishidagi qotishmasiga talab yildan yilga ortib bormoqda. Ularning so'nggi qo'llanilish sohaslaridan biri kosmik sanoat, elektronika, harbiy texnologiyalarda qo'llaniladigan niobiy (Nb₃Sn) bilan intermetall birikma asosida o'ta o'tkazuvchan simlar yaratishda qo'llaniladi. Qalaydan foydalanishning bu va boshqa sohalari kelajakda ushbu metallga jahon bozorlarida yanada ko'proq talab oshib borishini keltirib chiqaradi.

Dunyoda jami 4,9 mln tonna qalay zaxiralari qazib olish iqtisodiy jihatdan foydali bo'lib, ushbu zaxiralarning 81% 6 ta davlat Xitoy, Indoneziya, Myanma, Avstraliya, Braziliya va Boliviya hissasiga to'g'ri keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. 2020-yilda dunyo bo'yicha qalay konsentratining ishlab chiqarilishi Britaniya geologiya xizmati ma'lumotlariga ko'ra, 278,3 ming tonnani tashkil etdi, shundan 54% dan ortig'i Xitoy va Indoneziya kompaniyalari tomonidan ishlab chiqarilgan. Xitoy, Indoneziya, Peru, Myanma va Braziliya tovar qalay (konsentrat) ishlab chiqaradigan top-5 mamlakat qatoriga kirdi. Ular qalay xomashyosining deyarli 80 foizini qazib oladi va ishlab chiqaradi [1, 3].



2021-yil 1-yanvar holatiga qalayning jahon zaxiralari (mln. tonna)


Qalay ma'danli va sochma konlarini o'zlashtirish dunyoning 32 mamlakati hududida olib borilmoqda, ammo qalay konsentratini ishlab chiqarishning asosiy hajmi (99%) bor-yo'g'i 12 ta davlat tomonidan ta'minlanadi. **Mamlakatlar bo'yicha qalay qazib olish (2021-yil).**

Rossiya 2020-yilda 2559 tonna ishlab chiqarish hajmi bilan qalayli mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi mamlakatlar (jahon ishlab chiqarishining 0,92%) jahon reytingida 12- o'rinni egalladi. 2021-yilda qalay xomashyosini ishlab chiqaruvchi davlatlar, AQSH Geologiya xizmatining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, jami 300 ming tonnaga yaqin mahsulot jo'natgan. Rossiyaning ulushi 3500 tonnagacha oshirildi (jahon ishlab chiqarishining 1%), bu mamlakatimizga 2021-yilda qalayni ishlab chiqaruvchi mamlakatlar reytingida o'ninchi o'ringa ko'tarilish imkonini berdi.

Shuning uchun dunyo va O'zbekiston Respublikasi qalayli ma'danli konlarining holati va joylashish qonuniyatlarini tahlil qilish va bashoratlash-qidiruv mezonlarini yaratish dolzarb hisoblanadi.


O'zbekiston Respublikasining taniqli geologlari X.N. Baymuxamedov, V.N. Ushakov, E. Usmanov, V.D. Otroshenko, V.Ya. Blank va boshqalar qalayning geologiyasi, genezisi, mineralogiyasi va boshqa xususiyatlari bilan shug'ullanganlar.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida kamyob metallar va kamyob yer metallarining fundamental va amaliy geologik tadqiqotlari Yu.B. Yejkov, L.M. Krikunova, I.B. Turamuratov, R. Axundjanov, U.D. Mamaroziqov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan, ular tomonidan monografiyalar, maqolalar tayyorlangan. **Tahlil va natijalar.** O'zbekiston Respublikasi hududidagi qalay ma'dani ob'ektlarining asosiy qismi Ziyovuddin-Zirabuloq tog'larida joylashgan bo'lib, (Karnab, Lapas-Semizquduq konlari va 80 ga yaqin ma'dan namoyondalari) geologik jihatdan murakkab morfologik tuzulishga ega [4,5].



Rasm-1. Ziyovuddin-Zirabuloq ma'dan maydonida qalay konlarini joylashtirish sxemasi va qalay namoyon bo'lishi (tuzuvchi V.V. Mixaylov va boshqalar).


Qarnab koni yirik antiklinal burmaning yadrosini yorib o'tuvchi biotitli granitlar intruzivning C₃-P₁ janubi-g'arbiy endokontaktida joylashgan, uning qanotlarida marmarlashgan devon ohaktoshlari va ordovik davrining terrigen jinslaridan iborat (2-rasm).



Rasm. 2. Qarnab qalay konining sxematik geologik xaritasi. **Shartli belgilar:** 1 – Qarnab kompleksi (P₂-T₁): lamprofirlar, monsogabbroporfirlar; 2 - Qoratepa-Zirabuloq kompleksi (C₂-P₁): granitlar; 3 - Maydon svitasi (D₂): dolomit ohaktoshlari; 4 - jalqiraymahal svitasi (D₁): ohaktoshlar; 5 - yoriqlar; 6 - surilma; 7 - kvarts tomirlari; 8: tomir-tomirli (a) va shtokverkli (b) ma'dan tanalari.

Qamrovchi jinslar qalinligi 500 m dan ortiq bo'lgan slanetslar, kvartsliv alevrolitlar va gravelitlar, kremniyli jinslar, gilli ohaktoshlar va andezidatsit tuflari (Oltiovuul svitasi) qatlamlari bilan qumtoshlardan iborat. Ma'danlashuvni o'z ichiga olgan Qarnab intruzivi C_3 - P_1 granitoid kompleksidan iborat.

Lapas qalayi koni Zirabuloq tog'larining janubiy yonbag'irlarida, Chiroqjurin intruzivining janubiy ekzokontaktida joylashgan bo'lib, karbonat-terriqen yotqiziqlardan tashkil topgan. Maydonning markaziy qismida subkenglik yo'nalishidagi mintaqaviy Qarnab-terriqen ma'danli zona ajratilgan. Ma'danli va minerallashgan zonalar (Semizquduq, Chuyun-Lapas, Turmalin, Dayka) mavjud bo'lib, ular maydonda qalay namoyonlarining joylashishini nazorat qiladi.



Rasm. 3. Lapas ma'danli maydonining sxematik geologik xaritasi. **Sharti belgilar:** 1 - to'rtlamchi davr yotqiziq. Qoratepa-Zirabuloq kompleksi: 2 - lamprofirilar, gabbro-dioritlar, dioritli porfirilar (C_3 ?); 3 - leykokratli granitlar (C_3 - P_1); 4 - biotitli granitlar (C_3 - P_1); 5 - gneys-granitlar; 6 - ohaktoshlar ($O_{2.3}$ - C_1); 7 - slanetslar, alevrolitlar, qumtoshlar (O-C); 8 - yoriqlar; 9 - maydalanish zonasi; 10 - surilmalar; 11 - ma'danli kvarts tomirlari; 12 - konlar va ma'dan uchastkalari: 1 - Lapas, 2 - G'arbiy, 3 - Semizquduq.

Eng qadimgi $O_{2.3}$ yotqiziq (Oltiovuul svitasi) kvarts-seritsitli slanetslar, alevrolitlar, konglomerat qatlamli qumtoshlar, ohaktoshlar va nordon tarkibli tuflardan iborat. Svita qalinligi 1000 m dan ortiq. Lapas koni Qarnab-Lapas yorig'i bilan chegaradosh bo'lgan yuqori darzliklarning shimoli-g'arbiy zonasiga to'g'ri keladi. Maydonning markaziy qismida bir-biriga yaqin yer yoriqlar seriyasi kuzatiladi va Qarnab-Lapas mintaqaviy yorig'ini kesib o'tadi. Yoriq zonasi qalinligi 500 m tashkil etadi. Qarnab-Lapas yer yorig'i karbonatli va terriqenli bloklar kontakti bo'ylab joylashgan. Asosiy zona bir qator qalay ma'dan konlari va uchastkalari (Lapas, Semizquduq, Zapadniy, Turmalinoviyy va boshqalar) ga tegishli [6].

Yuqorida keltirilib o'tilgan obyektlarda qalay minerallashuvi deyarli bir xil asosiy minerallarni majmuasi bilan tavsiflanadi. Bular kassiterit, pirit, arsenopirit. Joylashish sharoitiga ko'ra bu ikkala obyekt ham kesuvchi tomir-metasomatik strukturaviy-morfologik turga, hosil bo'lish sharoitiga ko'ra gidrotermal-metasomatik turga kiradi.

Xulosa va takliflar. Hozirgi kunda yurtimizda nodir metallar, jumladan, qalayga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Qalay ma'dani istiqbollarini aniqlash va mineral xomashyo ba'zasini yaratish oldimida turgan vazifalardan hisoblanadi. Ziyovuddin-Zirabuloq tog'larida O'zbekistonning asosiy qalay zaxiralari to'plangan. Biroq, hududdagi qalay ma'dan obyektlari yetarli darajada o'rganilmagan, ularning geologik-iqtisodiy baholash ishlari ancha yillar oldin o'tkazilgan va mineral resurslarni baholashning zamonaviy talablariga javob bermaydi.

Sanoat zaxiralari va ularni qazib olishning rentabelligi minerallarni boyitishning innovatsion usullarini hisobga olgan holda hududda geologik va iqtisodiy qayta ko'rib chiqish va ularning istiqbollarini qayta tahlil qilishga muhtoj. Sanoatda o'zlashtirishga jalb etish imkoniyatini ishonchli geologik-iqtisodiy asoslash uchun qayta geologik qidiruv-baholash ishlari o'tkazish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. *Интернет-ресурс.* <https://nedradv.ru/nedradv/>.
2. Ежков, Ю.Б. Особенности рудно-магматической системы и перспективы медно-олово-полиметаллического (с золотом) месторождения Ташкерган, Восточный Узбекистан / Ю.Б. Ежков и др. // Руды и металлы. М., 2019. - № 3. - С. 52-60.
3. Интернет ресурс: https://nedradv.ru/nedradv/ru/ratings?rubric=0a8b7ef8_e482110_b22e0685d6_c3b1c93#cceb4.
4. Рудные месторождения Узбекистана / Отв. ред. И.М. Голованов. -Ташкент: ГИДРОИНГЕО, 2001. – С. 611.
5. Рахматуллаев Ж.Ф., Марипова С.Т., Аширов М.Б., Рахматуллаев Ф.Ф. Зиёвуддин тоғ'ларида олтин маъданлашувининг жойлашиш шaroitлари ва геологик тузилишининг бир қатор хусусиятлари. Ўзбекистон Миллий университети хабарлари. 2021 йил 3/2 ISSN 2181-7324. 191-194 бет. Электрон нусхаси жойлашуви: (04.00.00; № 7).
6. Rakhmatullayev F.F., Rakhmatullayev J.F. "Metallogenic features of tin formations in Uzbekistan. International Journal of Geology, Earth & Environmental Sciences. -2022 Vol.12, pp. 265-274/Jasurbek et al. (04.00.00; № 7).



UDK: 553.411.042: 551.243(575.14)

Shaxzoda RAXMATULLAEVA,
Kon sanoati va geologiya vazirligi "Geofond" DK geologi
E-mail: shaxzodarax1997@gmail.com,
Mirali TURAPOV,
"IMR" DK bosh ilmiy xodimi, g.-m.f.d, professor
Nargiza TULYAGANOVA,
Tashkent davlat texnika universiteti dotsenti, PhD

DcS O.Zokirov taqrizi asosida

GOBDUNTAU-MARDJONBULOQ MA'DAN MAYDONINING MA'DAN HOSIL BO'LISH DAVRIDAGI GEODINAMIKASI VA KUCHLANGANLIK -DEFORMATSIYALANGAN HOLATI

Аннотация

Ish Gobjdntau – Mardjonbuloq ma'dan maydonining tektonofizik xususiyatlari va geodinamikasiga bag'ishlangan. Ma'dan oldi tuzilmalarini rekonstruksiya qilish asosida o'rganilayotgan hudud tuzilmalarida tektonik kuchlanishlarni modellashtirish bo'yicha eksperimental ishlar amalga oshirildi. Tektonik kuchlanish maydonlarining tarqalish tabiati morfologiyaga, yoriqlarning fazoviy yo'nalishiga bog'liqligi ko'rsatilgan. Gobjdntau-Mardjonbuloq ma'dan maydoni tuzilmalaridagi kuchlanish maydonlarini eksperimental o'rganish shuni ko'rsatadiki, ma'dan maydoni o'rtacha kuchlanish qiymatlari bilan belgilanadigan tektonik kuchlanish holatida.

Kalit so'zlar: ma'danlashuv, uzilmali buzilishlar, struktura, ma'dan maydoni, geodinamika, tektonofizika, tizim, kuchlanish.

GEODYNAMICS AND STRESS-STRAIN STATE OF THE GOBDUNTAU – MARZHANBULAK ORE REGION DURING THE ORE FORMATION PERIOD

Annotation

The work is devoted to the tectonophysical features and geodynamics of the Gobjdntau – Marzhanbulak ore region. Based on the reconstruction of the doric structures of the area, experimental work was carried out to model tectonic stresses in the structures of the studied territory. It is shown that the nature of the distribution of tectonic stress fields depends on the morphology and spatial orientation of the faults. Experimental studies of stress fields in the structures of the Gobjdntau – Marzhanbulak ore region show that the area of the ore region is in a tectonic stress state determined by the values of moderate stresses.

Key words: ore content, discontinuous faults, structure, ore field, geodynamics, tectonophysics, system, voltage.

ГЕОДИНАМИКА И НАПРЯЖЕННО – ДЕФОРМИРОВАННОЕ СОСТОЯНИЕ ГОБДУНТАУ – МАРДЖАНБУЛАКСКОГО РУДНОГО РАЙОНА ПЕРИОДА РУДООБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Работа посвящена тектонофизическим особенностям и геодинамике Гобдунтау – Марджанбулакского рудного района. На основе реконструкции дорудных структур района проведены экспериментальные работы по моделированию тектонических напряжений в структурах исследуемой территории. Показано, что характер распределения полей тектонических напряжений зависит от морфологии, пространственной ориентации разломов. Экспериментальные исследования полей напряжений в структурах Гобдунтау – Марджанбулакского рудного района показывают, что площадь рудного района находится в тектоническом напряженном состоянии, определенном величинами умеренных напряжений.

Ключевые слова: рудоносность, разрывные нарушения, структура, рудное поле, геодинамика, тектонофизика, система, напряжение.

Введение. Основными элементами последствий разрушения сплошности горных пород являются складчатые и разрывные структуры, которые относятся к главным структурным элементам земной коры. Они в значительной форме определяют условия образования, формы залегания и пространственное взаимоотношение стратифицированных геологических комплексов, а также их взаимоотношения с магматическими образованиями и с рудообразованием.

В связи с этим магматизм и его образования и постмагматическая гидротермальная рудная минерализация пространственно тесно связаны с разрывными нарушениями. Несмотря на важную роль разрывных структур в геологических, магматических и рудных процессах, они являются менее изученными из всех типов тектонических элементов земной коры.

В публикациях В.Е.Хаина (1995), Д.В.Рундквиста, М.Константинова, И.Х.Хамрабаева (1958, 2000), М.А.Ахмеджановой (1977), О.М.Борисова (1982), А.К.Бухарина (1989, 1985), посвященных разрывным структурам, особое внимание уделяется региональным структурам, определяющим регматическую сеть тектонических нарушений крупных участков (регионов) земной коры [5,6,7,8,9].

Материалы и методы. Проблема механизма формирования и динамики развития разрывных нарушений, становления их рудоконтролирующими структурами на сегодняшний день является актуальной задачей рудной геологии. Изучение этих особенностей разрывных нарушений позволяет расшифровать процесс формирования благоприятных для рудоразмещения геолого-структурных позиций в их зонах.

Успех решения этой задачи во многом зависит от комплексирования методов геолого-структурного анализа условий размещения эндогенного орудения и тектонофизических исследований напряженно-деформированности земной коры в процессе рудообразования.

Разработка методики тектонофизических исследований связана с именами В.В.Белоусова, М.В.Гзовского, Д.Н.Осокиной, В.Н.Лучицкого. в последствии это учение развили С.И.Шерман, П.Н.Бондаренко, Л.А.Черкашин, О.Б.Гинтов, В.А.Королев, Ш.Д.Фатхуллаев, М.К.Турапов, Н.Ю.Дулабова, Б.О.Жонибеков и др.

Узбекская школа тектонофизических исследований (В.А.Королев, Ш.Д.Фатхуллаев, М.К.Турапов и др.) проводит работу по изучению механизма образования рудоконтролирующих разломов, напряженно-деформированного состояния площади проявления орудения и их взаимоотношения с рудообразованием [10,11,12,14].

К сегодняшнему дню в рамках тектонофизических исследований изучены многие месторождения золота Узбекистана. К их числу относится и Марджанбулакское рудное поле.

Марджанбулакское рудное поле, как и само месторождение Марджанбулак, приурочено к зоне Каракчатау - Марджанбулакского глубинного разлома (Т.Ш.Шаякубов и др., 1988; Н.А.Ахмедов, 2022). В геологическом строении месторождения принимают участие

терригенно-сланцевая толща нерасчлененного среднего и верхнего ордовика, сложенная алевритами, песчаниками, сланцами, гравелитами, прослоями и линзами конгломератов. Месторождение – полисульфидно-золоторудной формации, предположительно ранее силурийского возраста.

Интрузивные образования в виде даек и дайкообразных тел представлены диабазовыми порфиритами и щелочными базальтоидами раннего силура [1,2].

Главная роль в локализации оруденения в условиях литологически однородной толщи принадлежит структурному фактору – это продольные кулисообразно расположенные разрывные структуры, объединенные в единый Каракчатау-Марджанбулакский разлом.

Проблемы экспериментальной тектоники – тектонофизики определяются общими задачами, стоящими перед геотектоникой (С.Ш.Шерман, 1991). В настоящее время тектонические исследования охватывают всё более глубокие сферы геологического пространства литосферы, основываясь на анализ широкого комплекса синхронно протекающих геологических явлений: динамика земной коры; деформация; магматизм; складкообразование; разрушение пород; рудообразование и т.д [15].

С помощью экспериментальной тектоники есть возможность реконструировать структурно-тектонических элементов прошлого и проследить механизм их формирования и развития тектонических явлений и получить материал для прогноза структурообразования и связанных с ними геологических процессов.

В последнее время экспериментальная тектоника стала широко использоваться при изучении механизма формирования и развития механизма формирования и развития рудоконтролирующих структур гидротермальных месторождений золота Узбекистана.

Полученные с её помощью данные позволяют проследить механизм формирования структур напряженно-деформированное состояние участка земной коры, с которыми пространственно или парагенетически связаны формирование и размещение эндогенного оруденения. Кроме того, полученные данные о деформации этого участка в различные периоды его геологического развития позволяют предугадать возможность образования разрывных структур, контролирующие геологические процессы, в особенности рудообразование. С этой целью при проведении геолого-структурных исследований по выявлению рудоконтролирующих факторов в Марджанбулакском рудном поле исследователи поставили перед собой задачу по экспериментальному изучению тектонофизических особенностей рудоконтролирующих структур и их взаимоотношение с золоторудным процессом.


Методика исследований. Эта задача была решена в лаборатории тектонофизических методов исследований институт минеральных ресурсов с применением поляризационно-оптического метода (В.М.Гзовский (1975), Д.Н.Осокина (1963). При проведении экспериментов придерживались пяти принципов тектонофизического моделирования, разработанные В.М.Гзовский (1963,1975): подобия, селективность, сепарация, аппроксимация и статистическая обоснованность. Последний принцип является неперменным при всяких физических экспериментах, в т.ч. и при моделировании структур. Принцип подобия модели природным объектам должен быть соблюден при моделировании.

Структурно-тектонические основы моделей структур Марджанбулакского рудного поля составлены на основе геолого-структурного анализа условий размещения золотого оруденения, определен тектонический режим (план деформации), при котором происходил рудный процесс. Модели изготавливались размером 1м x 1м, толщиной 3 см. Эксперименты проводились при комнатной температуре +23°С.

В соответствии с принципами моделирования, разработанные М.В.Гзовским (1975), прежде чем приступить к моделированию структур Марджанбулакского рудного поля, необходимо определить тектонофизическую позицию его в полях тектонических региональных напряжений. С этой целью был проведен эксперимент по моделированию тектонических напряжений в структурах Гобдунтау – Марджанбулакского рудного района. Структурно-тектоническая основа составлена по материалам поисково-разведочных работ в масштабе 1:300000 [3,4].

Результаты исследований. Результаты эксперимента представлены на рис.1 в виде карты распределения полей тектонических напряжений в модели Гобдунтау – Марджанбулакского рудного района.

Как видно из рис.1 в структурно – тектонической основе участвуют четыре субпараллельные крупные разломы, среди которых центральное место занимает Каракчатау-Марджанбулакский разлом, слегка волнистой морфологии. Один из изгибов разлома определяет тектоническую позицию площади Маржанбулакского рудного поля в региональных структурах Западного Узбекистана.



1-отсутствие касательных напряжений; 2-3-поля слабых напряжений; 4-5-поля умеренных напряжений; 6-разрывные нарушения и направления по ним; 7-направления активных сжимающих усилий; 8-деформация растяжения; деформация сжатия; 10-смещение блоков.

Рис.1. Карта распределения полей тектонических напряжений с элементами геодинамики в модели Гобдунтау-Марджанбулакского рудного района.

Анализ результатов моделирования показывает, что площадь Гордунтау-Марджанбулакского рудного района целиком находится под влиянием умеренных величин максимальных касательных напряжений и только на 8-10 % площади характерны поля очень слабых напряжений. Это указывает на то, что проникающие тектонические усилия сжатия без особого сопротивления разрывных нарушений, в особенности проходящий по Гобдунтау, легко преодолев их проникали вглубь модели.

Причина слабого сопротивления разрывных нарушений усилиям сжатия определяются, в первую очередь, пространственным положением их по отношению к направлению усилий сжатия. В данном случае – перпендикулярное. Такая ситуация максимально сближает борта разрывов и в зависимости от морфологии поверхности почти на всем протяжении (где испытывается тектоническое сжатие) разлом остается прикрытым.

При этом разлом может тектонически слабо активизироваться в виде сдвига или же движение по нему не происходит. В связи с этим, тектонические усилия сжатия свободно преодолевают их и продолжают проникать вглубь модели.

Некоторое отклонение от выше отмеченной закономерности можно наблюдать по Каракчатау - Марджанбулакскому разлому. Хотя и он в пространстве расположен перпендикулярно направлению проникающим усилиям тектонического сжатия. В чем причина тогда? Причина кроется в морфологии Каракчатау-Марджанбулакского разлома. Она слегка волнистая, в особенности на участке, где формировалось Марджанбулакское рудное поле. И вторая причина – это тектоническая активность данного разлома в виде сдвига, вызванная воздействием внешних тектонических усилий сжатия. Сдвиговый процесс обусловил в зависимости от морфологии разлома, зоны приоткрывания и прикрытия. Зонам прикрытия соответствуют величины умеренных касательных напряжений, зонам приоткрывания, наоборот, - величины слабых напряжений и нейтральные зоны. Именно к зоне приоткрывания с характерной тектонофизической обстановкой пространственно приурочена площадь Марджанбулакского рудного поля. Тектонофизическая позиция его определяется полями слабых напряжений. Если идти на запад и на восток от Марджанбулакского рудного поля вдоль Каракчатау - Марджанбулакского разлома, то можно встретить аналогичные позиции как по форме, так и по степени напряженности соответствующих тектонофизической позиции рудного поля. Правда, эти две позиции перекрыты мезо-кайнозойским чехлом, мощность которых составляет несколько десятков метров.

Тектоническая и тектонофизическая позиция площади Марджанбулакского рудного поля, и, в особенности, тектоническая активность Каракчатау-Марджанбулакского разлома, определили структурно- тектоническое строение Марджанбулакского рудного поля.

Зона влияния разлома во вмещающую среду расширилась за счет образования серии кулисообразно расположенных, эшелонированных систем мелких структур, заполненных углеродистыми катаклазитами и милонитами. Все они воедино составляют зону Каракчатау-Марджанбулакского разлома. Все рудные участки Марджанбулакского рудного поля контролируются именно этими системами мелких структур. Если проанализировать позиции этих участков, то можно определить, что все они приурочены к зоне изгиба Каракчатау-Марджанбулакского разлома, а точнее к его Южной зоне.

Заключение. Таким образом, экспериментальные исследования полей напряжений в структурах Гобдунтау – Марджанбулакского рудного района показывают, что площадь рудного района находится в тектоническом напряженном состоянии с полями умеренных напряжений. Тектоническая позиция Марджанбулакского рудного поля определяется участком изгиба регионального Каракчатау-Марджанбулакского разлома, а точнее зоной приоткрывания, обусловленной сдвиговыми процессами. Тектонофизическая позиция характеризуется полями очень слабых величин напряжений и нейтральной полосой вдоль региональной структуры.

ЛИТЕРАТУРА

1. Ахмедов Н.А. Геолого-промышленные типы месторождений золота, вольфрама, железа Западного Узбекистана. 2022 г. - С. 295.
2. Шаякубов Т.Ш., Долимов Т.Н. и др. Вулканизм Западного Тянь-Шаня. – Ташкент. Фан -1998. 328 с.
3. Гзовский В.М. Основы тектонофизики. –М.: Недра, 1975. 536 с.
4. Осокина Д.Н. Моделирование тектонических полей напряжений с помощью поляризационно-оптического метода и его применение при решении задач тектоники и тектонофизики // Экспериментальная тектоника в теоретической и прикладной геологии. – М.: Наука, 1985. С. 62-94.
5. Хаин В.Е, Ломизе М.Г. Геотектоника с основами геодинамики. –М: Изд-во МГУ, 1995. 475 с.
6. Хамрабаев И.Х. Магматизм и постмагматические процессы Западного Узбекистана. –Ташкент, Изд-во АНУзССР, 1958. 451 с.
7. Ахмеджанов М.А., Борисов О.М. Тектоника домезозойских образований Среднего и Южного Тянь – Шаня. –Ташкент. Фан, 1977. 184 с.
8. Борисов О.М., Глух А.К. Кольцевые структуры и линеаменты Средней Азии. –Ташкент. Фан, 1982. 124 с.
9. Бухарин А.Х. и др. Тектоника Западного Тянь-Шаня. –М: Наука, 1989. 152 с.
10. Janibekov, B., Turapov, M., Tulyaganova, N., Zokirov, O., Abdurasulov, D. Study on Interplay of tension, deformation, and ore formation. E3S Web of Conferences – 2023. 434,02028.
11. Turapov, M.K., Akbarov, H.A., Tulyaganova, N.S., Ummatov, N., Raxmatulayeva, S.D. Role of regional faults in the formation and placement of gold ore objects in western Uzbekistan-2023. E3S Web of Conferences 371,01022
12. Janibekov, B., Turapov, M., Tulyaganova, N., Yunusova, O., Ilyasova, D.
13. Role of faults and tectonic blocks in the Daugiztau gold deposit, Uzbekistan. E3S Web of Conferences, 2024, 497, 02040
14. Zhonibekov, B., Tulyaganova, N., Adilkhanov, K., Adilov, B., Abdusamatova, D. Relationship of copper-molybdenum and gold mining with magmatism-2024. E3S Web of Conferences 497,02033.
15. Королев В.А. Структурные типы рудных полей и месторождений
16. Средней Азии. -М.: Недра, 1983. -102 с.
17. Шерман С.И. Современные проблемы экспериментальной тектоники.
18. Экспериментальная тектоника и полевая тектонофизика. Киев, 1991. С. 3-



UDK: 550.814+551.243+575.16

Sunmatillo RO'ZIYEV,
Mineral resurslar instituti DM katta ilmiy xodimi
E-mail: rozziyev.sunmatillo@mail.ru

O'zMU dotsenti, PhD I.Tog' aev taqrizi asosida

STUDY OF COSMOSTRUCTURES BASED ON DECODING OF SATELLITE IMAGES MOUNTAINS OF THE BUKANTAU TERRITORY (ON THE EXAMPLE OF THE KOKPATAS ORE FIELD)

Annotation

Space materials (SM) are used to decoding structures based on direct and indirect signs, as well as to solve target problems and increase their practical significance when performing complex works.

Key words: Bukantau, satellite image (SI), cocmostructure, faults, ring structures, tectonic disturbances, phototon.

ИЗУЧЕНИЕ КОСМОСТРУКТУР НА ОСНОВЕ ДЕШИФРИРОВАНИЯ КОСМИЧЕСКИХ СНИМКОВ ТЕРРИТОРИИ ГОР БУКАНТАУ (НА ПРИМЕРЕ КОКПАТАССКОГО РУДНОГО ПОЛЯ)

Аннотация

Космические материалы (КСМ) используются для дешифровки структур, на основе прямых и косвенных признаков, а также для решения целевых задач и повышения их практической значимости при выполнении комплексных работ.

Ключевые слова: Букантау, космоснимка (КС), космоструктура, разломы, кольцевые структуры, тектонических нарушений, фототон.

BUKANTOV TOG'LARIDA KOSMIKSURAT MATERIALLARINI TALQIN QILISH ORQALI KOSMOSTRUKTURALARNI O'RGANISH (KOKPATAS MA'DANLI MAYDONI MISOLIDA)

Аннотация

Kosmik surat material (KSM)larini deshifrovkalash strukturalarning bevosita va bilvosita belgilarini namoyon etishga hamda maqsadli vazifalarni hal etishda, shu bilan birga kompleks ishlarni bajarishda ularning amaliy ahamiyatini oshirishda qo'llaniladi.

Kalit so'zlar: Bukantov, kosmosurat (KS), kosmostrukтура, er yoriqlari, halqali strukturalar, tektonik buzilishlar, fototon.

Kirish. Hozirgi vaqtda ma'dan konlarining shakllanish qonuniyatlarini va bashoratlashni o'rganishda strukturaviy-geologik tadqiqotlar dunyoda ustuvor ahamiyat kasb etmoqda, shu bilan birga Yerni masofadan zondlash (YMZ) usullarining roli ham o'sib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23-iyuldagi № PQ-4401-son "Yer qo'ri geologik o'rganishni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" qarori ham muhim vazifa hisoblanib, yer yuzasida aniq belgilarga ega bo'lmagan, chuqurlikda yotuvchi yangi ma'dan obyektlari hozirgi vaqtda mineral-xomashyo bazasini to'ldirish uchun turli usullarni qo'llashga turtki bo'ladi.

Shu bilan birga, erta va kech paleozoy dislokatsiyalari va usturilmali zonalarga alohida e'tibor berilmoqda. Bashoratlash vazifalarini hal qilishda eng istiqbolli yondashuv yuqori aniqlikdagi kosmik materiallarni ko'p kanalli deshifrovka qilish natijalaridan foydalangan holda hududning geologik tuzilishini tahlil qilishdir. Masofaviy usullar yordamida ushbu muammoni hal qilish bashoratlashning ishonchiligidini oshirishga yordam beradi.

Kosmik surat material (KSM)larini deshifrovkalash bo'yicha tadqiqotlar asosan, strukturaviy-tarkibiy komplekslarning, strukturalarning bevosita va bilvosita belgilarini namoyon etishga hamda maqsadli vazifalarni hal etishda, shu bilan birga kompleks ishlarni bajarishda ularni amaliy ahamiyatini, hamda ma'lum masshtablardagi KSMlarda ularning namoyon bo'lish darajalarini, turlarini, yechimlarini aniqlashga yo'naltirilgan.

Adabiyotlar tahlili. Kosmik surat materiallarini deshifrovkalashdagi asosiy iboralaridan biri bo'lgan halqali strukturalar iborasini (HS) birinchi bo'lib Shotlandiyaning vulkanik strukturalar uchun A. Xorker 1904-yilda qo'llagan. Umuman olganda, yumaloq shakldagi morfostrukturalar


N.P. Gerasimov, P.K. Chixachevlarni geomorfologik tahlillari natijasida aniqlangan. Ularning o'zlari HS ni geologik tuzilmalar bilan bog'liqligini, hamda ularni yer po'stining neotektonik harakatlar rivojlangan maydonlarda qo'llagan.

S.S. Shuls kosmik televizion tasvirlar bo'yicha birinchi bo'lib Bukantov tog'larining hududlari uchun HS lar ajratgan. S.S. Shuls ularni Markaziy Bukantovning gumbazli ko'tarilishlari deb nomlagan (Bukantov, Tubabergen, Irlir ko'tarilmalari va b.q.).

Bukantov tog'larida yoysimon tuzilmalar haqidagi ma'lumotlarni birinchi marta A. Leman tomonidan 1852 yilda aniqlagan. Kosmik suratlarini deshifrovkalashda S.S. Shuls (1974) tomonidan G'arbiy O'zbekiston hududlarida diametrlari 20-30 km dan 130-150 km.gacha bo'lgan konsentrik tuzilishdagi gumbazli ko'tarilmali strukturalar aniqlangan. Keyinchalik O.M. Borisov, A.K. Glux (1982) tomonidan o'rganilib, ularni halqali strukturalar deb nomlandi.

Halqali strukturalarning gyenezislari ishonchli tarzda aniqlanmagan, biroq O.M. Borisov va A.K. Glux (1982) tomonidan "kelib chiqishi tektonik bo'lgan halqali strukturalarning genezislari to'g'risidagi hozircha uncha ko'p bo'lmagan ma'lumotlarni tahlili shuni ko'rsatdiki, ko'pgina tadqiqotchilar ularning shakllanishining asosiy sababi yer po'stini alohida qismlari va yuqori mantiyaning gravitasion barqaror emasligiga ko'ra izostatik cho'kishlar yoki ko'tarilmalar vujudga kelishi" ta'kidlab o'tgan. Ushbu mualliflar O'rta Osiyo, shu jumladan Bukantov tog'larida joylashgan Bukantov, Irlir, Sharqiy Bukantov, Yetimtov, Taxtatov va Tulantosh hududlarining morfologik tuzilishlarini to'liq va mufassal o'rgangan va geologik tavsiflarini bergan.

Tadqiqot metodologiyasi. Qizilqum mintaqasidagi endogen konlarning shakllanishida asosan usturilmali yer yoriqlari, yuqori darzlashishlarni usturilma osti zonalarga, shuningdek turli yo'nalishdagi vertikal siljish zonalari muhim rol o'ynaydi. Regional darzlashish zonalari (RDZ) asosan meridional yo'nalgan. Qizilqum mintaqasi uchun amplitudasiz (kichik amplitudali) darzlanishlar xususiyatli bo'lib, parallel yoriqlarning zonalari ko'payishi bilan kuzatilib, hamda turli iyerarxiyadagi (kengliklardagi) zonalar bilan tashkil etilgan bo'lishi mumkin. RDZ tashkil etuvchi yoriqlar, ko'pincha diaklazni o'zida mujassam etadi. Flyuid oqimlar va kvarslar tomirlar migratsiyasi RDZ bo'ylab rivojlangan. Darzliklar ko'pincha usturilma va osturilma almashinishida rivojlangan bo'lib, bunda ular bo'ylab ma'danlashuv shakllanishi uchun qulay bo'lgan bo'shliqlarda hosil bo'ladi.



Umuman olganda ko'rib chiqilayotgan mintaqa murakkab geologik tuzilmalarga ega. Unda turli fizik-mexanik xossalari va denudatsiya jarayonlariga bardoshliligi bo'yicha farqlanuvchi cho'kindi, metamorfik va magmatik tog' jinslari ishtirok etadi.

Ranglarga xos anomalialar va fototon tavsiflari turli tarkibdagi hamda genezislardagi jinslar: intruziv massivlarini, marmarlashgan karbonatli jinslarni, kremniy-kvarsitlarni va terrigen hosilalarning turli litologik tarkibli pachkalarining taraqqiy etgan maydonlarini ajratishga imkon beradi. Fototonning keskin pasayib ketishlari tektonik buzilishlar va halqali strukturalarni namoyon etgan.

Tahlil va natijalari. Deshifrovkalash natijalarini talqin etish maxsus usulblardan foydalanish yo'li bilan amalga oshiriladi. Mazkur usullarga quyidagilar kiradi: metallogenik va strukturaviy tahlillar uchun yoriqlarni to'rlariga raqamli ishlov berish; kanallarni munosabatlari uslubiyati; kosmik geologik strukturalarning kesishish tugunlarini aniqlash; ponasimon strukturalar, bloklar, bloklarni ajratuvchi va baryerlarga xos yoriqlarni, halqali strukturalarni; darzlashish zonalarini va ma'danlashuv shakllanishiga istiqbolli ob'yektlarni ajratish singari usullar kiradi.

Bukantov tog'larining halqali strukturalari. Halqali strukturalar – masofaviy asoslarning eng muhim strukturaviy elementlari hisoblanadi. Tadqiq etilayotgan maydonlarda, taxminan kelib chiqishi magmatik bo'lgan halqali strukturalar rivojlangan.

Qizilqum mintaqasining halqali strukturalari asosan, plita ichi jarayonlariga xos bo'lgan bosqichda rivojlangan. HSning asosiy deshifrovkalovchi belgilari bo'lib fototasvirlar va fototonlarni tavsiflashda daryo o'zamlari va tog' tizmalarining yoysimon bukilibishlari, yoysimon yoriqlarning fragmentlari, strukturaviy-moddiy komplekslarning yoysimon tavsiflari, yumaloq, musbat yoki manfiy rel'yefli morfostrukturalar xizmat qiladilar.

Bukantov tog'lari uchun Landsat-8 suniy yo'ldoshdan olingan kosmik tasvirlarda spektri yaqin infraqizil zonasi bo'yicha (0,7-1,1 mkm) vizual dyeshifrovkalash o'tkazildi. Yigirmatadan ortiq halqali strukturalar aniqlandi, tadqiq etilgan maydonda esa yaxlit yoki qisman yettita halqali strukturalar mavjud, ularni tavsiflari quyida keltirilgan (1-rasm).

Shunday qilib, relyefni vujudga keltiruvchi neotektonik orogen siklning tektonik xarakterlari shundan iboratki, u chuqur eroziyalarni kuchayishiga va poydevor jinslarni ochilishiga yo'l ochib berib, mintaqaning blokli tuzilmalari, hamda uning gumbazsimon relyefini shartlashtirgan. Halqali strukturalar endogen tektonik jarayonlarni ta'siri ostida yuzaga kelgan ikki o'lchamli hajmiy kosmik-tektonik strukturalarning geomorfologik ifodasi bo'lib hisoblanadi. Ularning joylashishi o'ramli tavsifga ega, bunda Yu.S. Savchukni fikriga ko'ra paleoflyuid oqimli trendni qayd etadi (Савчук Ю.С. Кольцевые структуры Средней Азии - поверхностное отражение глубинной флюидодинамики. //Геотектоника, 1992, 2-сон, 6.47-57.).

Barcha ushbu strukturalar muayyan bashoratlashda ma'dan uyumlarini vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Alp etapidagi halqali strukturalarni rivojlanishi asosan, ko'tarilma-uzilmali surilmalar bilan chegaralangan, yadrosida burmalangan asosning jinslari chiqqan gorstlarni hosil bo'lishi bilan birga kechgan. Bunday ko'tarilma-uzilmaga misol bo'lib, halqali strukturalarning konturlari bilan qisman mos keluvchi Shimoliy Bukantov yorig'i hisoblanadi.

Burmalangan asos kollizion tektonik siklning qoldiqlari, hamda tomezazoy davri cho'kindi-metamorfik va magmatik majmualaridan tuzilgan bo'lib, Bukantovdagi ma'dan va olmos minerallashuvlari bilan kuzatiladi.

1-rasm. Bukantov hududidagi halqali va chiziqli strukturalar.

Yoriqlar tektonikasi. KSMlarni deshifrovkalashda, ko'pgina hollarda lineamentlarni yoriqlar bilan aynan bir xilda kuzatiladi, biroq bu qisman to'g'ri, chunki lineamentlar tushunchasi haqida quyidagilar tushuniladi: a) ular bo'yicha burmalarning yo'nalishlari, diapirlar, daykalar va vulkanitlar zanjirlari, yer silkinishlarni epimarkazi va boshqalar kuzatiladigan yoriqlarning uzoq muddatli rivojlanish chiziqlari; b) yer yuzasida yoki uzilishlar yoki fleksurali zonalarda ifodalangan yosh chuqur strukturalar; v) yer yuzasida turlicha – geologik va geomorfologik ob'yektlarning xar xil yo'nalishlari, orientirovkalari, geofizik maydonlarni tuzilish xususiyatlari ifodalangan mustaqil chuqur strukturalar; g) geografik muhitning, geologik strukturalar va geofizik maydonlarning parametralari keskin o'zgarishi, nisbatan tor zonalar, to'g'ri va yarim bukilgan chiziqlar bilan ifodalangan litosferaning chuqurlikda bir turda bo'lmagan sathlari bilan izohlanadi. "Lineament" atamasi tushunchasining bunday noaniqliklari uning murakkab tabiati va yer yuzasida namoyon bo'lish shakllarining turli-tumanligiga guvoh bo'ladi. Lineamentlarning geologik tabiati asosan, talqin etish jarayonida aniqlanadi. Ularning faqat bir qismigina ma'lum bo'lgan an'anaviy geologik usullarda topilib, ular turli darajalardagi yer yoriqlari bilan mos keladi.

Ko'pchilik tadqiqotchilar fikricha g'arbiy O'zbekiston hududlaridagi lineamentlarning aksariyati mazkur hududdagi yer po'stining rivojlanishida, ulardagi strukturalar kechki kaynozoy neotektonik bosqichida vujudga kelganligini ta'kidlashgan. Neotektonik faollashuv yosh deformatsiyalar bilan uzviy bog'liq bo'lib, bloklar va burmalarni chegaralaydi va murakkablashtiradi. Yosh burmalar va lineamentlar yagona bo'lgan strukturaviy-dinamik paragenezis hosil qiladi. Landshaftda va kosmik suratlardagi tasvirlarda aks ettirilgan yopiq yoriqlar zonalar asosan chiziqli daryo vodiylarni, vodiysimon botiqliklar, vaqtinchali oqar suvlarning tizimlari va yo'nalgan darzliklar tizimi bilan ifodalangan.

Shunday qilib, lineamentlar – masofaviy tadqiqotlarda izlashning asosiy elementlari bo'lib hisoblanib, ular ko'pincha yer yoriqlari deb ataladi. Masofaviy asosda taxmin qilinadigan yoriqlarni miqdorlari geologik xaritalarda tushurilgan yoriqlardan oshib ketadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, barcha lineamentlarni ham yer yoriqlari deb atab bo'lmaydi.

Yoriqlarning deshifrovkalovchi belgilari turli-tuman va ularning barchasi ko'pincha muayyan emas, balki regional strukturalar bilan nazoratlanadilar. Ajratiladigan yoriqlar sindirilgan likobcha ko'rinishida bo'lib, ularni tabaqalashtirish talab etiladi. Shuni ta'kidlash joizki, turli etap va stadiyalardagi, sharyajning boshlang'ich va kechki rivojlanish bosqichi, to kaynozoy tektonik bo'mmalanishigacha yer yoriqlarni tabaqalarga ajratishning to'laqonli mezonlari hali ishlab chiqilmagan va mavjud bo'lgan geologik, hamda tektonik xaritalarda, qoidaga ko'ra, ular ajratilmagan. Bundan tashqari, ularning darajalamasidan va genetik talqin qilmasdan turib yoriqlarni ko'paytirish, ba'zan umumiy tektonik qoidalarni namoyon etish xaritalarda "sindirilgan likobcha" shaklida ko'rinib, ularning to'liq strukturaviy qonuniyatlarini ifodalamaydi.

Markaziy Bukantov mintaqasida yo'nalishlari va kinematikasi bo'yicha meridional, shimoli-sharqiy, kenglik bo'yicha yo'nalgan tik yotuvchi ost surilmalarga, shuningdek relyefga mos keluvchi ust surilmalar, ularning yo'nalishi burmalangan strukturalarga bog'liq.

Ushbu tektonik zonalar asosan slaneslashgan va brekchiyalashgan tog' jinslari bilan ifodalaniy ularda yoriq oldi burmalar kuzatilishi mumkin, ba'zi xollarda bloklarning chegarasida siqilgan uglerodli milonitlar, yer yoriqlari bo'ylab aralash tartibli daykalar rivojlangan bo'lib, ular ushbu ost surilmaning erta bosqichini tavsiflaydi; ancha kechki etaplarda yotqiziqalarda kvarts-tomir-tomirchali va sulfidli hol-hol ajralmalar qayd etilgan bo'lib ular ushbu choklarda yuqori gidrotermal faolliklar ta'sirini kuzatish mumkin; ko'pincha mineral hosil bo'lish jarayoning ko'p

bosqichliligi aniqlangan bo'lib, bunda ba'zi yoriqlar bo'yab siljishlarning o'zaro almashinishlari kuzatilib, ushbu strukturalarni murakkab va uzoq muddatli rivojlanganligidan dalolat beradi. Mazkur belgilar katta amaliy qiziqish uyg'otib, geologik qidiruv ishlarida mufassal o'rganishni talab qiladi.

Subkenglik yoriqlar ko'pincha murakkab tuzilishlarga ega va ular shoxlanuvchi, bir-biriga yaqin subparallel tektonik choklar bilan kuzatiladi. Yo'nalishlari va yotishi bo'yicha gohida biriktiruvchi, ba'zida esa ajratuvchi bo'ladi. Bloklarning orasida kuchli darzlashgan, qisman maydalangan tog' jinslari keng tarqalgan. Bunday strukturalarni uzayishi 7-8 km ga yetadi.

Subkenglik yo'nalishli yer yoriqlarining yotish burchagi haqida ma'lumotlar nisbatan kamroq. Ma'danli tanalarni bog'lashtirishda geologik tuzilmalarnig xususiyatlari inobatga olinmagan bo'lsada, ma'dan maydonining g'arbiy qanotidagi uchastkalar uchun razvedka grafikasida ular nazoratlaydigan ma'dan uyumlarini chizmalari bo'yicha bir qancha muhokama qilinishi mumkin. Ushbu ma'lumotlarga ko'ra, yoriq yuzasi 60-90° nishablikga ega, bunda burchak va yo'nalish kattaliklari yotishi va yo'nalishi bo'yab o'zgarib turadi. Aks uzilmaning siljish amplitudasi ushbu yer yoriqlari bo'yicha 10- 50 m.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, gorizontal ost surilmali tik yotuvchi yer yoriqlar zonasida (siljishlar) minerallashuv odatda chok zonalarida kuzatiladi, ushbu kesishuvchi zonalar ust surilmalar bo'yicha, hamda ikkinchi darajali patlashgan yer yoriqlarga yoki yirik ust surilmaning frontal qismiga to'g'ri keladi. Ost surilmalarni kenglik sistemalarining ust surilma zonalar va formatsiyalararo kesishishlaridan tektonik tugunlar hosil bo'ladi va ular ma'danli minerallashuvlarni shakllantirishda istiqbolli sanaladi. Masalan, Kokpatas ma'danli maydonidagi barcha ma'dan namoyondalari shunga o'xshash tugunlarga vujudga kelgan.

Yer yoriqli strukturalarning kengliklarda bir-biri bilan kesishganligi oqibatida endogen ma'danlashuv oksidlovchi baryerlarda kuchli darzliklarda harakatlanuvchi suvlar ta'sirida oksidlanish zonalarida intensiv qayta ma'dan yotqizilii kuzatiladi. Mazkur hosilalar ochilmalarda kichik namoyondalar ko'rinishlarda aks etadi.

ADABIYOTLAR

1. Ахмадов Ш.И., Мусахонов З.М., Гоипов А.Б. «Космогеологические исследования по территории западной и центральной части гор Букантау в масштабе 1:50000» на 2018-2021 гг.
2. Нурходжаев А.К., Тогаев И.С., Шамсиев Р.З. Методическое руководство по составлению космогеологической карты Республики Узбекистан на основе цифровых космоснимков. ГП «Центр ДЗЗ и ГИС-технологий». – Ташкент: ГП «ИМП», 2017. -200 с.
3. Глух А.К., Авезов А.Р. Карты поля плотности тектонической нарушенности и обеспечение широкого комплекса задач геологии. Геология и минеральные ресурсы. № 4. ИМП. 2005. с.3-5.
4. Asadov A.R. Methodology of obtaining and estimation of temperature image of the Bukantau mountains // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. <https://saarj.com> Vol. 10, Issue 12, December 2020 P.814-821 DOI: 10.5958/2249-7137.2020.01809.
5. А.И. Тангиров “Условия локализации месторождений золота в зоне Бозтау-Кокпатас-Окжетпесского тренда и разработка прогнозно-поисковых критериев”. Ташкент – 2018.
6. Эргашев Ш.Э., Асадов А.Р. Методические рекомендации по использованию дистанционных съемок. Ташкент. ИМП. 2001. с.224.
7. Методы дистанционного зондирования Земли при решении природ ресурсных задач. Справочник. Главные редакторы: А.Ф.Морозов, А.В.Перцов. СПб. Изд-во ВСЕГЕИ. 2004. С. 132с.
8. Глух А.К. Методические рекомендации по использованию материалов космических съемок в прогнозных построениях (на примере районов Узбекистана) – Т. САИГИМС 1987 -59 с.
9. Абдуазимова З.М. Стратиграфический словарь Узбекистана// Тр. ИМП. – Ташкент: ГИДРОИНГЕО, 2001. 580с.
10. Миркамалов Р.Х., Чирикин В.В., Диваев Ф.К. Геодинамические реконструкции орогенного пояса Западного Тянь-Шаня и прогнозирование эндогенных месторождений в породах фундамента (методические рекомендации). Ташкент: ГП “ИМП”, 2019. – 162 с.



Alisher SAMIYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: samiyevalisher93@gmail.com
Bahrom JOVLIYEV,
Geologiya fanlar universiteti PhD, dotsent v.b

PhD G.Djalilov taqrizi asosida

SOME BIVALVE MOLLUSKS FROM THE PALEOCENE DEPOSITS OF THE ZIRABULAK-ZIAETDA REGION

Annotation

A monographic study and description of five species of bivalve mollusks from the Bukhara formation are presented, which make it possible to establish the Thanet age.

Key words: Zirabulak-Ziaetdin region, Taneti tier, Bukhara formation, region, fauna, castle, radial, edge, keel, convex.

НЕКОТОРЫЕ ДВУСТВОРЧАТЫЕ МОЛЛЮСКИ ИЗ ПАЛЕОЦЕНОВЫХ ОТЛОЖЕНИЙ ЗИРАБУЛАК-ЗИАЭТДИНСКОГО РЕГИОНА

Аннотация

Приведено монографическое изучение и описание пяти видов двустворчатых моллюсков из бухарской свиты, позволяющие установить танетский возраст.

Ключевые слова: Зирабулак-Зиаэтинские регион, танетский ярус, бухарская свита, региона, фауна, замок, радиальный, край, киль, выпуклый.

ZIRABULOQ-ZIYOVIDDIN REGIONIDAGI PALEOTSEN YOTQIZIQLARINING AYRIM IKKITAVAQALI MOLLYUSKALARI

Аннотация

Maqolada buxoro svitasidan olingan besh turdagi ikkitavaqali mollyuskalarni monografik o'rganish va tavsiflash keltirilgan bo'lib, bu malumotlar tanet yarusiga tegishli ekanligini aniqlash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Zirabuloq-Ziyoviddin region, tanet yarusi, buxara svitasi, fauna, qulf, radial, qirra, kil, qavariq, botiq.

Kirish. Regionda paleotsen yotqiziq-lari, akjar (P_1^1 al-zl) va buxoro (P_1^1 t) svitalari bilan ifodalangan bo'lib, ular keng gorizont-al, qisman vertikal yo'nalishda tarqalgan ikkitavaqali mollyuskalar majmuasi bilan tavsiflanadi.

Ushbu biota, svitalarning yoshini aniqlash, ularni Xalqaro stratigrafik va O'zbekistonning Umumiy stratigrafik jadval bo'linmalari bilan taqqoslash (korrelyatsiya qilish) imkonini berdi.

Asosan akjar va buxoro svitalari oq ohaktoshlardan, gips qatlamchalaridan tashkil topgan bo'lib, ularning tarkibida ikkitavaqali va qorinoyoqli mollyuskalarning boy fauna komplekslari mavjud. Bu komplekslardan tanet yarusiga oid 5 ta mollyuska turi tasniflangan: *Glycymeris corneti* (Koenen), *Modiolus (Brachydonates) jeremejewi* Rom., *Pitar duponti* (Cossmann), *Corbula (Cuneocorbula) asiatica* Vial., *Thracia prestwichi* Desh.

Quyida mollyuskalarning sistematik tartibda tasnifi va tabiiy kattalikdagi namunalar tasvirlangan jadvallar keltirilgan.

MOLLUSCA tipi

Bivalvia sinfi

Taxodonta turkumi

Arcacea katta oilasi

Glycymeridae thiele oilasi, 1935.

Noetinae stewart kenja oilasi, 1930.

Glycymeris Costa avlodi 1778.

Glycymeris corneti (Koenen) 1885

Jadval I, shakl 1-2

Pectunculus corneti: Koenen, 1885, 90-bet, IV-jadval, 10 shakl; [9],

Pectunculus volgensis: Nechayev 1997, 69-bet, II-jadval, 14-17 shakl; V-jadval, 19-shakl;

Pectunculus duponti: Cossmann 1908, 61-bet, VI-jadval, 40-45 shakl; [10]

Glycymeris cornety: Makarenko, 1970, 58-bet, V-jadval, 1-6 shakl; VI-jadval, 1-6 shakl; [5].

Material: 14 ta yomon saqlangan namunalar (1 ta butun 13 ta bo'laklar) dan tashkil topgan.

Ta'rifi. Chig'anoq o'lchami kichikdan o'rta kattalikgacha, dumaloq, to'g'ri tavaqali, teng tomonli. Makushka markazdan ko'tarilgan bo'lib, uchburchak area oraliq'iga egilgan. Chig'anoq qavariq, bo'rtgan joyining katta qismi chig'anoqning markaziy qismidan bir oz yuqorida joylashgan va yon qirralarga qarab nisbatan keskin pasayadi va parallel chetiga tekis tushadi. Oldingi cheti biroz qavariq, orqa tomoni biroz kesilgan.

Tavaqalarining tashqi yuzasi juda yupqa, radial qirralar to'plamlari bilan bezatilgan, ular yadrolarning o'zida ham, ularning izlarida ham aniq ko'rinadi. Radial qirralardan tashqari, chig'anoqlar nozik konsentrik o'sish chiziqlari bilan bezatilgan. Yadrolarda tavaqalarni birlashtiruvchi maydoncha ko'rinib turadi. Qulf maydonchasida 19 tadan 23 tagacha tish bor. Yadrolardagi mushak izlari aniq ko'rinadi, ular qiyshiq uchburchak-oval shaklga ega. Pastki cheti tishli.

Taqqoslanishi. Ta'riflanayotgan chig'anoqlar Fransiyaning tanet yarusidagi Axinae terebrataris (Lamarck.) chig'anoq'iga ko'proq o'xshash (Cossmann et Pissarro, 1904-1911, jadval XXXII, 109-1-shakl) va faqat radial qirralarning tuzilishida farqlanadi, G. corneti (Koen.) kabi muntazam radial divergent to'plamlarni hosil qilmaydi.

Tarqalishi. Belgiya quyi paleotsen, mon yarusi; Daniya zeland svitasi, Volga bo'yi sezran svitasi, Shimoliy Ukraina quyi paleotsen.

Topilgan joyi: Zirabuloq-Ziyoviddin tog'lari, Auzikarasay, LSK-IX, namuna. IX/9; Kurgancha, PKN-10, namuna. 10/1^a; Karnab, PKN-11, namuna. 11/2; Auzikarasay, BGKN-18, namuna. 18/3; Chingiztau; Buxara svitasi, Tanet yarusi.

Mytilacea kata oilasi

Mytilidae fleming oilasi, 1828.

Modiolus Lamark avlodi, 1799

Modiolus (Brachydontes) jeremejewi (Romanovskiy), 1878.

Jadval I, shakl 3-6

Modiola jeremejewi: Romanovskiy, 1878, 1-bosma, 103-bet, IV-jadval, 7-9 shakl; VI-jadval, 2-s, d shakl; [8].

Modiola (Brachydontes) jeremejewi: Vyalov, 1936, 39-bet, I-jadval, 15, 25, 35 shakl; II-jadval, 15, 25, 35, 45, 65, 75, 85 shakl; V-jadval, 5 shakl; [1]; Mirkamalova, 1958, 97-bet, VI-jadval, 18 shakl; [6].

Modiolus (Brachydontes) jeremenjewi: Mironova 1960, 111-bet, XXI-jadval, 13 shakl; [4].

Brachydontes jeremenjewi: Djabarova, 1974, 202-bet, X-jadval, 1-3 shakl.

Material: Yadrolar va izlarning 5 ta nusxasi qayd etilgan.

Ta'rif. O'lchami o'rtacha kattalikdagi, uzunchoq chig'anoqlar. Chig'anoqning uzunligi maksimal kengligiga qaraganda odatda ikki marta uzun. Pastki qirrasini tekis, o'rta qismi bir oz botiq, old va orqa qirralari esa bir oz qavariq. Orqa cheti yumaloq, bir oz qavariq va yuqori qismi deyarli ostki chetiga parallel. Chig'anoqning orqa cheti yuqori chet bilan asta sekin bog'langan. Yuqori cheti cho'zinchoq, bir oz botiq.

Tavaqalar qavariq. Qavariq joyining bir qismi kilda joylashgan va u diagonal yunalishda, makushkadan quyi qismining orqa tugash joyi tomonga cho'zilgan. Qavargan joyi yuqori cheti tomonga asta sekin pasayib boradi va quyi cheti tomonga esa sezilarli darajada tik. Makushkalar qavariq, yaxshi ajralgan.

Chig'anoqning yuzasi yupqa radial qirra va konsentrik o'suvchi izlar bilan qoplangan. Radial qovurg'alar juda ko'p, ikkiga ajralgan, kilning yuqori qismidan bir to'ada bo'lib ajralib turadi.

Taqqoslanishi. Ta'riflangan chig'anoqlarning eng ko'p o'xshashligi *M. karabilensis* Vial chig'anoqlari bilan aniqlanadi. Biroq, taqqoslangan tur chig'anoqning old cheti uzun, kil ko'proq qayrilgan bo'lib, shuning evaziga u qiyshiq ko'rinishga ega bo'ladi, radial qirralar ko'proq ikkiga ajralgan, konsentrikleri esa kamroq va kuchsiz.

M. elegans Sow. dan orqa chetining ko'proq tortilganligi va shunga mos ravishda kilning qayrilganligi, qo'pol ikkiga ajraluvchi konsentrik qirralar mavjudligi bilan ajralib turadi. *M. elegans* Sow. chig'anoqlari ixcham, va nozik, juda yupqa radial qirralar bilan qoplangan va ularda keskin, qo'pol konsentrik o'sish izlari ko'rsatmaydi.

Tarqalishi. Paleotsen. O'rta Osiyo, Farg'ona, Qizilqum, Toshkent oldi hududlarining buxoro qatlamlari. Turkmaniston, Mari va Gaurdak hududining qatlamlari bilan *Corbis davidsoni* va *Corbula asiatica*.

Topilgan joyi: Zirabuloq-Ziyoviddin tog'lari, Karnab, PKN-11, namuna. 11/2; Karnab, PKN-24, namuna. 24/1; Sepki, PKN-13, namuna. 13/2; Kurgancha, PKN-24, namuna. 24/4^a; Auzikarasay, BGKN-18, namuna. 18/3; Chingiztog'; Sho'rquduq, LSK-XVI, namuna. XVI/28; Buxara svitasi, Tanet yarusi.

Veneracea kata oilasi

Veneridae leach oilasi, 1819.

Pitar duponti (Cossman) avlodi, 1857.

Jadval I, shakl 7-9

Meretrix (Pitaria) duponti: Cossmann, 1908, 39-bet, IV-jadval, 26-29 shakl; [10].

Pitar (Pitaria) duponti: Makarenko, 97-bet, XII-jadval, 15-18 shakl; [5].

Pitar duponti: Gorbach, 1972, 76-bet, X-jadval, 2 shakl; [2].

Pitar (Pitaro) duponti: Panteleev, 1974, 125-bet, 33-jadval, 8 shakl; 34-jadval, 1 shakl; [7].

Material: 15 ta yaxshi saqlangan namunalaridan tashkil topgan.

Ta'rif. Chig'anoq o'rtacha kattalikda, cho'zilgan, tuxumsimon-uchburchak ko'rinishda. Makushka past, kam ko'tarilgan, old chetiga siljigan. Teshiklar ko'rinmaydi. Orqa qulf cheti cho'zilgan, qovariq. Orqa qirrasini biroz toraygan, bir tekis yumaloq va cho'zilgan. Old qulf cheti qisqa, botiq, bir tekis qisqaruvchan, old qirrasini to'mtoq. Biroz qavariq pastki cheti, old va orqa chetlar bilan bir tekis ulangan. Chig'anoq o'rtacha qavargan bo'lib, maksimal qavariq balandlikning 2/3 qismida, makushkadan biroz orqada joylashgan.

Tashqi yuzasi silliq, silliq yuzasi ostida konsentrik o'sish izlari mavjud. Yirik chig'anoqlarda yupqa konsentrik qirralar ko'rinadi. Qulf maydonchasi tor, pastki qirrasini o'ralgan.

Taqqoslanishi. Ta'riflanayotgan chig'anoqlar *P. (Callista) montensis* (Cossm.) bilan birga uchraydigan chig'anoqlardan balandligi bo'yicha cho'zilganligi bilan farq qiladi, ular uchburchak-tuxumsimon ko'rinishga ega bo'lib, *P. (C.) montensis* (Cossm.)dagi kabi aniq rulon shaklidagi qirralar mavjud emas. Yosh chig'anoqlar yupqa qovurg'a o'xshash o'sish izlari bilan qoplangan. Eng yaqin tur - *Pitar (Pitar) ruboti* Kossm. Ta'riflangan tur undan faqat kengaygan orqa chetining mavjudligi bilan farq qiladi, shuning uchun tavaqalarning konfiguratsiyasi yanada yumaloq shaklga ega bo'ladi.

Tarqalishi. "Monsning yirik ohaktoshlari", Belgiya, Sipli tuflari; inkerman, Qrimning mons ohaktoshlari; Shimoliy Ukrainaning quyi paleotseni; Mons qatlamlari g'arbiy Turkmaniston va Mang'ishloq.

Topilgan joyi: Zirabuloq-Ziyoviddin tog'lari, Karnab, BGKN-19, namuna 19/3^a; BGKN-19, namuna. 19/6^a; BGKN-19, namuna. 19/7^a; Ziyoviddin, PKN-27, namuna. 27/1^a; Kurgancha, PKN-10, namuna. 10/1^a; Djaraquduq, LSK-XII, namuna. XII/18(a); Sho'rquduq, LSK-XVI, namuna. XVI/28; Buxara svitasi, Tanet yarusi.

Desmodonta turkumi

Myacea kata oilasi

Carbulidae fleming oilasi, 1818

Brugniere avlodi, 1797

Corbula (Cuneocorbula) asiatica Vialov avlodi, 1972

Jadval I, shakl 17-19

Sphenia rostrata: Rim, 1878, 1-bosma, 4-bet, IV-jadval, 7-a, 8, 9-a, 10 shakl.

Corbula (Cuneocorbula) asiatica: Vyalov, 1936, 35-bet, I-jadval, 1, 2, 4, 5 shakl; [1]; II-jadval, 1,2,3,4,7; II-jadval, 1a, b, 2a, b, 3.4a, b, 5a-c, 6a, b, 7a, b shakl; Mirkamalova, 1958 103-bet, VI-jadval, 7 a, b shakl; [6]; Mironova, 1960, 119-bet, XXII-jadval, 11, 12, 13 shakl; Jabarova, 1974, 232-bet, XIV-shakl, 9, 10 shakl.

Material. 10 ta yomon saqlangan namunalar (3 ta butun 7ta bo'laklar) dan tashkil topgan.

Ta'rif. Chig'anoqlari katta, cho'zilgan, noteng tomonli. Kardinal chetining oldingi qismi biroz qovariq, to'g'ri, asta-sekin, biroz o'tkir bo'lgan old chetiga o'tadi. Pastki qirrasini to'g'ri, qisqa orqa chetiga qo'shilib, to'mtoq burchak hosil qiladi. Kardinal chetining orqa qismi cho'zilgan, qisman botiq.

Tavaqalari turli xil qavargan, o'ng tavaqa ko'proq qavariq, chap tavaqa yalpoqlangan. Makushkadan pastki orqa burchakka 2 ta qisqa kil cho'ziladi. Birinchi kil keskin bukilgan, aniq ifodalangan va o'tkir qirrali. Ikkinchi kil ancha kuchsiz ifodalangan, uning yuqori qismi kuchli egilgan makushka ostida yashiringan. Killar orasidagi bo'shliq botiq.

Makushka qulf chetiga kuchli osilgan va oldinga siljigan. Makushkaning old qismi qavariq. Ba'zi yadrolarda makushkadan pastki chetigacha aniq ifodalangan botiqlik o'tadi. Chig'anoqning yuzasi notekis, g'adir budur o'sish chiziqlari bilan qoplangan.

Taqqoslanishi. *Corbula (Cuneocorbula) angulata* Lamarck. (Vyalov, 1936, 28-bet, I-jadval, 1,2,3,5, shakl) dan katta o'lchamlari, orqa chetining kengayishi, tavaqalarining o'rta qismida, kildan oldin botiqlik mavjudligi, killar orasidagi masofa taqqoslangan turga qaraganda kengroq ekanligi bilan ajralib turadi.

C. (C.) turkestanensis Slodk. (Vyalov 1936, 37-bet, V-jadval, 1 a, b shakl) dan ta'riflanayotgan tur, uning tavaqalari katta uzunlikga va ikkita killarning o'ziga xos tuzilishiga ega ekanligi bilan ajralib turadi. *C. (C.) turkestanensis* da killar kengroq, noaniq va kil maydoni ham kengroq va noaniq.

Tarqalishi. Tojikiston, O'zbekiston va Turkmanistonning Buxoro gorizonti (qatlamlar *Corbis davidsoni* va *Corbula asiatica* bilan).

Topilgan joyi: Zirabuloq-Ziyoviddin tog'lari, Karnab, PKN-24, namuna 24/1; BGKN-19, namuna 19/3^a, namuna 19/6^a, namuna 19/7^a; Sepki, PKN-13, namuna 13/2; Ziyoviddin, PKN-27, namuna 27/2, namuna 27/1^a; LSK-VIII, namuna VIII/11^a; Kurgancha, PKN-10, namuna 10/1^a; BGKN-8, namuna 8/1^a; Auzikarasay, LSK-IX, namuna IX/12; BGKN-18, namuna 18/3; Djarquduq, LSK-XIII, namuna XIII/10; LSK-XIII, namuna XIII/25; LSK-XII, namuna XII/18(a); Chingiztau, Buxara svitasi, Tanet yarusi.

Thraciidae Stoliczka oilasi, 1871

Thracia Leach in Blainville avlodi, 1824

Thracia prestwichi Deshayes, 1860

Jadval I, shakl 10-16

Thracia Prestwichi: Deshayes, 1860, 265-bet, V-jadval, 19,20 shakl; [12], Cossman, 1866, 44-bet, V-jadval, 22 shakl; Cossman et Pissarro, 1904-1913, IV-jadval, 25-1 shakl; [11], Djabarova, 1974, 234-bet, XV-jadval, 2, 3, 4 shakl.

Material: 20 tadan ziyod yaxshi saqlangan namunalalar.

Ta'rif. Chig'anoqlar kichik o'lchamli, to'rtburchak tuxumsimon shaklda, deyarli teng tomonli, makushka markaziy holatda joylashgan. Kardinal chetning oldingi shoxchasi to'g'ri, bir oz qavariq bo'lib, o'tmas burchak hosil qiladi va biroz kengaygan old chetiga o'tadi. Pastki cheti to'g'ri, orqa cheti qisqa, to'g'ri va kardinal chetning orqa qismiga o'tishda aniq burchak hosil qiladi. Orqa qismi botiq, old tomonga qaraganda biroz qisqa.

Chig'anoqlar biroz qavariq. Eng katta qavariq joyi chig'anoqning markaziy qismida joylashgan bo'lib, u yerdan qavariq barcha qirralarga teng ravishda tushadi. Tavaqaning orqa qismi, kil burmasi orqasida, qavariq keskin tushib, chig'anoqning botiq qismini hosil qiladi. Makushkadan quyi va orqa chetlarning ulanish joyiga botiqlik o'tadi va makushka atrofida aniq namoyon bo'ladi, chig'anoqning pastki yarmida zaif seziladi. Kilning orqa qismi biroz botiq va pastga qarab kengaygan.

Makushkalar kichik, alohida, deyarli o'rta qismini egallaydi, biroz siljigan va orqaga burilgan. O'ng tavaqaning makushkasi chap tavaqadan biroz yuqoriga chiqib, uning orqasi tomonga egiladi. Chig'anoqlarning yuzasi yupqa, bir tekis joylashgan konsentrik, ajinsimon o'sish chiziqlari bilan qoplangan.

Taqoslanishi. To'plamda mavjud namunalalar, *Thracia prestwichi* Desh. tashqi ko'rinishi jihatidan Kosman va Pissarro tomonidan tasvirlangan ushbu turning chig'anog'iga juda yaqin (Cossman et Pissarro, 1904-1913, IV-jadval, 25-1 shakl; [11]). Dege *Thr. prestwichi* Desh., *Thracia oblate* Sow. (Deshayes, 1860, 265-bet, I-jadval) lar bilan o'xshashligini ko'rsatadi. Birinchi tur undan tekisroq va kesilgan chig'anoq shakli va kichik o'lchamlari bilan ajralib turadi. Boshqa yaqin turdan *Thracia asiatica* Aleks. (Ovechkin, 1954, 71-bet, VII-jadval, 2-3 shakl) ta'riflangan tur chig'anoqlarining kamroq qavariqlangan, bir oz baland orqa cheti, keskin o'sish chiziqlarining yo'qligi va kam ko'tarilgan makushka bilan ajralib turadi.

Tarqalishi. Parij havzasining tanet yarusi. Paleotsen, qatlamlar *Corbis davidsoni* va *Venericardia trigonica*; qatlamlar *Corbis davidsoni* va *Corbula asiatica* bilan, Mariy va Gaurdak hududlar.

Topilgan joyi: Zirabuloq-Ziyoviddin tog'lari, Kurgancha, PKN-20, namuna 20/2^a, a); Chingiztau; Buxara svitasi, Tanet yarusi.

Xulosa. Ikkitavaqali mollyusklarning monografik o'rganilishi va tavsiflanishi buxoro svitasining yoshini tanet yarusi doirasida asoslash imkonini berdi. Qatlamlarning yoshini aniqlash va ularning stratigrafik ketma-ketligini tiklash, stratigrafik tadqiqotlarning asosiy vazifalaridan biridir.

Shartli qisqartmalar.

1. LSK-Litologik stratigrafik kesma
2. PKN-Paleontologik kuzatuv nuqta
3. BGKN-Batafsil geologik kuzatuv nuqta.

ADABIYOTLAR

1. Вялов О.С. Мел и палеоген Фарганы. АН СССР. Изд. Тадж-Памирской экспедиции. Л., 1936, с. 1-47.
2. Горбач Л.П. Стратиграфия и фауна моллюсков раннего палеоцена Крыма.-М., «Недра», 1972, 115 с.
3. В.В. Джабарова. Стратиграфия и двустворчатые моллюски палеоценовых отложений Юга-восточной Туркменне В кн. Стратиграфия и фауна моллюсков верхнемеловых и палеоценовых отложение Южной и Восточной Туркмен Издательствотов «ИЛЫМ». Ашхабад, 1974, с. 202-203.
4. Миронова Л.В. Бухарская свита палеогена Средней Азии-Госгеолтехиздат, М. 1960, 175с.
5. Макаренко Д.Е. Раннепалеоценовые моллюски Северной Украины.- АН.Укр. ССР, Киев, «Наукова думка», 1970, 127с.
6. Миркамалова С.Х. Стратиграфия и моллюски палеогена Приташкентского района и Кызылкумов -М., Госгеолтехиздат, 1958, 127с.
7. Пантелеев Г.С. Стратиграфия и двустворчатые моллюски датских и палеоценовых отложений Закаспия.- М., «Наука», 1974, 152с.
8. Романовский Г. Д. Материалы для Туркестанского края. 1884. Вып.2. С.17, 18, 27, 86. 1890. Вып.3. С. 24, 18, 105.
9. Koenen A. Über eine Paleocäne Fauna von Kopenhagen. Abh. d. Konigl. Gesellsch. zu Göttingen. t. 32. 1885.
10. Cossman M. Les pelecypodes du Montien de Belgique. Mem du Musee Roy. D Hist. Nat. De Belgique. Bruxelles, 1908.
11. Cossman M. et Pissara G. Iconographie complete des coquilles fossiles de l'Eocene des Environs de Paris, 1904-1913, t. 1-65.
12. Deshayes G.P. Description des animaux sans vertèbres decouverts dans le bassin de Paris. 1856-1866.

I-Jadval

Shakl. 1-2. *Glycymeris corneti* (Koenen) 1885.

1 - nam. 10/1 quyi tavaqa, 2 -nam. 10/1 yuqori tavaqa.

Zirabuloq tog'larining janubi-g'arbiy tizmalari, Karnab, PKN-10; Buxara svitasi, Tanet yarusi.

Shakl. 3-6. *Modiolus (Brachydontes) jeremejewi* (Romanovskiy), 1878.

3, 4, 6a-nam. PKN-24/4^a chap stvorka, 5, 6b-nam. PKN-24/4^a o'ng stvorka

Zirabuloq tog'larining shimoliy-sharqiy qismi, Kurgancha, PKN-24/4^a; Buxara svitasi, Tanet yarusi.

Shakl. 7-9. *Pitar duponti* (Cossman) 1857


7a -nam. 20/2^a o'ng stvorka, 7b-nam. 20/2^a chap stvorka, 7c-nam. 20/2^a makushkaning ko'rinishi, 8a -nam. 20/2^a o'ng stvorka, 8b-nam. 20/2^a chap stvorka, 8c-nam. 20/2^a makushkaning ko'rinishi, 9a -nam. 20/2^a o'ng stvorka, 9b-nam. 20/2^a chap stvorka, 9c-nam. 20/2^a makushkaning ko'rinishi.

Zirabuloq tog'larining shimoliy-sharqiy qismi, Kurgancha, PKN-20/2^a; Buxara svitasi, tanet yarusi.

Shakl. 10-16. *Thracia prestwichi* Deshayes, 1860

10a-nam. 20/2^a o'ng stvorka, 10b-nam. 20/2^a chap stvorka, 10c-nam. 20/2^a makushkaning ko'rinishi, 11a-nam. 20/2^a o'ng stvorka, 11b-nam. 20/2^a chap stvorka, 11c-nam. 20/2^a makushkaning ko'rinishi, 12a-nam. 20/2^a o'ng stvorka, 12b-nam. 20/2^a chap stvorka, 12c-nam. 20/2^a makushkaning ko'rinishi, 13a-nam. 20/2^a o'ng stvorka, 13b-nam. 20/2^a chap stvorka, 13c-nam. 20/2^a makushkaning ko'rinishi, 14a-nam. 20/2^a o'ng stvorka, 14b-nam. 20/2^a chap stvorka, 14c-nam. 20/2^a makushkaning ko'rinishi, 15a-nam. 20/2^a o'ng stvorka, 15b-nam. 20/2^a chap stvorka, 15c-nam. 20/2^a makushkaning ko'rinishi, 16a-nam. 20/2^a o'ng stvorka, 16b-nam. 20/2^a chap stvorka, 16c-nam. 20/2^a makushkaning ko'rinishi.

Zirabuloq tog'larining shimoliy-sharqiy qismi, Kurgancha, PKN-20/2^a; Buxara svitasi, tanet yarusi.
Shakl. 17-19. *Corbula (Cuneocorbula) asiatica* Vialov 1972
17-nam. XII/18^a o'ng stvorka, 18-nam. XII/18^a chap stvorka, 19-nam. XII/18^a o'ng stvorka,
Zirabuloq tog'larining sharqiy qismi, Jaraqduq, LSK-XII/18^a; Buxara svitasi, tanet yarusi.





UDK: 631/635.628.1

Sanjar SAFAROV,
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: sanjarsafarov448@gmail.com

CHDPU professori A.Urzbayev taqrizi ostida

AMUDARYO HOZIRGI DELTASI KOLLEKTOR GEOTIZIMLARINING TABIIY RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISHDA HAVZAVIY KONSEPSIYANING ROLI

Annotatsiya

Maqolada sug'oriladigan hududlarning tabiat komponentlaridan oqilona foydalanishda bir tomondan ularning relyef strukturasi bilan aloqadorligiga e'tibor qaratilsa, ikkinchi tomondan esa havzada tabiat komponentlarining tizimli o'zgarishiga qaratiladi.

Kalit so'zlar: kollektor havzalari, ichki struktura, yer resurslari, kollektor havzasining elementlari, relyef plastikasi usuli, yer resurslaridan havzaviy foydalanish.

РОЛЬ ГЕОСИСТЕМ КОЛЛЕКТОРНЫХ БАССЕЙНОВ И БАССЕЙНОВОЙ КОНЦЕПЦИИ В ИСПОЛЬЗОВАНИИ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ СОВРЕМЕННОЙ ДЕЛЬТЫ АМУДАРЬИ

Аннотация

В статье акцентируется внимание на рациональном использовании природных компонентов орошаемых территорий, с одной стороны, на их взаимосвязи со структурой рельефа, а с другой - на систематическом изменении природных компонентов в бассейне.

Ключевые слова: бассейны коллекторов, внутренние структуры, земельные ресурсы, элементы бассейна коллектора, метод пластики рельефа, бассейновое использование земельных ресурсов.

THE ROLE OF COLLECTOR BASIN GEOSYSTEMS AND BASIN CONCEPTS IN THE USE OF NATURAL RESOURCES OF THE MODERN AMUDARYA DELTA

Annotation

The article focuses on the rational use of natural components of irrigated areas, on the one hand, on their relationship with the relief structure, and on the other hand, on the systematic change of natural components in the basin.

Key words: collector basins, internal structures, land resources, collector basin elements, relief plasticity method, basin use of land resources.

Tizimli yondashuv Yer haqidagi fanlarning, shu jumladan tabiiy geografyaning eng ilg'or usullaridan biridir. Kompleks tadqiqotlarda tizimli yondashuvni qo'llashning ikki yo'li mavjud: funksional-yaxlit va an'anaviy – tipologik va regional.

Bizning fikrimizcha, relyef plastikasi usuli Amudaryo hozirgi deltasining tabiiy va meliorativ sharoitlarini kompleks tabiiy geografik o'rganishda funksional-yaxlit yondashuvni qo'llashning yagona yo'lidir. Obyektning sug'oriladigan hududlari ilk bor kollektor havzalaridagi paragenetik landshaft komplekslarini hisobga olgan holda tadqiq qilindi.

Kollektor havzalarining paragenetik landshaft komplekslari sug'oriladigan hududlarda eng ko'p tarqalgan funksional-yaxlit tizimdir. Bizga ma'lumki, kollektor havzalarining paragenetik landshaft komplekslari turli yoshdagi kichik deltalarning daraxtsimon strukturasi tashkil qiluvchi elementar landshaftlarning guruhlaridan tashkil topgan. Bu kichik deltalarning daraxtsimon strukturasi geografik omil sifatida tan olingan yer usti suv oqimining faoliyati natijasida hosil bo'lgan va delta geotizimining geologik tarixini aks ettiradi. Kichik deltalarning daraxtsimon strukturasi tabiat komponentlarining holatini va dinamikasini belgilaydi, ya'ni tabiiy-meliorativ komplekslar Yer yuzining daraxtsimon strukturasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Sug'oriladigan hududlarning tabiat komponentlaridan oqilona foydalanishda va ularni muhofaza qilishda eng avvalambor kollektor havzalaridagi paragenetik landshaft komplekslarini bir-biri bilan bog'lovchi yer usti suv oqimlarini tasvirlash muhim ahamiyatga ega. Aynan shu oqimlar Yer-suv resurslarining holatini va sifatini belgilaydi. Yer resurslaridan oqilona foydalanishda tuproq xillarining relyef elementlari bilan birikuviga alohida e'tibor berish lozim. Boshqacha so'z bilan aytganda, tuproqlarning kichik hududlarda tabaqalanishda relyefning strukturasi bilan aloqadorlikda bo'lgan geokimyoviy landshaftning elementlari alohida rol o'ynaydi. Kollektor havzalarining relyef plastikasi kartalari obyektida mavjud bo'lgan turli relyef tiplarini (allyuvial tekisliklar, qirlar, qumliklar va boshqalar) tasvirlash bilan chegaralanib qolmasdan, balki ularning o'ziga xos strukturalarini ham ko'rsatadi. Shuning uchun ham relyef plastikasi kartasi asosida tuzilgan yangi tipdagi tuproq qoplami strukturasi kartalarining amaliyotdagi ahamiyati kattadir, ya'ni bu kartalarda tuproq xillarining relyef elementlari bilan birikuvini aniq ko'rsatiladi. Bunday olib qaraganda, har xil relyef elementlarida tarqalgan tuproqlarning meliorativ holati ham turlichadir, ya'ni tuproqlardan oqilona foydalanishda relyefning qaysi elementida tarqalgan tuproq xillarini bilish zarur. Bu o'rinda "Tuproq qoplaminin strukturasi" asarining muallifi V.N.Fridlandning tuproq qoplaminin strukturasi haqidagi fikri katta ahamiyatga ega, ya'ni uning fikricha: "Tuproq qoplaminin strukturasi haqidagi tushuncha matematika fanidagi struktura tushunchasiga yaqindir", ya'ni har bir kichik deltaning daraxtsimon strukturasi elementlarida o'ziga xos tuproq xillari hosil bo'ladi va rivojlanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, tuproqlar Yer yuzasining daraxtsimon strukturasi bilan birikib, turli xil sifatdagi Yer resurslarini hosil qiladi. Shuning uchun kollektor havzasini tashkil qilgan kichik deltalarning paragenetik landshaft komplekslarida nafaqat tuproq qoplaminin strukturasi, balki Yer resurslarining sifati ham tabiiy ravishda o'zgaradi. Kichik deltalarning yuqori qismlarida tarqalgan tuproqlar yaxshi suv-fizik xossalarga, yengil mexanik tarkibga va boshqa ijobiy xususiyatlarga ega bo'ladi. Kichik deltalarning quyi qismlarida va ularning tutashgan hududlarida tarqalgan tuproqlar esa salbiy xususiyatlarga ega bo'ladi, ya'ni ular salbiy suv-fizik xossalarga, og'ir mexanik tarkibga va boshqalarga ega bo'ladi. Tuproq qoplami strukturasi va holatining kichik deltalarida qonunli o'zgarishlari yer resurslaridan oqilona foydalanishda kollektor havzasining ichki strukturasi hisobga olishga imkon tug'diradi, ya'ni tuproqlarning barcha xususiyatlari kollektor havzalarining yuqori qismidan quyi qismi tomon tizimli o'zgaradi. Kollektor havzalarining kartalari o'z navbatida amaliy maqsadlarda havzaviy geokimyoviy usulni qo'llashga imkon yaratadi, ya'ni landshaft geokimyosi fanining "O'zaro bog'liq" tahlilini qo'llash tabiat komponentlarining o'zaro aloqadorligini o'rganishga sharoit yaratib beradi. Boshqacha aytganda, kollektor havzalaridagi paragenetik landshaft komplekslarining o'zaro aloqadorligi yer usti suv oqimlarining yo'nalishini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Olingan ma'lumotlar Yer resurslaridan oqilona foydalanishda havzaviy kartalashtirish relyef plastikasi usulining ijobiy tomonlarini to'g'ri tasdiqlaydi.

Relyef plastikasi kartalari asosida tuzilgan tuproq qoplaminin strukturasi kartalari ilgari tuzilgan tuproq kartalaridan tubdan farq qiladi, ya'ni bu yangi tipdagi tuproq kartalarida tuproq xillarining relyef strukturasi bilan birikuvini aniq tasvirlanadi. Bu o'rinda XX asrning mashhur

tuproqshunos geograf olimasi M.A.Glazovskayaning (1969) quyidagi g'oyasini misol qilib keltirishimiz juda o'rinlidir, ya'ni olimaning fikri bo'yicha: "Yer tuproq qoplamining strukturasi – bu tuproqlarning relyef elementlari bilan birikuvdir". Boshqacha so'z bilan aytganda, relyef plastikasi kartalarida tasvirlangan balandliklar va pastliklar tabiatda mavjud bo'lgan relyef elementlari bo'lib, ular tuproq hosil bo'lish jarayoniga turlicha ta'sir etadi.

Mustaqillik davrining birinchi kunlaridan boshlab bozor munosabatlarining rivojlanishi natijasida qishloq xo'jalik mulkchiligidan xilma-xil turlari vujudga kelmoqda, ya'ni tadbirkorlik va fermer xo'jaliklarining rivojlanishi oqibatida amaliyotda tuproqlarning sifat ko'rsatkichlariga e'tibor ortib bormoqda. Shunday ekan, bugungi kunda har bir tadbirkorlar va fermer xo'jaliklari qanday Yer resurslariga ega ekanligini ko'rsatish muhimdir. Buning uchun xo'jaliklarning joylashuvi ko'rsatilgan kollektor havzalarining yirik masshtabli, iloji bo'lsa batafsil planlari tuziladi. Ma'lumki, xo'jalik havzaning quyi qismida joylashgan bo'lsa, unda salbiy Yer resurslari mavjud (tuproqlar kuchli va juda kuchli sho'rlangan, mexanik tarkibi og'ir, tuproqlarda sho'rlanish jarayonlari ustunlik qiladi va hakoza). Kollektor havzasining yuqori qismida joylashgan xo'jaliklar ijobiy Yer resurslariga ega (ularning tuproqlari asosan kuchsiz sho'rlangan, kamdan-kam hollarda o'rta sho'rlangan, mexanik tarkibli yengil va hakoza). Agar xo'jaliklar havzaning yuqori qismida joylashgan bo'lsa, bular doimo ijobiy natijalarga erishadi. Uning aksi bo'lib, xo'jaliklar kollektor havzasining quyi qismida joylashgan bo'lsa, bular doimo salbiy natijalarga erishadi. Bir so'z bilan aytganda, kollektor havzalarining funksional yaxlitligi bilan Yer resurslarining barcha sifat ko'rsatkichlari bog'langandir, ya'ni bu esa o'z navbatida sug'oriladigan hududlarda kollektor havzalari asosiy tadqiqot obyektiga aylanishi kerak ekanligini amaliy jihatdan isbotlaydi.

Hozirgi sharoitda mutaxassislar, ya'ni iqtisodchilar fermer xo'jaliklarini rivojlantirish uchun mablag'lar miqdorini belgilashda ko'pincha Yer resurslarining holatini va ularning kollektor havzasidagi joylashuvini hisobga olmaydilar. Moliya miqdorini meyorlashtirish bu xo'jaliklar rivojlanishining buzilishiga olib keladi. Demak, bugungi kunda har bir tuman yoki fermer xo'jaliklari yangi O'zbekistonda bozor munosabatlarining yangi bosqichlariga moslashgan holda, kollektor havzalarining yirik masshtabli relyef plastikasi kartalariga va turli mavzuli kartalarga (tuproq qoplamining strukturasi, tuproqlarning sho'rlanish darajasi va kimyoviy tarkibi, Yer resurslarini baholash va boshqalar) ega bo'lishi shart. Bu kartalar Yer resurslaridan havzaviy foydalanish va qishloq xo'jalik tarmoqlarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Qishloq xo'jalik tarmoqlarini rivojlantirishga bo'lgan bunday yangicha yondashuv funksional-yaxlitlikni hosil qilgan kollektor havzasidagi har bir xo'jaliklardan talab qilinadi.

Tuproqlar holati haqidagi tizimli bilishni bizdan talab qiladi, ya'ni kollektor havzasida joylashgan barcha xo'jaliklarning birinchi navbatda yirik masshtabli (1:25000), agar kerak bo'lsa batafsil relyef plastikasi kartalari bo'lishi kerak. Bu kartalar tuproq qoplamining strukturasi tadqiq qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular tizim hosil qiluvchi yer usti suv oqimlarining yo'nalishini ham aniq ko'rsatadi. Bu yerda shuni alohida ta'kidlash lozimki, yer usti suv oqimlarining yo'nalishi bilan tuproqlarning holati bog'langan, ya'ni yer usti suv oqimi Yer resurslarining holatini hosil bo'lishida ikkinchi geografik omil bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun batafsil relyef plastikasi kartalari faqatgina kollektor havzalarining ichki tuzilishini ko'rsatib qolmasdan, balki shu bilan birgalikda Yer resurslari holatining hosil bo'lishida katta rol o'ynaydigan yer usti suv oqimlarining yo'nalishini ham aniq tasvirlab beradi.

A.K.Urabayev, D.B.Xursanov (2023) o'zlarining tadqiqotlarida delta geotizimlari landshaft strukturasi hosil bo'lishida katta rol o'ynaydigan yer usti suv oqimlarining umumiy geografik strukturalarini tadqiq qilib, ularning ichki tuzilishini ikki guruhga ajratadi: 1. Sug'orilmaydigan hududlardagi yer usti suv oqimlarining daraxtsimon strukturasi; 2. Sug'oriladigan hududlardagi, ya'ni kollektor geotizimidagi yer usti suv oqimlarining havzaviy strukturasi. Biz ham o'zimizning tadqiqotlarimizda olimlarning fikriga qo'shilgan holda, har qanday kollektor havzalarida yer usti suv oqimlarining havzaviy strukturasi bo'ladi va shu bilan birga kollektor havzalaridagi yer usti suv oqimlarining havzaviy strukturasi bir-biridan keskin farq qiladi degan xulosaga keldik. Boshqacha so'z bilan aytganda, har qanday kollektor havzalari o'zlarining ichki tuzilishlari bilan farq qilganliklari uchun ham ularning havzaviy strukturalari bir-biridan farq qilishi tabiiy holdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, geograf va tuproqshunos olimlar doimo mavzuli kartalarni tuzishga katta e'tibor qaratganlar. Relyef plastikasi kartalari asosida tuzilgan tuproq kartalari doimo tuproq xillarining relyef elementlari bilan birikuvini aniq tasvirlaydi. Misol uchun, Ko'hnadaryo-Qozoqdaryo kichik deltasining relyef plastikasi kartasi asosida tuzilgan tuproq qoplami strukturasi kartasi kichik deltaning daraxtsimon strukturasi bilan tuproq xillarining birikuvini aniq ko'rsatib beradi, ya'ni kichik deltaga o'tloq-taqirli tuqay tuproqlar relyefning baland elementi bilan aloqadorlikda bo'lganligi sababli, o'tloq-taqirli to'qay tuproqlarining shakli daraxtsimon strukturaga to'g'ri mos keladi. Kichik deltalarda joylashgan xo'jaliklarning muvaffaqiyatlari tuproq qoplami strukturasi kartasining sifati bilan bog'liqdir, ya'ni kichik deltaning elementlarida (yuqori, o'rta, quyi qismlar) joylashgan xo'jaliklarning rejalari tuproqlarning sifatiga bog'liq holda har xil bo'lishi kerak. Kollektor havzalarining tuproq qoplami strukturasi kartalari ham relyef plastikasi kartalari asosida tuzilishi maqsadga muvofiqdir.

Bizning tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, kollektor havzalarida nafaqat Yer resurslarining holati tizimli o'zgaradi, balki shu bilan birgalikda yer usti suvlarining sifati ham tartibli o'zgarib boradi. Suv resurslaridan oqilona foydalanishda yer usti suvlarining sifati bilish ham muhim rol o'ynaydi. Kollektor geotizimidagi yer usti suvlarining tizimli o'zgarishi havzadagi tabiat komponentlariga bog'liq, ya'ni tabiat komponentlarining kimyoviy tarkibi yer usti suvlarining kimyoviy tarkibiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi. Misol uchun, kollektor tashlama -1 (KT) -1 ning havzasida kuchsiz va o'rta sho'rlangan o'tloq-taqirli to'qay, o'tloq-taqirli va sug'oriladigan o'tloq-taqirli tuproqlari ko'p bo'lganligi sababli bu kollektor suvlarining o'rtacha minerallasuv darajasi 2-2,5 g/l bo'lsa, KT -4 havzasidagi kuchli va juda kuchli sug'oriladigan o'tloq-taqirli tuproqlari bo'lganligi sababli kollektor suvlarining o'rtacha minerallasuv darajasi 3-4 g/l, ba'zi hollarda undan ham ortiq bo'ladi. Shunga o'xshash ma'lumotlarni E.I.Chembarisov, R.T.Xojamuratovlarning (2008) ilmiy asarida ham uchratish mumkin.

Havza usuliga asoslangan yer usti suvlarining sifati tadqiq qilish bizdan yana bir bor kollektor geotizimlarining kartalariga murojaat qilishni talab etadi. Kollektor havzalari kartalarining ahamiyati cheksizdir, ya'ni ayniqsa suv resurslari cheklangan O'rta Osiyoda suv zahiralardan oqilona foydalanishda. Kollektor havzalarining kartalari yer usti suvlarining holatini sug'oriladigan hududlarda prognoz qilishni ilmiy asoslab beradi. Tabiat komponentlarining tabiiy-meliorativ kartalari majmuasi kollektor havzasidagi barcha tabiat komponentlarining hozirgi holatini har tomonlama to'g'ri aks ettiradi. Bu kartalar ichida yer usti suvlarining minerallasuv darajasi va kimyoviy tarkibining kartalari amaliyotda katta rol o'ynaydi, ya'ni yer usti suvlarining minerallasuv darajasi va kimyoviy tarkibi yildan-yilga ko'payib, sifat jihatdan yomonlashib bormoqda. Boshqacha so'z bilan aytganda, relyef plastikasi kartalari asosida tuzilgan barcha tabiat komponentlarining mavzuli kartasi katta rol o'ynaydi, ya'ni relyef elementlarini asos qilib olmagan barcha tematik kartalar bu ma'lumotlarni tizimli yorit olmaydi.

Yer-suv resurslarining holatini har tomonlama tadqiq qilish bizlardan yana grunt suvlarining tabiat komponentlariga bo'lgan ta'sirini o'rganishni talab qiladi. Bizlarga ma'lumki, grunt suvlari Yer-suv resurslarining holatini tadqiq qilishda grunt suvlarining rolini o'rganish faqat ijobiy natija beradi. Bu o'rinda mashhur gidrogeolog olim N.I.Xodjiboyevning grunt suvlariga bag'ishlangan "O'zbekiston grunt suvlarining tabiiy oqimi" (1970) nomli asari nazariy ahamiyatga ega. Olimning ta'kidlashicha, grunt suvlarining tabiiy oqimi relyef strukturasi bilan bog'langan bo'lib, tabiat komponentlarining sifati belgilashda asosiy omillardan biridir.

Yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirib, shuni aytishimiz mumkin, sug'oriladigan hududlarning Yer-suv resurslaridan havzaviy foydalanish o'z navbatida kollektor havzalarida joylashgan har bir xo'jaliklardan yirik masshtabli relyef plastikasi kartasi asosida tuzilgan tabiat komponentlarining mavzuli kartalariga ega bo'lishni taqozo etadi. Bu kartalar Amudaryo hozirgi deltasi sug'oriladigan hududlardagi tabiat komponentlarining dinamikasini tadqiq qilishda havzaviy usulni, ya'ni havzaviy kartalashtirish relyef plastikasi usulini qo'llashga har tomonlama asos bo'la oladi. Demak, sug'oriladigan hududlarni eng avvalambor kollektor havzalariga ajratish va kollektor havzalaridagi tabiat komponentlarining tizimli ma'lumotlari asosida Yer-suv resurslaridan havzaviy foydalanish hamda ularni muhofaza qilish tabiiy geografiya fanidagi funksional-yaxlitlik usulini qo'llashning metodologiyasini tashkil qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Уразбаев, А. К. (2002). Системная организация природно-мелиоративных условий современной дельты Амударьи. Автореферат диссерт. на соиск. уч. степени докт. геогр. Наук.
2. Уразбаев, А.К. (1998). Функционально-целостные системы орошаемых земель современной дельты реки Амударья. *проблемы освоения пустынь*, (5), 19-25.
3. Sherzod Ibroimov. (2024). Paragenetic landscape complexes of reservoir basins of the modern amu darya delta and their natural and ameliorative conditions. *News of the NUUz*, 3(3.1), 229-233. <https://doi.org/10.69617/uzmu.v3i3.1.1780>



УДК: 551.1/.4; 551.3.053;551.254;(575.1)

Низомиддин СОАТОВ,
PhD Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
E-mail: Soatov 1979@mail.ru
Лола МАХКАМОВА,
Базовый докторант Национальный университет Узбекистана

по отзыву PhD А.Абдуллаева

**МЕТАСОМАТИЧЕСКИ ИЗМЕНЕННЫХ АНДЕЗИТОВ, ДИАБАЗОВ И КРЕМНИСТО-КАРБОНАТНЫХ ПОРОД (САЙ
ЧАПЧА-КЕСКИН, ЮГО-ЗАПАДНЫЕ ОТРОГИ ЧАТКАЛЬСКОГО ХР)**

Аннотация

В мировой практике особое внимание уделяется изучению геохимических особенностей кор выветривания и зон окисления, как главных критериев при прогнозно-поисковых, оценочных работах, в основе которых лежит выявление связи геологического строения и с минерало-геохимическими особенностями редких земельных элементов. В настоящее время в таких развитых странах мира, как Соединенные Штаты Америки, Российская Федерация, Китайская Народная Республика, особое внимание уделяется восстановлению палеогеографических условий развития перерывных формаций, приведших к формированию кор выветривания и зон окисления, геологического строения, минерального состава зон окисления и геохимических особенностей распределения минералов, слагающих их элементов, являющихся основой прогнозно - поисковых, оценочных признаков вероятности развития на глубине скрытого оруденения. В связи с этим изучение минерало-геохимических особенностей кор выветривания и зон окисления дает возможность научно обосновать перспективность площадей на формирование редких и драгоценных металлов.

Ключевые слова: Чапча-Кескин, окисленные породы, вторичные минералы, гипогенного оруденения, Бабайтагского интрузива, метасоматит, дайка диабаз, хлоритизированы, кварцевыми прожилки, сульфиды.

**METASOMATICALLY ALTERED ANDESITES, DIABASES AND SILICON-CARBONATE ROCKS (SAY CHAPCHA-KESKIN,
SOUTH-WESTERN SPURS OF THE CHATKAL RANGE)**

Annotation

In world practice, special attention is paid to the study of the geochemical characteristics of weathering crusts and oxidation zones as the main criteria in forecasting, prospecting, and evaluation work, which is based on identifying the relationship between the geological structure and the mineralogical and geochemical characteristics of rare earth elements. At present, in such developed countries of the world as the United States of America, the Russian Federation, and the People's Republic of China, special attention is paid to the restoration of the paleogeographic conditions of the development of discontinuous formations that led to the formation of weathering crusts and oxidation zones, the geological structure, mineral composition of oxidation zones, and geochemical features of the distribution of minerals, their constituent elements, which are the basis for forecasting, exploration, and evaluation features of the probability of development of hidden mineralization at depth. In this regard, the study of the mineralogical and geochemical features of weathering crusts and oxidation zones makes it possible to scientifically substantiate the potential of areas for the formation of rare and precious metals.

Key words: Chapcha-Keskin, oxidized rocks, secondary minerals, hypogene mineralization, Babaytag intrusion, metasomatic, dike diabase, chloritized, quartz veinlets, sulfides.

**METASOMATIK O'ZGARGAN ANDEZITLAR, DIABAZLAR VA KREMNIY-KARBONATLI TOG' JINSLARI
(CHOTQOL TOG' TIZMASINING JANUBI-G'ARBIY QISMI CHAPCHA-KESKIN SOYI)**

Annotasiya

Jahon amaliyotida nurash po'sti va oksidlanish zonalarining geokimyoviy xususiyatlarini o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda, chunki bu bashoratlash va qidirish, baholash ishlarining asosiy mezonlari bo'lib, ular geologik tuzilish va noyob yer elementlarining mineralogik-geokimyoviy xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga asoslangan. Bugungi kunda Amerika Qo'shma Shtatlari, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi singari dunyoning rivojlangan mamlakatlarida nurash po'sti va oksidlanish zonalarining geologik tuzilishi, oksidlanishning mineral tarkibli zonalari va ularning elementlarini tashkil etuvchi minerallar tarqalishining geokimyoviy xususiyatlari shakllanishiga olib kelgan uzluksiz formasiyalar rivojlanishi uchun paleogeografik sharoitlarni tiklashga alohida e'tibor berilmoqda, bu yashirin mineralizasiya chuqurlikda rivojlanish ehtimolini bashorat qilish, qidirish, baholash belgilaridir. Shu munosabat bilan, nurash po'sti va oksidlanish zonalarining mineralogik va geokimyoviy xususiyatlarini o'rganish noyob va qimmatbaho metallarning hosil bo'lish maydonlari istiqbollarini ilmiy asoslash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Chapcha-keskin, oksidlangan jinslar, ikkilamchi minerallar, gipogen minerallashuv, Bobaytag intruziyasi, metasomatit, diabazli dik, xlortlangan, kvarts tomirlar, sulfidlar.

Введение. В геологическом строении участка Чапча-Кескин, расположенного по правому борту р. Дукуант (северная окраина г. Янгибад), принимают участие андезиты S_{2-3} , секущие их дайки диабазов, гранитоиды Бабайтагского интрузива. Все вышеперечисленные горные породы подверглись метасоматическим изменениям: граниты хлоритизированы, андезиты – окварцованы, карбонатизированы и альбитизированы, дайки диабазов частично хлоритизированы, секутся кварцевыми прожилками с визуальной видимой сульфидной (пирит, халькопирит) минерализацией (рис. 1).




Рис. 1. Размещение кварцевых жил в дайке диабаза.

1-современные отложения (галька, песок), 2-окисленные породы, 3-выделения медной зелени, 4-зеркало скольжения, 5-кварцевые жилы, 6-сульфидная минерализация, 7-диабаз. 8-место отбора и номера образцов.



Рис. 2. Выходы (протяженность 18 м) светло-серых аподолмитов (обр. 979, 981) в русле сая.

Аподолмитовые породы окварцованы и пиритизированы (рис. 2). Процессы окисления отмечаются в основном по метасоматически измененным андезитам и зонам окварцевания с сульфидной минерализацией в дайках диабазов.

Предполагаемое тектоническое нарушение, проходящее по крутосклонному субширотному ориентированному руслу сая Чапча-Кескин разделяет участок на две зоны. В первой, правобережной, фрагментарно обнажаются практически неизменные процессами выветривания дайки диабазов, андезиты и их метасоматически измененные разновидности, аподолмитовые породы (выходы последних в русле сая). В левобережной части на протяжении около 350 м под чехлом современных осадков вскрываются в различной степени окисленные метасоматиты, окрашенные в буро-коричневые цвета, интенсивно трещиноватые, в различной степени окварцованные (линзы кварца мощностью до 1.5 м и длиной до 2-4 м), перемятые и местами дробленные; выщелоченные дайки диабазов приобретают чешуйчатое строение, порода легко ломается в руках, окрашивается в коричневатые цвета.

Микрозондовыми исследованиями (ИГТ) аншлифов различных типов горных пород слагающих участок, данными спектрального и золотоспектрального анализа установлено следующее.

Включения халькопирита в кварцевых прожилках секущих дайку диабазов замещаются оксидами железа, содержащими оксиды меди, свинца, бария, включения самородного висмута (Bi_2O_3 73,31 %) (рис. 1, табл. 1, ан. 2, 6). В их зальбандах диабазы метасоматически изменены - окварцованы, содержат повышенные концентрации щелочей (табл. 1, ан. 3, 4, 7). Аподолмитовые породы массивные, крепкие, микрозернистые, светло-серого цвета (рис. 4б) также содержат повышенные концентрации щелочей (табл. 1, ан. 1-4), а эпигенетические включения пирита никель, цинк (табл. 1, ан. 5, 6) и следовые количества Co, Au, As и Sb до 0,09%.




Рис. 3. А) включения халькопирита (яркие светлые), развитие по нему оксидов железа (2, 6), включения самородного висмута (1) в зоне окварцевания (3, 4), ожелезнения с калий-натрий содержащими минералами (7) развитой по дайке диабазов (обр. 949, рис. 1, табл. 1 (А). Б) включения пирита (5, 6) в окварцованных (3, 4) аподолмитовых (1, 2) породах (обр. 981, рис. 2, табл. 1 (Б).

В обнажающихся по левому борту сая окварцованных, окисленных породах (рис. 4) оксиды железа образуют неправильные выделения (200x600 мкм и более) содержащие (масс. %): Fe_2O_3 57,98-79,42 SiO_2 3,30-13,80; постоянно CoO 0,33-0,43, редко NiO, следы-0,20 As_2O_3 следы- 0,88 Sb_2O_3 следы- 0,27, следы - Ag, Au, Cu, Zn.

Таблица 1. Содержания элементов в: А) (обр. 949) оксидах железа (2, 6), железо, калий-натрий содержащем минерале (7), зоне окварцевания (3, 4); Б) (обр. 981) окварцованный калийсодержащий доломит (1, 2), зоны окварцевания натрий-калийсодержащие (3, 4), пирите (5, 6) (масс. %).

Компо- ненты	Номера анализов											
	А						Б					
	2	6	7	3	4	1	2	3	4	5	6	
MgO						12,43	6,92					
SiO ₂	10,46	48,00	81,34	94,70	21,73	22,81	65,83	72,26				
Al ₂ O ₃		20,60	9,28	2,98	10,46	6,94	18,43	16,03				
K ₂ O		5,27	5,14	0,59	3,50	2,29	5,17	1,97				
Na ₂ O			2,26				3,95	5,96				
CaO	1,25	0,26				38,37	33,28	2,04	1,81			
MnO						1,40	0,76					
Fe ₂ O ₃	76,10	71,87	21,34	6,24	1,73	19,58	12,05	1,59	1,11			
Fe										46,39	45,70	
SO ₃		1,51										
S										53,12	53,33	
CuO	11,12	16,97	1,53									
BaO		0,50										
PbO	5,60											
Ni										0,12	0,18	
Zn										0,17	0,46	




Рис. 4. А) Окварцованная, окисленная порода (обр. 964-1, увел. 1,5); Б) то же, кварц (Q, темные), оксиды железа (яркие), окварцованные выделения содержат (SiO_2 60,71-92,64 Al_2O_3 0-23,51 Na_2O 1,03-5,96 K_2O 0,74-3,09 MgO 1,03-5,96 CaO 0,32-0,44) с преобладанием кремния, отсутствием глинозема меньшими содержаниями щелочей (серые) и меньшими содержаниями кремния, с присутствием глинозема, повышенной щелочностью (светло-серые).

Золотоспектральным, спектральным анализом (ГП «ЦДЛ») штучных проб установлены содержания в (г/т): 1) кварцевых прожилках с вкрапленностью халькопирита секущих дайку диабазов (7 проб, рис. 1) Au 0,03-0,6 и более 3 (одна проба); характеризуются постоянными примесями Ag 1,5-15 Pb 300-1500 Mo 70-200 Co 7-70 Ni 30-100 Li 200-700 и реже Zn 20-50; 2) окисленных окварцованных метасоматитах (6 проб) Au 0,005 -1, постоянные примеси Ag 0,2-1 Cu (в 90% проб) 5-70 Pb 1,5-500 Mo 3-70 Co (в 90%) 10-70 Ni (в 50%) 150-500 Li 30-300 и реже Zn 10-100; 3) аподолмитах (2 пробы) Au 0,03-0,04 постоянные примеси Ag 0,5-1 Cu 100 Pb 200-300 Mo 7-150 Co (в 50%) 7 Ni 30 Li 50-100 и реже Zn (в 50%) 30.

Е.Н.Игнатиков (1991, с. 54), со ссылкой на работу Р.И. Конеева и др. (1981), отметил, что на месторождении Кызылалмасай литием обогащен кварц «...ранней золотопродуктивной ассоциации». Он же исследуя, в Алмалыкском рудном районе, поведение Na, K, Li и Rb в метасоматитах и кварцевых жилах с Au-Ag минерализацией, выявил, что низкие концентрации Na, K, Rb и высокие Li указывают на интенсивность перераспределения вещества в «...околорудном пространстве и могут служить информативным критерием золотоносности и слабой эродированности карбонат - кварцевых жил в покровах дацитовых порфиров» (там же). Повышенные содержания лития в различных типах горных пород, слагающих участок Чапча-Кескин, наличие в них концентраций золота, сравнение с подобными данными по Алмалыкскому рудному району, месторождению Кызылалмасай, может, по всей вероятности, свидетельствовать о определенных перспективах вышеуказанной площади на золото.

ЛИТЕРАТУРА

1. Игнатиков Е.Н. Распределение щелочных элементов в жилах с золото-серебряной минерализацией (на примере Алмалыкского рудного района). Зап. Узб. отд. ВМО. Вып. 44. 1991. – С. 54-56.
2. Гончар А.Д., Нуртаев Б.С., Колдаев А.А., Соатов Н.Т., Нуртаев Д.Б. О возможной перспективности на германий междуречья Алатанга-Каттасай (Чаткальский хребет) // Геология и минеральные ресурсы. - 2016. - № 2 - С. 23-26.
3. Колдаев А.А., Соатов Н.Т., Нуртаев Д.Б., Мухамеджанова Д.В. Золото, марганец, вольфрам и редкоземельные элементы в зонах окисления. // Геология и минеральные ресурсы. - 2018. - № 4. - С. 28-36.
4. Соатов Н.Т., Колдаев А.А. Зоны окисления и их минералого-геохимические особенности (правобережье р. Дукент, юго-западные отроги Чаткальского хр.) // Геология и минеральные ресурсы. - 2020. - № 4. - С. 41-48.
5. Soatov N.T., Koldaev A.A. Rare-earth minerals in the works of Substrate oxidation zone (molybdenum uranium Kattasay-Alatangen ore field in Uzbekistan) // International Journal of Geology, Earth & Environmental Sciences. – India, ISSN: 2277 - 2020. - Vol. 9 (3). pp. 1-6.



Shuxrat SULTONOV,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti
E-mail: sultonovshuxrat87@gmail.com
<https://orcid.org/0000-0003-0963-3499>

QarMI professori, t.f.n T.Yarbobojev taqrizi asosida

FOYDALI QAZILMALAR TARQALISHINING GEOLOGIK JIHATLARI (CHAQILKALON VA QORATEPA TOG'LARI MISOLIDA)

Аннотация

Maqolada Chaqilkalon va Qoratepa tog'larida foydali qazilmalar tarqalishining geologik jihatlari tahlil qilingan bo'lib. O'zbekiston Respublikasidagi viloyat hududidagi to'g'larda tarqalgan foydali qazilma ma'danlarini tarqalishi va ulkan sanoat mahsulotlari, xususan mineral xom ashyo, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, qayta ishlash jarayonida olinadigan katta miqdordagi yarim tayyor mahsulotlar, tabiiy boylik zaxiralari va rivojlangan infratuzilma imkoniyatlariga egaligi. Yaxton va Sukar komplekslaridagi foydali qazilmalar atroflicha muhokama qilingan va tegishli xulosalar qilingan.

Kalit so'zlar: tog', balandlik, tekislik, cho'qqi, paleozoy, gertsin, karst, qum, gil, konglomerat, plita, postkollizion, geodinamik, evolyutsiya, ultraasos, portlash trubkasi, subgorizontal, ishqor, nadkritik, suyuqlik.

GEOLOGICAL ASPECTS OF MINERAL DISTRIBUTION (EXAMPLE OF CHAKILKALON AND KARATEPA MOUNTAINS)

Annotation

The article analyzes the geological aspects of mineral distribution in Chakilkalon and Karatepa mountains. The spread of mineral deposits scattered in the mountains of the region in the Republic of Uzbekistan and huge industrial products, in particular, mineral raw materials, agricultural products, a large amount of semi-finished products obtained during processing, natural wealth reserves and developed infrastructure ability. Minerals in the Yaxton and Sukar complexes are discussed in detail and relevant conclusions are drawn.

Key words: mountain, elevation, plain, peak, Paleozoic, Hertzian, karst, sand, clay, conglomerate, plate, postcollisional, geodynamic, evolution, ultrabase, blast pipe, subhorizontal, alkali, supercritical, fluid.

ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАСПРОСТРАНЕНИЯ МИНЕРАЛЬНЫХ ИСПОЛНЕНИЙ (НА ПРИМЕРЕ ГОР ЧАКИЛКАЛОН И КАРАТЕПА)

Аннотация

В статье анализируются геологические аспекты распределения полезных ископаемых в горах Чакилкалян и Каратепа. Рассматривается распространение месторождений полезных ископаемых, разбросанных в горах региона в Республике Узбекистан, а также огромные промышленные продукты, в частности, минеральное сырье, сельскохозяйственная продукция, большое количество полуфабрикатов, получаемых при переработке, запасы природных богатств и развитая инфраструктура. Подробно рассматриваются полезные ископаемые в комплексах Яхтон и Сукар и делаются соответствующие выводы.

Ключевые слова: гора, возвышенность, равнина, вершина, палеозой, герц, карст, песок, глина, конгломерат, плита, постколлизийный, геодинамический, эволюция, ультрабаза, взрывная труба, субгоризонтальный, щелочной, надкритический, флюид.

Kirish. O'zbekistonning janubiy qismida joylashgan tog' o'ramlari Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari chegarasida joylashgan, yanada ham aniqrog'i Qashqadaryo viloyatining shimoli-sharqiy qismida, ular quyidagilardir, Qoratepa, Zirabuloq, Ziyovuddin tog'lari orqali, g'arbiy chegarasi Jarqoq, Muborak va Dengizko'l balandliklari orqali o'tadi. Janubi va janubi-g'arbida Sandiqliqum cho'li hududni Turkmaniston Respublikasidan ajratib turadi. Hudud sharqidagi Hisor tog'lari, janubi sharqidagi Boysun tog'lari uni Surxondaryo viloyati hududidan ajratib turadi.

Muhokama. Qashqadaryo viloyati yer yuzasi tuzilishi jihatidan bir xil emas. Uning shimoli, shimoli-sharqiy va sharqiy qismlarida Zarafshon, Hisor va Boysun tog'lari joylashgan. Qashqadaryo viloyatining shimoli-sharqida Zarafshon tizmasining g'arbiy davomi hisoblangan Chaqilkalon, Qoratepa, Zirabuloq, Ziyovuddin tog'lari joylashgan. Chaqilkalonning eng baland Zebon cho'qqisi 2336 metrga yetadi. Bu tog' g'arbiga davom etib, Taxtaqoracha dovonida (1630 metr) tugab, keyin Qoratepa tog'i boshlanib, eng baland qismi 2197 metrga yetadi. Qoratepa tog'i Jom cho'lida tugab, so'ngra g'arbiga qarab Zirabuloq (Zindontog' cho'qqisi - 1115 metr) va Ziyovuddin tog'lari davom etadi.

Natijalar. O'zbekiston oltin, uran, mis, tabiiy gaz, volfram, kaliy tuzi, fosforitlar, kaolin kabi foydali qazilmalar zahirasi bo'yicha nafaqat MDH davlatlari o'rtasida, balki butun dunyoda yetakchi o'rin egallashi tasdiqlangan. Jumladan oltin zahirasi bo'yicha dunyoda to'rtinchi, uni qazib olish bo'yicha yettinchi, mis zaxirasi bo'yicha o'ninchi-o'n birinchi o'rinlarni, uran zahirasi bo'yicha yettinchi-sakkizinchi, qazib olishda o'n birinchi-o'n ikkinchi o'rinlarni egallashi qayd etilgan [10].

Chaqilkalon tog'larining postkollizion geodinamik evolyutsiyasi ikkita asosiy bosqichni o'z ichiga oladi. Erta bosqichda, kechki paleozoy (Pz) mintaqaviy cho'zilish sharoitlarida o'ziga xos mineral-aksessor, petrokimyoviy va geokimyoviy xarakteristikalariga ega bo'lgan postkollizion granitoid intruziyalar hosil bo'ladi. Ikkinchi bosqichda, erta mezozoyda, mazkur zona, aslida, subplatforma oblastini o'zida namoyon qilgan paytda, unda intruziv faoliyat qayta tiklangan, qobiq osti ishqorli-bazaltoid magmaning faollashuvi bilan bog'liq, subishqor gabbroidlar va lamprofirlarning janubiy-tyanshan kompleksi hosil bo'lgan [11].

Ta'kidlash lozimki, Janubiy Tyan-Shanning, Chaqilkalon tog'lari uning fragmenti hisoblanadi, permning boshlanishida konsolidatsiyalashgan yer qobig'i alohida mintaqalar tuzilishining individual xususiyatlariga va ularning rivojlanishini turli xil tarixiga qaramasdan, tektonik-magmatik jarayonlarga bir butun sifatida reaksiya bildirgan. Bu holat mintaqaning tektonik-magmatik faollashuvi oqibatida yuzaga kelgan, turli xil, bir-biridan uzoq hududlardagi bazaltoidlarning subishqorli va ishqorli formatsiyalarini tub bir xilligini tushuntiradi.

Postkollizion bosqichda, erta perm davridan boshlab, Tyan-Shanda asosiy tektonik choklar bo'ylab katta amplituda siljishlar hosil bo'lgan [4]. Postkollizion bosqichda yuzaga kelgan yirik amplitudali siljishlar transqobiq hisoblanadi va litosfera mantiyasiga ham, astenosferaga ham ta'sir qiladi [2]. Siljish kuchlanishlari cho'zilish vaziyati paydo bo'lishiga va qobiqning asosida subgorizontal uzilish zonalari paydo bo'lishiga olib keladi. Cho'zilish issiq astenosfera materialining siljish zonasi bo'ylab va subgorizontal ajralish zonalari ko'tarilishiga olib keladi. Astenosfera moddasi issiqlik va suyuqlik manbai hisoblanadi, ular qobiq asosida siljish zonasi va subgorizontal zonalarda erishga olib kelishi mumkin. Litosfera mantiyasi va turli xil qobiq protolitlarining erishi bir vaqtning o'zida juda xilma-xil tarkibli eritmalarining, shu jumladan ishqoriy jinslarni paydo

bo'lishiga hamda gidrotermal eritmalar sirkulyatsiyalanishining qobiq yacheykalarini yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Bunda, postkollizion intruziyalarning kirib kelishi va ma'danli konlarning hosil bo'lishi umumiy sababga ega bo'lishi va transqobiq siljishlarning shu zonalarining o'zi bilan nazorat qilinishi mumkin [5].

Postkollizion Tyan-Shan gumbaz hosil bo'lishining harakatlantiruvchi kuchi qizish, zichlikning yo'qotilishi va boshqa fizik-kimyoviy qobiq-mantiya jarayonlari bilan bog'liq. Qobiq-mantiya hodisalarining keltirilgan kompleksi – qobiq osti massalarining hajmini ortishi, mantiya issiq-massa oqimi, bazaltoid magmaning erib chiqishi, quyi mezozoyda gumbaz hosil bo'lishi, chuqur, asosan, yer yoriqlarining (katta radiusli gumbazning bukilish natijasi sifatida) yuzaga kelishi ishqorli-bazaltoid vulqon faoliyatini faollashtiradi.

Postkollizion bosqichning magmatik faoliyati chuqur yotgan magmatik o'choqlar bilan bog'liq, boshlang'ich bosqichlarda chekka kameralarda granitoidlarni va magmatik faoliyatning kechki bosqichlarida daykalar to'plamlari shakllanishini ta'minlaydigan geterokron magmatik kolonnalarni hosil bo'lishiga olib keladi. Mantiya substratining erishi tufayli yuzaga kelgan, postkollizion granitoid magmatizm va ishqorli-bazaltoid magma mahsulotlarining fazoviy birlashuvi chuqur joylashgan o'choqli tuzilmalarning hosil bo'lishiga olib keladi.

Chaqqikalon tog'lari chegarasida ikkita shunday tuzilma yaqqol ajratiladi: Chaqqikalon tog'larining shimoli-g'arbiy qismida joylashgan Yaxton va Sukar – mintaqaning janubi-sharqiy qismida.

Chaqqikalon tog'lari ishqoriy bazaltoidlar-lamprofirlar formatsiyasi jinslarining geokimyoviy ixtisoslashuvini taqqoslash uchun Qizilolmali ma'danli maydonning (Chotqol-Qurama mintaqasi) xuddi shu formatsiyasini oltin-kumush bilan paragenetik bog'liq mukammal o'rganilgan jinslari va Ko'ytoosh ma'danli maydoni (Shimoliy Nurota) volfram va molebden skarn koni va oltinli sulfid-nodir metall ma'danlashuvi [1] joylashgan jinslari tanlandi.


Birinchi assotsiatsiya elementlarining klark-konsentratsiyalari Yaxton maydonining daykalari jinslarida ahamiyatli oraliqlarda o'zgaradi (2,6 dan 110 gacha), bunda alohida elementlar turli darajadagi notekis taqsimlanganligi bilan tavsiflanadi: Se – 2,8-82,2 (29,4 barobar ortiq); Bi – 4,6-24,4 (5,3 barobar ortiq); Au – 6,8-28,8 (4,2 barobar ortiq); Sb – 3,6-10,0 (2,8 barobar ortiq); Ag – 4,7-10,0 (2,1 baravar ortiq); Te – 56-110 (2,0 baravar ortiq); As – 9,07-10,7 (1,2 baravar ortiq).

Au ning maksimal miqdori spessartitlarda (0,115 g/t) aniqlangan, mazkur qator qo'yidagicha kamayib boradi: diorit porfiritalar (0,087 g/t) – vogezitlar (0,032 g/t) – kamptonitlar (0,029 g/t) – kersantitlar (0,027 g/t). Ag ning maksimal miqdori kamptonitlar (0,77 g/t) bilan bog'liq, mazkur qator qo'yidagicha kamayib boradi: kersantitlar (0,62 g/t) – diorit porfiritalar (0,45 g/t) – vogezitlar (0,35 g/t) – spessartitlar (0,33 g/t) (3.3-rasm). Se, As va Sb larning maksimal miqdori kersantitlar daykalarida qayd qilingan (muvofig ravishda 4,11, 18,2 va 5,0 g/t); Te – diorit porfiritalarda (0,11 g/t), Bi – kamptonitlarda (0,22 g/t) [8].

Yaxton maydoni daykalari jinslarida "kamyob metall" assotsiatsiya elementlarining klark-konsentratsiyalari kamroq sezilarli darajada farq qiladi (1,5 dan 10,5 gacha), bunda alohida elementlar nisbatan teng taqsimlanganligi bilan tavsiflanadi: W – 1,8 – 3,6; Hf – 3,3 – 6,0; Re – 1,5 – 10,5.

Volframning maksimal miqdori kamptonitlarda (4,61 g/t) aniqlangan va quyidagi qator bo'yicha kamayib boradi: kersantitlar (3,55 g/t) – diorit porfiritalar (3,44 g/t) – vogezitlar (2,36 g/t) – spessartitlar (2,3 g/t). Hf ning maksimal miqdori spessartitlar daykalarida (6,01 g/t) qayd qilingan, Re esa – vogezitlarda (0,0084 g/t).

Kersantitlar, vogezitlar va kamptonitlarda molibdenning klarkdan yuqoriligi va diorit porfiritalar va spessartitlarda uning konsentratsiyasining klarkdan pastligini ta'kidlash lozim.



1-rasm. Yaxton maydonining ishqoriy bazaltoidlar-lamprofirlar formatsiyasi jinslarida Au va Ag ning tarqalish gistogrammasi (g/t).

Yaxton maydonining barcha daykalari uchun U (2,9 – 6,9 g/t) ning va alohida daykalarda (diorit porfiritalar va kamptonitlar) Th (23,1 – 23,2 g/t) klarkdan yuqori miqdori xarakterli (1-rasm) [9].

Temir guruhi elementlari to'lig'icha past konsentratsiyaga ega. Faqatgina Ni kersantitlar va vogezitlarda klarkdan yuqori ko'rsatkichga ega, Cr esa – diorit porfiritalarda.


Yaxton maydoni daykalarining jinslarida Cu va Zn ning miqdori klarkdan past. Pb uchun kersantitlar, diorit porfiritalar va kamptonitlarda to'planishi bilan va spessartitlar va vogezitlarda klarkdan pastligi bilan yaqqol ajralib turish xarakterli.

Sukar maydoni daykalari jinslarida "noyob metall" assotsiatsiya elementlarining klark-konsentratsiyalari quyidagi oraliqlarda o'zgaradi: Sb – 2,2 – 10,0 (4,5 baravar ortiq); Au – 8,7-29,7 (3,4 baravar ortiq); Se – 15,2-43,6 (2,9 baravar ortiq); Ag – 4,8 -11,2 (2,3 baravar ortiq); Bi – 13,3-26,7 (2,0 baravar ortiq); Te – 14,7-24,0 (1,6 baravar ortiq); As – 7,8-9,3 (1,2 baravar ortiq).

Oltinning maksimal miqdori (0,089 g/t) esseksit-diabazlarda aniqlangan, mazkur qator quyidagicha kamayib boradi (3.4-rasm): amfibolli kamptonitlar (0,041 g/t) – titan-avgitli kamptonitlar (0,037 g/t) – vogezitlar (0,032 g/t) – biotitli kamptonitlar va minettlar (0,026-0,027 g/t). Ag ning maksimal miqdori titan-avgitli kamptonitlar (0,82 g/t) bilan bog'liq, mazkur qator quyidagicha kamayib boradi (3.5-rasm): esseksit-diabazlar (0,77 g/t) – biotitli kamptonitlar (0,75 g/t) – amfibolli kamptonitlar (0,73 g/t) – minettlar (0,61 g/t) – vogezitlar (0,35 g/t).

Sukar maydonining barcha daykalarida metalloid va metallogen elementlar klarklardan yuqoriligi va taxminan teng miqdori bilan xarakterlanadi: As – 15,4-16,8 g/t; Sb – 2,9-3,0 g/t (minettlarda 1,9 g/t); Bi – 0,12-0,24 g/t; Se – 1,1-1,2 g/t (minettlarda 3,2 g/t); Te – 0,056-0,068 g/t (biotitli kamptonitlarda 0,072).

Sukar maydonining daykalari jinslarida "kamyob metall" assotsiatsiyasi elementlarining klark-konsentratsiyalari Hf – 1,5-1,9; W – 1,3-3,2; Mo – 1,1-3,4 uchun nisbatan teng taqsimlanganligi va Re – 2,6-11,8 (esseksit-diabazlarda uning maksimal to'planishi bilan – 0,01 g/t) uchun nisbatan notekis taqsimlanganligi bilan xarakterlanadi (2-rasm).



2 - rasm. Sukar maydonining daykalari jinslarida Au ning tarqalish gistogrammasi (g/t).

U va Th ning klarkdan yuqori miqdori Sukar maydonining deyarli barcha daykalari uchun xarakterli (U uchun minettlar va Th uchun vogeztlar va minettlardan tashqari).

15. Zunnunov F.X., Zilbershteyn M.E., Glubinoe stroene Ferganskoy vpadini Tashkent. FAN.1973



UDK: 631/635.628.1

Olimjon XAKIMOV,
Angren universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: khakimov_olimon@mail.ru

CHDPU Geografiya kafedrasida professori A.Urabayev taqrizi asosida

DELTA GEOTIZIMLARIDAGI LITO-MORFO-PEDOGENEZ JARAYONI VA UNI TADQIQ QILISHNING ILMIY AHAMIYATI

Аннотация

Maqolada delta geotizimlardagi lito-morfo-pedogenenez jarayoni va tadqiq qilishning ilmiy ahamiyati ochib berilgan. Relef plastikasi kartasi asosida ilgari hosil bo'lgan tuproqlarning geografyasi va hozirgi vaqtda tuproqlarda ro'y berayotgan pedogenenez jarayonlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: havza, lito-morfo-pedogenenez, relyefning havzaviy strukturasi, Yer resurslari, kichik deltalar, tizimli foydalanish, geotizim, relyef plastikasi, balandliklar va pastliklar.

НАУЧНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПРОЦЕССА ЛИТО-МОРФО-ПЕДОГЕНЕЗА В ДЕЛЬТОВЫХ ГЕОСИСТЕМАХ И ЕГО ИССЛЕДОВАНИЕ

Аннотация

В статье раскрывается научная значимость процесса лито-морфо-педогенеза и исследований в дельтовых геосистемах. На основе карты пластики рельефа изучена география ранее образовавшихся почв и процессы педогенеза, происходящие в почвах в настоящее время.

Ключевые слова: бассейн, лито-морфо-педогенез, бассейновая структура рельефа, Земельные ресурсы, мелкие дельты, системные использования, геосистема, пластики рельефа, повышения и понижения.

SCIENTIFIC SIGNIFICANCE OF THE PROCESS OF LITHO-MORPHO-PEDOGENESIS IN DELTA GEOSYSTEMS AND ITS RESEARCH

Annotation

The article reveals the scientific significance of the process of litho-morpho-pedogenesis and research in delta geosystems. Based on the relief plasticity map, the geography of previously formed soils and the processes of pedogenesis occurring in soils at present are studied.

Key words: basin, litho-morpho-pedogenesis, basin relief structure, land resources, small deltas, systemic uses, geosystem, relief plastics, elevations and depressions.

Kirish. Har bir obyektini har tomonlama tahlil qilish uchun dastlab uning kelib chiqish tarixiga katta e'tibor beriladi. Binobarin, deltalarning kelib chiqishi va uning o'ziga xos tabiiy-geografik qonuniyatlarini tadqiq qilish doimo tabiatshunos olimlarni o'ziga jalb qilib kelgan. V.M.Borovskiy o'zining Sirdaryo deltasida 1942-1945 yillarda olib borgan ilmiy tadqiqotlari asosida deltadagi "Lito-morfo-pedogenenez jarayonlarining yaxlitligi" haqidagi ta'limotini ishlab chiqdi. Uning bu ta'limoti 1958 yilda M.A.Pogrebinskiy bilan hamkorlikda yozgan "Sirdaryoning qadimgi deltasi va Shimoliy Qizilqum" nomli monografiyasida o'z aksini topdi. Ilmiy adabiyotlarda lito-morfo-pedogenenez haqidagi ilmiy tushuncha birinchi bor 1947 yilda qo'llanilgan.

Bu ta'limot haqida fikr yuritishdan avval, biz deltadagi tuproq hosil bo'lish jarayonining o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalib o'tishni joiz deb topdik. Deltadagi tuproq hosil bo'lish qonuniyatlarini tahlil qilish o'ta murakkab vazifadir. Deltalarda tuproqlarning hosil bo'lishi avvalambor daryo olib kelgan yotqizilarga va ularning mexanik tarkibiga bog'liqdir. Ana shuning uchun ham tuproqlarning vertikal va gorizontal yo'nalishlarida juda katta litologik tafovutlar keskin namoyon bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, deltadagi tuproqlarning ko'pchiligi gidromorf tuproqlar bo'lish bilan birga, ularning ba'zilar relik gidromorf xususiyatga egadir. Hosil bo'lgan tuproqlarning bundan keyingi taraqqiyoti yaqin joylashgan grunt suvlari bilan bog'liqdir. Tuproq gorizontalida doimo suv va tuz almashinuvining vertikal turi ustunlik qiladi. Grunt suvlarining tarkibida ko'p tuzlarning bo'lishi, o'z navbatida, tuproqlarning suv-tuz rejimiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi. Deltaning tuproq gorizontalida V.V.Dokuchayev ajratgan genetik gorizontalarni ajratish juda qiyin.

Tadqiqotchilar deltaning o'ziga xos tuproqlarini tadqiq qilishda asosiy e'tiborni alohida olingan tuproqlarning morfologik belgilariga va tuproq hosil qiluvchi omillarga qaratganlar. Deltadagi tuproqlarning hosil bo'lish jarayonlari olimlarning tadqiqotlarida to'liq yoritilgan (Yegorov, 1978; Ishankulov, 1979; Urazboev, Xursanov, 2017).

V.M.Borovskiyning Sirdaryo deltasida olib borgan tadqiqotlari natijasida tuproq hosil qiluvchi jarayonlarning tabiiy bog'lanish g'oyasi deltadagi lito-morfo-pedogenenez jarayonining birligi ta'limotida o'z aksini topdi. Bu tadqiqotlarning asosiy vazifasi lito-morfo-pedogenenez jarayonining dinamikasini va strukturasi o'rganishdir. Bu usul ilgari meliorativ landshaftshunoslikda qo'llanmagan bo'lib, tabiat tizimlarini o'rganish nuqtai nazaridan tadqiqot olib borilgan.

Delta sharoitida daryo o'zanining ko'p tarmoqlarga bo'linib ketishi, buning natijasida loyqa jinslarning yotqizilishi va uning uzluksiz ko'tarilishi ro'y beradi. Hosil bo'lgan balandliklar o'zan atrofidagi hududlarga nisbatan ustunlik qilish tashabbusini o'z qo'lga oladi, ya'ni atrofdagi pastlik hududlarning holati to'g'ridan-to'g'ri o'zan atrofidagi balandliklarga bog'liq bo'lib qoladi. Tabiiy do'nglarning hosil bo'lishi natijasida o'zan atrofiga o'zanbo'yi balandliklari va ularning oraliqlarida o'zanlararo pastliklar hosil bo'ladi. O'zanlarda suv ko'p bo'lgan yillari o'zanbo'yi balandliklarining o'pirlilishi va suvning toshishi ro'y beradi. Yer usti suv oqimlarining o'zgarishi natijasida yotqizilarning har xil guruhlarga bo'linishi sodir bo'ladi, ya'ni allyuvial yotqizilarning fazoviy tabaqalanishi ro'y beradi. O'zanbo'yi balandliklarida yirik qumoq va qumloqlar to'plansa, o'zanlararo pastliklarda mayda loy yotqizilari to'planadi (Urabayev, Xursanov, 2017).

Toshqin suvlarining toshishi ko'pgina delta tarmoqlari yo'nalishining o'zgarishiga olib keladi. Eski o'zanlarning qurib qolishi va yangi o'zanlarning hosil bo'lishi natijasida tarkib topgan avvalgi litologik-morfologik komplekslarning ko'milib qolishiga sabab bo'ladi, ya'ni yangi yotqizilarning ostida ilgari hosil bo'lgan yotqizilarning bo'ladi. Bu jarayonlarning hammasi deltadagi litomorfogenetik qonuniyatlarini o'rganishni qiyinlashtiradi.

Deltalarda grunt suvining yaqin bo'lgan vaqtda asosan gidromorf tuproqlar (o'tloq va botqoq) rivojlanadi. O'tloq tuproqlarining hosil bo'lishi suv toshqinlarining bo'lishi va yaqin joylashgan chuchuk grunt suvlari bilan chambarchas bog'liqdir. O'tloq tuproqlarining hosil bo'lish jarayonlari o'zanbo'yi balandliklarida ro'y beradi. Botqoq tuproqlarining hosil bo'lishida suv toshqinlari asosiy rol o'ynaydi. Shunday qilib, deltalarda tuproqlarning hosil bo'lishi, rivojlanishi va fazoviy tabaqalanishi lito-morfo-pedogenenez jarayoni bilan bog'liq holda ro'y beradi. Shuning uchun ham bu jarayon lito-morfo-pedogenenez deb ataladi. Boshqacha aytganda, deltalarda tuproqlarning hosil bo'lishi, rivojlanishi va fazoviy tabaqalanishi delta tarmoqlarining olib kelgan yotqizilarga va ularning relyef bilan bog'langan holda geografik tarqalishiga bog'liqdir.

Deltalardagi lito-morfo-pedogenez jarayonining yaxlitligi ta'limoti akademik V.M.Borovskiya tegishli. Bu ta'limotning tabiiy geografiyada rivojlanishi esa M.SH.Ishanqulov nomi bilan bog'liqdir. Olimning fikriga ko'ra, lito-morfo-pedogenez jarayoni tabiatda ko'p tarqalgan bo'lib, barcha akkumulyativ landshaftlarga xosdir. Relyef plastikasi usuli asosida deldadagi lito-morfo-pedogenez jarayonining yaxlitligini o'rganishda landshaft tabiiy geografik omillarga, ya'ni ayniqsa yer usti suv oqimiga katta e'tibor berdik. Deldadagi lito-morfo-pedogenez jarayoni to'g'ridan-to'g'ri yer usti oqimining dinamikasiga bog'liqdir. Bizga ma'lumki, S.D.Muravevskiy o'zining 1948 yilda bosilib chiqqan "Geografik majmualarning hosil bo'lishida geografik omillarning roli" nomli nazariy maqolasida landshaft hosil bo'lishida iqlim, relyef qanday rol o'ynasa, uchinchi geografik omil – yer usti suv oqimi ham huddi shunday rol o'ynashini ilmiy asoslab berdi, ya'ni yer usti suv oqimi natijasida hosil bo'lgan delta relyefining daraxtsimon strukturasi boshqa tip landshaftlaridan keskin farq qilishini ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda, S.D.Muravevskiy yer usti suv oqimiga katta e'tibor bergani holda quyidagi xulosaga keladi: "Transportsiz, ko'chib yurishsiz harakatning bo'lishi mumkin emas, o'zaro aloqaning, o'zaro ta'sirning bo'lishi mumkin emas. Transportning mana shu muhim roli, Yer yuzasida moddalarning ko'chib yurishi birinchi navbatda va asosan yer usti suv oqimi jarayonining zimmasiga tushadi".

Deldadagi lito-morfo-pedogenez jarayonini tadqiq qilishda biz masshtabi 1:25000 bo'lgan topografik kartalar asosida tuzilgan yirik masshtabli relyef plastikasi kartalarini qo'llashni taklif etamiz. Yirik masshtabli relyef plastikasi kartalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, deldaning umumiy shakli va uni tashkil qilgan kichik deldalarning strukturasi daraxtsimon bo'lib, bu struktura to'g'ridan-to'g'ri delta tarmoqlari olib kelgan yotqiziq'larga bog'liqdir. A.K.Urazbayevning ko'p yillar davomida (1979-2002) Amudaryoning hozirgi deldasida olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, delta o'z navbatida yaxlit delta bo'lish bilan bir qatorda, 9 ta kichik deldalardan tashkil topgan, ya'ni kichik deldalarning yig'indisi yaxlit katta deldani hosil qiladi.

V.M.Borovskiyning Sirdaryo deldasida olib borgan tadqiqotlariga bog'liq bo'lmagan holda, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tuproqshunoslik institutining olimlari 1952-1954 yillar oralig'ida, N.V.Bogdanovich rahbarligida Amudaryo hozirgi deldasining tuproqlarini maxsus o'rganish uchun ilk bor ekspeditsiya tadqiqotlarini olib borishgan. Olib borilgan tadqiqot natijalari N.V.Bogdanovichning (1955) "Amudaryo deldasidagi tuproq hosil bo'lishining ba'zi bir xususiyatlari" nomli maqolasida o'z aksini topgan. N.V.Bogdanovich o'zining olib borgan tadqiqotlari natijasida delta relyefini uch guruhga ajratgan: 1. O'zanbo'yi balandliklari; 2. O'zanbo'yi balandliklarining yonbag'irlari; 3. O'zanlararo pastliklar. Ajratilgan relyefning uch guruhi B.B.Polinov (1956) ajratgan elementar landshaftlarning guruhlariga (elyuvial, trans-elyuvial, superakval) to'liq mos keladi.

N.V.Bogdanovich Amudaryo hozirgi deldasida olib borgan tadqiqotlari davomida aytib o'tgan relyefning uch guruhiga oid tuproqlar mexanik tarkibining geografik tarqalishini ham tahlil qiladi. Tahlil jarayonida u tuproqning yuqori 0-3 m gorizontini hisobga oladi: 1. O'zanbo'yi yotqiziq'larda asosan qum, qisman qumloq bo'ladi. Bu yotqiziq'larda Amudaryo hozirgi deldasida 20% hududni egallaydi; 2. O'zanbo'yi balandliklarining yonbag'irlarida qumoq, qumloq va qum birgalikda uchraydi, ya'ni ular 25% hududni egallaydi; 3. O'zanlararo pastliklardagi hududlarda soz va og'ir qumoq ustunlik qiladi. Bu yotqiziq'larda 55% hududni egallaydi.

Ma'lumki, deldadagi lito-morfo-pedogenez jarayoni to'g'ridan-to'g'ri yer usti suv oqimi bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham oqimning faoliyati natijasida hosil bo'lgan strukturaning roli kattadir. Relyef plastikasi kartasida ko'rsatilgan kichik deldalarning daraxtsimon strukturasi deldadagi lito-morfo-pedogenez jarayonini o'rganish uchun asos bo'lishi kerak. Delta tarmoqlarining energiyasi har xil bo'lganligi uchun ham hosil bo'lgan kichik deldalarning barchasi daraxtsimon strukturaga ega bo'lsada, ammo ularning maydonlari har xil bo'ladi. Hosil bo'lgan har xil maydondagi kichik deldalarda tuproqlarning mexanik tarkibi, o'zanbo'yi balandliklarining maydoni va turli mexanik tarkibga ega bo'lgan har xil turdagi tuproqlarning relyef strukturasi bilan bog'liqligi turlicha bo'ladi.

Misol uchun, Amudaryoning hozirgi deldasidagi eng katta maydonga ega bo'lgan "Qizketken-Chimboy" va eng kichik maydonga ega bo'lgan "SHo'rtamboy" kichik deldalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, "Qizketken-Chimboy" deldasida o'zanbo'yi balandliklari katta maydonga ega bo'lganligi uchun, bu kichik deldada yengil yotqiziq'lardan ustunlik qiladi. "SHo'rtamboy" kichik deldasida esa uning aksi bo'lib, og'ir loy yotqiziq'lari ustunlik qiladi. Demak, har xil energiyaga ega bo'lgan delta tarmoqlaridan hosil bo'lgan kichik deldalarda mexanik tarkib turlicha bo'ladi. Mexanik tarkibining har xil bo'lishi tuproqlarning hosil bo'lishida o'z aksini ko'rsatadi, ya'ni har bir kichik deldalarda balandliklar va pastliklar bir xil bo'lmaganligi uchun ham tuproqlarning genetik turlari va ularning maydonlari ham bir xil bo'lmaydi.

Delta tarmoqlarining energiyasiga bog'liq holda, olib kelgan yotqiziq'larning yotqizilishi natijasida hosil bo'lgan o'zanbo'yi balandliklari har xil kichik deldalarda turlicha bo'ladi. Misol uchun, yuqorida ko'rib chiqilgan "Qizketken-Chimboy" kichik deldasida o'zanbo'yi balandliklari katta maydonni egallasa, "SHo'rtamboy" kichik deldasida o'zanbo'yi balandliklari kichik maydonni egallaydi. Demak, o'zanbo'yi balandliklarining ko'p yoki oz bo'lishi to'g'ridan-to'g'ri grunt suvlarining chuqurligiga ta'sir etadi. Shuning uchun ham, grunt suvlarining chuqurligi har xil bo'lganligi sababli, yuqoridagi Qizketken-Chimboy va SHo'rtamboy kichik deldalarida lito-morfo-pedogenez jarayonlari turlicha ro'y beradi. Shu sababli hozirgi vaqtda Qizketken-Chimboy kichik deldasida o'tloq-taqirli tuproqlari ustunlik qilsa, SHo'rtamboy kichik deldasida grunt suvlari yaqin joylashganligi uchun asosan o'tloq, ba'zi hollarda botqoq tuproqlar uchraydi. Delta sharoitida grunt suvlarining yaqin yoki chuqur joylashishi o'zanbo'yi balandliklari va o'zanlararo pastliklar bilan bog'langan bo'lib, tuproq hosil bo'lishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Demak, delta tarmoqlari olib kelgan yotqiziq'larning yotqizilishi natijasida balandliklar va pastliklarning hosil bo'lishi grunt suvlarining chuqurligiga ta'sir etadi, ya'ni deldadagi lito-morfo-pedogenez jarayonida grunt suvlari ham katta rol o'ynaydi. Boshqacha so'z bilan aytganda, grunt suvlarining chuqurligi relyef bilan bog'langan bo'lib, kichik deldalarning daraxtsimon strukturasi qonuniyatli ravishda deldaning yuqori qismidan quyi qismi tomon tartibli holda o'zgaradi.

Delta tarmoqlarining hosil bo'lish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eski o'zanlarning paydo bo'lishi to'g'ridan-to'g'ri yer usti suv oqimining energiyasi bilan bog'liqdir, ya'ni delta tarmoqlarining bu o'zgarib turishi tuproqlarning mexanik tarkibiga katta ta'sir etadi. Qizketken-Chimboy kichik deldasining quyi qismidagi yotqiziq'larni ancha yosh bo'lgan Ko'hnadaryo-Qozoqdaryo kichik deldasining yotqiziq'lari qoplagan, ya'ni Qizketken-Chimboy kichik deldasining yotqiziq'lari Ko'hnadaryo-Qozoqdaryo kichik deldasining yotqiziq'lari tagida qolib ketgan. Shuning uchun ham bu ikki kichik deldalarning tutashgan hududlarida juda murakkab lito-morfo-pedogenez jarayoni ro'y beradi. Yuqorida aytib o'tilgan barcha kichik deldalarning daraxtsimon strukturalari yirik masshtabli relyef plastikasi kartalarida aniq ko'rsatilgan. Boshqacha so'z bilan aytganda, kichik deldalarning daraxtsimon strukturalari qancha aniq ko'rsatilsa, ana shu kichik deldalarda ro'y bergan lito-morfo-pedogenez jarayonining natijalari maxsus mavzuli kartalarda shuncha aniq ko'rsatiladi.

V.M.Borovski, M.A.Pogrebinskiyning ta'limoti bo'yicha yer usti suv oqimining faoliyati natijasida relyef, tuproq hamda yotqiziq'larning mexanik tarkibining hosil bo'lishi bir-biri bilan chambarchas bog'langandir. Bir so'z bilan aytganda, delta yer usti suv oqimining faoliyati natijasida relyefning daraxtsimon shakli hosil bo'lgan. Hozirgi vaqtda esa, ana shu relyefning daraxtsimon shakli bilan bog'langan tabiiy-meliorativ sharoitning strukturasi yer usti suv oqimining yo'nalishini belgilaydi. Tabiatda yer usti suv oqimi, relyefning daraxtsimon shakli va tabiiy-meliorativ sharoitning strukturasi o'rtasida uzluksiz zanjirli reaksiya ro'y beradi.

Deldaning hosil bo'lish tarixida ro'y bergan "Lito-morfo-pedogenez" jarayonida asosan yer usti suv oqimining faoliyati natijasida relyef daraxtsimon shaklining hosil bo'lishi yaxlit tizimning birinchi bosqichi deb qaraymiz. Jarayonning ikkinchi bosqichida relyef daraxtsimon shaklining faoliyatida tabiiy-meliorativ sharoitning strukturasi hosil bo'lsa, uchinchi bosqichda esa tabiiy-meliorativ sharoitning strukturasi yer usti suv oqimining yo'nalishini belgilab beradi.

Hozirgi vaqtda, deldadagi sug'oriladigan va sug'orilmaydigan hududlardagi tabiiy-meliorativ sharoit to'g'ridan-to'g'ri relyefning daraxtsimon shakli bilan bog'langanligi uchun fanga tabiiy-meliorativ sharoitning strukturasi degan tushunchani kiritdik. Delta geotizimlaridagi tabiiy-meliorativ sharoitni belgilashda relyefning daraxtsimon shakli birinchi tabiiy-geografik omil bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham tabiiy-meliorativ sharoitning strukturasi tadqiq qilishda relyef plastikasi usulining roli beqiyos bo'lib, bu usul delta tarixida ro'y bergan va hozirgi vaqtda ro'y berayotgan 1,2 va 3- bosqichlar o'rtasidagi zanjirli reaksiyani o'rganish uchun ham nazariy, ham amaliy dastur bo'lib hisoblanadi.

Lito-morfo-pedogenez qonuniyatining asosida yer usti suv oqimi bilan bog'liq bo'lgan moddalarning almashinuvi yotadi. Bu esa o'z

navbatida daltalarning hosil bo'lishi va dinamikasini tadqiq qilishga asos bo'ladi. Lito-morfo-pedogenez jarayonining yaxlitligi deganda, daryo tarmoqlari olib kelgan yotqiziqning yotqizilishi natijasida har xil litologik tarkibga ega bo'lgan o'zanbo'yi balandliklarining va pastliklarining hosil bo'lishi hamda relyefning ana shu ikki elementiga bog'liq holda tuproqlarning hosil bo'lishi tushuniladi. Yotqiziqning yotqizilishi natijasida hosil bo'lgan balandliklarga va pastliklarga bog'liq holda tuproqlarning hosil bo'lishi tushuniladi, ya'ni tuproqlarning hosil bo'lishi to'g'ridan-to'g'ri yotqiziqning litologiyasi va relyefning ikki elementi (balandliklar va pastliklar) bilan bog'liqdir.

Bizningcha, relyef plastikasi kartasi asosida lito-morfo-pedogenez jarayonini tadqiq qilishda daltaning hosil bo'lish tarixiga va dinamikasiga katta e'tibor berish lozim. Har bir katta deltani tashkil qiluvchi kichik daltalarning tarixi har xil bo'lib, bir vaqtda paydo bo'lmagan. Hozirgi Amudaryo deltasining relyef plastikasi kartasini tahlil qiladigan bo'lsak, uning janubidagi kichik daltalarning (Qizketken-Chimboy, SHo'rtamboy, Uldaryo va boshqalar) yoshi 5000 yil bo'lsa, shimoldagi kichik daltalarning (Ko'hnadaryo-Qozoqdaryo, Qipchoqdaryo va boshqalar) yoshi 2000 yildir. Shu bilan bir qatorda hozirgi vaqtda har xil yoshga ega bo'lgan kichik daltalar o'zlarining dinamikasi va o'zlarida ro'y berayotgan pedogenez jarayonlari bilan bir-biridan keskin farq qiladi.

Shunday qilib, relyef plastikasi kartasi asosida daltalarda ilgari ro'y bergan lito-morfo-pedogenez jarayonining yaxlitligini va hozirgi vaqtda tuproqlarda ro'y berayotgan meliorativ jarayonlarni tadqiq qilishda quyidagi metodologik ko'rsatmalarga amal qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: 1. Relyef plastikasi kartasi delta tarmoqlari olib kelgan yotqiziqning yotqizilishi natijasida hosil bo'lgan o'zanbo'yi balandliklarini va o'zanlararo pastliklarni aniq ko'rsatadi; 2. Yirik messhtabli (1:25000) relyef plastikasi kartasi har xil litologik tarkibga ega bo'lgan o'zanbo'yi balandliklarining va o'zanlararo pastliklarning litologiyasini tadqiq qilish uchun nazariy asos bo'la oladi; 3. Relyef plastikasi kartasi asosida ilgari hosil bo'lgan tuproqlarning geografiyasi va hozirgi vaqtda tuproqlarda ro'y berayotgan pedogenez jarayonlari o'rganiladi; 4. Relyef plastikasi kartasi asosida tuziladigan "Tuproq qoplamining strukturasi kartasi" tuproq xillarining o'zanbo'yi balandliklari va o'zalararo pastliklar bilan aloqadorligini aniq ko'rsatadi; 5. Relyef plastikasi kartasi kichik daltalarning daraxtsimon strukturasi aniq ko'rsatganligi uchun ana shu kichik daltalarda hozirgi vaqtda ro'y berayotgan pedogenez jarayonining dinamikasini tadqiq qilish uchun ham nazariy, ham amaliy asos bo'ladi; 6. Relyef plastikasi kartasida daltadagi barcha balandliklar va pastliklar aniq ko'rsatilganligi uchun bu kartalar ana shu relyefning ikki elementi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni va aloqadorlikni vujudga keltiruvchi yer usti suv oqimlarining fazoviy tabaqalanishini o'rganish uchun asosdir; 7. Relyef plastikasi kartasi bir tomondan daryo tarmoqlari olib kelgan har xil litologik tarkibning yotqizilishi natijasida hosil bo'lgan o'zanbo'yi balandliklarini va o'zanlararo pastliklarni aniq ko'rsatsa, ikkinchi tomondan ana shu litologik tarkibga va relyefning ikki elementiga bog'liq bo'lgan pedogenez jarayonini o'rganish uchun asosdir; 8. Relyef plastikasi kartasi asosida daltalarning lito-morfo-pedogenez ta'limotini o'rganish oliy o'quv yurtlarining talabalarida daltaning o'ziga xos geografik kompleks ekanligini tushunish uchun ilmiy metodik asosdir, ya'ni o'lkashunoslik ma'lumotlari asosida ta'lim tizimida bilim berishda ana shu geografik obyektning o'ziga xos ichki strukturaga ega bo'lgan tabiiy hududiy kompleks deb qarash maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Уразбаев, А. К., Ражабов, Ф. Т., & Иброимов, Ш. И. (2023). Значение бассейновой концепции в рациональном использовании водно-земельных ресурсов орошаемых земель современной дельты Амударьи. *Центральноазиатский журнал географических исследований*, 1-2 (1-2), 38-47.
2. Уразбаев Абдукарим Кендирбаевич, Ражабов Фуркат Туракулович, & Иброимов Шерзод Иброим Угли (2022). METHODOLOGICAL BASIS FOR USING THE RELIEF PLASTIC METHOD IN STUDYING NATURAL AND ECONOMIC SYSTEMS OF RESERVOIR BASINS. *Центральноазиатский журнал географических исследований*, 1-2, 29-36.
3. Sherzod IBROIMOV. (2024). PARAGENETIC LANDSCAPE COMPLEXES OF RESERVOIR BASINS OF THE MODERN AMU DARYA DELTA AND THEIR NATURAL AND AMELIORATIVE CONDITIONS. *News of the NUUZ*, 3(3.1), 229-233. <https://doi.org/10.69617/uzmu.v3i3.1.1780>



UO•K:801.311(575.1)

Shavkat SHARIPOV,

O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, g.f.d

E-mail: sh.sharipov@nuu.uz

Sadriiddin SIDDIQOV,

Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

O‘zMU dotsenti, g.f.n. O‘.Abdunazarov taqrizi asosida

CHORVOQ ERKIN TURISTIK ZONASINING EKOTURISTIK IMKONIYATLARI VA EKOLOGIK MUAMMOLARI

Аннотация

Maqolada Chorvoq erkin turistik zonasining ekoturistik imkoniyatlari hamda turistik faoliyat natijasida vujudga kelayotgan muammolari yoritilgan. Shuningdek, zona hududidagi o‘simlik bilan qoplangan maydonlar hamda bino va inshootlar maydonining o‘zgarishi zamonaviy metodlardan foydalanib tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Turizm, ekoturizm, qo‘riqxonalar, milliy tabiat bog‘lari, biosfera rezervatlari, agroturizm, eroziya, NDVI.

ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ СВОБОДНОЙ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ЗОНЫ

ЧАРВАК

Аннотация

В статье описаны экологический потенциал свободной туристской зоны Чарвак и проблемы, возникающие в результате туристской деятельности. При этом с использованием современных технологий были проанализированы изменения площади, покрытой растительностью, и площади зданий в зоне.

Ключевые слова: Туризм, экотуризм, заповедник, национальный парк, биосферный резерват, агротуризм, эрозия, NDVI.

ECOTOURISM POTENTIAL AND ENVIRONMENTAL PROBLEMS OF THE CHARVAK FREE TOURIST ZONE

Annotation

The article describes the ecological potential of the free tourist zone Charvak and the problems arising as a result of tourist activities. At the same time, using modern technologies, changes in the area covered by vegetation and the area of buildings in the zone were analyzed.

Key words: Tourism, ecotourism, reserve, national park, biosphere reserve, agrotourism, erosion, NDVI.

Kirish. Hozirgi paytda turizm sohasidan foydalanuvchilarning ko‘p qismi ekoturizmda ishtirok etmoqda. Jahon turistik tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, “turizmning ko‘p turlari yiliga o‘rtacha 5 foizga o‘sgan bo‘lsa, ekoturizm yiliga o‘rtacha 20-30 foizga o‘sib bormoqda” [7]. Ayniqsa, bevosita dengizga chiqish imkoniyati bo‘lmagan, o‘zining tog‘li va xushmanzara hududlariga ega bo‘lgan ichki kontinental davlatlarda ekoturizmni rivojlantirish va, bu orqali, atrof-muhit muhofazasini amalga oshirish bugungi iqlim o‘zgarishi davrida dolzarb hisoblanadi. Ekoturistik imkoniyati yuqori bo‘lgan Chorvoq erkin turistik zonasini (ChETZ) xushmanzara go‘shalari, rang-barang tabiati bilan turistlarni o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Bu esa, hududda bir qancha ekologik muammolarni ham vujudga keltirmoqda.

Asosiy qism. Ekoturizm sayohat maqsadiga ko‘ra ta‘limiy ekoturizm, faol ekoturizm, agroturizm yoki qishloq turizmi kabi turlarga bo‘linadi [5].

Ta‘limiy ekoturizm adabiyotlarda tabiatni ilmiy jihatdan o‘rganish deb tavsiflanadi. Mazkur ekoturizm turida botanik, geologik, tarixiy, arxeologik, etnografik, ornitologik, ixtiologik maqsadlardagi turistik sayohatlarni amalga oshirish tushuniladi. Bunda asosan muhofaza etiladigan hududlar – qo‘riqxonalar, milliy tabiat bog‘lari, biosfera rezervatlari, parvarishxonalar, buyurtmaxonalar, tarixiy arxeologik obyektlar va boshqa obyektlarga sayohatlar uyushtiriladi [6]. ChETZda ekoturizmning ta‘limiy yo‘nalishda tashkil qilish uchun yetarlicha imkoniyatlar mavjud. Jumladan, hududda qo‘riqxonalar, milliy bog‘, biosfera rezervatining mavjudligi hududga tashrif buyuruvchilarda o‘simlik va hayvonot dunyosi haqidagi ma‘lumotlarni olishda muhim hisoblanadi. Zona hududida Ugom-Chotqol davlat milliy tabiat bog‘ining mavjudligi ta‘limiy ekoturizmni rivojlantirishda alohida o‘rin tutadi. Ugom-Chotqol davlat milliy tabiat bog‘ida 230 turdagi hayvon, 10 tur o‘simlik, 4 ta tabiiy ko‘llar (Urungach, Bodak, Shaurko‘l, Ixnoch) mavjud.

Faol ekoturizm tarkibiga alpizm, kruz, piyoda sayr, chang‘i uchish, speleoturizm, veloturizm, otda sayr qilish, trekking va rafting kabilar kiradi. Faol ekoturizm ishtirokchilari asosan dengiz, ko‘l, suv omborlari sohillariga, daryo va soy havzlariga, tog‘larning yonbag‘irlari turizm uchun qulay bo‘lgan qismlariga sayohatlar uyushtiriladi.

Agroturizm – qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalar va fermer xo‘jaliklari yerlariga uyushtiriladigan sayohat. Asosan, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari, plantatsiyalar, mevali bog‘lar, asalari uya(quti)lari joylashgan hududlarga sayohatlar amalga oshiriladi. ChETZ hududidagi plantatsiyalarda uzumzor, yong‘oqzor, bog‘lar, dorivor o‘simliklarning mavjudligi agroturizm uchun resurs bo‘lib xizmat qiladi. Chimboqliq, Chimyon, Ispay qishloqlarida asalarichilik, Chimyon, Chimboqliq qishloqlarida qimz tayyorlash, Chorvoq suv ombori, daryo va soylarda baliq ovi yo‘lga qo‘yilganligi ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari yuqoriligini ko‘rsatadi.

ChETZ hududida hozirgi paytda turistik faoliyat natijasida vujudga kelayotgan ekologik muammolarni quyidagi 6 ta turini ajratish mumkin:

1. Turistik infratuzilma obyektlarini qurish hisobiga daryo o‘zan va qirg‘oqlaridan noruda foydali qazilmalarni belgilangan me‘yordan ortiq qazib olish natijasida eroziya jarayonlarining ortishi. ChETZ hududiga tashrif buyuruvchi sayyohlar sonining ortishi natijasida yangi mehmon uylari va boshqa turdagi turistik obyektlarga bo‘lgan ehtiyoj ortmoqda. Natijada, yangi turistik obyektlarni qurish ishlari yildan-yilga ortib bormoqda. Bu esa, qurilish materiallariga bo‘lgan talabning ortishiga va atrof-muhitni qurilish chiqindilari bilan ifloslanishiga olib kelmoqda. Mazkur talabni qondirish uchun asosiy qurilish materiali hisoblangan qum-shag‘al daryo va soy o‘zanlaridan qazib olinadi. Bu esa, o‘z navbatida, daryo va soy qirg‘oqlarining yemirilishiga olib kelmoqda.

2. Turistlarining dam olish vaqtlarida belgilanmagan hududlarga chiqindilar tashlashi. Turistlarining dam olish vaqtlarida belgilanmagan hududlarga chiqindilar tashlashi hamda o‘simlik bilan qoplangan hududlardan yangi so‘qmoqlarni ochish holatlari vujudga kelmoqda. Ma‘lumki, dam olish uchun otlangan sayyohlarning juda ko‘pchiligi sayohatlari yakunida ma‘lum bir miqdorda turli xil chiqindilarni tashlaydi. Turistik zona hududiga yoz faslida dam olish uchun kelgan 200 ga yaqin sayyohlardan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra dam olish uchun kelgan bir nafar sayyoh uchun o‘rtacha 1,2 kg atrofida maishiy chiqindilar to‘g‘ri kelishi aniqlandi. ChETZ hududiga yoz faslida kelgan sayyohlar soni taxminiy 11 522 973 nafarni tashkil qiladi. O‘rtacha har bir sayyoh uchun to‘g‘ri keladigan chiqindi miqdori 13,8 ming tonnadan ziyodroqni tashkil

etmoqda. Muammoning asosiy tomoni shundaki, ChETZ hududida joylashgan turistik obyektlar va aholi tomonidan atrof-muhitga chiqariladigan chiqindilarni "Rahnamo trans" MChJ tomonidan olib ketiladi. "Rahnama trans" MChJ dan olingan ma'lumotlarga ko'ra, yoz oylarida 1585 m3 hajmdagi, yoki 665,7 tonna chiqindi olib ketiladi. Olib ketiladigan chiqindi miqdori umumiy chiqindi miqdoriga nisbatan 5 % qismini tashkil qiladi. Qolgan 95 % chiqindi miqdori aholi manzilgohlaridan olib chiqilgan hududlarda nazoratsiz holatda qolmoqda. Shuningdek, daryo va soy qirg'oqlarida, Chorvoq suv omborining quyi qismida, o'rmonlarning ochiq qismida, avtomobil yo'llari chetida, sharshara va g'orlar yaqinida ham sayyohlar tomonidan tashlangan chiqindilar mavjudligi aniqlandi. Chorvoq suv omborining aholi istiqomat qilmaydigan hududlarda kichik-kichik chiqindi uyumlari soni ortib bormoqda. Bu esa, atrof-muhit holatining yomonlashuviga olib kelmoqda.

3. Dam olish uchun kelgan sayyohlarning avtomobilidan chiqadigan zaharli gazlar miqdoriga nisbatan ortib borishi. ChETZ hududida dam olishni xohlovchi sayyohlar elektropoyezd, avtobus, yo'nalishli taksi va shaxsiy avtomobillardan foydalangan holda tashrif buyurish imkoniyati mavjud. Bugungi kunda sayyohlarning katta qismi jamoat transportlarida emas, balki shaxsiy avtomobillarida sayohat qilishni afzal ko'rmog'dalar.

Dunyo tajribasidan ma'lumki, atrof-muhitni ifloslovchi omillar qatorida avtotransport vositalarining o'rni yuqori hisoblanadi. "Avtotransport vositalaridan 200 ga yaqin zararli moddalar ajralib chiqadi. Mutaxassislarning hisob-kitobiga ko'ra, bitta avtomobil bir kunda 10-12 litr benzin yonilg'isi ishlatib, atmosfera ga 2,5 kg ga yaqin zararli moddalar chiqaradi" [2].

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzurida Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi tashkil etilgan bo'lib, mazkur boshqarma tomonidan turistik zona hududiga kirgan avtomobillar soni aniqlab boriladi. Avgust oyida ChETZ hududida atmosferaning avtomobillardan chiqqan zararli chiqindilar (Pm2) bilan ifloslanish holatlari ruxsat etilgan bo'yordan birmuncha yuqori bo'ladi. Bo'stonliq tumaniga olib boruvchi 4R-12 (Bektemir-Chorbog') trassasining Chorvoq, Xo'jakent, Sijjak kabi aholi manzilgohlariga yaqin qismida haftaning shanba va yakshanba kunlari kunning ikkinchi qismida tibandliklari soni ortib bormoqda. Bu esa, mazkur hududlarda atmosferaning ifloslanish holati boshqa hududlarga nisbatan birmuncha yuqori bo'lishiga olib keladi. Natijada, mazkur hududda atmosfera havosining ifloslanishi kuzatiladi.

4. Qish mavsumida mehmon uylari va boshqa turistik obyektlarda isitish, ovqat tayyorlash, gulxan yoqish va boshqa maqsadlarda daraxtlarni kesish. Turistik zonada qish mavsumida mehmon uylari va boshqa turistik obyektlarni isitish, ovqat tayyorlash, gulxan yoqish va boshqa maqsadlarda o'tindan foydalanish holatlari ko'paymoqda. Bu esa, o'z navbatida, daraxtlarni kesilish holatlari ortib borishiga olib keladi. Natijada, hududda kislorod ishlab chiqaruvchi va atmosferadagi zararli gazlarni yutilish holatlari kamayib, aholi salomatligi uchun zararli oqibatlarini keltirib chiqarmoqda.

5. Turistik faoliyat natijasida o'simlik qoplamining kamayishi. Turistik zona hududiga turistik infratuzilma obyektlari va boshqa antropogen omillar ta'sirini aniqlash uchun GAT texnologiyalaridan foydalanib "NDVI (Normalized difference vegetation index) tahlili amalga oshirildi. NDVI – normallashtirilgan o'simlik indeksi-fotosintetik faol biomassaning oddiy miqdoriy ko'rsatkichidir (odatda vegetatsiya indeksi deb ataladi). O'simlik qoplamining miqdoriy ko'rsatkichlaridan foydalangan holda hududdagi o'simlik qoplamining o'zgarishini tahlil qilishda keng foydalaniladi" [3]. NDVI tahlili amalga oshirilayotganida, avvalo hudud to'g'risidagi birlamchi meteorologik ma'lumotlar bazasi bilan tanishib chiqish lozim. Chunki, kosmik surat olingan paytdan qancha vaqt oldin yog'ingarchilik bo'lganini aniqlash natijalarning ishonchligini ta'minlaydi. Shuningdek, bu paytda tadqiqot hududida chang-to'zon, tuman, bulut bo'lmasligi natijalarning aniqligini yanada oshiradi. Shu bilan birga hududning tahlili o'tkazilayotgan davrlar uchun meteorologik ko'rsatkichlari ko'p yillik me'yorlaridan katta farq qilmasligi muhim hisoblanadi. Shu sababli ChETZ hududining 1990, 2000, 2010, 2020-yillardagi NDVI tahlilini amalga oshirish uchun mazkur davrlar oralig'ida iqlimiy ko'rsatkichlari o'rtacha ko'p yillik me'yoridan katta farq qilmaydigan sana tanlab olindi. Shuningdek, NDVI tahlili o'simliklarning yashillik ko'rsatkichiga asoslanganligi sababli, barcha turdagi o'simliklar to'liq unib chiqqan va fenologik bosqichning qurish davriga o'tmagan, yashillik darajasi eng yuqori bo'ladigan payt – may oyining birinchi dekadasi tanlab olindi. NDVI tahlilini degradatsiyaga uchramagan o'simliklar, o'rtacha degradatsiyaga uchragan o'simliklar, kuchli degradatsiyaga uchragan o'simliklar hamda o'simlik o'smaydigan hududlar kesimida amalga oshirish orqali antropogen omillar ta'sirida o'zgargan hududlar to'g'risida birlamchi ma'lumotlarni olish mumkin.

ChETZ hududida 1990-yil may oyida olingan kosmik surat tahliliga ko'ra zonaning 7,1 % yoki 67,345 km2 hududida o'simlik o'smayotganligi aniqlandi. O'simlik o'smaydigan hududlar asosan suv havzalari, aholi manzilgohlari, transport yo'llari, turli bino va inshootlar, tog'larning qor va muzliklar bilan qoplangan qismi hamda qoya va jarliklardan iborat bo'lgan. Shuningdek, 1990-yilgi kosmik suratda Chirchiq daryosining o'ng sohili, ChETZ hududining janubiy, sharqiy va shimoli-sharqiy qismida kuchli degradatsiyaga uchraganini ko'rish mumkin. Bu joylar zona hududining 10,2 % qismi yoki 96,6 km2 qismini tashkil etgan. Shuningdek, daryo va soylarning qirg'oqlarida, qishloq xo'jaligi ekin maydonlarida, aholi manzilgohlarining suv bilan yaxshi ta'minlangan hududlarida o'simliklar o'rtacha degradatsiyaga uchragan bo'lgan. Ularning umumiy maydoni zona hududining 47 % ini yoki 445,5 km2 qismini tashkil etgan. ChETZ hududining nam havo massalariga ro'para va janubiy qismlari, Chorvoq suv omborining sharqiy, janubiy va shimoliy qismi degradatsiyaga uchramagan bo'lgan. Bunday o'simliklarning umumiy maydoni 338,4 km2 yoki turistik zonaning 35,7 % qismini tashkil qilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

ChETZ hududida NDVI tahlili natijalari

№	Tahlil nomi	1990-yil	2000-yil	2010-yil	2020-yil
1	O'simlik o'smaydigan hudud	7,1	8,9	9,4	36,7
2	Kuchli degradatsiyaga uchragan	10,2	13,8	45,4	13,1
3	O'rtacha degradatsiyaga uchragan	47	48,1	40,5	44,8
4	Degradatsiyaga uchramagan o'simliklar	35,7	29,2	4,7	5,4

Jadval muallif tomonidan ArcGIS NDVI tahlili asosida tuzilgan

2020-yilda olingan kosmik surat tahlili shuni ko'rsatadiki, o'simlik o'smaydigan hududlar ulushi jadal ortib 9,4% dan 36,7 foizga yetgan. Ushbu jarayon bevosita kuchli degradatsiyaga uchragan o'simliklar tarqalgan hududdagi o'simliklarning biologik faoliyati yakunlanganligi, turistik zona hududida olib borilayotgan qurilish ishlari, turistlar sonining ortishi, nazoratsiz, tartibga solinmagan holda dam oluvchilarning ko'payishi iqlim o'zgarish jarayonlari bilan izohlash mumkin. So'nggi yillarda ChETZ hududiga tashrif buyuruvchi sayyohlarning ortib borishi va ular uchun yetarlicha infrastruktura obyektlarining mavjud emasligi hisobiga zona hududida so'nggi o'n yillikda qurilish ishlari jadal suratlarida amalga oshirildi. Natijada, o'simlik bilan qoplangan ko'plab hududlarda mehmonxona, mehmon uylari, hostellar, umumiy ovqatlanish shahobchalarini, avtomobil yo'llari va so'qmoqlar tarkib topganligini ko'rish mumkin.

Hududda olib borilayotgan turistik faoliyat turlari natijasida o'simliklar tarkibida degradatsiyaga uchramagan o'simliklar ulushi ham kamayib borayotganligi kuzatiladi. So'nggi 40 yil ichida ChETZ hududida o'simliklar tarkibida degradatsiyaga uchramagan o'simliklar ulushi 35,7 % dan 5,4 % kamayib ketganligini ko'rish mumkin. 30 yil davomida degradatsiyaga uchramagan o'simliklar 30,3 % ga kamaygan maydonlar asosan turistik obyektlar yaqinida, avtomobil yo'llari chetlarida, piknik va boshqa turdagi turistik faoliyat olib boriladigan hududlarda kamayganligi aniqlandi.

ChETZ hududida, aynan, turistik faoliyat natijasida atrof-muhit o'zgarishini aniqlash va tahlil qilishda Microsoft planetary.computer, sasplanet ilovalari va opensteyetmap, extract.bbike.org, naturalearthdata.com kabi saytlar ma'lumotlari yordam beradi. Keltirib o'tilgan dastur va ilovalar orqali turistik zona hududidagi so'nggi 20 yillikdagi bino va inshootlari maydoni, transport va so'qmoq yo'llari uzunligi va maydonining

o'zgarishini aniqlandi. Quyida keltirilgan (2-jadval) NDVI ko'rsatkichlari orqali asosiy o'zgarishlar so'nggi 20 yillikda sodir bo'lganini ko'rsatadi. Shu sababli, mazkur ikki davr oralig'ida bino hamda yo'llar o'zgarishini tahlil qilindi.

2-jadval

ChETZ hududidagi bino-inshootlari maydonining o'zgarishi (2000-2023-yy.)

№	Nomlanishi	2000-yil km2	2020-yil km2
1	Aholi manzilgohlari	17,3	26,2
2	Qishloq xo'jaligi yer	28,68	47,2
3	Buzilgan yerlar	1,7	3,1
4	Qabristonlar	1,1	1,7
5	Savdo obyektlari	0,2	0,3
6	Qishki sport majmualari	7,1	9,4
7	Rekreasion maydonlar	2,7	5,02
8	Qurilish maydonlari	1,7	3,2
9	Harbiy obyektlar	0,78	0,89
10	Temir yo'l stansiyasi	0,5	0,7
11	Karyer	0,8	1,02
12	Chiqindixona	0,2	0,4
Umumiy		62,76	99,13

Jadval muallif tomonidan ArcGIS NDVI tahlili asosida tuzilgan.

ChETZ hududidagi qattiq qoplamli va tuproq yo'llar 642,56 km dan 1349,49 km ga yetganligi aniqlandi (3-jadvalga qarang). Bu yo'llar asosan so'qmoq yo'llar, aholi manzilgohlari ichidagi ichki yo'llar va rekreasion obyektlarga olib boruvchi yo'llar hisoblanadi.

4-jadval

ChETZ hududida yo'llarning yillar davomida o'zgarishi (2000-2023-yy.).

№	Nomlanishi	2000-yil	2020-yil
1	Magistral yo'llar	54,2	58,23 km
2	Asosiy yo'l	97,74	102,2
3	Ikkinchi darajali yo'llar	83,02	87,36
